



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAVOIY INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI

**“ALISHER NAVOIY IJODIY MEROSINING BASHARIYAT MA’NAVIY-
MA’RIFIY TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI” MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN**

Navoiy, 2025-yil 14-fevral

**РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
НА ТЕМУ «РОЛЬ ТВОРЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ АЛИШЕРА НАВОИ В
ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОМ ПРОГРЕССЕ ЧЕЛОВЕЧЕСТВА»**

Навои, 14 февраля 2025 года

**“THE ROLE OF ALISHER NAVOI'S CREATIVE HERITAGE IN THE
SPIRITUAL AND EDUCATIONAL DEVELOPMENT OF HUMANITY” a**

Republican scientific-practical conference

Navoi, February 14, 2025 year

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANINING TASHKILIY QO‘MITASI

Jurabek Yorqulovich Mavlonov – Navoiy innovatsiyalar universiteti rektori

Rais:

Kamol
Namozovich
Kadirov

Filologiya va tillarni o‘qitish kafedrası mudiri, filologiya fanlari
nomzodi, professor

A‘zolar:

Alijon
Bahodirovich
Ergashev

Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi
prorektor

Shuhrat
Jumaqulovich
Xudoyorov

O‘quv ishlari va ilmiy-innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, fizika-
matematika fanlari nomzodi, dotsent

Nasiba Jumayevna
Yarashova

Filologiya va tillarni o‘qitish kafedrası professori, filologiya
fanlari doktori (DSc)

Nargiza
Sa‘dullayevna
G‘ulomova

Filologiya va tillarni o‘qitish kafedrası dotsenti, filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Faxriddin
Toshpo‘lotovich
Rajabov

Filologiya va tillarni o‘qitish kafedrası dotsenti, filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Nigora
Nuriddinovna
Sharipova

Filologiya va tillarni o‘qitish kafedrası dotsenti, filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Ra‘no
Maxmudovna
Payzullayeva

Filologiya va tillarni o‘qitish kafedrası o‘qituvchisi, filologiya
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Temur
Abdimurotovich
Hasanov

Xo‘jalik ishlari va hisob boshqarmasi boshlig‘i

Akmal
Azamatovich
Kurbanov

Raqamli axborot texnologiyalari (IT) markazi rahbari

Urakhov Umid

Matbuot va PR-xizmati bo‘limi boshlig‘i

TAHRIR HAY'ATI

M.N.Sanoyeva	Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
N.B.Kobulova	Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TAQRIZCHILAR

N.Murodova	Navoiy davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Z.Mamadaliyeva	Jizzax davlat pedagogika instituti universiteti dotsenti, f.f.n.
G.Zaripova	Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti
M.Xalilova	Navoiy innovatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi

SO‘Z BOSHI

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar jarayonida milliy-ma'naviy merosimizni dunyoga tanitish, buyuk ajdodlarimiz, xususan, Alisher Navoiy ijodiy tafakkuridan xalqimizni bahramand etish ishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2020-yil 19-oktyabrdagi "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-4865-sonli qarorida shunday ulug'vor ifoda keltirilgan: "Alisher Navoiy asarlarida teran ifoda topgan milliy va umuminsoniy g'oyalarning jahon tamaddunida tutgan o'rnini hamda o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyati"ni inobatga olgan holda "yangi Uyg'onish davri – Uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan bugungi kunda Alisher Navoiyning bezavol adabiy merosi misolida o'zbek adabiyoti va madaniyatini chuqur o'rganish va ommalashtirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda". Darvoqe, Alisher Navoiy boy ijodiy merosini targ'ib va tashviq qilish bugungi kunda dolzarb vazifa ekanligi, ulug' zot asarlaridagi ma'naviy-ma'rifiy hamda irfoniy masalalarning badiiy qimmatini, ilgari surilgan umumbashariy g'oyalarning tadqiqi jamiyatda ma'nan yetuk shaxsni kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilining shakllanishi, rivojlanishi va sayqal topishida, tom ma'noda, o'zbek adabiy tilining asoschisi sifatida Navoiyning salmoqli o'ri bor. Endilikda buyuk zot qoldirgan boy merosni, ulug'vor g'oyalarni o'rganish barobarida ularni hayotga tatbiq etish hayotimizning asosiy a'moliga aylandi.

Respublika ilmiy-amaliy anjumaniga taqdim etilgan qimmatli materiallarda ulug' shoir dahosi, beqiyos tafakkur olami jahon va o'zbek navoiyshunoslari nigohida ilmiy-falsafiy sifatlanib, Navoiy ijodiyotining tasavvufiy va ma'rifiy qatlamlari, Navoiy ijodi va tilshunoslik masalalari, zamonaviy ta'limda Navoiy ijodiyotining o'rganilishiga keng ahamiyat berilgan.

Bashariyatning aql-idroki tarixni yaratuvchanlik, kashfiyotlar bilan boyitadi, tamaddunning yangi bosqichlarida yo'l ochib beradi. Bu borada buyuk mutafakkir Mir Alisher Navoiyning xizmatlari beqiyos ekanligi, o'lmas falsafiy g'oyalari bilan kelgusi avlodlar, xalqlar, millatlar kamoloti uchun yana ko'p va xo'p xizmat qilishi anjuman materiallarida o'z ifodasini topganligini ko'rish mumkin.

Tashkiliy qo'mita

BUYUK INSONPARVAR VA YUKSAK IDEAL SOHIBI

Assalomu alaykum hurmatli anjuman ishtirokchilari, muhtaram mehmonlar!

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2024-yil 30-oktabr–1-noyabr kunlari Navoiy viloyatiga tashrifi doirasida 2025-yilni viloyatimizda “Alisher Navoiy yili” deb e’lon qilinishi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 490-son xatiga ko’ra Navoiy innovatsiyalar universitetimizda tashkillashtirilayotgan “Alisher Navoiy ijodiy merosining bashariyat ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotidagi o’rni” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumaniga xush kelibsiz deymiz!

Asrlar osha yangi ma’no qirralarining kashf etilishi bilan Sharq mumtoz adabiyoti, jumladan, ulug’ so’z san’atkori Alisher Navoiy ijodi mangulikka daxldorlik kasb etmoqda. Uning ko’lami kengligi va davrlar o’tishi bilan yangicha talqinlarga asos bo’la olishi bu ijodiy merosga qayta-qayta murojaat qilishni taqozo qilmoqda. 2025-yilning viloyatimizda “Alisher Navoiy yili” deb e’lon qilinishi butun viloyatimiz ahli tomonidan yuksak mamnuniyat va xursandchilik bilan kutib olindi. Shunga binoan, Alisher Navoiy ijodiy merosini bugungi kun talablari asosida o’rganish, asarlarini qayta nashr etish, xorijiy davlatlarda saqlanayotgan shoir qalamiga mansub va u yashagan davrga oid qo’lyozmalarning nusxalarini mamlakatimizga olib kelish kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Darhaqiqat, Alisher Navoiy asarlari – milliy ma’naviyatimiz, qolaversa, bashariyat tamaddunning eng mo’tabar durdonalari yanglig’ g’oyat aziz va qadrli. Navoiy butun hayoti va faoliyatini insonning baxt-saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, turli urushlarning oldini olishga, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, san’at va adabiyot taraqqiyotiga bag’ishladi, o’zbek adabiy tili va mumtoz adabiyotini yangi taraqqiyot pog’onasiga olib chiqdi.

Shoirning o’lmas asarlari betakror mazmun-mohiyat va yuksak badiiyatga ega bo’lib, umumbashariyat xazinasidan munosib o’rin olgan. Ularda tarbiyaning shaxs kamoloti, el ravnaqi, yurt istiqbolida tutgan o’rni yuksak baholangan. Hazrat Alisher Navoiyning ham ma’no, ham suratda barkamol, ulug’ ma’rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo’lish bilan birga badiiy jihatdan yuksak darajadagi asarlari barcha zamonlar uchun dolzarb sanalgan.

Alisher Navoiy o’zining o’lmas asarlarida yoshlarni ma’naviy – axloqiy tarbiyalash yo’l-yo’riqlarini ko’rsatib bergan. Navoiyning asarlari o’z davrining yirik ma’naviy sarchashmalaridan biridir. Uning asarlaridagi dono so’zlar, o’gitlar, maqolatlar, rivoyatlarning asosiy mazmuni mehnatsevarlik, odoblilik, go’zallikni sevishtirish, zehnlik, ilm olish, hayotga va kishilarga, Vatanga muhabbat kabi buyuk fazilatlarni ulug’lashdir. Shoir nazdida yaxshi fazilatlar mujassamlashgan inson – chinakam insondir.

Millatimiz ma'naviy yuksalishi, yosh avlod qalbida komillik urug'larini o'sib unishida Navoiyga ehtiyoj nechog'lik muhimligini davr ko'rsatmoqda. Navoiy shunday buyuk zot ekan, uning tafakkur durdonalari bo'lmish boqiy asarlari zamonlar osha yashab kelayotgan ekan, bu ulug' merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, ma'naviyatini yuksalikka ko'tarishdan, insoniy fazilatlarini kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz. Ilm-fan, ma'rifat, ijod va ta'lim-tarbiyada, hayotni anglash va yaratuvchanlikda Navoiy merosi bizning suyangan tog'imiz, inongan bog'imizdir. Unga qancha ko'proq suyanib, ruhan undan qancha chuqur zavq ola bilsak, dunyoni bilish, insonni tanish imkoniyati o'shancha kengayadi.

Navoiy insonning ichki dunyosi, tuyg'ulari, tafakkuri, odob-axloq kamolotini olamdagi ma'naviy borliqning quyosh yulduzi oyi, mevali daraxtlari, chiroyli gullariga taqqoslaydi. Inson xulqining go'zalligini faoliyatining ko'rinishlariga, tabiat saxovatlariga, hodisalariga va boshqalariga taqqoslab, inson tabiatidagi o'zgarishlarni agar u salbiy bo'lsa, tabiatning kulfat keltiruvchi kuchlariga, ijobiy bo'lsa, tabiat go'zalliklariga qiyoslaydi.

Muhtaram yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, "Bu mumtoz siymo jahon adabiyoti mezonlariga, zamon va tarix sinovlariga to'la javob beradigan durdona asarlar yaratib, nafaqat o'zbek, balki barcha turkiy adabiyotlar rivojiga beqiyos hissa qo'shgan ham yuksak hayrat va tahsinga munosibdir".

Bugun hazrat Navoiy orzu qilgan, asarlarida ilgari surilgan ezgu g'oyalar mamlakatimizda amalga oshmoqda. Bugun biz Yangi O'zbekistonning bunyodkorligi yo'lida Hazrat Navoiy ijodiy merosiga ma'naviy jihatdan ehtiyoj sezamiz. Hazrat Alisher Navoiyning sharqona tarbiyaga oid qarashlari nainki ulug' mutafakkir yashab ijod qilgan davr yoxud bugungi kunda, balki uzoq istiqbolda ham hayotbaxsh manba bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir.

E'tiboringiz uchun tashakkur!

***Jurabek Yorqulovich MAVLONOV,
Navoiy innovatsiyalar universiteti rektori,
siyosiy fanlar doktori, professor***

MOSLIK VA XOSLIK AKSI

*Bu gulshan ichraki yo'qtur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur, chiqsa yaxshiliq bila ot.
Alisher Navoiy*

Annotatsiya. Maqolada Hazrat Navoiy hayoti bilan bog'liq, asarlarida qo'llangan ulug' shaxs va joy nomlari haqida mulohazalar yuritilgan. Alisher Navoiy nomi bilan yuritiladigan viloyat va uning hududida yashab o'tgan ulug' siymolar nomlarining shoir asarlarida uchrashi va ularning badiiy talqinlari berilgan.

Kalit so'zlar: Navoiy, Shaxs, nom, tasavvuf, doston, tazkira, ijod.

Sharq mumtoz adabiyoti, jumladan ulug' so'z san'atkori Alisher Navoiy ijodi asrlar osha yangi ma'no qirralarining kashf etilishi bilan manguликka dahldorlik kasb etmoqda. Uning ko'lami kengligi va davrlar o'tishi bilan yangicha talqinlarga asos bo'la olishi bu ijodiy merosga qayta-qayta murojaat qilishni taqazo qilmoqda. Buning amaliy natijasini jadal islohotlar jarayonida milliy-ma'naviy merosimizni dunyoga tanitish, buyuk ajdodlarimiz, xususan, Alisher Navoiy ijodiy tafakkuridan xalqimizni bahramand etish ishlariga katta e'tibor qarayotganida ko'ramiz. Jumladan, mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan Navoiy viloyatida 2025-yilni "Alisher Navoiy yili" deb e'lon qilinishida ulug' shoirga bo'lgan xalqimiz mehrining ifodasi o'z aksini topgan.

Mazkur maqolamizda Hazrat Navoiy nomi bilan yuritiladigan shahrimiz va viloyatimizga daxldor jihatlar shoir hayoti va asarlari bilan bog'liqligi xususida to'xtalib o'tishni joiz topdik.

Samarqandlik atoqli adabiyotshunos, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Vohid Abdullayevning tadqiqotlarida va alloma Botirxon Valixo'jayevning "Yoshlik" jurnalining 1988-yil 2-sonidagi "Navoiy Samarqandda" maqolasida Alisher Navoiy 24-25 yoshlarida Samarqandga Xuroson hokimi Abu Said Mirzo tomonidan surgun qilingani "beixtiyor qilingan safar"lari davomidagi hayot va faoliyatlari atroflicha yoritib berilgan.

U zot avvalida Samarqandda bir muncha qiyinchiliklarni boshlaridan kechirgan bo'lsalarda, mashhur olim Fazlulloh Abullaysiy nazarlariga tushgach, samarqandlik yetuk allomalar, hatto shahar hokimi, shoirtabiat "surati xush va siyrati dilkash. Axloqi hamida va atvori pisandida yigit..." Ahmad Hojibek Vafoiy e'tibori va hurmatiga sazovor bo'lganlar.

Navoiy hazratlari Samarqandda Xoja Ahror Valiy, Abdurahmon Jomiy, Ali Qushchi, Aloi Shoshiy singari mutafakkirlar, shoir va allomalar suhbatiga va marhamatiga yetishgan. Tarixiy obidalarini hayrat bilan ziyorat qilgan, olgan taassurotlarini shoh asarlariga yuklagan. Xususan, Mirzo Ulug'bek haqida so'z yuritarkan, u qurgan rasadxonani dunyoning ziynatiga qiyoslagan:

*Rasadkim bog'lamish zeби jahondur,
Jahon ichra yana bir osmondur.*

Va shu tarqqa, Fazlulloh Abullaysiy xonadonining izzatu hurmatidan bahra olib, Mirzo Ulug'bek madrasasining mudarrisalari Mavlono A'loiy Shoshiy, mavlono Olim Samarqandiylardan ta'lim ham olganlar.

Samarqand Navoiyning xos ilhomiga sabab bo'lib, ijodiga barokot kiritgan. Chiroyiga shaydo bo'lib, Ko'hak (Cho'ponota), Konigil va "Ko'hak suyi" ning (Zarafshon daryosi) manzaralarini satrlarida tarannum etgan :

Hamul pushtaekim Ko'hak topti ism,

Ne pushta jahon ganji uzra tilism.

Ushoq tosh ango la'lu inju kibi,

Yashil sabzasi charxi minu kibi.

Ki mansub erur anga Ko'hak suyi,

Nedinkim erur joriy andin quyi.

Nazarimizda nazorat sababidan Alisher Navoiy surgun davrida Samarqanddan tashqari chiqmagan. Kelishlari ham Termiz – Samarqand yo'nalishida Kitobning Taxtaqoracha davonidan oshib, shaharga kirganliklaridan darak beradi.

Demoqchi bo'lganimiz, ba'zi bir rivoyatlarda Hazrat Karmanadan o'tib, Malik cho'l orqali Buxoroga safar qilganlar, deyilsada, bu haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Chunki, ilmiyati bilan sharaflangan Buxoro shahri va muzofotdagi boshqa manzillarga, jumladan, hozirgi Navoiy viloyati sarhadlarida bo'lganlari tarix etilmagan. Ammo, ushbu sarhadida yashab o'tgan aziz avliyolar, olimu ulamolar haqlarida yaxshi xabardor ekanliklari "Nasoyim ul-muhabbat" asarlarida jozibali aks etgan. Binobarin, muhtaram ustozlari Hazrat Abdurahmon Jomiyning "Nafahot ul-uns" asarini to'ldirishlar bilan o'zbek tiliga mukammal tarjima qilganlar.

Bu haqda alohida ta'kidlashimizga sabab shuki, "Nasoyim"da qadim buxoro va sarhadlarda, shu jumladan hozirgi Navoiy viloyatida yashab o'tgan bir qancha azizlarning muborak nomlari kitobda oliy ifodada – izzatu hurmat va shakar guftorlik bilan tilga olinadi va u zotlarga quyidagicha maqomlar beradilar :

1. "Tariqati hujjat " Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni (q.t.r.) ;
2. "Xoja Abdulxolliqqa xalif ermush " Xoja Orif Revhari (q.s.) ;
3. "Xoja Orif xulofosidan" Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy (q.s.);
4. "...alarning laqabi Hazrat Azizondur . Va alarg'a oliya maqomat va zohir karomat ko'p...) Xoja Ali Romitoni (q.s.);
5. "...Hazrat Xoja Bahouddin hazratlarig'a alardin qabul farzandliqg'a voqe'" bo'lg'on Xoja Muhammad Boboi Samosiy (r.t.) ;
6. "Hazrat Bahouddin'g'a suhbat nisbati va tariqt sulki, odobi ta'limi va zikr talqini alardandur" deb nisbatlangan Sayyid Amir Kulol (r.t) ;
7. "Alarg'a qabul nazari farzandliqqa Xoja Muhammad Boboi Samosiydan dur va odobi tariqat ta'limi zohir yuzidan Amir Sayyid Kuloldandur, andoq qi , o'tti. Ammo haqiqat yuzasidan alar Uvaysiydurlar va tarbiyat Hazrat Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni (q.s.) ruhidan topibdurlar" ta'rifli Xoja Baho uddin Naqshband (q.t.s.);
8. Va u zotning " kibori as'hobidin" Xoja Alouddin Attor (q.s.) hamda "kibor as'hoblaridan" Xoja Muhammad Porso (r.t) ;

9. “Ulumi shariat va rusumi tariqat poyasin buzurgvor otasig‘a yetkur”gan Xo ja Hofizuddin Abu Nasr Muhammad b.Muhammad b.Muhammad Hofiz Buxoriy (r.t.) ;

10. “Qaviy jazbalari “ bilan mashg‘ur Xoja Hasan Attor (r.t.);

11. “Xojai Buzrukvor as‘hobidin “ Mavlon Ya‘qub Charxiy (q.t.s.) haqlarida baland ta‘riflarda yuksak ehtirom bilan yozganlar.

“Lison ut tayr “ asarlarida ham shu tariqa bir ajib hikoyatlari bor. Ulardan birida o‘ta nozik imtihondan salomat o‘ta bilgan ota-bolaning namunasi ahli farosat uchun kamolat darsiga yetganligi mazmun topgan.

Xoja Abu Nasr Porso (tavalludlari milodiy 1461-yil, Buxoroda) shariat va tariqatda yetuk olimlardan bo‘lib, Hazrat Navoiyning ehtiromlariga sazovor bo‘lganlar. “Lison ut-tayr” hikoyatlaridan biri shu zot timsolida duo naqliga bag‘ishlangan. Odo bu axloqdagi yetuk namunalari timsol sifatida tarannum etilib, asos sifatida bir ibratli voqea bayon etiladi: “Abu Nasr otalari Hazrat Muhammad Porsoga yo‘ldosh va xizmatkor bo‘lib Haj ziyoratida birga bo‘ladilar. Ittifoqo, hojilar Makkai Mukarramada duolar qabul bo‘ladigan bir o‘rin va bir soatda Hazrat Xoja Porsodan duo so‘raydilar. Bu zot shu ayyom va o‘rinda bu ulug‘likka xos va munosib edilar. Ammo, yuksak halimlik bilan bu sharafni o‘g‘illari Hazrat Abu Nasr Porsoga bag‘ishlaydilar. Ota amri va hurmatidan ul zot duoga tutinadilar va so‘ngida zorlanib: “Parvardigoro, duo etguvchining duosini ijobat etmasang ham, “omin”da turguchining haqqi-hurmatidin duolarini ijobat aylagaysan! “– deb iltijo etadilar. Duo etuvchi – o‘zlari Abu Nasr esalar, “ominda turuvchi” otalari Xoja Porsoga nisbat ediki, olti yuz ming hoji ota va o‘g‘ilning bu xulqu odobiga tahsin ila ofarin aytadilar”.

Shayx Ilyos. Hazrat Alisher Navoiy “Nasayim ul muhabbat” asarida hozirgi Navoiy viloyati sarhadlarida asliy yoki ramziy qabrlari bo‘lgan ulug‘ siymolarning ham bayonlar bor. Ulardan birlari Shayx Ilyosga nisbatan yuksak tahsin va ta‘rif berilgan: “Movarounnahr mulkidan Nur tog‘ida yashagan solih va donishmand kishi edi. Tariqat silsilasi Sulton Boyazid Bistomiya bog‘la nadi. Tevarak atrofdan ilm va tariqat yo‘lini o‘rganish maqsadida toliblar xizmatiga kelishar edi. Muridlarining so‘zlaricha u zot insonlar bilan bir qatorda xilvatda jinlarga ham saboq bergan olim bo‘lganlar.

Ulug‘ligi shu daraja ediki, Xoja Nosruddin Ubaydulloh (q.r.) shayxning (shayx Ilyos) xirmonini sovurayotgan dehqonlar qo‘lidan chorshoxni (panshaxa) olib, shu xizmatni o‘zlari bajargan ekan”. (452-bet). Qabri Nur tog‘ida.

Hazrat Navoiyning muborak ehtiromiga molik ulug‘ valiy – Shayx Ilyos mozori nazarimizda Oqtog‘dagi Baxil cho‘qqisiga yondosh o‘rindagi Langar ota qabri bo‘lsa, ehtimol.

Faxruddin Ali Safiy (1463–1503)ning “Rashahotu aynil- hayot (Obi hayot tomchilar) asarining Mavloni Abu Sa‘id Ubahiy (r.t.) ga bag‘ishlangan lavhada ham Shayx Ilyos nomlari qayd etiladi: “...Oytur erdilarkim: “Maning Hazrati Eshong‘a vusuli payvastaligimning sababi ul erdikim, vaqti Samarqandg‘a bordim, Mirzo Ulug‘bekning madrasasida bir necha kunlar tahsili ulumg‘a ishtig‘ol ko‘rguzdim. Va xotiramni tamoman mutaolag‘a qo‘ydim. Nogoh behojat manga

mutaolaa va tahsildin kalol va malol dast berdi. Darvishlik do'iyasi va darvishlarning xizmatu suhbatlari xotiramg'a tushdi. Madrasa hujrasidan tashqari chiqib erdim, bir oshno to libi ilm yonimga keldi. Oydim: "Na yerda erding va na holing bor?"

Oydi : "Ko'hi Nurda erdim", Shayx Ilyos Ishqiyning yonida, holo olarning yonidan kelurman". Va ul chog'liq ta'rif etdikim , manga oning suhbatiga mayl tamom bo'ldi, ul martabadakim , shul yerdan Ko'hi Nurg'a yuz qo'ydim.(444-bet).

Kamoliddin Maydoniy (r.a.) Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida Abu Ya'qub Maydoniy (q.t.s.) haqlarida ham ma'lumot berilib, "nusay bin mashoyixlaridindur" deb e'tirof etiladi.

Ali Safiyning "Rashahot" asarida ham Mavlono Kamoliddin Maydoniy (r.a.) haqida to'xtalangan: "Amir Hamzaning xulofalaridin ikkilanchi xalifa tururlar. Dahayi Maydondan tururkim, Samarqand viloyatining Kufayin degan qasabasidan bir daha turur. (72-bet) deyiladi. (Hozirda bu joy Navoiy viloyati Xatirchi tumani tasarrufida).

Hazrati Muhammad Vose' –Muhammad ibn Vose' al-Azdiy haqlarida Molik ibn Dinor: "Amirlarning qorilari bor, boylarning qorilari bor, Muhammad ibn Vose' Rahmon taoloning qorilaridandir" degan ekanlar.

Darhaqiqat bu zot zamonasining kamolga yetgan ulug' pirlaridan bir bo'lib, Hazrat Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarlarida kamoli ehtirom bilan tilga olinadi: "O'z zamonasining benaziri erdi va tobindin ko'pga xizmat qilibdur va suhbatig'a yetibdur va ko'p mashoyix bila suhbat tutubdur, ul jumladin, shayx Hasan Basriy (q.r.) dur. (26-bet)

Demak, bu zot tabaa tobe'inlardan bo'lib, shayx Hasan Basriyga (642-728) zamondosh hisoblanadilar. Muhammad Boqirning "Bahouddin Balogardon" kitobida hazrati xoja tilidan Muhammad Vose' tabaa tobe'in ekanligi qayd etil gan. (28-bet)

Muridlaridan biri ul zotdan bir nasihat so'raydilar, shunda Muhammad Vose': "Senga shunday bir nasihat etayki, ham bu dunyoda podsho bo'lg'aysan, ham u dunyoda. Zohid (dunyo molidin nafs saqlangan kishi) bo'l va hech kimdan ta'mada bo'lma, toki odamlar sendan namuna olsin. Bu chinakkam podshohlikdir. Bu ulug'lik bilan o'tgan kishi u dunyoda ham podshodir", – deb o'git bergan ekanlar.

Bu zotga nisbat berilgan ziyoratgoh Qiziltepa shahrining janubida. Qabri bor. Karomatlari, odati hovariqlari haqida ko'plab og'zaki rivoyatlar aytila di.

Nazarimizda bu qabrlari ramziy bo'lsa kerak. Chunki Abu Tohirxojaning Samarqand haqidagi mashhur "Samariya" (1844-1848 yillarda yozilgan) kitobi ning o'ttiz beshinchi qaydida quyidagicha ma'lumot bor. Hazrat Xoja Muhammed ibn Vose' mozori shahar ichida Hazrati Shohdar vozasi deb ataladigan Ohanin darvozasiga boriladigan katta yo'lning sharq tomonida, shahar qo'rg'oni devorinnng ostidadir. Bu kishini Hazrati Shoh yor onlaridan deydilar. Ushbu mozor yonidagi masjid duo qabul qiladigan o'rin dir.

Hazrat Boyazid Bistomiy (801-875) - Eronning Bastom shahrida milodiy 801 yilda tavallud topgan. To'liq ismlari Abu Yazid Tayfur bin Iso Saru shop.

“Silsilai oliyyai Naqshibandiyya”dagi ta’rifu tasniflari: Boyazidi Bistomiy hazratlari Silsilai oliyaning beshinchisidir. Oriflar sultoni degan nom bilan mashhurdir. Ismi Tayfurdir. Uvaysiy edi. O’zidan qirq yil avval vafot etgan imomi Ja’fari Sodiq hazratlarining ruhoniyatidan foydalandi. Juda olim, fozil va adib kishi edi.

Hali onasining qornida ekanligidayoq karomatlari ko’rina boshladi. Onasi unga homilador vaqtida shubhali bir narsani og’ziga solsa, uni chiqarib tashlamaguncha qorniga urardi. Bolaligida bir kuni masjid hovlisida o’ynab yurardi. Shaqiqi Balxiy hazratlari “Bu bola katta bo’lsa, zamonining eng buyuk avliyosi bo’ladi” dedi. Hadis olimlaridan biri uni ko’rgach, juda yoqtirib qoldi. “Ey bola, namoz o’qishni bilasanmi?” dedi. Boyazid Bistomiy “Ha, Alloh tilasa bajara olaman” dedi. Olim “Qanday qilib?” deb so’radi. Boyazid “Buyur yo Rabbi! Amringni bajarish uchun takbir olaman, Qur’oni karimni dona-dona qilib o’qiyman, ta’zim bilan rukuga boraman, tavozu bilan sajda qilaman, vidolashib salom beraman” dedi. U olim zot hayron qolib “Ey zukko bola! Senda shuncha fazilat va teran bilim bor ekan, nimaga odamlarning boshingni silashiga izn beryapsan?”—dedi. Boyazid “Ular meni emas, Allo hu taoloning meni ziynatlantirgan bu go’zallikni silamoqdalar. Menga oid bo’lmagan bir narsaga to’siq bo’lishim to’g’rimi?”, – dedi.

Valiylik martabasiga volidai muhtaramalari onalari duosi bilan erishgan ekanlar .

Kichik yoshidan boshlab o’qishni boshlagan ekanlar. Bir kuni o’qigan bir oyatining (Luqmon, 14) ta’siri bilan uyga qaytibdi. Onasi tashvishlanib nima uchun erta qaytganligini so’raganida shunday javob beribdi: “O’rgangan bir oyati karimamda Allohu taolo o’ziga va sizga itoat etishimni amr etmoqda. Yo sizga xizmat qilay, yo bo’lmasa meni bo’sh qo’ying. Faqat Allohu taologa ibodat bilan mashg’ul bo’layin” dedi.

Onasi “Sen meni qo’ygin, Allohu taologa ibodat etgin” dedi. Bundan keyin o’zini Allohu taologa bag’ishladi, amrlarining birortasini ham qoldirmadi, lekin onasining xizmatini ham tashlab qo’ymadi. Onasining kichik orzusini buyuk amr deb qabul qilib, har qanday holatda bajarishga urindi. Chunki Allohu taoloning amri ham shunday edi.

Sovuq bir qish kechasi edi. Onasi uyg’onib, suv ichishni istadi. U darrov suv olish uchun o’rnidan turdi. Lekin chelakda suv yo’q edi. Buloq boshiga borib, chelakka suv to’ldirdi. Uyga kelganida onasining yana uxlab qolganini ko’rdi. Uyg’otishga ko’zi qiymadi. Chelakni qo’targanicha kutdi. Ancha vaqtdan keyin onasi uyg’onib suv so’radi. O’g’lini bu holda ko’rib “O’g’lim, nima uchun chelakni ko’tarib olibsan?” - dedi.

Boyazid “Uyg’onganingizda darrov suv berish uchun chelakni ko’tarib oldim” dedi. Onasi “Yo Rabbi, men o’g’limdan roziman. Sen ham rozi bo’l!” deb duo qildi. Balki, onasining mana shu duosi sababli Allohu taolo unga avliyoning yuksak martabalariga erishishni ehson qildi.

Bu valiy zot shunday odati hovariqlari, karomatlari bilan mashhur bo'lganlar. Manbalarda bir yuz o'n uch pirdan ilm o'rganganliklari e'tirof etiladi.

Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni "Maqomati Yusuf Hamadoni" risolasida mashhur zikrlari haqida so'z yuritib : "...zikr talqini dastlab hazrati Abu Bakr raziyallohu anhung qalbiga, undan Salmon forsiyga, undan Ja'fari Sodiqqa, undan Sulton Boyazid (Bistomi)ga, undan shayx Abul Hasan Xora qoniya, undan buyuk shayx Abu Ali Formadiy Tusiya va undan esa bizga qadar yetib kelgan", – (13-bet) deb ta'kidlashlari zahirida ulkan ma'no bor.

Boyazid Bistomi oriflar sultoni, muhaqqiqlar sardori deb atalishi ham ulkan ilm egasi ekanligidan dalolatdir. Asosiy ilmi Ja'far Sodik (r.a.)ning shogirdlaridan va muxlislaridan bo'lgan olim va mashoyixlardan oladi.

Silsila ta'limini Ja'far Sodik (r.a.) dan ma'naviy holda olganlar. Boyazid Bistomi 875 milodiy sanada Bistom shahrida vafot etgan. (Ayrim manbalarda bu shahar Bastom ham deb yuritiladi va shayx hazratlari Bastomi deb ham ataladi.)

Shayx Abu Said Abul Xayr: O'n sakkiz ming olamning barchasini Boyazid ko'rdim. Va Boyazid kabi er yo'qdir" deb yuqori ta'rif etadilar. Bu u zoti muborakning ilmi holu ilmi qolda yuksak ekanliklari ifodasidir. Boyazid Bistomi xususidagi ma'lumotlar ko'plab manbalarda uchraydi. "Nasoyim ul-muhabbat", "Rashohotu aynil hayot", "Maqomati Yusuf Hamadoni", "Tazkirotul avliyo", "Tabaqati sufiyya", "Tasavvuf haqida tasavvur" shular jumlasidandir. Xususan, "Tazkirot ul-avliyo"da hollari, kashfu karomatlari va hovariq odatlari bilan bog'liq qirqa yaqin naqlar bayon etilgan va u zotning chin ma'noda oriflar sultoni ekanligi ifodalangan. Ulardan biri: "Dedi: Hayot ilmda, rohat ma'rifatda, zavq zikrdadir. Shavq oshiqning dorul-mulkidir. O'shal dorul - mulk ichida bir taxt qurgandirlar. Hanuz omol unga yetmagandir. Dedi: Xalqning halokati ikki narsadadir: bittasi-xalqni hurmat qilmas lik; ikkinchisi haqqa minnat (shukr) qilmaslik".

Qator shaharlarda Boyazid Bistomi qadamjolari (ramziy ziyoratgoh) bor. Ulardan biri Qiziltepa tumanida bo'lib, Xo'ja Bo'ston deb ulug'lanadi.

Qilich ota. Konimex tumanining Sho'rko'lidagi Yangiobod qishlog'ida qabri bo'lgan Qilich ota haqlarida tayanch ma'lumotga ega emasmiz. "Nasoyim ul-muhabbat" sahifasining 621-tartibda Qilich ato (a.r.) haqlarida qisqagina quyidagi satr bor: "Azim qurbatlig' kishi ekandur va sayyoflik san'atiga mashg'ul ekanlar". (421-bet). "Sayf – qilich." "San'ati" deyilishicha "qilichga pardo beruvchi".

Og'zaki turlicha tafsilotlari bor. Yozma manbaa "Qandiya" kitobiga ko'ra "Allohning ahli (Ahlulloh) orasida uch aziz buzrukvor mashhurdir. Birinchisi, Sulton Burhoniddin ibni shayx Aloiddin Sog'archi. Ikkinchisi Sayyid Burhoniddin Qilich bo'lib u zot Imom Abdulloh avlodidandurlar va Dahbed xojalar ul zotning naslidandurlar. Uchinchisi – "Hidoya"ning sohibi Imom Burhoniddin Siddiq bo'lib, ul zotning qabrlari Chokardiza mozoridadur".

Ta'kidlanayotgan o'rindagi qabr hozirda mashhur ziyoratgoh. Balkim "Nasoyim"dagi zot shu azizdurlar.

Junayid Bag‘dodiy. Navbahor tumanida ham avliyolarga nisbatlangan ikkita qabr bo‘lib, Ijand qishlog‘idagisi Junayid Bag‘dodiyga va Qalqonota qishlog‘idagisi Hazrat Haraqoniy – Qalqon otaga nisbat beriladi. Sharqda “Toj ul-orifiyn”, “Sulton ul-muhaqqiqiyn”, “Ustod ul-tariqat” nomi bilan mashhur bo‘lgan junaydiya tariqati asoschisi Abul Qosim Junayd ibn Muhammad al-Qavoririy al-Xazzoz al-Bag‘dodiy 207/822 yilda Bag‘dodda tug‘ilgan. Go‘dakligida otadan yetim qolib, tog‘asi Sariy Saqatiy qo‘lida tarbiya topgan. Bag‘dod madrasalarida ta‘lim olgan.

Islom huquqi va hadis ilmini o‘z davrining mashhur faqihi Ibrohim Bag‘dodiydan o‘rgangan. Tasavvuf ilmidan tog‘asi Saqatiy va Horis Muhosibiy ustozlik qilgan. Junayd ruhiy poklanishga alohida e‘tibor qaratib, tasavvuf amaliyotini islomga moslashtirgan. Abu Nasr Sarroj, Abu Ali Daqqoq, Abulqosim Qushayriy Junaydning hammaslamlari bo‘lishgan.

Bag‘dod axdi Junaydni “sayyid ut-toifa” deb atagan. Shariat, tariqat, ma‘rifat va haqiqat ilmida benihoyat oliy daraja va maqom sohibi bo‘lgan. Sufyon Savriyning qarashlarini ma‘qullagan. Bag‘dod mashoyixining barchasi Junayd yo‘lini tutishgan.

Junayd 91 yil umr ko‘rib, 298/910 yilda Bag‘dodda vafot etgan. Ijanddagi qabr ramziy .

Abul Hasan Haraqoniy. Bu zot mahalliy tilda Qalqonota (milodiy 963-1034) deb ataladilar. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining “Tasavvuf haqida tasavvur” kitoblarida Abul Hasan Haraqoniy Eron ning Haraqon degan joyida 352 hijriy sanada (963 milodiy sana)da tug‘ilib, o‘sha yerda 423 hijriy sanada (milodiy 1034) vafot etganlari e‘tirof topgan.

Navbahor tumani Qalqon ota qishlog‘idan o‘tadigan anhor yonidagi qabr shu zotga nisbat beriladi. Ammo diyorimizda bo‘lishi tarixi bilan bog‘liq ma‘lumot va manbalar yo‘q.

Qayd etganimiz kabi Abul Hasan Haraqoniyning qadamjolari Qalqonda ekanligi xususida tarixiy ma‘lumotlarda qayd etilmagan esada, tarixchi Narshaxiyning “Buxoro tarixi” kitobidagi “hali Buxoro shahri vujudga kelmagan, lekin qishloqlardan ba‘zilari paydo bo‘lgan edi. Nur, Harqonrud, Vardona, Tarovcha, Safna va Isvonalar o‘sha qishloqlar jumlasidandir.” (91-bet.)

Shu kitob tarjimonlari tomonidan berilgan izohda: “Harqonrud Zarafshon daryosidan chiqarilgan. Shopurkom va G‘ijduvon tumanlarini sug‘oruvchi qadimiy anhorlardan biri. Qishloq anhor bo‘yicha joylashganligi va Karmana yaqinidagi Harqona (Qalqon ota) nazarda tutilgan bo‘lishi kerak” (166-bet), deyilgan. Qalqonotadagi qabrlari ramziy.

Xullas, anglaganingizdek bugunlik kunda ulkan sarhadimiz Mir Alisher Navoiy Hazratlarining aziz nomlari bilan atalishi bejiz emas. Zero, “Avliyolarning avliyosi, mutaffakkirlarning mutaffakkiri, shoirlarning sultoni” deya sharaflangan ulug‘ bobomiz hayot ekanliklaridayoq Zarafshon daryosi oqimi bo‘ylab asliy va ramziy qabrlari bo‘lgan azizlar tuprog‘ini yod etgan ekanlarki, bu joylar endilikda viloyat va shaharni ravshan aylagan nomlariga chin ma‘noda xoslik va moslik kasb etib turibdi.

Muhiddin Bahriddinovich KALONOV,
Navoiy davlat universiteti rektori,
iqtisod fanlari doktori, professor

BIRINCHI SHO‘BA: ALISHER NAVOIY SHAXSIYATI VA BADIYYATI

ALISHER NAVOIY IJODIDA INSON TALQINI

Muslihiddin Qutbiddinovich MUHIDDINOV,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

Inson hamma zamonlarda ham adabiyotning bosh mavzusi bo‘lib kelgan. “Adabiyot insonshunoslik fani” ekan, demak, butun adabiyot tarixini inson haqidagi fikriy-g‘oyaviy qarash, insonni tasvirlash, inson mohiyatini kashf eta borish tarixi deb atasa bo‘ladi. Chunki har bir yozuvchi, har bir shoir jamiyat hodisalari, o‘zini qiziqtirgan, to‘lqinlantirgan g‘oyalarni qalamga olar ekan, albatta, inson siyrati va surati, axloqi, faoliyati, niyat-orzulariga qadalib o‘tadi. Insonning o‘zi nima, u qayerdan kelib chiqqan, hayotda o‘zini qanday tutishi kerak, insoniyat jamiyati, odamlar fikrining bir-biriga munosabati nimalar asosida qurilishi lozim? Bu savollar faqat faylasuflar, siyosatdonlarnigina emas, adiblarni ham band etgan. Ko‘p asrlik Sharq adabiyotida inson problemi doimiy ravishda bahs-munozaraga sabab bo‘lib, turli qarashlarni vujudga keltirgan. Sharqning gumanist shoirlari diniy xurofot va feodal zulm-istibdodning kuchaygan davrlarida ham insonni ulug‘lash, uning ajib fazilatlarini vasf etish, nomaqbul, tuban holatlarini tanqid qilishni kanda etmaganlar.

Buni buyuk shoirlar Alisher Navoiy ijodida, xususan, uning so‘fiyona-falsafiy dostoni “Hayrat ul-abror”da ko‘rsa bo‘ladi.

Navoiy dostoni garchi Nizomiy ta’sirida yuzaga kelgan bo‘lsa-da, ammo unda shoir yashagan zamonning talablari, muallifning shaxsiy qarashlari, o‘y-fikri aks etganini unutmasligimiz lozim. U shunchaki, inson haqida fikr yuritish, uning falsafiy mohiyatini anglash uchun intilgan emas. Buyuk shoirni, avvalo, yaxshi inson fazilatlarini nimadan iborat, qanday qilib yaxshi odam bo‘lishi kerak, degan masalalar qiziqtirgan va o‘z kuzatishlarining natijasini ifodalagan.

Endi asosiy mavzuyimiz – inson talqini masalasiga kelganda aytish kerakki, Alisher Navoiyning odamning yaratilishi, xilqati va axloqiy-ijtimoiy vazifalari haqidagi qarashlari islom aqidalari asosida shakllangan. To‘g‘ri, inson haqidagi fikr-tushunchalar dunyodagi barcha xalqlarning og‘zaki va yozma adabiyotlarida mavjud. Shuningdek, bashariyat mutafakkirlari qadim-qadimdan odam haqida o‘yga tolib, uni o‘rganib, muhim xulosalarni bayon etganlar. Qadimgi Misr, Bobil, yahudiy, fors, yunon donishmandlari, faylasuflari inson xilqatini o‘rganib chiqib, o‘z davrlari uchun ham, keyingi avlodlar uchun ham ibrat bo‘ladigan gaplarni bayon etgani ma’lum. Umuman, insonga bo‘lgan qarashning o‘z tarixi bor, chunki har bir davr mafkurasi inson talqinida o‘zgacha yo‘l tutgan. Inson odobi, vazifalari

ham zamonlar o'tishi bilan o'zgarib turgan. Shunga o'xshash islom dinining ham inson haqidagi o'z qarashlari bor. Bu qarashlar musulmonlarning muqaddas, ilohiy kitobi bo'lmish Qur'oni karimda va hadisi sharifda ifodalangan. Shuni maxsus ta'kidlamocchimizki, O'rta asrlar Sharq adabiyotiga Qur'onning ta'siri, shubhasiz, bor haqiqat[1,1-5]. Musulmon Sharqi adabiyotini shuning uchun islom dinidan xoli holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Faqat sof islomiy yoki so'fiyona adabiyotgina emas, umuman adabiy-badiiy hayot, estetik qarashlar, tushuncha-tasavvurlar, asotir va timsollar islom g'oyalari ta'sirida shakllangan edi. Hatto islomgacha bo'lgan yodgorliklar, asotirlar ham islomiy ruhda qayta ishlab chiqilgan edi.

Shu bois fors-tojik va o'zbek adabiyotida inson talqini ustida fikr yuritar ekanmiz, dastavval Qur'onda insonga berilgan baho va inson ta'rifi haqidagi tushunchalar ustida to'xtashni lozim topdik.

“Alaq” surasidan: “(Ey Muhammad, barcha mavjudotni) yaratgan zot bo'lmish Parvardigoringiz nomi bilan (boshlab) o'qing. U insonni laxta qondan yaratgan (zotdir). O'qing. Sizning Parvardigoringiz (insoniyatga) qalamni (ya'ni yozish - xatni) o'rgatgan o'ta karamli zotdir. U zot insonga uning bilmagan narsalarini o'rgatdi”[1,2-3]. “Inson” surasidan: “Darhaqiqat, Biz insonni imtihon qilguvchi bo'lgan holimizda aralash bo'lgan bir nutfadan yaratdik. Bas, uni (Bizning oyatlarimizni tinglashi va olamdagi Bizning borligimizga dalolat qilib turgan alomatlarni ko'rishi uchun) eshitguvchi, ko'rguvchi qilib qo'ydik. Darhaqiqat, biz uni (insonni) xoh u shukr qiluvchi musulmon bo'lsin va xoh ko'rnamak-kofir bo'lsin (to'g'ri) yo'lga hidoyat qildik”[1, 36-38].

“Qiyomat” surasidan: “Inson o'zini (Bu dunyoda din-u iymonga buyurilmasdan, oxiratda esa qayta tirilib, hisob-kitob qilinmasdan) bekor tashlab qo'yilishini o'ylarmidi? Axir u (bachadonga) to'kiladigan maniyan bir (hqir) nutfa emasmidi? So'ngra laxta qon bo'ldi. Bas, (Oloh uni) yaratib, raso (inson) qildi”[1,72].

“Al-azhob” surasidan: “Albatta, Biz bu omonatni (ya'ni shariati islomdagi toat-ibodatlarni) osmonlarga, yerga va tog'-u toshlarga kundalang qilgan edik, ular uni ko'tarishdan bosh tortdilar va undan qo'rqdilar. Inson esa uni o'z zimmasiga oldi[1,4].

“Vat-tiyn” surasidan: “Darhaqiqat, Biz insonni eng go'zal shakl-u shamoyilda yaratdik”[1,17-18].

“Al-isro” surasidan: “Darhaqiqat, Biz odam avlodini mukarram qilib yaratdik va quruqlik va dengizlarning ustida egalik qiladigan qildik va pokiza rizq va fazl-u kamol ato etdik” [1,17-18].

Bu oyatlar shunga ishora etadikim, Parvardigor insonni yo'qdan bor qildi, Hazrati Odam Safiyullohni loydan yaratib, unga jon-ruh ato etdi va farishtalarni unga sajda qildirdi, faqat iblis sajda qilishdan bosh tortdi. Odam avlodi shuning uchun ham ulug' va mukarramdir. Uning xilqatida rahmoniy ruh va moddiylik, ya'ni chor unsur – o't, suv, tuproq va havo birga mujassam bo'lgandir. Parvardigor Odam Atodan keyingi avlodni nutfadan va laxta qondan, ya'ni erkak va ayol urug'idan hosil qiladi, bir parcha go'shtini odamning shakliga keltirib, aql-u hush, nutq va farosat, bilim, tajriba, qalb-u his bag'ishladi.

Inson shuning uchun hamisha Parvardigorga shukr aytib, uning ko'rsatgan to'g'ri yo'lidan borib, shariat amallarini bajarishi, toat-ibodat bilan imonini mustahkamlashi, yakka-yu yagona tangrisining qudratiga, mavjudligiga, abadiy va azaliy ekanligiga ishonishi, o'z bandalik burchini ado etishi lozim. Bu mo'min-musulmon kishining sifatlaridir. Islom nazarida inson kamoloti ana shu komil inson ham shariat ahkomiga rioya etuvchi, Qur'oni karim va sunnat yo'lidan yuradigan batavfiq, taqvodor, halol, insofli odamdir.

Ammo tasavvuf ahli nazarida komil inson shariat bilan birga tariqat va haqiqatni ham egallagan bo'lishi kerak, ya'ni so'fiylar riyoziyot yo'lida jon chekib, tariqat maqomotlarini bosib o'tmagan, dunyo mol-u mulki, o'z nafs talablari va hatto vujud o'zligidan qutilmagan, ilohiy ishq dardi bilan yonib, ilohiy asror olamiga yetishmagan odamni komil deyish mumkin emas, deydi. N. Komilov "Timsollar timsoli" maqolasida va tasavvufga oid qadimiy manbalarga suyanib qayd qiladiki, tasavvuf ahli nazdida komil inson "zohiriy va botiniy ilmlarni to'liq egallagan, ko'ngil oynasi musaffo bo'lgan, g'ayb asroridan xabar beruvchi kishidir" [2,101]. Chunonchi, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida tasvirlangan Suqrot hakim komil inson timsoli bo'la oladi. Chunki bu odam o'tmish va kelajakdan ogoh, Farhodning sarguzasht taqdirini oldindan hikoya qilib beradi, uning istiqomatgohi bo'lgan g'or nurafshon bir maskandir. Komil insonda Xizr, Isoning, Jabroilning, Makoil va Azroilning xususiyat va sifatleri, qudrati jamlangan deyishadi. Bu bir ideal. Inson kamolotining oliy namunasi. Buni shundan ham bilsa bo'ladiki, Komil inson tushunchasi bilan ideal inson (orzudagi inson) tushunchasi orasidagi yaqinlik bor. Ideal inson xususiyatlari og'zaki ijod namunalari, qahramonlik eposlarida gavdalangan. Romantik usulda yozilgan badiiy asarlarda ham ideal inson (qo'rqmas, qahramon, g'ayritabiiy qudrati bor) tasvirlanadi. Eron adabiyotshunosi Husayn Razmju "Fors tilidagi epik va irfoniy (tasavvufiy) adabiyotlarda ideal va komil inson" nomli kitobida qiziqarli qiyoslar bilan bu ikki tushuncha orasidagi yaqinlikni isbotlab bergan [3].

Xuddi shu bois shoirlar ijodida bu mavzu keng o'rin oldi. Komil inson xususiyatlari bilan anbiyo va avliyolarning xususiyatlari orasida o'xshashlik bor. Ammo tasavvuf ahli bir ovozdan komillikning oliy namunasi – komil inson timsoli deb hazrati Muhammad rasulullohni tilga oladilar. Agar hazrati Rasululloh oliy darajadagi komillik namunasi bo'lsa, valiylar undan keyin turuvchilardir. Valiylarning ham bir necha zinalardan iborat martabalari bor, qutbdan abrorgacha darajalari ma'lum. Shunday qilib, shayxi murshidlar, karomatli pirlar, orif va solihlar, darvesh-so'fiylar ham kamolot yo'lidagi martabalarni egallagan kishilardir.

Inson – benuqson emas, ayniqsa, dunyo va shaytoniy nafs uning ruhiga kishan, uni yo'ldan ozdirib turadi. Shu bois kamolot yo'li bu nafsni mahv etib, foniy qilib, ma'rifat egallashdir. Ilohiy ma'rifat kishida qancha ko'p bo'lsa, u shuncha orif va komildir. Chunki Alloh taolo inson qalbini o'z ma'rifatining xazinasiga aylantirgan:

*Ofarinishdin qilib inson g'araz,
Oni aylab xalq ichinda beivaz.*

*Ko 'nglin oning maxzani irfon qilib,
Ul tilism ichra o 'zni pinhon qilib,
Rozni maxfiy ganj o 'lub bu turfa jism,
Sunidin ul ganj hifziga tilism,
Ham tilism ul maxzan uzra, ham omin,
Ofarin sun 'ingga ey jon, ofarin[4,19].*

Demak, Navoiy fikricha, Tangri taolo dunyoni inson tufayli bino etgan, chunki dunyoni yaratishdan maqsad Insonni yaratish edi. Chunki inson Allohning yerdagi xalifasi, inson qalbida ilohiy irfon xazinasi tilism qilingan. Inson shu xazinaga posbon. Agar kishi ana shu tilsimotni ocholsa, o'zligini anglasa, u buyuklik sari qadam qo'yadi. Shunday qilib, komillik - o'zligini va o'z rabbini anglashdan iborat. Bu g'oya Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida ham ifodalangan. Chunonchi, "Avvalgi munojot" bobini o'qiymiz:

*Ganjing aro naqd farovon edi,
Lek boridin g'araz inson edi.
Turfa kalomingg'a dag'i komil ul,
Sirri nihoningg'a dag'i homil ul,
Ko 'nglinga qilding chu yaqin ganji qism,
Jismini ul ganjga qilding tilism[4,19].*

Bu satrlar "Lison ut-tayr"dan olingan yuqoridagi baytlarga mazmunan yaqin ekani ko'rinib turibdi. Ammo "Hayrat ul-abror"da bu talqin ancha batafsil tushuntirib bayon qilingan. Navoiyning yozishicha, faqat inson Allohning ilm-u hikmatiga oshno qilingan ("Qilding ani orifu ul ma'rifat"), faqat odamga ma'rifat ganji ishonib topshirilgan. Navoiy yuqorida keltirganimiz Qur'on oyatlariga ishora etib, inson zotining ulug'ligini bunday ta'rif etadi:

*"Karramno" – keldi manoqib anga,
"Ahsani taqvim" – munosib anga[4,19].*

Biroq inson Alloh ilm-u ma'rifatining xazinasi – bojigina emas, shu bilan birga ilohiy qudrat, ilohiy husn-u jamol aks etgan kuzgu hamdir. Zero, Alisher Navoiy dunyoning o'zi Alloh jamolining ko'zgusidir deydi. Tangri taolo yakka-yu yagona, azaliy va abadiy borliq, javhari kondir. Avvalo, hali olamlar bo'lmaganda ham u bor edi:

*Ey sanga mabda'da abaddek azal,
Zoti qadiming abadiy lam'yazal.
Ne bo'lub avvalda bidoyat sanga.
Ne kelib oxirda nihoyat sanga.
Avval o'zing, oxir-u mobayn o'zung.
Barchag'a xoliq, borig'a ayn o'zung[4,19].*

"Boriga ayn o'zung" - barcha mavjudotning ayni manbayi uning o'zi. Hali xoliqiyatdan hech narsa yo'q edi, na yer-u na ko'k, na yulduz, na quyosh, na nur-u na zulmat bor edi. Ammo Parvardigor bor edi. "Mumkinot" – imkoniyat olami, moddiy dunyo, bihisht va do'zax, gunoh va savob ham yo'q edi.

*Birlik edi-yu adadi yo'q edi,
Birdin o'zga ahade yo'q edi[4,19].*

Ilm-u hikmat ham tafsil shaklini olmagan edi. Biroq Parvardigor o‘z qudrati va husnini tomosha qilmoqchi bo‘ldi, “beadad ko‘zgu” kerak bo‘ldi va olamlarni yaratdi:

*Qildi mazohirda xayoli zuhur.
Topqali ul husn kamoli zuhur.
Jilvayi husnungg‘a chu yo‘q erdi had,
Ko‘zgu kerak bo‘ldi anga beadad[4,19].*

Dunyo – Alloh qudrati kamolini aks ettiruvchi ko‘zgu ekan, u dunyoning katta-kichik har bir ashyosi, hodisalarida namoyondir. Hamma narsa – ilohiy “mazhar”, bog‘lar, cho‘l va gulshan, oy-u quyoshning chiroyi shundan.

Ushbu qarash tasavvufda vahdat ul-vujud falsafasi nomi bilan mashhur. Bu falsafaga ko‘ra, olam iloh ko‘zgusi ekan, harakat-u faoliyat ko‘zgudagi nur tajallisi tufaylidir, tajallining oxirgi nuqtasi esa – odam ruhi. Odam ruhi shu uchun asli, ya’ni Parvardigor huzuriga qarab intiladi va tariqatdagi maqomot orqali sodir bo‘ladi yoki ishq bilan qo‘lga kiradi. Shunday qilib, ishq – komil inson sifatlaridan biridir. Inson ishq orqali kamol topadi, ma’rifatga molik bo‘ladi. Navoiy insonning kamoloti uchun aql, bilim, malaka, tajribani ham inkor etmagan. Aql va bilim insonga kerak, ammo ilohiy g‘ayb asrori ishq bilan qo‘lga kiradi. Bu tasavvuf ta’limotining irfoniy dunyoqarashidan kelib chiqqan xulosa.

Vahdat ul-vujud mohiyatini anglash haqiqatni, ya’ni ilohiy vahdat va ma’rifatni idrok etish, ilm ul-yaqin, ayn ul-yaqin, haqq ul-yaqin nima ekanini anglashga ko‘maklashadi. Biz bu o‘rinda mazkur tasavvufiy istilohlar uchun to‘xtalmoqchi emasmiz. Bu istilohlar Y.E.Bertels asarlarida, shuningdek, o‘zbek olimi N.Komilov maqolalarida yaxshi tushuntirilgan. Biz bu istilohlarni eslash uchun shuni ta’kidlamochimizki, komil inson tariqat, haqiqat va shariatni egallagan zot bo‘lar ekan, haqiqat nimaligini bilishimiz darkor. Haqiqat – so‘fiylar nazarida Tangri taolo zoti, biz uning zotini sifatlari, ya’ni dunyodagi mazhar orqali bilib olamiz. Shu sababli “Haq” deganda ham Parvardigor va abadiy o‘zgarmas borliq, javhar anglashiladi. Navoiy haqiqat va Haqni ana shunday tushungan. Shu bois dostonidagi Tangri zot-u sifati ta’rifiga bag‘ishlangan munojot va hamdlarni o‘rganishning ahamiyati katta. Bu boblar asoslarning asosidir, inson haqidagi qarashlar poydevori ham shu. Alisher Navoiy dostonida shariat va islomiyat masalalari ikki bob – ikki “maqolat”da bayon etiladi.

“Hayrat ul-abror”ning birinchi va ikkinchi “maqolat”lari shu mavzudadir. Birinchi maqolat iymon kalimasining sharhidan iborat. Iymon kalimasi “Omantu billahi na malaikatihi va kutubihi va rasulihi val yavmil axiri val qadari xoyrihi va sharrihi, minallohi ta’olo val ba’si ba’dal mavt”dirki, (Allohning yakka-yagonaligiga, uning farishtalariga va kitoblariga, payg‘ambarlariga va oxirat – qiyomat kunning muqarrarligiga, yaxshilik va yomonlik taqdirdan ekanligiga, so‘ngra o‘limdan keyin qayta tirilishga iymon keltiraman), Navoiy buni “maqolat”ning nasriy sarlavhasida to‘liq keltiradi, so‘ngra mana bu baytlar bilan bobni boshlaydi:

Kimki jahon ahlida inson erur,

Balki nishoni anga iymon erur[4,50].

Demak, insoniylikning birinchi nishonasi iymonli bo'lish. Alloh vahdatiga, uning qudrati bilan yuborilgan narsalarga va Payg'ambarlariga so'zsiz ishonmoqdir. Iymon – insonni hayvondan ajratuvchi asosiy sifat, chunki Navoiy fikricha, garchi nutq, so'z insonni hayvondan ajratuvchi belgisi bo'lsa-da, agar kishida iymon bo'lmasa, u inson emas, balki gapiruvchi hayvondir:

*Ulki hadu rasm quyar mantiqiy,
Toki bu hayvoni bila notiqiy.
Ikkisi insonga bo'lub haddi tom,
Zumrayi inson aro aylar xirom,
Nav'ini notiq bila hayvon qilur,
Notiqu hayvonini inson qilur,
Sen dog'i inson muni qilsang gumon,
Balki u hamon sen-senu hayvon hamon[4,50].*

Agar har bir tili bor, ikki oyoqlini inson deydigan bo'lsak, “yaxshi-yomon ichra tafovut” qoladimi?

*Bo'lmadi bas noqis-u komilda farq,
Topmag'ay el olim-u johilda farq...
Bas ani inson atag'il beriyo,
Kim ishidur sabr ila shukr-u hayo[4,50].*

Toat-ibodat, sabr, shukr, hayo, rizolik – insoniylik belgilari bo'lib, mo'minlikning asosiy talablari hisoblangan. Navoiy “bu uch”, ya'ni sabr, shukr va hayoni “nabiyi hoshimiy” – Rasululloh iymonning zarurati deb buyurgandir, deydi. Ko'rinadiki, ulug' shoir salafar ketidan borib, inson zotini bezaydigan e'tiqod, iymon talablarini axloqiy sifatlariga qo'shib sharhlagan. Darhaqiqat, Payg'ambarimiz hadislarida sabr, hayo, shukr iymondan ekani ta'kidlanadi. Chunonchi, “Al hayou minal iymon” – “hayo iymondandur” degan hadisi sharif mashhurdir.

*Bas oni inson demak o'lg'ay ravo,
Kim ishi imon bila topqay navo[4,50].*

Xulq-u raftori, ishi – a'moli iymonga muvofiq bo'lgan e'tiqodli odamgina inson degan sharaflil nomga arziydi. Navoiy iymonga ana shunday katta ahamiyat bergan. Shundan keyin ulug' shoir iymonning oliy talabi – Alloh vahdati, yuborgan kitoblari, rasullari, yaratgan farishtalari, qiyomat kuniga va yangi-yangi ishlarni taqdiri azaldan ekaniga ishonish ustida to'xtaydi. Ammo xarakterlisi shuki, shoir bu ruknlarni oddiy omiyona mazmunda emas, balki, so'fiylar nuqtayi nazaridan tushuntiradi. Ilohga oshiqlik, ilohga yaqinlashishning asosiy sharti ana shu iymon mustahkamligidadir, deydi u, iymon mustahkamligi – asl maqsadga yo'l boshlovchi:

*Maqsadi asliyg'a xirom aylagay,
Qurb harimini maqom aylagay[4,50].*

Iymon kalimasida keltirilgan olti narsa barhaqdir. Haq taolo – asoslarning asosi, “ayni vujud”, azaliy va abadiy, yakka-yu yagona, hamisha uyg'oq, ko'zdan nihon, ammo hamma yerda ayon. Butun olamning egasi u, barcha qudrat undan.

Navoiy bu o'rinda "munojot"larda bayon etgan falsafiy-irfoniy fikrlarini takrorlagan.

Shu tarzda boshqa mavjudliklar, Alloh qudratiga guvoh bo'lgan narsalar ustida to'xtab, keyin Qur'on haqida gapiradi. Shoir Qur'onni – mo'jiza, ilohiy kitob, "ummul kutub" (kitoblar onasi) deb ta'riflaydi. Uning barcha oyatlari "barhaq" deb yozadi:

*Haq so'zi, har juzvi varaq to varaq,
Borcha haqoyiq, balkim borcha Haq.
Misl anga ma'dumu mushobih adim,
Qoyili andoqki qadim, ul qadim[4,51].*

Qur'on barhaq kitob ekan, hazrati Rasululloh ham Payg'ambari barhaq "ko'ngli haq irsoliga rosix" odam.

Alisher Navoiy birinchi "maqolatda" iymon va inson masalasi ustida fikr yuritgandan keyin, ikkinchi "maqolat"da islom ruknlari – namoz, ro'za, haj, zakot haqida so'z boshlaydi. Bu o'rinda Navoiy o'z salaflari Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy fikrlarini davom etiradi. Albatta, shariat haqidagi bu ko'rsatmalarning barchasi Qur'on va hadislardan olingan. Qur'onda Alloh namozxon bandasiga inoyatlar etishi, ro'zani kanda qilmagan, molidan zakot to'lab turgan, haj safarini bajo keltirgan kishi jannatda mukofotlar olishi ko'p marta ta'kidlanadi. Ammo Navoiyda va uning ustozlari asarida jannat haqida gapirilmaydi. Beshta ruknni ado etish – bandalik sadoqati belgisi. Mana shu g'oya shoirlarni ko'proq qiziqtirgan.

Navoiy satrlari bu bobda ham so'fiyona mayllar izhori bilan qo'shilgandir. "Shahodat" kalimasi haqida yozganda ham, namoz fayzi haqida gapirganda ham buni esdan chiqarmagan. Masalan, namoz tahorati haqida bunday yozadi:

*Ul demakim, mayl qilib suvg'a sen,
Bir necha uzv ul suv bila yuvgasen,
Buyla tahoratni bilur har xasis,
O'zga tahorat dog'i bordir nafis.
Buki safo chashmasidin zavqnok,
Aylagasen lavhayi xotirni pok[4,51].*

Faqat tanani emas, jonni – ruhni ham poklash kerak, ya'ni jon-u dil bilan iloh yo'liga kirishmoq lozim, deydi Navoiy:

*Uzluk uyin uzga harom aylabon,
Tengri evi sori xirom aylabon.*

Bu, albatta, so'fiylar tahoratidir. Yoki ro'zaning ahamiyatini ta'riflab kelib deydi, chin musulmon harom joyga borishdan, harom narsani yeyishdan, yomon so'zni eshitish va gapirishdan parhez qilishi kerak. "Bormaga-yu, ko'rmaga-yu, tutmagay, aytmagay, eshitmaga-yu, yutmagay". Buning ma'nosi quyidagicha: tariqat ahli yomon joyga bormasligi, yomon narsani, nomahramni ko'rmasligi, haromni qo'lga olmasligi, yomon so'zni aytmasligi, yomon so'zni eshitmasligi va harom taomni yemasligi lozim. Shayx Aziziddin Nasafiy yozgan edilar: "Komil insonning a'moli ezgu, raftori ezgu bo'ladi". Darhaqiqat, inson kamoloti saqlanishi

parhez orqali bo'ladigan narsa. Bu masala ustida hali to'xtaymiz. Lekin bu yerda Navoiy bu masalalarni islom shartlari bilan bog'lab izohlayotganini ta'kidlamochimiz.

Shoir uch xil ro'zani ajratgan: biri me'da ro'zasi – ovqat yemasdan, suv ichmasdan kunni o'tkazadi, ikkinchisi, hislar va a'zolar ro'zasi – a'zolari saqlash, uchinchisi – ko'ngil ro'zasi, bu oliy darajaga ko'tarilgan odamlar ro'zasidir:

*Lekin uchunchisi budurkim, ko'ngul,
Chunki erur maubiti anvori kull,
Poku ravonbaxsh havosi aning,
Jilvagahi fayz fazosi aning
Maxzani asrori ilohiy ham ul,
Oyinayi chehrayi shohiy ham ul,
Daf' qilib zangi xayolotni,
Asramoq ul nav bu mirotni,
Kim anga juz do'st zuhur etmagay.
Balki aning g'ayri xutur etmagay[4,55].*

Ana shunaqa ro'zani tutganlar darvesh so'fiylardir. Ko'ngil ilohiyot ilmi va nurlari maxzani ekan (bu haqida yuqorida to'xtadik), uni g'ayrdan – dunyo g'uborlaridan pok saqlash kerak. Bunday ro'za tutganlar bir oy emas, umr bo'yi parhezda bo'lib, riyoziyot chekadilar, xor-u zorliklarga, malomatlarga chidaydilar, sidqidildan beg'araz toat bilan shug'ullanadilar. Navoiy bobning so'ngida buni fanoga olib boruvichi yo'l deydi.

Ko'rinadiki, shoirning inson haqidagi qarashlari to'liq holda islomiy haqiqatlar va tasavvufiy tushunchalarga asoslangan bo'lib, muayyan tizimni tashkil etadi. Bu qarashlar tizimini qisqacha mana bunday tasnif etish mumkin: Inson – maxluqot xulosasi, gulto'ji.

– Inson Allohning yerdagi xalifasi, uning qalbi Alloh ilm-u irfonining xazinas.

– Insonda ikki asos, to'rt unsur dan iborat moddiylik va ruhdan iborat ilohiylik mujassamdir.

– Inson o'zini anglab kamolga erishishi kerak. Buning uchun u, avvalo, komil musulmon bo'lmog'i, shariat talablariga rioya qilmog'i lozim. Navoiy nazarida komil inson shariat va tariqatni birga qo'sha olgan yetuk ma'rifatli kishidir[4,56].

ADABIYOTLAR:

1. Qur'oni karim. Tarjima va izohlar. (Alouddin Mansur tarjimasi), Toshkent: Cho'lpon, 1992.
2. Alisher Navoiy. G'azallar, sharhlar. "Kamalak" Toshkent. 1991, 101-b.
3. Doktor Husayn Razmju. Insoni armoniy va komil dars adabiyoti va hamosiyy irfonii forsi. Tehron, 1348 hijr.
4. Alisher Navoiy. "Xamsa", tanqidiy matn. Nashrga tayyorlovchi. P. Shamsiyev. Toshkent:FAN, 1960.

ALISHER NAVOIY IJODIDA TURKIY RUHIYAT IFODASI

*Nurboy Abdulhakimovich JABBOROV,
filologiya fanlari doktori, professor*

Abstract. The article examines the great poet Alisher Navoi's intense work to raise the honor of the Turkish nation and ensure the high prestige of the Turkish language as a literary language. His poetic letter written in 1465 to Sayyid Hasan Ardasher, whom he saw as a father, was analyzed from the point of view of the expression of the Turkish spirit. The letter was studied in terms of poetic meter, artistic image tools, and the harmony of poetic content as well as it was determined that the great poet entered the field of struggle to ensure the high status of the Turkish language. "Muhokamat ul-lughatayn" was researched in terms of non-Persian features of the Turkish language, besides scientific and theoretical conclusions were drawn.

Key words: Turkish language, nation, Turkish mentality, poetic letter, poetic meter, language characteristics, analysis.

Jahon estetik tafakkurining buyuk namoyandasi hazrat Alisher Navoiy hayoti va ijodining asosiy konsepsiyasi, birinchidan, dunyoning eng boy tillaridan hisoblangan turkiy tilning qadri nechog'liq yuksak ekanini nazariy va amaliy jihatdan isbotlash, ikkinchidan, turkiy millatning sha'ni va sharafini munosib darajada himoya qilish bo'lgani ayon. Alisher Navoiy badiiy ijod maydoniga kirgan XV asr ikkinchi yarmida turkiy til nafis adabiyot tili bo'la olmasligi, bu tilda "Xamsa" singari gigant asarlarni yozish imkoni yo'qligi haqida baralla so'zlana boshlagan edi. Tabiiyki, bunday vaziyatga chinakam millatparvar ijodkor befarq qaray olmaydi. Hazrat Alisher Navoiy bunday nomaqbul holatga dastlab Sayyid Hasan Ardasheriga masnaviy yo'lida yozgan she'riy maktubida qat'iy munosabat bildirdi.

She'riy maktubning alohida diqqat qaratish zarur bo'lgan muhim jihatlari, birinchidan, ushbu masnaviy 1465-yili navqiron Alisher yigirma to'rt yoshga kirgan kezlari yozilgan. Ikkinchidan, bu maktubda buyuk mutafakkir hayoti va ijodining asosiy konsepsiyasi – turkiy tilning adabiy til sifatidagi imkoniyati nechog'liq yuksak ekanini isbotlash va millatning sha'nu sharafini, oru nomusini himoya qilish ruhiyati quvvatli ifodalangan. Jumladan, masnaviyda buyuk shoir mana bunday yozadi:

Men ul menki, to turk bedodidur,

Bu til birla to nazm bunyodidur.

Falak ko'rmadi men kibi nodire,

Nizomiy kibi nazm aro qodire.

[Havouï. Fapoïuïb yc-cuæap, 2011: 697]

"Bedod" so'zi lug'atda "jabr, zulm, adolatsizlik" ma'nolarini anglatadi. Demak, yuqoridagi baytda hazrat Navoiy o'zi haqda yozib, turkiy millatining jabr ko'rgan, zulmga uchragan, adolatsizlik iztiroblarini tortgan bir farzandi ekaniga

urg‘u bermoqda. “Men ul menki” degan ta’kid zamirida jabr ko‘rish darajasi boshqalardan ham ko‘ra unda yuz chandon og‘irroq bo‘lganini anglatadi. Chunki oddiy avom millatparvar bilan mutafakkir millatparvar qalbidagi dardning miqyosi, tabiiyki, bir xil bo‘lmaydi. Masnaviyning davomida buyuk shoir turkiy tilda qachondan beri nazm ijod qilinayotgan bo‘lsa, falak Nizomiy darajasida nazmga qodir bo‘lgan mendek nodir siymoni ko‘rmagan, deya faxriya bitgan. Holbuki, ushbu she’riy maktub yozilgan davrda hazrat Navoiyni Navoiy qilgan “Xamsa” hali yaratilmagan, “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga tartib berilmagan, “Lison ut-tayr”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mahbub ul-qulub” va hokazo eng mashhur asarlari dunyo yuzini ko‘rmagan edi. Hali endigina “Ilk devon” ko‘chirilib, muxlislar qo‘liga yetib borgan edi. Yuqoridagi faxriya shundan darak beradiki, o‘sha kezlariyoq hazrat Navoiy o‘z qalamining kuchini, turkiy so‘zning qudratini chuqur his qilgan va keng miqyosda e’tirof qozongan.

Uchinchidan, hazrat Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida hayot va ijod mohiyatini mana bu tarzda ta’sirli ifodalaydi: “Бўлурдин даҳр бўстонида мавжуд, Эмасдур ғайри сўзу дард мақсуд” [Навоий. Фарҳод ва Ширин, 2011: 341]. Bu o‘rinda “so‘z” – kuydirish, o‘rtash ma’nolarida. Demak, ulug‘ bobokalonimiz ta’biricha, insonning dahr bo‘stoniga kelishidan, tirikligidan murod – so‘zu dard. Qalbda ishq otashi, yurakda dard bo‘lmasa, yashamoqning mazmuni yo‘qoladi. Agar badiiy asar ana shu dardu so‘zdan mahrum qolsa, zarracha ham qimmatga ega bo‘lolmaydi. Mana bu baytda ana shu ijodiy-ruhiy holat bor murakkabligi bilan aks etgan:

Ne nazme der ersam meni dardnok -

Ki, har harfi bo‘lg‘ay aning durri pok.

[Навоий. Ғароийуб ул-қушар, 2011: 697]

Buyuk shoir nazmda nimaiki yozsa, mohiyatan dard bilan yo‘g‘rilganini, uning har bir harfi pok bir dur ekanini alohida ta’kidlayapti. O‘sha kezlari hazrat Navoiyni qiynagan eng og‘ir dard tilining kamsitilayotgani, millat estetik tafakkuri takomilining asosi bo‘lgan milliy adabiyotning buyuk mutafakkir ideali darajasida yuksaklikka ko‘tarila olmayotgani edi. Buning uchun muayyan sharoit yetilmog‘i, nazm beshasining sheri maydonga kelmog‘i taqozo etilardi.

Yetar Tengridin oncha quvvat manga -

Ki, bo‘lmas bitiriga fursat manga.

[Навоий. Ғароийуб ул-қушар, 2011: 697]

Buyuk shoir o‘ziga ana shunday quvvat ato etilganini teran his etgan. Bu quvvatni Tangridan yetgan deb hisoblashi uning e’tiqodi tuz, komil musulmon bo‘lganidan dalolat beradi. Bu quvvatning miqyosi shu darajadaki, ilohiy zavq bilan quyilib kelgan so‘z javohirlarini bitib ulgura olmaydi, hatto bunga fursat ham topish mahol.

To‘rtinchidan, hazrat Navoiy she’riy maktub uchun aruzning mutaqorib bahrini – mutaqoribi musammani mahzuf vaznini tanlagan. Taqtiyi quyidagicha:

fauvlun fauwlun fauwlun faal

V – – / V – – / V – – / V –

Ma'lumki, Sharq she'riyatining nodir namunalari hisoblangan Abulqosim Firdavsiyning mashhur "Shohnoma"si, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"i, jangnoma ruhidagi asarlar ana shu vaznda bitilgan. Buyuk mutafakkir ota va pir maqomida ko'rgan Sayyid Hasan Ardasheriga atalgan nazmiy maktubni nima uchun aruzning boshqa sokin, lirik talqinga mos bahrida emas, jangnoma ruhidagi asarlarga monand mutaqoribda yozdi, degan savol, tabiiyki, ko'pchilikni o'ylantiradi. Buning birinchi sababi, "...mutaqorib bahrining turkiy xalqlar she'riy tizimi – barmoqning eng faol shakllaridan bo'lgan o'n bir bo'g'inli vazniga juda uyg'un ekani" [Yusupova 2022: 8] bo'lsa, ikkinchi sababi o'sha davrda hukm surgan turkiy tilga noto'g'ri munosabat bilan bog'liq. Ulug' millatparvar keyinchalik "Muhokamat ul-lug'atayn"da bitilgan mana bu fikrlarida buni quyidagicha ta'sirli ifodalagan: "Bu ehtimolga xud yo'l bersa bo'lmaskim, turk ulusining xushtab'lari majmui sort tili bila nazm aytqaylar va bilkull turk tili bila aytmag'aylar, balki ko'pi ayta olmag'aylar va aytsalar ham sort turk tili bila nazm aytqandek fasih turklar qoshida o'quv va o'tkara olmag'aylar va o'qusalar, har lafzlarig'a yuz ayb topilg'ay va har tarkiblarig'a yuz e'tiroz vorid bo'lg'ay" [Навоий. Мухокамат ул-луғатайн, 2011: 525]. Buyuk shoirni yigirma to'rt yoshidayoq ana shu savol qiynagan, ko'zlaridan uyquni, qalbidan halovatni olgan: "Bu ehtimolga xud yo'l bersa bo'lmaskim, turk ulusining xushtab'lari majmui sort tili bila nazm aytqaylar va bilkull turk tili bila aytmag'aylar". Holbuki, mazkur she'riy maktub yozilgan davrda ayni shunday vaziyat hukmron edi. "Turk ulusining xushtab'lari" aksar o'z ona tillarida emas, forsiy tilda asarlar yozar, turkiy tilda fasohat va balog'at bilan so'z aytishni mumkin bo'lmagan hol sifatida qarar edi. Ijodiy quvvati benihoya baland, qalbida millatparvarlik tuyg'usi kuchli bo'lgan hazrat Navoiyni ana shu hol chuqur iztirobga solgan. Shuning uchun ham u nazmiy maktubda forsiy she'riyatning buyuk namoyandasi, "Shohnoma" asari bilan ma'lum va mashhur bo'lgan Abulqosim Firdavsiy nomini tilga olib, ijod musobaqasida uni mag'lub eta olishini zamondoshlari ongi va qalbiga chaqmoqdek ta'sir qiladigan so'zlar bilan betakror talqin etadi:

*Bu maydonda Firdavsiy ul gurd erur -
 Ki, gar kelsa Rustam javobin berur.
 Raqam qildi farxunda «Shahnoma»e -
 Ki, sindi javobida har xomae.
 Musallamdurur zohiran bu ishi -
 Ki, ma'razg'a kelmaydurur har kishi.
 [Навоий. Ғароийи ӯс-суғар 2011: 697-698]*

Buyuk bobokalonimiz talqinicha, she'riyat maydonida Firdavsiy gurd, ya'ni zabardast pahlavon. Shu darajadagi, hatto Rustami doston kelsa ham, yelkasini yerga tekkiza oladi. Mashhur "Shohnoma"ni yozganda, kimki unga javoban shunday asar bitmoq istagan bo'lsa, barchasining qalami sindi, ya'ni javob yozishga quvvati yetmadi. Zohiran, bu ish ungagina munosibday, boshqa hech kim ijodda bu darajaga erisha olmaydiganday ko'rinadi.

*Dedi o'z tili birla ul koni ganj:
 "Ki, si sol burdam ba «Shahnoma» ranj".*

[Havouï. Fapoïu6 yc-cu3ap 2011: 698]

Bu o'rinda hazrat Navoiy ijodiy munozaraning, bahs madaniyatining yuksak namunasini ko'rsatadi. Firdavsiyning ham hurmatini joyiga qo'yib, uni so'z xazinasining koni, deya ta'riflaydi. U o'z tili bilan "Shohnoma"ni yozish uchun o'ttiz yil ranj chekkanini, mashaqqat tortganini aytgan, deya buning dalili sifatida buyuk shoir so'zlaridan iqtibos keltiradi.

*Ani derga bo'lsa qachon rag'batim,
Erur oncha Haq lutfidin quvvatim -
Ki, har necha nutq o'lsa kohilsaroy,
Bitigaymen o'ttuz yilin o'tuz oy.
Agar xossa ma'no gar iychom erur,
Aning kunda yuz bayti halvom erur.*

[Havouï. Fapoïu6 yc-cu3ap 2011: 698]

Ya'ni hazrat Alisher Navoiy mabodo Firdavsiy "Shohnoma"sig a javob yozish istagi tug'lsa, Haq taoloning lutfi tufayli ijodiy quvvatim shu darajadaki, nutq nechog'liq sustlik ko'rsatmasin, uning o'ttiz yilda yozganini o'ttiz oyda bita olaman, deya alohida ta'kidlaydi. Agar xossa ma'no yoki iychom san'ati asosida yozish talab etilsa ham, uning (ya'ni Firdavsiyning) yuz baytini bitish men uchun xuddi halvo yeyish kabi oson, deb ijodiy salohiyati qanchalik baland ekanini bildiradi. O'ttiz oy – ikki yarim yil, demakdir. Bunday fikrni aytish va yuksak saviyada uddalash uchun ijodkor nechog'liq benazir iste'dodga, naqadar hadsiz taxayyul olamiga va qanchalar ulkan ijodiy tafakkurga ega bo'lishi kerakligini tasavvur eting.

Yigirma to'rt yoshida turkiy tilning eng boy til ekanini isbotlash, millatning sharaflini munosib himoya qilish singari ulug' maqsadni o'z oldiga qo'ygan va buning uchun kurash maydoniga tushganini e'lon qilgan hazrat Navoiy bu boradagi faoliyatini izchil takomillashtirib bordi. "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida buyuk mutafakkir turk shoirlarining forsiy tilda ijod qilishga rag'bat ko'rsatishlarining sababini, birinchidan, ular turkiy tilning fasohati va balog'atidan xabardor emasliklari, ikkinchidan, nazmiy an'analar birqadar rivojlangani bois forsiyda ijod qilish nisbatan osonroq ekani bilan izohlaydi.

Hazrat Navoiy turkiy millatning yagona adabiy tili bo'lishi, bu tildagi adabiyot yuksak darajada taraqqiy etishi uchun xizmat qilishni hayotiy a'moli deb bildi. Butun ijodiy quvvatini ana shu maqsad yo'liga safarbar etdi. Eng muhimi, bunga erisha oldi. "Lison ut-tayr" dostonida ulug' shoir bu haqda mana bunday yozadi:

*Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.*

[Havouï. Лисон ут-майр, 2011: 281].

Haqiqatan, buyuk mutafakkir turkiy millatni bir til va bir adabiyot bayrog'i atrofida yakqalam qildi – birlashtirdi. Zamondoshi va do'sti, temuriyzoda hukmdor Sulton Husayn Boyqaro ta'biri bilan aytganda: "Turkiy tilning o'lgan jasadig'a Masih anfosi bila ruh kiyurdi". Qariyb yuz ming baytli benazir adabiy-ilmii

merosi bilan turkiy tilning dunyo tillari orasida mumtoz o‘rin egallashini amalda ham isbotladi.

Bugungi kunda turkiy xalqlarning o‘rta bir tilini yaratish zarurati haqida so‘zlanayotgan. Bizningcha, agar shunday tilga ehtiyoj sezilsa, bu, shubhasiz, Alisher Navoiy tili bo‘lishi kerak. Chunki buyuk Navoiy o‘sha murakkab va ziddiyatli zamonda turkiy tilning xalqaro miqyosdagi e’tirofini ta’min etdi. Teran falsafiy-irfoniy mazmun va betakror badiiy shakl sintezining mumtoz namunalari bo‘lgan asarlari bilan turkiy adabiyotni jahon estetik tafakkurining cho‘qqisiga olib chiqdi. Bu asarlar bugungi kunda ham barhayot turkiy ruhiyat ifodasi orqali bashariyatni xalqimizga xos keng fe’likka, o‘zaro dushmanlikni bartaraf etishga, tinchlik-ofiyat va taraqqiyot yo‘lida birlashishga, kamol kasb etishga da’vat etib kelayotir.

ADABIYOTLAR:

- 1.Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. /Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011.
- 2.Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. /Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Тўққизинчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011.
- 3.Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. /Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Ўнинчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011.
- 4.Алишер Навоий. Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер. /Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Ўнинчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011.
- 5.Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972.
- 6.Сирожиддинов, Шухрат. Амир Алишер. Ҳаёти ва фаолияти. – Тошкент: Адабиёт, 2023.
- 7.Yusupova, Dilnavoz. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. Darslik. -Toshkent.: Tamaddun, 2022.
- 8.Қосимов, Бегали. Навоий асарларида миллат ва миллийлик масалаларининг қўйилиши. /Уйғонган миллат маърифати. – Тошкент: Маънавият, 2011.
- 9.Ҳусайн Бойқаро. Рисола (Нашрга тайёрловчилар: Алибек Рустам, Каримбек Ҳасан). – Тошкент: Шарқ, 1991.

NAVOIY IJODINING UMUMBASHARIY AHAMIYATI

***Aftondil Sadirxonovich ERKINOV,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori,
filologiya fanlari doktori***

“Buyuk shoir va mutafakkir, xalqparvar davlat arbobi Mir Alisher Navoiyning bebaho merosi el-yurtimiz ma’naviy hayoti va dunyo adabiyoti rivojida alohida muhim o‘rin tutadi. Ul zotning muborak siymosi umrini Vatan va xalq saodati uchun baxsh etishni hayot maslagi deb biladigan fidoyi shaxslarni tarbiyalashda barcha davrlar uchun yuksak ideal namunasi bo‘lib xizmat qiladi. So‘nggi

yillarda ulug' ajdodimizning hayoti va ijodini o'rganish va jahon miqyosida keng targ'ib qilish bo'yicha ko'plab loyihalar amalga oshirildi, jumladan, xalqaro ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etildi, shoir asarlarini xorijiy tillarga tarjima qilish va nashr etish ishlari davom ettirilmoqda".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy ijodiy merosini yurtimiz va jahon miqyosida keng targ'ib qilish hamda Navoiy viloyatida "Alisher Navoiy yili"ni yuqori darajada o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida" qaroridan.

2025-yil Navoiy viloyatida Navoiy yili deb e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-43-son "Buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy ijodiy merosini yurtimiz va jahon miqyosida keng targ'ib qilish hamda Navoiy viloyatida "Alisher Navoiy yili"ni yuqori darajada o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida" (07.02.2025) qarorga ko'ra "Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda 2025-yil 8-9-fevral kunlari buyuk bobomiz tavalludining 584 yilligi munosabati bilan mahalliy va xorijiy olimlar, ijodkor ziyolilar, keng jamoatchilik ishtirokida **"Alisher Navoiy va Sharq Renessansi"** an'anaviy xalqaro simpoziumi va navoiyxonlik tadbirlarini yuqori saviyada o'tkazish choralari ko'rsin" deyilgan. 8-9-fevral kunlari Navoiy shahrida mazkur konferensiya yuqori saviyada o'tkazildi. Navoiy viloyati, Navoiy shahri tom ma'noda Navoiy shaxsiyati va ijodi targ'iboti uchun ma'naviy markazga aylandi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda o'tmish meros va qadriyatlarimizga katta e'tibor berilmoqda. Alisher Navoiy o'z davrining atoqli shoiri, faylasufi, davlat arbobi va olimi bo'lagini holda uning badiiy asarlari, falsafa, va tilshunoslik sohalarida amalga oshirgan ishlari jahon adabiyoti tarixida o'chmas iz qoldirdi. Uning ijodi nafaqat Sharq, balki jahon adabiyotining rivojlanishiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatdi. Bunda Temuriylar davridagi san'at va adabiyotning taraqqiy etganligi ham katta o'ringa ega bo'ldi.

Navoiy ijodining, ayniqsa, uning she'riyatining eng muhim xususiyatlaridan biri uning Sharq she'riyati an'analarini chuqur insonparvarlik g'oyalari bilan uyg'unlashtirganligida namoyon bo'ladi. Navoiy o'zbek va fors-tojik tillarida she'rlar yozgan. Navoiy ijodida gumanistik g'oyalar inson va uning ichki dunyosidagi hissiyot va falsafiy g'oyalar tahlili katta o'ringa ega bo'lgan. Uning asarlari nafaqat Markaziy Osiyoda, balki boshqa regionlar, jumladan, Hindiston va Usmonlilar imperiyasida ham o'z munosib o'rnini topgan.

Navoiy ijodida Sharq adabiyotining boy badiiy an'analarini aks ettiruvchi besh dostonidan iborat "Xamsa" asari o'rin olgan. Bu beshlik tarkibidagi

dostonlarda yuksak badiiy qimmat bilan birga hayot, muhabbat, insoniylik, axloqiy qadriyatlarga doir falsafiy mulohazalar o‘rin olgan.

Navoiyning falsafiy va she‘riy merosi turli madaniy olamlar o‘rtasidagi muhim bo‘g‘in bo‘ldi. Chunonchi, uning sevgi va odamlar o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi qarashlari o‘zidan keyingi davr shoirlariga ta’sir ko‘rsatgan. Turli madaniy va ilm-fan yutuqlari uchrashib, chambarchas bog‘langan Uyg‘onish davrida Sharq madaniy hayotida Alisher Navoiy ijodi ham asosiy o‘rin tutdi. Bugungi kunda uning ijodi nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun dunyoda o‘rganilib, qadrlanib, jahon madaniy-adabiy jarayoniga qo‘shgan hissasi muhimligini ta’kidlamogda.

Alisher Navoiyning qo‘yidagi baytlari mashhur:

*Olibmen taxti farmonimg‘a oson,
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson.
Xuroson demakim, Sherozu Tabriz
Ki, qilmishdur nayi kilkim shakarrez*

Biz ularni Navoiy asarlari uning hayotligi davridayoq mashhur bo‘lanligiga ishora eutvchi misol sifatida bilamiz. Ayni baytlarni Alisher Navoiy uning o‘z asarlariga ega qo‘lyozmalarning davrlar kelib butun dunyo bo‘ylab tarqalishiga nisbatan ham qo‘llash mumkin. Alisher Navoiyning turkiy xalqlar ma’naviy xazinasiga qo‘shgan hissasi beqiyos. U – mutafakkir. U yaratgan shoh asarlari insoniyat ruhiy-ma’naviy dunyosi namoyandalari Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Dante, Vilyam Shekspir, Lev Tolstoy kabi singari namoyandalari bilan bir safda turishga arziydi. O‘rni-o‘rni bilan Navoiy asarlaridagi yuksak gumanistik g‘oyalar ifodasi “klassik” deya e’tirof etilgan ko‘plab G‘arb adiblarinikidan qolishmasligiga guvoh bo‘lamiz. Shu ma’noda mustaqil mamlakatimiz yoshlarini barkamol inson qilib tarbiyalashda hazrat Navoiy asarlari muhim ahamiyat kasb etadi. Alisher Navoiy barchamizni ma’naviy poklashga va yuksaltirishga qodir bezavol ma’naviy qudratdir.

O‘zbekiston mustaqilligigacha bo‘lgan davrda Alisher Navoiy ijodiga nisbatan tor ma’noda yoki siyosiyashtirilib yondashilganligi bugun sir emas. Shoir asarlarining noto‘g‘ri talqinlari, uni dinga salbiy munosabatdagi shaxs sifatida tasvirlashga urinish, tadqiqotlarda Navoiyning ijodiy faoliyatidan ko‘ra ijtimoiy va siyosiy ishlariga urg‘uning qaratilganligi xalqimizning buyuk ma’naviy merosdan uzoq vaqt bebahra qolishiga sabab bo‘ldi. Mustaqillik sharofati bilan alloma ijodkorning asarlari keng miqyosda o‘rganila boshlandi, hazrat Navoiy haqida biz bilmagan ko‘plab haqiqatlar ro‘yobga chiqdi, shoir asarlaridagi dunyoviy va ilohiy g‘oyalar va badiiy mahoratga oid masalalar har tomonlama tadqiq qilishga kirishildi. Yuqorida ta’kidlanganidek, mutafakkir shoirning ijodini o‘rganish va his qilishga barchamiz ehtiyojmandmiz, demak, bu xayrli ishlarni kelajakda yana katta hafsala bilan davom ettirishimiz kerak.

Masalan, Alisher Navoiy ijodi butun dunyoga mashhurligi va uning asarlari kirgan qo‘lyozmalar O‘zbekistondan tashqari xorijiy mamlakatlardagi

qo‘lyozmalari ham saqlanishi bizga yaxshi ma’lum. Ular butun dunyo qo‘lyozma hazinalari bo‘ylab tarqalgan. Ular Ashxobod, Berlin, Boku, Vena, Dublin, Dushanbe, Yerevan, Istanbul, Kobul, Kembrij, London, Myunxen, Nyu-York, Oksford, Parij, Sankt-Peterburg, Tehron, Upsala, Qozon, Qohira, Haydarobod kabi shaharlardagi Sharq qo‘lyozmalari fondlaridan o‘rin olgan. Bu – faxrlanishga arzirlik holat. Ammo ulkan adibimiz bor deymizu uning Sharqu G‘arb kutubxonalaridagi o‘sha qo‘lyozmalari tarkibi haqida ko‘p narsa bilmaymiz. Demak, qilinadigan ishlar ko‘p. Ularni amalga oshirish va dunyoga Alisher Navoiyni tanitishni davom ettirish lozim.

ALISHER NAVOIY IJODI – MUMTOZ ADABIYOT KAMOLOTIDIR

Usmon O‘rolovich QOBILOV,

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori*

Darhaqiqat, joriy yilning fevral oyi xalqimiz, millatimiz va butun jahon ommasi madaniyati, tafakkuri taraqqiyotida ulkan o‘rin tutgan alloma ijodkorlar dunyoga kelgan. Bizda har yili shu vaqtda Alisher Navoiy va demakki, jahon adabiyotida ijodi alohida hodisa, mumtoz badiiy so‘z san‘ati kamoloti bo‘lgan siymo faoliyati xotiralanadi, uning o‘lmas asarlari tahlil etiladi, navoiyshunoslik sarhisob qilinadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, o‘zbek adabiyotshunosligi, badiiy-estetik olami Alisher Navoiy ijodi bilan hamnafasligi, har qadamda shoirga murojaat etib kelayotganligi va murojaat etishi lozimligi seziladi. Bugina emas, balki Alisher Navoiy ijodiyoti, boy adabiy merosi milliy adabiyotshunoslik singari xorij adabiyot ilmini ham doimiy e’tibor markazida bo‘lib keladi. Gap shundaki, badiiy tafakkur olami jahon miqyosida sarhisob etilganda, antik adabiyot, romantik adabiyot, realistik adabiyot, modernistik adabiyot va boshqa tiplarda ta’rif tasnif etiladi. Mening nazarimda, shu tip va ruhdagi adabiyotlar, asarlar orasida “mumtoz adabiyot” dunyo badiiy ijod olamidagi eng yuksak hodisa, betakror va takrorlashning ham imkoni yo‘q insoniy tuyg‘u-kechinmalar mo‘jizasidir. Shu o‘rinda aytish kerak, “mumtoz adabiyot” - Sharq-islom ta’limoti, boshqacha aytilganda, diniy qarash va tuyg‘ular kamoloti mahsuli o‘laroq vujudga keladi, shakllanadi, taraqqiy etadi. Bunda mumtoz adabiyot mazmun-mundariyasi, shakl-janrlari, an‘ana-uslublari, badiiy ifodalari bilan ham og‘zaki adabiyot, qadimgi adabiy durdonalarni, jahon-G‘arb an‘analarini takror etmadi, aksincha, o‘zi har qanday ijod-san‘at olamiga namuna bo‘ladigan haqiqiy badiiy-estetik hodisaga aylandi. Dunyo antik yoki o‘rta asarlar adabiyoti taraqqiyoti ming yillar davom etgan bo‘lsa, mumtoz adabiyot ham o‘z uslubida, an‘analarida mana shunday uzoq asrlarni boshidan kechirdi, mumtoz siymolarni maydonga keltirdi, durdona asarlar

yaratildi. Shu ma'noda ta'kidlash kerakki, Alisher Navoiy sharqona-islomiy tamaddun samarasi bo'lgan mumtoz adabiyot olamining barkamol siymosiga aylandi. Bizga ma'lumki, mumtoz adabiyot o'ziga xos yuksak kamolotiga etgan adabiy shakl va janrlar, o'lchov va san'atlar, ifoda va tasvir vositalar bilan ajralib turadi. Shu bilan birga bu kabi janriy shakllar alohida ijodkorlar timsolida yuksak bosqichlarga ko'tarildi. Masalan, dostonchilikda Firdavsiy, g'azaliyotda Hofiz, Sa'diy, ruboiyyotda Xayyom va boshqalar. Gap shundaki, hazrat Alisher Navoiy mumtoz adabiyotning mavjud barcha janriy shakllarida samarali ijod etdi va ayni damda ana shu sohalarni barchasida shuxrat qozondi. Misol uchun dostonchilik va xamsanavislikda Alisher Navoiy "Xamsa"si, lirik janrlar ifodasida Alisher Navoiy lirik devonlari, tazkirachilikda shoir tazkiralari yoki tarixnavislikda ijodkor tarixiy asarlari bunga yaqqol isbotdir. Shunday shakliy-janriy ko'lam bilan birgalikda Alisher Navoiy ijodida mazmun-mohiyat jihatlardan ham uni mumtoz adabiyot kamoloti sifatida e'tirof etish ayni haqiqat hisoblanadi. Shu o'rinda bizning keyingi yillarda olib borayotgan tadqiqotlarimiz buni yaqqol isbot etib bermoqda. Buni biz Alisher Navoiy she'riyati mazmun va obrazlar tadqiqi misolida bir qator ishlarimizda o'rganib, shunday xulosaga keldik. Misol tariqasida aytib o'taylik, mumtoz adabiyot-she'riyat badiiyatida ilohiy siymolar, adabiy qahramonlar, tarixiy-afsonaviy shaxslar badiiy talqini an'anasi mavjud bo'lib, bu jarayon talqinida hech bir ijodkor Alisher Navoiy dahosini takrorlay olmaydi, shoir darajasiga "ko'p va xo'p" satrlar bitmagandir. Bu holat boshqa adabiy jarayonlar taqqoslanganda ham ko'zga yaqqol tashlanadi. Shu kabi izlanishlardan kelib chiqib Alisher Navoiy ijodi Sharq mumtoz adabiyot olami kamoloti deb baholash mumkin. Buni Alisher Navoiy qalamiga mansub birgina g'azal ham isbotlaydi.

Yuqorida aytilganidek, Alisher Navoiy ijodi dunyo adabiyotida o'ziga xos bir hodisa sifatida bo'y ko'rsatdi. Uning ijodisiz jahon, xususan, o'zbek adabiy tafakkurining bugungi qiyofasini tasavvur etish qiyin. U qaysi janr yoki mavzuda asar yaratmasin, shu adabiy hodisaning mumtoz namunasini yaratib bergan. Ayniqsa, g'azaliyot sohasida bu janrning butun bir xalq ma'naviy merosi bo'la oladigan darajadagi xazinasini vujudga keltirib berdi. Alisher Navoiy ijodiga mansub "istangiz" radifli g'azali ham bu janrning xuddi shunday klassik namunalaridan biri hisoblanadi. U yetti bayt, o'n to'rt misradan tashkil topgan. G'azalning qofiyalanishi: a-a, b-a, v-a, g-a, d-a, ye-a, yo-a shaklida. Aruzning ramali musammani maxzuf (foilotun, foilotun, foilotun, foilun) vaznida yozilgan. G'azal shoirning "Badoe ul-vasat" devonidan o'rin olgan bo'lib, zohiran majoziy ishq mavzusidan bahs yuritayotgandek tasavvur beradi. Undagi hajr, ko'ngil, vafo, zulf so'zlari ham ayni tushunchaga uyadoshlik kasb etgan. G'azalda Sharq xalqlari badiiy olamida ishq mavzusining afsonaviy ramzlariga aylanib ketgan Vomiq, Farhod, Majnun obrazlarining esga olib o'tilganligi ham buni tasdiq etadigandek

go‘yo. Ikkinchi tomondan esa g‘azal mazmunida butun bir irfoniy-falsafiy manzara ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladiki, bu endi asarning botiniy dunyosi bilan bog‘liq farahbaxsh bir olamdir. G‘azaldagi har bir so‘z va ifoda o‘zaro ichki bir uyg‘unlik bilan bog‘lanib ketgan. Unda shakliiy vositalar mazmuniy yaxlitlikni izchil ta‘min etib bergan. Ayniqsa, g‘azal mashhur hofiz Sherali Jo‘raev ijrosida kuylanganda adabiyot va musiqa san‘atining dilnavosi yuzaga keladi.

Istaganlar bizni sahroi baloda istangiz,

Vodiyi hijron ila dashti anoda istangiz.

Bayt boshi va oxirida bitta so‘zning takroriy kelishi ajib mumtoz badiiy san‘atni ham vujudga keltirgan. O‘zga ishqiy-irfoniy asarlardagi singari bu g‘azalda ham lirik qahramon – oshiqdir. U o‘zini istaganlar balo sahrosi, hijron vodiysi va ano dashtida istashini istamoqda. Bu obrazli birikmalarning o‘zi chuqur ma’noga egadir. Oshiq qismati va asar badiiy mohiyati ular talqini bilan vobasta tasvirlangan. Bir jihatdan qaralganda, bu tushunchalar mavjud hayotni, ya’ni dunyoni anglatadi. Ammo ijodkor har bir holatda o‘zga bir muazzamlik, o‘zga bir hayrat va mazmunni aks ettirib bergan. Balo sahrosi – g‘am-alam, ofat dunyosi. Hijron vodiysi – ayriliq olami, ya’ni visolning ziddidir. Ano dashti – kulfat, azob-uqubat, mashaqqat dunyosi. Birikma hosil qilinishida mavhumlik (balo, hijron, ano) va aniqlik (saxro, vodiy, dasht) qo‘shilib, yangi bir ma’rifiy mazmunni yuzaga chiqargan. Har uchchala tushuncha zamirida oshiq yoki ishq ahli qismati mujassam etilgandir. Ishq yo‘lidagi sabot ko‘ngilda baloyu ofat, hajru ayriliq va azobu uqubatni kechirishni “azal kotiblari” tomonidan qismat qilib bergan. Asli mohiyatda esa balo, hijron, alam foniqlik alomatlari bo‘lib, boqiy xurramlik, vasl va shodiyonalikka asosdir. Payg‘ambar alayhis-salom hazrati Rasulullohning: *“Haqiqatda balolarning eng kattasi payg‘ambarlarga tushadi, ulardan keyin avliyolarga, undan keyin keyingilarga va undan keyin shu tartibda...”* hadislarini ayni masala mohiyatiga daxldorlik kasb etadi. Mumtoz ma’naviyat va irfoniy qarashlarning ham asos mohiyatini ifoda etib beradi. Ko‘rinadiki, g‘azaldagi tasvir qismat haqidagi qadim ma’rifiy qarashlar bilan tutashib ketgan. Zero, shoir ta’kidlaganidek, *“Azal kotiblari ushshoq ahli taqdirin qaro yozmishdir”*. Misradagi “ushshoq ahli” tushunchasini hadisda zikr etilgan “xos”lar kechmishining badiiy talqini deb anglash mumkin. Ijodkor g‘azalning ikkinchi baytida o‘z fikrlarini davom ettirib, bu obrazli birikmalarni (balo sahrosi, hijron vodiysi, ano dashti) miqyosan timsollashtiradi.

Vomiq-u Farhod-u Majnundeklar ul vodiy aro,

Bo‘lsalar paydo, meni ham ul aroda istangiz.

U vodiylarda Vomiq, Farhod, Majnunlar paydo bo‘lsalar, meni ham ularning orasidan istanglar. Ya’ni, sahro balosi – Vomiq, hijron vodiysi – Farhod, ano dashti – Majnun afsonalariga qiyosan olingan. Bu qahramonlarning

siyratlarida Uzro, Shirin va Layli vositasidagi ishq qismatlari bitilgan. Ularga intilish taqdiri bu vodiylararo mashaqqatlar alamini qazo etgan. Yoki ular qismatining fojiaiy yakuni dunyosini alam, hijron va kulfat sahrosiga aylantirgan. Keyingi baytda makon (sahro, vodi, dasht) va timsol (Vomiq, Farhod, Majnun) lar tasviri o'rnida ularga ishora etuvchi fikr bayon etilgan.

*Yuz alarning ishqicha dard-u balovu g'ussag'a,
Tolib el boshig'a kelgan mojaroda istangiz.*

Endi fikrni bu uchlik tasviriga monand ravishda dard, balo, g'ussa talqini davom ettirgan. Tasvir mobaynida "tolib el" (talab ahli) tushunchasi aks ettirilgan. Bu xaylning o'zi ham nihoyatda chuqur mazmun va jozibali taqdirdir. Talab ahlining boshiga tushgan va ularning (Vomiq, Farhod, Majnun kabi dard ahllari) ishqdagi yuz dard, balo, g'ussalaridan ham ziyodaroq mojarolarida istang. Tolib, talab o'zakdosh so'zlar, matlubdan murod istovchilarga ishoradir. Bu o'rinda "oshiq" jamoa tarzida "ishq ahli" deyilganidek, "el" toifa, guruh ma'nosida tolibning ko'plikdagi "talab ahli"ni anglatadi. Baytda oldingi misralarda qayd etilgan tushuncha va timsollar mazmunan "tolib el" obrazli birikmasida jamlangan. Ijodkor oshiq dardini muqoyasa qilishda butunlikka intiladi. Garchi oshiq va tolib murodga intilishda umumlikka ega bo'lsa-da, talab kengroq ma'noga egadir. Shu bois keyingi baytda fikr ko'lami yanada kengaygan, quyuqlashgan, ishq ahli dardi chuqurlashgan.

*Eyki, istarsiz "savodul vajh fid-dorayin" din,
Boxabar bo'lmoq meni yuzi qaroda istangiz.*

Agar "savodul vajh fid-dorayin"dan xabardor bo'lmoqni istasangiz, meni ham u yuzi qarolikda istanglar. O'yga tolib qolasiz. Bu darajada malomatning boisi nimada ekan? "Ko'ngil, sen nega bunchalar sustlashding?". Iqtibosda savod – qora, qorong'ulik, savodul vajd – yuzi qarolik, savodul vajd fid-dorayin – ikki dunyoda yuzi qarolik ma'nosini bildiradi. Oshiq holati aytilgan vodiylar sifati va timsollar qismatiga mengzaladi. Hatto ulardan ham yuz chandon ortiqdir. Bu o'rinda ishq ahli va talab ahli dardlari qiyosan olib boriladi. Ikkinchi bir jihatdan bayt tasvirning yuqori darajadagi qiyosini ko'rsatib beradi. Keyingi misralarda ishq yo'lidagi ko'ngil va zulf timsollari muhib va mahbub vazifasida jonlantiriladi, ayb ko'ngilga qo'yiladi.

*Ko'nglim ul zulf ichradur, zinhor ishqim sharhini,
Istamang men telbada, ul mubtaloda istangiz.*

Ko'ngil – qalb, dil ma'nosida ham keladi. U ishq muhabbat va nozik sirlar mazhari. Irfoniy ma'noda Haq jamolini ko'rsatadigan ko'zgudir. Zulf keng ma'no ifodalaydi. U ba'zan ilohiy sirlar olamini, ba'zan bashariy hollar zulumatini anglatadi. Ikki vaziyatda ham ko'ngilga mushkulot tug'diradi. Biriga erishish istagi, biridan ozod bo'lish mayli ko'ngilga zaxm beradi. Ko'nglim o'sha

zulfdadir. Ishq sharhini men telbadan istamang. Uni, ya'ni ishq izohini o'sha zulfga muftalo bo'lgan ko'ngildan istanglar. Baytdagi mazmun "*Ixtiyor bo'lsaydi yor tarki yor etmasmidim*" misrasiga hamohanglik kasb etadi. Demak, oshiq chekkan dardlar, boshiga tushgan balolar va "g'ussa chang"larining sababi ma'shuqaga bo'lgan muhabbat tufayli ekan. Bu ishqning sababchisi oshiq emas, ko'ngilning zulfga oshuftaligidan ekan. Shu bois oshiq ishq sharhini o'zidan emas, balki ko'ngildan so'rashini ta'kidlamogda. Mumtoz adabiyotda ishqni tamsil etuvchi minglab taqqoslar tasvir etilsa-da, uni yaqqol dalillovchi sharhning o'zi mavjud emasdir. Rubobiy qahramon zulfga giriftor bo'lgan ko'ngildir. Endi ishq sharhini ham undan so'rang deb ixtiyorni ko'ngilga havola etmogda.

Nukta yanglig'kim, vafo uzra qilur kotib raqam,

Ishq o'tining dog'ini ahli vafoda istangiz.

Navbatdagi baytda "ishq ahli", "talab ahli" tushunchalariga "vafo ahli" birikmasi talqini ham qo'shilmogda. Ishq va talab yo'l bo'lsa, vafo bu yo'llarning sabotidir. "Ahli"dagi "i" egalik qo'shimchasi. "Ahl" so'zi aholi, ahillik so'zlariga o'zakdosh. Ishq, talab, vafo so'zlariga "ahli" so'zi qo'shilgandan keyin, jamoani bildiruvchi tushuncha paydo bo'ladi. G'azaldagi timsol, obraz va rangin tushunchalar tasviri ham shunga qaratilgan. Endi baytning mazmuniga kelsak, "kotib vafo bobida o'ta nozik va hikmatli so'zlar bitadi, ishq o'tidan, alangasidan qolgan dog'ni vafo ahlidan istang". Bu o'rinda vafo ishq dog'i sifatida aks-sado bermogda. Kotib, ya'ni ishq sharhini yozuvchi, uni (ishq sharhi) qanchalik nazokat bilan raqam qilmasin, bitmasin, ko'ngil kuyugini ahli vafodek ifoda eta bilmaydi. G'azal maqta'sida lirik qahramon, oshiq, ishq ahlining makoni aniqlashtirilgan. Unga Adam dashti yoki Fano mulkidan joy ajratilgan.

Og'zi shavqidin Navoiy itti, oni istar el,

Yo Adam dashtida, yo Mulki fanoda istangiz.

Baytdagi shavq so'zi kuchli orzu-istak, havas, intilish, o'rtanish demakdir. "Og'zi shavqidan" iborasi – ilhom ma'nosida kelgan. Ilhomning botiniy mazmuni ilohiy fayz yo'li bilan qalbda paydo bo'ladigan ma'no yoki haqiqatlar olamini anglatadi. Navoiy ilhom bois ishq ahlini Adam dashti yoki Fano mulkidan istang deb aytdi. Buni ahli ishqning o'zlari ham istaydilar. Adam dashti va Fano mulki talqinda yo'qlik olami bo'lsa-da, ishq va oshqlik matlabida chuqur mohiyat kasb etadi. Shular tufayli oshiq tuyg'ulari tamkin topadi. Maqsad va murod ishq ahlini Adam dashti va Fano mulkida istashlikdir. Xullas, g'azal ishq ahlining dardini aks ettirgan ko'ngil va ruh navosi, hazrat Navoiyning tojdor asarlaridan biridir.

Xulosa qilib aytish lozimki, dunyo adabiy jarayonida "mumtoz adabiyot" qay darajada teran va mukammal hodisa sifatida namoyon bo'lgan bo'lsa, Alisher Navoiy ijodi mana shu adabiy jarayonning ham mazmunan, ham shaklan kamoloti hisoblanadi. Sharq adabiyotida biror adabiy hodisa yo'qki, Alisher Navoiy ijodiy

siyomosida yuksak bir rudba kasb etmagan bo'lsin, o'zining kamolot darajasiga ko'tarilmagan bo'lsin. Bu holat lirik janrlar tizimida ham, epik voqeliklar talqinida o'zini to'liq namoyon etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Abu Nasr Farobiy. She'r san'ati. – T.: Adabiyot va san'at, 1979. –186 b.
3. Alisher Navoiy: qomusiy lug'at. (Ma'sul muharrir: Sh.Sirojiddinov) – Toshkent: "Sharq", 2016. – 536 b.
4. Alisher Navoiy: qomusiy lug'at. (Ma'sul muharrir: Sh.Sirojiddinov) – Toshkent: "Sharq", 2016. – 480 b.
5. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. Birinchi jild. Xazoyin ul-maoniy. G'aropyib us-sig'ar. – Toshkent: O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 804 b.
6. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. Ikkinchi jild. Xazoyin ul-maoniy. Navodir ush-shabob. – Toshkent: O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 768 b.
7. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. Uchinchi jild. Xazoyin ul-maoniy. Badoye' ul-vasat. – Toshkent: O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 764 b.
8. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. Uchinchi jild. Xazoyin ul-maoniy. Badoye' ul-vasat. – Toshkent: O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 764 b.
9. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. To'rtinchi jild. Xazoyin ul-maoniy. Favoyid ul-kibar. – Toshkent: O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 840 b.

ALISHER NAVOIY "HAMD" G'AZALLARINING MUHIM SPETSIFIK XUSUSIYATLARI

***Husniddin Primovich ESHONQULOV,
BuxDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori,
filologiya fanları doktori***

Alisher Navoiy g'azaliyotida hamd g'azallar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ulug' shoir shunday mazmun kasb etgan g'azallarida o'zining e'tiqodiy qarashlarini badiiy talqin etadi. U chinakam mo'min-musulmon sifatida hamd g'azallarida Allohning yakka-yu yagonaligi, buyuk qudrat sohibi sifatida kavnayn – ikki olam bunyodkori ekanligini qalbdan his etib, badiiy kashfiyotlar yaratishga erishadi. Shoirning ayni mavzuda bitilgan g'azallarini uning oshiqona mazmundagi g'azallaridan, ba'zan esa orifona mohiyat kasb etuvchi g'azallaridan ajratib olish

birmuncha qiyinchilik tugʻdiradi. Bunday vaziyatlarda gʻazallarning devonda tutgan oʻrnidan kelib chiqib masalani oydinlashtirish muhim bir yoʻnalish sanalsada, biroq shoir gʻazallari matni bilan doimo ham devonlar misolida qarshilashish imkoni boʻlavermasligi bu usul imkoniyatini chegaralab qoʻyadi. Shunday ekan, hamd gʻazallarning oʻziga xosliklarini birmuncha kengroq oʻrganish masala mohiyatini yechish imkoniyatini kengaytiradi.

“Hamd” soʻzi “maqtov”, “madh” singari maʼnolarni anglatadi. Islomiy aqidaga koʻra, Alloh taoloning sifatleri vasf etilgan maqtovlarga nisbatan “hamd” atamasi qoʻllanadi. Hamdda Alloh sifatlaridan bahs etilgani bois u boshqa maqtovu madhlardan oʻziga nisbatan qoʻllanilgan atamasi bilan farqlanadi. Anglashiladiki, hamd faqat Alloh sifatlarining badiiy vasfi sanaladi. Shu bois hamd mazmunidagi gʻazallar matnida “hamd” soʻzining uchrashi ularning muhim spetsifik belgisi sifatida namoyon boʻladi. Bu ishora hamdlarni boshqa mavzudagi gʻazallardan ajrata olish imkonini hosil qiladi.

Hamd mazmunidagi gʻazallarni naʼt, oshiqona, baʼzan orifona gʻazallardan ajratish birmuncha qiyinroq kechadi. Alisher Navoiy singari shoirlar gʻazallarida ilohiy va majoziy muhabbatning bir oʻzanga solib badiiy talqin etilishi bunga sabab boʻladi. Maqtov, madh mazmunida qoʻllangan hamd gʻazallarda Allohning yagonaligi, yaratuvchanlik xususiyatlari, Uning sifatleri tajalliysiga eʼtibor qaratiladi. Gʻazal matnida, koʻpincha matlaʼ yoki maqtada “hamd” soʻzining uchrashi bu gʻazallarning eng muhim belgisi sifatida namoyon boʻladi. Shuningdek, ularda biror bir yaratiqqa xos boʻlmagan sifatleri: Allohning azaliy va abadiyligi, oshkor-u nihonligining anglashilmasligi, olamning bunyodkori ekanligi, barcha narsalar Uning izmidaligi, sifatleri bilan butun olamga tajalliy qilgani, tavhid – yagonaligi badiiy talqin etiladi.

Hamd, naʼt va oshiqona gʻazallar matnidagi oʻzaro umumiylikni hosil qiluvchi jihat ularning barida badiiy nutqning II shaxs birlik olmoshi (sen) haqida yoki aynan shunga qaratilganligida namoyon boʻladi. Shu bois maʼshuqa – yor timsolida Alloh, Muhammad (s.a.v.) va oshiqning sevgilisi timsollari istioraviy birlikni hosil qiladi. Koʻpincha bu birlik matnda ishtirok etgan II shaxs birlik olmoshi (sen)da, baʼzan “sen” olmoshining jumlar kesimidan anglashib turganida yoki yorning muayyan bir sifati, belgisi maʼnosini anglatuvchi soʻzga qoʻshilib kelgan II shaxs birlikdagi egalik qoʻshimchasida (-ng/ -ing) namoyon boʻladi. Jumladan, quyidagi baytning birinchi misrasida olmoshning qoʻllangani, ikkinchisida esa ushbu olmoshning “paydoliqʻing”, “pinhonliging” soʻzlaridagi “-ing” egalik qoʻshimchasidan anglashib turganligida kuzatiladi:

Seni topmoq base mushkildurur, topmasligʻ osonkim,

Erur paydoliqʻing pinhon, vale pinhonligʻing paydo [1, 25].

Quyidagi baytning ilk misrasida esa yor maʼnosida qoʻllangan II shaxs birlikdagi kishilik olmoshining jumla kesimidan anglashilganligi kuzatiladi:

Chaman otashgahiga otashin guldin chu oʻt solding,

Samandardek ul oʻtdin kulga botti bulbuli shaydo [1, 26].

Hamd gʻazallarda yor maʼnosida qoʻllangan II shaxs birlikdagi kishilik olmoshiga nisbat beriladigan sifatleri, belgilarning mohiyatini anglash gʻazalning

qanday mavzuda yozilganini aniqlash va uni sharhlashda to'g'ri yo'lni tanlash imkonini yaratadi. Islomiy e'tiqodga ko'ra, Alloh moddiylikdan, muayyan bir shakllardan mutloqo xolidir. Uning zotini aqlga sig'dirib bo'lmaydi. Shu bois Allohni "majmu'yi asmo va sifat" – ismlar va sifatlar majmuasidan, Uning ism va sifatlaridan, shu ism va sifatlarining borliqqa akslanishidan idrok etish mumkin. Shu bois ba'zan "asmoyi husna" – go'zal ismlar atamasiga duch kelinadi. Allohning 99 ta, ba'zan 1001 ta go'zal ismlari borligi haqida fikr bildiriladi. Biroq bu ism va sifatarni muayyan bir miqdorga sig'dirib bo'lmaydi. Ularning barini bir o'rinda keltirib, Haq zotini tiklash imkonsiz. Shunday bo'lsa-da Haqning ism va sifatleri Unga qaratilgan sano va maqtovlar bo'lib, Uning qudrati, chegaralanmagan imkoniyatlaridan darak beradi. Allohning ism va sifatlariga chegara bo'lmasa-da, ularning ayrimlari subutiy – barqaror, o'zgarmas va faqat Allohga xos tarzda alohida ajratiladi. Mutasavvif shoirlar bu kabi subutiy sifatarni badiiy talqin qilishga alohida e'tibor qaratishadi. So'fi Olloyor subutiy sifatlarining sakkiztasi haqida ma'lumot beradi:

Subutiyydir aning sakkiz sifoti,

Sifot zoti ermas, na g'ayri zoti [4, 9].

Shoir Allohning sakkiz sifatini o'zgarmas, barqaror, faqat Ungagina xosligini e'tirof etib, bu sifatlar Uning zoti bo'lolmasa-da, biroq Uning zotidan begona emasligini badiiy talqin etadi. Buni bir qator misollar asosida idrok etish mumkin. Jumladan, Alloh borliqning yaratuvchisi sanaladi. Borliq – Uning cheksiz qudrati mahsuli, biroq borliq U emas, shunday bo'lsa-da, borliqda Haqning qudrati akslangan. Shunday ekan, Uning qudrati Uning zoti sanalmasa-da, Uning zotidan ham ayro tushunilmaydi. So'fi Olloyor Allohning sakkiz subutiy sifatini quyidagicha bir bayt bag'riga singdiradi:

Hayot-u ilm-u qudrat ham basar, sam',

Iroda-vu kalom, takvindur, ey sham' [4, 10] .

Shoir bu sifatlarining har birini birma-bir sharhlaydi. Uning sharhlari asosida mazkur sifatlariga xos xususiyatlar "So'z bag'ridagi ma'rifat" kitobida quyidagicha izohlanadi:

“1.Hayot – abadiylik, zamonda chegaralanmaslik, na avvalga (azalga), na oxirga (abadga) ega bo'lmaslik, azal-u abaddan tashqarida yuqorida bo'lishlik;

2.Ilm – barcha narsani, ularning mohiyatini, sabablarini bilish, o'tmish va kelajakdagilarning barchasini bilishlik, Haqqa ma'lum bo'lmagan bilim yoki sir-u asrorning bo'la olmasligi, shuning uchun islomiy kitob va tadqiqotlarda muallif biror narsani tushuntirayotganda yoki birov bilan bahslashayotganda, so'zini "Vallohu a'lam bis-savob" (tog'risini Haq biladi) deb xulosalaydi;

3. Qudrat – istagan narsani qila olish, bunda hech qanday to'siqning Haq uchun bo'la olmasligi;

4. Basar – istagan ochiq va yopiq, oshkora va pinhon, zohiriy va botiniy, tashqi va ichki narsalarni, sir-asrornlarni, voqea-hodisalarni ko'ra olish;

5. Sam' – aytilgan va ko'ngilda kechgan har qanday narsani eshita olish;

6. Iroda – istagan narsani xohlay olish, istakda chegaraning yo'qligi;

7. Kalom – gapirish, ayta olish, ko'ngilga solish;

8. Takvin – yaratish, bunyod qilish, yo‘qdan bor qilish. Ayrim olimlar Haqning subutiy sifatleri sirasiga samadlik – hech kimga ehtiyojmand bo‘lmaslik, aksincha, barchaning unga ehtiyojmand bo‘lishi hamda beniyozlik, ya’ni hech narsaga ehtiyoj sezmaslikni ham kiritadilar [3, 60-61].

Allohning subutiy sifatlarini ajratishda nisbiylik mavjud. Buni yuqorida ayrim olimlarning keltirilgan sakkiz subutiy sifatga samadlik va beniyozlikni qo‘shishlaridan ham anglash mumkin. Subutiy sifatleri e’tirof etishda Qur’oni karimda ko‘p takrorlanib turuvchi va Haqdan o‘zgaga nisbat berish imkonsiz bo‘lgan ism-u sifatlerga tayaniladi. Hamd g‘azallarda shoirlar ushbu ism va sifatleri keltirish yoki shu ism va sifatlerga xos xususiyatleri II shaxs birlikdagi kishilik olmoshiga (senga) nisbatlash bilan Allohni madh etadilar. Ayni holat ko‘pincha hamd g‘azaallarning matlasidanoq anglashib turadi. Chunonchi, Alisher Navoiy hamd g‘azalining ilk baytida “asmoyi husna” namunalarining undalma sifatida qo‘llangani kuzatiladi:

Iloho, podshoho, kirdikoro,

Sanga ochug‘ nihon-u oshkoro [1, 28].

Allohga xos sifatleri II shaxs birlikdagi kishilik (sen) olmoshiga nisbatlanishi, tabiiyki, g‘azalning oshiqona g‘azaldan ajratish imkonini murakkablashtiradi. Shunday bo‘lsa-da “sen” olmoshiga nisbatlangan sifatleri faqatgina Allohga tegishliligidan, bu sifatleri boshqaga nisbatlash imkonsizligidan kelib chiqib g‘azalning hamd mazmunida bitilganini aniqlash mumkin. Alisher Navoiy to‘qqiz baytli hamd g‘azalining quyida ko‘chirilgan dastlabki uch baytida “sen” olmoshiga nisbatlangan sifatleri insonga tegishli sifatlar bo‘lolmasligini idrok etish asosida mazkur g‘azalni hamd mazmunida ekanini aniqlash mumkin:

Yuzung ko‘zgusidin olamda yuz nuri safo paydo,

Quyosh andin aningdekkim, quyoshdin zarra nopaydo.

Sening ko‘ying nasimig‘a o‘zin soldiki jon topti ,

Masih anfosidin xastag‘a bo‘lmas davo paydo.

Azaldin to abad vujudin sathi zarfi to‘lmaskim,

Anga ne ibtido paydodurur, ne intiho paydo [2, 8].

Matlada keltirilgan “yuzing ko‘zgusi” birikmasini Allohga nisbatlash mushkul, biroq bu ko‘zgudan olamga yuzlab safo – tozalik nurlarining paydo bo‘lgani kishini o‘ylantiradi. Shunday ekan, “yuz”ga “ko‘zgu”ning nisbatlangani bejiz emas. “Yuzing ko‘zgusi” istiorasi bilan ulug‘ shoir Allohning “majmu‘yi asmo va sifot” – ismlar va sifatleri majmuasini nazarda tutib, undan olamga yuzlab safo nurlari taralganini badiiy talqin etadi. Buning tasdig‘i uchun quyosh va zarra timsollari misolida keltirilgan tamsil ham ahamiyatli. Ikkinchi misrada keltirilgan ushbu tamsilda quyosh Undan, ya’ni Allohdan zarra quyoshdan nopaydo bo‘lmaganidek, paydo bo‘ldi, deyilmoqda. Darhaqiqat, zarraning quyoshdan paydo bo‘lganini ko‘rish imkonsiz, u umumiy nur ko‘rinishinigina hosil qiladi. Shu ma’noda Alloh sifatleri sasarasi bo‘lgan quyoshning paydo bo‘lganini ham aqlan idrok etish qiyin. Keyingi baytda fikr tadrijiy rivojlantirilgan. Unda “sening ko‘ying” deyilganda, Alloh tarafidan yaratilgan olam nazarda tutiladi. Baytda

quyidagi mazmun o'z ifodasini topgan: Sening ko'ying nasimiga o'zini soldi, ya'ni sen yaratgan olamga kelib jon toptiki, yo'qsa, Masih nafasidan xastaga davo paydo bo'lmasdi. Keyingi baytda Allohga xos sifatlar yanada yorqinroq ifodalangan. Baytda dastlab adabga qadar Uning vujudi zarfi – idishining to'lmasligi ifodasi bilan Haqqi mutloq zotini birgina zohiriy olam misolida ifodalab bo'lmasligi badiiy talqin qilinsa, keyingi misrada Uning ibtidosi-yu intiqosiga chegarasi yo'qligi o'zining ifodasini topgan. Ko'rinadiki, bunday sifatlarni Allohdan boshqaga nisbatlab bo'lmaydi.

Kuzatishlardan ayonlashadiki, Alisher Navoiyning hamd g'azallarining matla' yoki maqta' baytlarida "hamd" so'zining uchrashi uning muhim spetsifik belgilaridan biri bo'lsa, matlada "asmoyi husna" yoki "majmuyi sifat" namunalarining undalma sifatida qo'llanilishi g'azalning hamd mazmunida bitilganidan dalolat beradi. Shuningdek, Allohning subutiy sifatlari badiiy talqini asosida ulug' shoir g'azalning hamd mazmunida bitilganini she'rxonga his ettiradi.

ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. XX томлик, 3-том. – Тошкент: "Фан", 1988.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. XX томлик, 4-том. – Тошкент: "Фан", 1989.
3. Воҳидов Р., Неъматов Х., Махмудов М. Сўз бағридаги маърифат. – Тошкент: "Ёзувчи", 2001, 60-61-бетлар.
4. Сўфи Оллоёр. Саботул-ојизин. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_mumtoz_adabiyoti/So'fi%20Olloyor.%20Sabotul-ojizin.pdf.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA KOMIL INSON TASVIRI

Nigora Quliyevna MURODOVA,

Navoiy davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Alisher Navoiy xalqimiz falsafiy ongi, tafakkuri va madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil yetadi. Barcha buyuk mutafakkirlar singari Alisher Navoiy ham o'z davrining, o'sha ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarning mahsulidir.

U bashariyat mutafakkirlari tomonidan turli davrlar va tillarda yaratilgan barcha tarixiy, badiiy, falsafiy, diniy, axloqiy mazmundagi kitoblarni qo'ldan qo'ymay o'qidi, o'rgandi, ularning ma'nolarini chuqur tahlil qildi, ulardan o'ziga tegishli xulosalar chiqardi.

Ilk Sharq Uyg'onish davri buyuk mutafakkirlarining falsafiy ta'limotlari Alisher Navoiy ilmiy-badiiy kamoloti uchun mustahkam poydevor rolini o'ynaganligini alohida ta'kidlashga to'g'ri keladi. Navoiyning falsafiy fikrlari rivojida Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asari katta o'rin tutgan. Navoiy komil inson haqidagi o'zining ajoyib falsafiy ta'limotlarini yaratishda "Shohnoma"dagi Jamshid va Rustam obrazlaridan ijodiy foydalangan. Bahrain Go'r haqidagi yertaklar, Xisrav Parvez to'g'risidagi fikr-mulohazalar ham Alisher Navoiyning Firdavsiy asarlarini, Sharq xalqlari ijodiyoti va tarixini, qadimiy Yeron

va Turkistonning bir necha ming yillik boy mifologiyasini mukammal bilganligini isbotlaydi.

Alisher yoshligidan o'zining favqulodda o'tkir falsafiy fikrlari, kuchli qobiliyati, dunyoqarashining haddan tashqari keng va chuqurligi bilan o'z zamondoshlarini, olim-u fozillar, shoir-u adiblarni taajubda qoldirgan. Umrining ko'p vaqtini har xil ijtimoiy-siyosiy ishlar bilan o'tkazgan bo'lishiga, davlat ishlari va amirlik lavozimida bandligiga qaramasdan o'zidan katta va boy ilmiy-madaniy, badiiy-falsafiy meros qoldirgan. O'rta asr ilk Uyg'ortish davrining Ismoil Buxoriy, Iso Termiziy, Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoni, Najmiddin Kubro singari diniy allomalarda bo'lgani kabi Alisher Navoiy ham butun olam, borliq, koinot, yulduzlar, oy, quyosh, odamlar, hayvonlar, jamiyki narsalar Xudo tomonidan yaratilganini ye'tirof yetadi. Uning fikricha, butun olam, jumladan, tabiat va jamiyat ham Allohning zuhurot yetilishidir. Navoiy dastlab yolg'iz Xudoning o'zidan boshqa na koinot, na mavjudot bo'lmagan. Xudo bitmas-tuganmas kuch-qudrat va imkoniyatlarga yegadir, deydi. Tangri o'z imkoniyatlari ila butun olamni, koinot va mavjudotni yaratgan. Xudo olamdan tashqarida yemas, balki shu olamning o'zida, uning har bir zarrasida mavjuddir. Dunyo go'yo bir oyna-mir'otdir, unda ko'rinuvchi butun borliq Xudodan, Xudoning in'ikosidan iboratdir.

Inson butun borliqning ko'rki va sharafigidir. Butun olamni yaratishdan maqsad-deydi shoir - inson bo'lib, u hamma mavjudot ichida tengi yo'qdir. Inson ko'nglini turli bilimlar xazinasi qildi va bu tilsim ichida tangri o'zini yashirdi. Insonning ajoyib jismi bir maxfiy sir xazinasi o'laroq, o'zida ana shu ganj tilsimini saqlaydi. Bu tilsim jon bo'lib, u o'sha xazinada turadi va unga posbonlik qiladi. Shuning tufayli inson boshqa barcha narsalardan mumtoz qilib yaratildi. Uning boshiga to'g'ri yo'ldan borish toji qo'yildi, sharaf me'rojiga chiqish yesa uning qismati bo'lib qoldi".

Navoiy insonni nihoyatda ulug'laydi, uni yashashga, baxtli-saodatli bo'lishga, dunyoni obod qilishga, o'zidan yaxshi iz qoldirishga chaqiradi. Inson xudoning zuhurotidan iboratligini anglamaslik baxsizlikka, halokatga olib boradigan nodonlik, deydi shoir. Ana shuning o'zi ham Alisher Navoiy falsafiy g'oyasi asosin tashkil yetadi.

Olam ko'rki bo'lgan inson vujudi tabiatdagi boshqa narsalardek, - deydi Alisher Navoiy, - o'tdan, suvdan, havodan, tuproqdan tashkil topgandir. Navoiyning yana ta'kidlashicha, insonda his, ruh, aql bordirki, uning bu ruhiy hayoti o'sha to'rt unsuridan tarkib topgan badanlar - jismlar tomonidan harakatga keltirib turiladi. Jon va ruhni tan va jismdan ajratib bo'lmaydi, ular o'zaro bir bo'lganliklari uchun tirikdir.

Alisher Navoiy insonga yuksak baho beradi. Insonning xulq-atvori, dunyoqarashi, odob-axloqi, madaniy-ma'naviy qiyofasi, uning ta'biricha, ijtimoiy muhitga bog'liq. Inson ijtimoiy muhit mahsuli sifatida shakllanib, kamolotga yerisha boradi. Boshqacha aytganda, insonni ijtimoiy mavjudotga aylantiradigan hal qiluvchi omil jamiyat, tashqi muhit, ijtimoiy sharoitlardir.

Navoiyda inson oliy mavjudot deb ta'riflanadi: inson olamdagi butun narsalardan ustun turadi, dunyoda unga teng keladigan hech narsa yo'q.

Navoiy asarlarida halollik, poklik, rostgo'ylik, iymon-ye'tiqodlilik singari insonga yarashqlik axloqiy-ma'naviy fazilatlar ye'zozlanadi.

Navoiy xalq va uning manfaatlari yo'lida g'amxo'rlik qiladigan kishilarni ulug'laydi. Odamlar xursandchiligini o'z xursandchiligi, noxushligini noxushlik, deb hisoblaydigan, xayr-u sahovat kamarini belida mahkam bog'lagan, agar qo'li bilan berib, xayr qilish iloji bo'lmasa tili, shirin so'zi bilan naf yetkazishga sa'y-harakat qiladigan kishilar haqida o'zining samimiy fikrini bayon yetadi: "Odamni bir og'iz yaxshi so'z bilan xursand qilish kerak bo'lgan vaqtda unga xazina bersang ham, u qaramaydi. So'z bilan yel o'limdan najot topadi; so'z bilan o'luk tan qayta tiriladi. So'z bilan dinsizlar musulmon bo'ladi; so'z bilan hayvon deganing insonga aylanishi mumkin. Bir so'z bilan qancha balolar daf bo'ladi; qancha boylik sochsang ham bunday nafga yetishmaysan. Insonga xos konning gavhari, bu - so'zdir; odamzod gulshanining mevasi ham shu so'zdir .

Buyuk mutafakkir, g'azal mulkning sultoni hazrat Alisher Navoiy o'zining nasriy va nazmiy asarlarida, o'lmas dostonlarida umuminsoniy ruh bilan sug'orilgan komil inson, barkamol shaxsni tarbiyalash, mukammal jamoa va odil hukmdor haqidagi ta'limotlarni ilgari surdi va bunday ijobiy tarbiyaning xalqqa, jamiyatga va shaxsning o'ziga ko'rsatadigan ijobiy taraflarini asoslab beradi. Uning insonparvarlik, ilm-fan va kasb-hunarni egallash, axloq va xulq-odob qoidalari, ta'lim-tarbiya, yuksak insoniy qadriyatlar to'g'risidagi dono fikrlari o'zining qadr-qimmatining yuqoriligi bilan alohida ajralib turadi.

Navoiy asarlarining g'oyaviy tarbiyada tutgan muhim o'rni uning komil insonni, bugungi kun nuqtai nazari bilan aytganda, barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyati bilan belgilanadi.

Komil insonni voyaga yetkazish asrlar mobaynida kishilarning orzusi, istagi, ideali bo'lib kelgan. Komil inson g'oyasi o'z mohiyat-e'tibori bilan milliy, umuminsoniy va gumanistik mazmunga egadir. Har bir jamiyat yetuk, har tomonlama kamolga yetgan, o'zida butun ijobiy, oliyjanob fazilatlarni to'plagan barkamol avlodni tarbiyalashni orzu qiladi.

Alisher Navoiy komil inson to'g'risida butun bir ta'limot yaratdi. Uning nasriy va nazmiy asarlari, g'azallari, "Xamsa"ga kirgan dostonlari, "Nasoyim ul-muhabbat", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Holoti Sayid Hasan Ardasher", "Mahbub ul-qulub", "Majolis un-nafois", "Lison ut-tayr" va boshqalarda komil inson qanday bo'lishi kerakligi, qaysi fazilatlarni egallashi lozimligi haqidagi fikrlar har tomonlama yoritib berilgan.

Navoiy nazarida insonni sharafllovchi jamiki fazilatlarni komil inson g'oyasini ustuvor jihatlari deb kiritish mumkin. Ammo bular orasida u imon, qanoat, saxovat, ilm-ma'rifat, vafo, himmat, hoksorlik, adolat, adab kabi sifatlarni ajratib olib, qariyb hamma asarlarida qayta-qayta turli voqealar tasviri munosabati bilan ta'kidlab o'tgan. Navoiy nazarida komil inson, ya'ni har qanday kamchilik va nuqsonlardan xoli bo'lgan barkamol shaxs hayoliy bir timsol emas, balki o'zida butun zohiriy va botiniy bilimlarni, insoniy fazilatlarni mujassam etgan real hayotda bor shaxsdir.

Navoiy asarlarida barkamol avlodning kelajagini ifoda etuvchi komil inson sifatida, vatanparvarlik, millatparvarlik, insonparvarlik, adolatparvarlik, bag'rikenglik, javonmardlik, mehnatsevarlik, shirinsuxanlik, vafodorlik, sabrlilik kabi insoniy fazilatlarni o'zida mujassam etgan odil, dono, mard, fidoiy, oliyhimmat insonni tushungan.

Bugungi barkamol avlod tarbiyasi borasidagi zamonaviy ta'limotlarning ildizi bo'lmish komil inson g'oyasi o'rta asrlarda nafaqat ta'lim - tarbiyada, kishilarni kamolot sari yetaklashda, balki mamlakatlar taraqqiyoti va xalqlar ma'naviyatining yuksalishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ulug' allomaning barkamollik borasidagi ta'limotlari va bayon qilingan boqiy asarlari keyingi davrlarda Movarounnahr va Xuroson xalqini insonparvarlashtirishda, ularning turmush tarzi va ongiga umuminsoniy qadriyatlarni singdirishda katta xizmat qilib keldi.

Navoiy asarlaridagi komil inson g'oyasi mustaqillik sharoitida barkamol insonni tarbiyalashda, uni to'laqonli shaxs qilib yetishtirishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

АЛИШЕР НАВОИ - ГЕНИЙ УЗБЕКСКОЙ И МИРОВОЙ ПОЭЗИИ, МЫСЛИТЕЛЬ И ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ДЕЯТЕЛЬ

***Камол Намазович КАДИРОВ,
профессор Навоийского университета инноваций***

Аннотация: В данной статье рассматриваются творчество Алишер Навои, о писателе узбекской и мировой поэзии. В произведениях, которого нашли выражение лучшие чаяния, чувства и мысли узбекского народа.

Ключевые слова и понятия: узбекская культура, Султан-Хусейн, мировоззрение Навои, литературное наследство Алишера Навои, сын своей эпохи, «Пятерица» («Хамса»), лучшие традиции письменной литературы.

Алишер Навои - гений узбекской и мировой поэзии, мыслитель и государственный деятель. Произведения Навои, в которых нашли выражение лучшие чаяния, чувства и мысли узбекского народа, близки и дороги людям. Имя Навои стоит рядом с именами таких корифеев литературы, как Пушкин, Шевченко, Руставели, Низами.

Общественная и политическая жизнь Средней Азии и Хорасана во времена Навои была полна глубоких противоречий. В течение десятилетий, прошедших со дня смерти Тимура (1336-1405), между его наследниками - Тимуридами - не утихала борьба за власть, за расширение своих владений. Царевичи, управлявшие отдельными уделами, смотрели на них как на личные владения, не желали считаться с центральной властью.

В правление некоторых Тимуридов значительное развитие получили наука и искусство; поддерживались широкие связи с другими странами, в том числе с Китаем и Индией.

Не внесло существенных улучшений в жизнь государства и правление Султан-Хусейна (1469-1506), хотя проявленные им усилия к централизации власти в целом имели прогрессивный характер. Феодалные войны к концу правления Султан-Хусейна столь ослабили его государство, что оно пришло в упадок и перешло к новым завоевателям.

В таких условиях с огромной силой прозвучал смелый и мощный голос Алишера Навои, провозгласившего, что в мире нет ничего ценнее Человека. Исходя из гуманистических принципов, Навои требовал справедливости, заботливого отношения к людям. Он, говорил;

Высоким званием «Человек» достоин зваться тот, кто о народе никогда не оставлял забот.

Родился Навои в Герате, одном из крупнейших экономических и культурных центров Средней Азии и Хорасана второй половины XV в.

Семья Навои занимала видное общественное положение. Его отец, Кичкине-бахадур, получивший высокий государственный пост, происходил из служилых людей - канцелярских писцов, занятых составлением официальных бумаг и хранивших языковые традиции. Постоянные неурядицы в политической жизни и ожесточенная борьба между престолонаследниками вынуждали семью Навои часто менять местожительство. Навои учился в Герате, и Самарканде, где получил всестороннее образование. Уже в юности он писал стихи по-староузбекски и по-персидски. Стихи, написанные на староузбекском языке, молодой поэт, носивший имя Низамаддин Алишер, подписывал псевдонимом «Навои», что значит «мелодичный», а стихи, написанные по-персидски, - прозвищем «Фани», т. е. «бренный». Позднее, будучи не только ученым и поэтом, но и государственным деятелем (в 1469 г. при Султан-Хусейне он стал хранителем печати, а затем первым министром - везиром), Навои боролся против феодальных междоусобиц, прилагал усилия к укреплению централизованной власти, к созданию условий для обеспечения мира. Обладая достатком, Навои расходовал большие средства на благоустройство Герата: строил школы, библиотеки, больницы, бани, оросительные каналы, покровительствовал ученым, писателям, живописцам.

Мировоззрение Навои отражало новые общественные требования, все более настойчиво звучавшие в устах передовых людей стран Востока и Запада.

Люди все яснее сознавали, что результаты человеческого труда достойны восхищения всегда и повсюду, независимо от того, кем они созданы. Важно лишь, чтобы они были нужны людям, обогащали их, приносили пользу. И государства должны жить по законам, защищающим интересы народа.

Навои писал в поэме «Стена Искандера» (перевод этой поэмы здесь и ниже В. Державина):

Где справедливый утвержден закон,
Там бедствовать народ не принужден.

Никто не устоит перед пытливым взором, знанием, мастерством, сноровкой человека, все настойчивее проникающего во все уголки вселенной, открывающего новые моря и земли.

Бывалый водолаз в пучине вод
Из пасти у акулы перл возьмет.

Узбекская культура во времена Навои имела большие традиции. Но на пути ее развития стояли немалые трудности. Феодалы, грабившие и угнетавшие народ, стремились к тому, чтобы использовать литературу в своих классовых целях. Литература на староузбекском языке, хотя и создавалась в течение нескольких веков и имела отдельных выдающихся представителей: (в их числе Хорезми, Дурбек, а также поэты XV в., Лутфи, Атаи), в целом была развита еще слабо. Литература феодальных дворов была пронизана чуждыми народу идеями, принижавшими человеческую личность; ее представители часто ставили на первое место игру словами, видели смысл поэзии в изощренной форме, а не в содержании.

Алишер Навои не пошел по пути феодально-клерикальной литературы. Глубоко изучив историю литератур и философской мысли Востока и опираясь на устно-поэтическое творчество, он выступил как новатор, открывший перед литературой своего народа неизвестные ранее горизонты. Открыто подняв голос в защиту человеческих прав, Навои расширил содержание узбекской поэзии, придав ей широкое общественное звучание. Навои боролся за дальнейшее развитие родного староузбекского языка, он писал на нем высокохудожественные произведения, которые, пройдя сквозь столетия, и сейчас волнуют сердца читателей.

Литературное наследие Алишера Навои огромно. Его перу принадлежат десятки сочинений художественных, научных, философских. В своих произведениях Навои выступает как передовой человек, стоящий на высоте тогдашних знаний не только в области философии, истории, поэтики, грамматики, риторики, но и космографии, точных наук, архитектуры, ирригации, а также музыки, живописи, книжного дела и т. д. Изображая в своих произведениях быт и нравы разных народов, Навои близок к современной ему действительности.

Наиболее значительной частью художественного наследия Навои являются свод его стихотворений «Сокровищница мыслей», известный также как «Чар диван», и собрание пяти поэм - «Пятерица» («Хамса»).

В «Сокровищница мыслей», в соответствии с этим названием, четыре поэтических книги: «Чудеса детства», «Редкости юности», «Диковины среднего возраста» и «Полезные советы старости». В «Пятерицу» входят поэмы: «Смятение праведных», «Лейли и Меджнун», «Фархад и Ширин», «Семь планет», «Стена Искандера». «Пятерица», насчитывающая более пятидесяти трех тысяч стихотворных строк, написана в предельно короткий срок - менее чем в три года (1483-1485).

Уже в лирике поэт предстает как человек, предпочитающий живое человеческое чувство мертвящим догмам средневековья. В одном из четверостиший Навои писал:

Огнями ада не пугай меня, отшельник ледяной.

Не огорчай, суля мне рай, когда окончу путь земной!

В аду о милой вспомню я - и в рай преобразится ад.

Рай станет адом, если ты в раю предстанешь предо мной. (Перевод *Н. Лебедева*)

Интересны в этом отношении кыт'а и туюги Навои. Кыт'а (буквально отрывок, фрагмент)-малая стихотворная форма, в содержании которой допускалась большая свобода. Часто кыт'а - афоризм, поэтому, очевидно, средневековые теоретики литературы определяют его и как «мудрость» (хикмет). Правильность этого определения видна и из кыт'а Навои (переводы кыт'а *С. Иванова*):

Старайся этот мир покинуть так,

Чтоб без долгов расчесться с пережитым.

Запоминаются туюги - четверостишия, в которых рифмующиеся первая, вторая и четвертая строки содержат омонимические рифмы, одинаковые по звучанию, но разные по значению:

Соперник мой, как пес, хитер, нельзя его провесть.

Придет ли от любимой весть - пронюхает про весть.

(Перевод *С. Иванова*)

В период написания «Пятерицы» Навои находился в расцвете литературного таланта. Он широко использовал свой жизненный опыт, а также фольклор и лучшие традиции письменной литературы. Вместе с тем «Пятерницей» поэт как бы отвечал на одноименные произведения своих предшественников, прежде всего уже известного нам Низами Ганджеви и Амира Хосрова из Дели. Тем самым Навои брал на себя трудную задачу.

Во вступлении к поэме «Фархад и Ширин» он так говорит об этом:

Я с Низами бороться принужден.

Рукой схватив такую «Пятерню»,

В руке надолго ль силу сохраню?

У всех трещали пальцы до сих пор,

Кто с Низами вступал в подобный спор.

Быть надо львом, чтоб рядом сесть со львом,

Тем более - чтоб в драку лезть со львом.

Иль не слоном таким же надо быть,

Чтоб с хоботом слоновым хобот свить? (Перевод *Л. Пеньковского*)

Навои с честью справился с взятой на себя задачей. Его «Пятерица» - высокохудожественное и совершенно самостоятельное, глубоко самобытное произведение, что подтверждает и сравнение сюжетной основы поэм узбекского поэта с поэмами «Пятериц» Низами, Амира Хосрова, а также старшего современника, духовного наставника и друга Навои - Абдуррахмана Джами и других поэтов.

Содержание «Пятерицы» необычайно богато.

В поэме «Смятение праведных» («Хайрат аль-абрар») Навои, обращаясь к государю, в ряде небольших рассказов жестоко бичует носителей общественного зла - несправедливых властителей и духовных лиц, осуждает взяточничество, вероломство и хищничество. Передавая эпизод из жизни легендарного государя древнего Ирана Бахрама, поэт обрушивается на тиранов и их алчных слуг, грабящих и разоряющих крестьян.

Навои высоко ценил созидательный труд и осуждал тех, кто относится к результатам человеческого труда как захватчик и деспот, не считаясь с людьми, уничтожает принадлежащее им, грабит их. Навои говорит: «Со спокойной душой есть самую простую пищу благороднее, чем есть самую изысканную пищу, отнятую от других». Одна монета, полученная за труд, «ценнее, чем сто, полученных в подачку ни за что». Поэт призывает ценить человека за то, что он сделал хорошего, чем он помог людям:

По щегольству о муже не суди,

Ракушку по жемчужине суди.

В получившей широкую известность поэме «Фархад и Ширин» Навои воспевает дружбу и любовь между народами, выступает за свободу человеческой личности, понимая ее как свободу от произвола тиранов и жестоких средневековых законов, принижающих и оскорбляющих человеческое достоинство. Поэту чужды чувства племенной или расовой исключительности. Прославляя чистоту человеческих отношений, поэма Навои в то же время является гимном труду. Именно трудовые подвиги Фархада, проложившего оросительный канал, названный «Рекой жизни», приводят его к цели - к Ширин, позволяют влюбленным преодолеть препятствия на пути к счастью.

Образы Фархада и Ширин, так же как и героев третьей поэмы «Пятерицы» - «Лейли и Меджнун» - до наших дней популярны как в устной, так и в письменной литературе, а также в изобразительном искусстве Узбекистана и других республик Востока. В «Лейли и Меджнуне» Навои выступает против господствовавших в то время законов и обычаев, ставивших женщину в неравноправное положение и часто являвшихся причиной разлуки влюбленных.

Навои был сыном своей эпохи. Выступая как человеколюбец, отстаивая гуманистическое мировоззрение, он в то же время являлся сторонником взглядов, близких идеалу просвещенной монархии. В трактовке темы любви в «Лейли и Меджнуне» он отдал дань суфийским (мистическим) воззрениям. Но все эти моменты не могли уничтожить действенности образов поэмы, зовущей на борьбу против феодальных устоев. Не к прошлому, а к будущему обращены слова поэта, воспевающего любовь Лейли и Меджнуна (Кайса):

Кто чистотою равен им, для тех

Вовек любовь не превратится в грех.

Влюбленный должен чистым быть всегда:

Любовь желанью грязному чужда! (Перевод С. Липкина)

Высокими гуманистическими идеями, стремлением к самопожертвованию ради верности и добра пронизана и четвертая поэма - «Семь планет». В этой поэме, содержащей занимательные сказочные сюжеты, Навои предстает перед нами как совершенный художник слова, создающий произведения во имя торжества правды и справедливости, как поэт, обогативший мировую литературу волшебными жемчужинами поэзии. Слово для него не самоцель; он осуждает пустую, бессодержательную игру в стихосложение.

Поэт должен, создавая свои произведения, развивать и совершенствовать свой талант во имя служения народу. Ради этой высокой цели Навои и создал свою поэму:

Центральным героем поэмы является легендарный древнеиранский государь Бахрам-Гур (Бехрам-Гур), образ которого, был опоэтизирован. Фирдоуси уделил Бахрам-Гуру внимание в «Шах-намэ», Низами - в «Семи красавицах», Амир Хосров - в поэме «Восемь райских цветников» («Хешт бешишт»).

В этих замечаниях проявляется стремление Навои сделать более человечными образы своих героев. Навои критикует поэмы Низами и Амира Хосрова с позиций реалистического понимания сюжета. В этих поэмах царевны, жены Бахрам-Гура, прибывшие из семи «поясов» земли, каждая в построенном специально для нее дворце, рассказывают ему сказки. Навои пишет, что захмелевшему Бахрам-Гуру было не до сказок, да и рассказывание сказок - не дело царевен.

Здесь Навои выдает Бахрама за идеального правителя, близкого взглядам самого поэта. Зато, когда его Бахрам забыл о народе, Навои жестоко осудил действия своего героя.

«Стена Искандера» посвящена Александру Македонскому, хотя в ней Навои, подобно Низами в «Искендер-намэ», не имеет целью воспроизвести исторический облик великого полководца древности. Для Навои Александр Македонский (Искандер) - идеальный государь, стремящийся к справедливости и счастью народов. Уже с первых дней царствования Искандер, по Навои, на два года освобождает подданных от подати - хараджа, заботится о бесперебойной торговле, для чего устанавливает сторожевые посты на караванных путях, следит за базарными ценами, проверяет весы, наказывает тех, кто поднимает руку на беззащитного и притесняет народ.

Рассказывая о войнах Искандера, Навои допускает историческую условность. Он далек от войн исторического Александра Великого, но близок к современной ему действительности, правдиво воспроизводя отдельные моменты сражений в Средней Азии и Хорасане в средние века.

Навои страстно любил жизнь и стремился к лучшему будущему. Он писал, что «цветы жизни прекраснее всего», и все его помыслы были обращены к тому, чтобы избавить эти цветы от пагубной для них грязи.

Навои жил в век величайших географических открытий, в эпоху Возрождения. Это нашло живой отклик в его произведениях, особенно в «Стене Искандера».

Передовое гуманистическое мировоззрение Навои и высокие художественные достоинства его произведений обусловили им широчайшую популярность. Народ сложил о Навои легенды и предания, рассказы, полные жизнерадостности и остроумия. В них поэт обычно изображается не только как человек, по своим достоинствам стоящий выше султана, но и как разоблачитель всего рутинного и злого, успешно выходящий из всякого рода трудных положений.

Народ знал и уважал Навои. Смерть поэта, наступившая 3 января 1501 года, была воспринята как народное горе.

Желание Навои сбылось: он стал одним из наиболее любимых писателей своего народа. Его произведения со всей наглядностью выявили богатство и гибкость грамматических форм староузбекского языка и показали, что на этом языке могут создаваться художественные произведения, ни в чем не уступающие шедеврам арабской и персидской литературы. Этот факт имел огромное значение для дальнейшего развития узбекской литературы.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Алишер Навои. Хамса. Пятерица. Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма -Т. 1986
2. История узбекской литературы. 4-5 том. -Т, 1994.
3. Узбекистон миллий энциклопедияси. -Т., 2002
4. Кошчанов М. Щедрость таланта. Статьи об узбекской литературе. - М., 1980. -С.300.
5. С.Садык. Новая узбекская литература. -Т., 2003. Н.В.Владимирова. О развитии прозаического жанра в узбекской литературе//Преподавание языка и литературы, 2003. №5,6.

JALOLIDDIN RUMIY VA ALISHER NAVOIY G‘OYALARIDAGI MUSHTARAKLIK

*Vasila Erkinovna CHO‘LIYEVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası mudiri
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharqning ikki buyuk dahosi Jaloliddin Rumiyy va Alisher Navoiyning shaxsiyati, badiiyati va ular g‘oyalaridagi umumiylik va xususiylik tamoyillari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, basirat, ilohiyot, fiqh, shariat, irfon.

Insoniyat tarixida bir shaxsning ikkinchi bir shaxs dunyoqarashiga ta’sir o‘tkazishi bilan bog‘liq holatlarga juda ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin.

Jaloliddin Rumiyl ham bevosita Alisher Navoiy dunyoqarashiga, o'z ta'limotini yaratishiga sezilarli ravishda ta'sir o'tkaza olgan shaxslardan hisoblanadi. Shu sababdan ham Navoiy Rumiyni o'zini ma'naviy ustoz deb tan olgan.

Jaloliddin Rumiyl va Alisher Navoiy ijodi o'rtasida qanday o'xshashlik bor va buning sababi nimada? Ayni shu savol ko'plab bahs-u munozaralarga sabab bo'ladi. Bir-birini to'ldiruvchi, bir-birini inkor etuvchi fikrlar esa asl mohiyatni ochib berishga xizmat qiladi.

O'rta asrlar islom falsafasining yirik vakillaridan hisoblanmish Jaloliddin Rumiyning falsafiy qarashlari, tasavvufiy ta'limotini tadqiq etish ishlariga XIV asrdan boshlab alohida e'tibor berila boshlangan. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy va boshqa allomalar asarlarida bu mutafakkirlarning hayoti hamda ijodiga oid bir qator muhim ma'lumotlarni uchratamiz.

Alloma hijriy 546, milodiy 1151 yilda Xorazmshohlar davlatiga qarashli bo'lgan Balx shahrida dunyoga kelgan. Uning shajarasi xalifa Abu Bakr Siddiq(r.a.)ga borib tutashadi [1,15]. Bahouddin Valadning bobosi Husayn Xatib, otasining ismi esa Husayn ibn Ahmad A'loddin Muhammad (Xatib Bukriy)dir. Roziuddin Nishopuriyning yozishicha, onasi Muhammad Xorazmshoh Takeshning qizi Emitulloh xotun bo'lib, xalq orasida "Malikai Jahon" nomi bilan tanilgan va o'z davrining ziyoli ayollaridan hisoblangan. Alisher Navoiy o'zining "Nasoyim ul-muhabbat" asarida allomaning ota-onasi haqida shunday ma'lumotni keltiradi: "Amir ul-mo'minun Abubakr (r.a.) farzandlaridindur. Onasi Xuroson podshohi Alouddin Muhammad Xorazmshohning qizidur" [2,165]. Bahouddin Valadning otasi Husayn ibn Ahmad al-Xatibiy ham o'z davrining mashhur olimi hisoblangan. U atoqli siyosatchi va huquqshunos Radiaddin an-Nisaburiyning shogirdi bo'lib, uni qo'lida tahsil olgan hamda bir qancha fiqhiy, sha'riy masalalardagi da'vo ishlarini olib borib, adolatparvarligi bilan xalq orasida yuksak martabaga ega bo'lgan zot sifatida shuhrat qozongan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, allomaning otasi Xorazmshohlar saroyida vazir lavozimida faoliyat yuritgan. Bu shaxsning ijtimoiy faoliyati, oilasi va farzandlari xususida bizga qadar batafsil ma'lumotlar saqlanmagan. Ammo turkiy adabiyotlar, xususan, Aflokiyning "Manoqib ul-orifin" va Bahouddin Valadning "Maorif" asarida Husayn al-Xatibiy ziyoli, diniy bilimlarni chuqur egallagan, tasavvuf hamda so'fiylik ta'limotidan boxabar inson sifatida ta'riflangan.

Manbalarda, xususan, Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida keltirilishicha, "Hazrat Risolat (s.a.v.) tushida anga ishorat qildilarkim, qizingni Husayn Xatibga nikoh qil! Va ul mutavallid bo'ldi"[2,164]. Demak, bu asarda Muhammad (s.a.v.) Xorazmshohning tushida qizini Husayn Xatibga nikoh qilishni buyurganligi va ushbu nikohdan Bahouddin Valad dunyoga kelganligi xususida ma'lumot berilgan. Ahmad Aflokiyning "Manoqib ul-orifin" asarida ham aynan mana shu ilohiy bashorat xususida so'z boradi: "...Ayni shu ishorat Husayn Xatib va Malikai Jahonga botiniy tarzda ayon etiladi. Malikai Jahonga tushida payg'ambarimiz (s.a.v.) "Seni Husayn Xatibga nikohladim, endi uning mahramisan", deya buyuradi"[3,3].

Ahmad Aflokiy va Sipohsolorlarning ma'lumot berishlaricha, unga "Sulton ul-ulamo" nisbasi tushida hazrati Muhammad (s.a.v) tomonidan berilgan. Alisher Navoiy o'zining "Nasoyim ul-muhabbat" asarida bu xususida shunday yozadi: "Chun tamayyuz sinnig'a yetti, ulum tahsili qildi va dinivu yaqiniydin to kamoli ul yerga yettiki, Hazrat Risolat (s.a.v.) anga "Sulton ul-ulamo" laqabin berdi [2,164]. Ahmad Aflokiy ham o'zining "Manoqib ul-orifin" asarida bu xususida bir necha o'rinlarda to'xtalib o'tganligini ko'rishimiz mumkin. Dastlab Faxriddin Roziy kabi uni xushlamagan, shuhratini qizg'angan ba'zi olimlarning e'tirozlariga qaramay, bu unvon abadiyatga qadar uning nomi sifatida yashab qoladi [4,75].

Jaloliddin Rumiyan keyingi o'zbek mumtoz adabiyotining kamol topishini uning "Devoni Kabir", "Masnaviy ma'naviy" kabi asarlaridan ayro tasavvur etish qiyin. Adabiyotshunos Ibrohim Haqqulning "Irfon va idrok" kitobida ta'kidlanganidek, "Jaloliddin Rumi va Alisher Navoiy adabiy merosini tarixiy-qiyosiy yo'nalishda o'rganish Navoiy she'riyatining botiniy olamini mukammal bilish, undagi bir qator murakkab tushuncha va haqiqatlarning mohiyatini to'g'ri talqin qilishga yo'l ochadi".

Alisher Navoiy o'zining "Nasoyim ul-muhabbat" asarida bir faslni Jaloliddin Rumiya bag'ishlagani ham u zotga bo'lgan cheksiz hurmatidan dalolat beradi. Rumiyaning hayotsevarligi va insonga cheksiz mehr-muhabbati asarlarida o'z aksini topgan. Uning she'riyati adabiyotga faqat yangi so'z, yangi ma'nolarni olib kirish bilan cheklanmasdan, yangi-yangi badiiy vosita va usullarni ham meros qilib qoldirgan. Alisher Navoiy Mavlono Rumi asarlariga butun ijodi davomida murojaat qilib, ulardan ilhomlanganining sababi ham shunda. Shuningdek, Rumi asarlarining to'la ravishda xalq tiliga muvofiqligi, maqol va hikmatlarga keng o'rin berilganini ham Navoiy o'z ijodi uchun ibrat qilib oladi.

Alisher Navoiy tasavvufning murakkab va munozarali masalalarini badiiy talqin etishda Jaloliddin Rumi ijodiga tayanganini ko'rsatuvchi dalillar, ma'lumotlar juda ko'p.

Masalan, tasavvufiy mohiyatdagi manzuma va dostonlarning xos jihatlaridan biri ularda turli mazmundagi hikoyatlarga keng o'rin berilganidir. Jumladan, "Masnaviy ma'naviy" asarining g'oyaviy-badiiy qudrati va ta'sir darajasi Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida o'z aksini topgan.

Masalan, Navoiyning "Lison ut-tayr" asarida "Ko'rlar va fillar" hikoyati keltiriladi. Filning asl holatidan bexabar bo'lgan ko'rlar qo'llari bilan uni tutib tasavvur hosil qilishmoqchi bo'ladi. Shunda biri xartumini, biri dumini, biri oyoqlarini tutib, o'z fikrini to'g'ri deb biladi. Shunda bir-birini inkor etadigan qarashlar to'qnashuvi yuzaga keladi. Ammo asl haqiqat shuki, barchaning tasavvuri birlashsagina filning shakli hosil bo'ladi. Ayni shu hikoyat Jaloliddin Rumiyaning "Masnaviy ma'naviy" asarida ham uchraydi. Farqi shuki, unda basirlar bo'lmaydi. Keltirilishicha, bir qorong'i binoda fil bor, degan taxmin bo'ladi. Uning shakl-shamoyilini bilish istagidagi kishilar qorong'i xonada turgan filni tutib ko'rishadi va barcha o'z xulosasini aytadi. Mavlono Rumiyaning ta'kidlashicha, ulardan bittasining bo'lsa-da, qo'lida sham bo'lganida, masala oydinlashar edi.

Sham mazkur hikoyatda haqiqat talqini sifatida aks etgan. Mohiyat bir, ammo har ikki muallif masalaga alohida yondashgan.

Yana bir misol, Navoiyning “Lison ut-tayr” asarida, qushlar safarda davom etar ekan, Hudhudga savol berishadi: “Haqiqiy ishq va majoziy ishq o’rtasidagi farq nimada?” Javob asnosida “Arastu va uning oshiq murid” hikoyasi misol qilib keltiriladi. Ayni shu hikoyatga o’xshash voqealar Rumiyning “Masnaviy ma’naviy” asaridagi “Podshoh va kanizak” hikoyasi mazmuniga ancha yaqin. Bunday misollarni Rumi va Navoiy ijodida ko’plab uchratish mumkin. Ibrohim Adham hikoyati, Arastu bilan bog’liq hikoyatlar ham fikrimizni isbotlaydi. Adabiyotshunos Yevgeniy Bertels ham bu hikoyalarning favqulodda qiziqarli ekanligini ta’kidlab, “Hikoyatlarning tugun va yechimi ma’lum ma’noda Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy”sidagi hikoyatlarni esga soladi. Lekin bunda mavzuning ishlanishi o’zgacharoq”, deya ta’kidlaydi.

Alisher Navoiy o’zining “Majolis-un nafois” asarining 127-129-betlarida Jaloliddin Rumiyning hayoti, ishq va irfon, ilohiy muhabbat haqidagi qarashlariga alohida to’xtalib o’tgan. “Mahbub-ul qulub” asarida Farididdin Attor va Jaloliddin Rumi bilan Nishopurda uchrashib suhbatlashgani va unga o’zining “Asrornoma” asarini tuhfa qilganini, bu asar ta’sirida Rumi keyinchalik “Devoni Shamsi Tabriziy” nomi ostida mashhur bo’lgan lirik she’rlar majmuasini yaratgani haqida ma’lumot berib o’tadi. Alisher Navoiy bu asarida Rumiya “g’avvosi bahri yaqin” (ya’ni haqiqat asrorini o’rganuvchi, Ollohni taniganlar dengizining g’avvosi) deb ta’rif beradi [5,82]

Xulosa qilib aytganda, Jaloliddin Rumi hikmatlari, tasavvuf falsafasi undan ilhom olgan keyingi daho ijodkorlar, xususan Alisher Navoiy ijodida izchil rivojlantirildi. Natijada Rumi ijodi qaysidir ma’noda Sharq adabiyotida izdoshlari uchun adabiy-estetik hamda ijtimoiy qadriyat o’laroq yoyildi, an’anaga aylandi.

ADABIYOTLAR:

- 1.Risale-I Sipehsalar (Çev.Mithat Bahari). – Istanbul, 1331. – S. 15.
- 2.Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. To’la asarlar to’plami. O’n jildlik, 10-jild. – Toshkent: G’afur G’ulom nashriyoti, 2011 y. – B. 165.
- 3.Ahmet Eflâki. Arifen Menkebleri, (Çev.Tahsin Vazid) M.E.B. – Istanbul, 1986. – S. 3.
- 4.Mehmet Under. Mavlono // Jahon adabiyoti, 2014 – №1. – B. 75.
- 5.Alisher Navoiy.Majolis un-nafois. – Toshkent: G’afur G’ulom nashriyoti, 2011 y. – B. 82.

ALISHER NAVOIY AN’ANALARI CHO’LPON TALQINIDA

Shahlo HOJIYEVA,
O’zbekiston Milliy universiteti
O’zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek mumtoz she‘riyati, xususan, Alisher Navoiy nazmiy kashfiyotlari Cho‘lpon estetik tafakkuri yangilanishining muhim poetik omili ekani tadqiq qilingan. Milliy she‘riyatimizda poetik obraz va ramz, mazmun va shaklni yangilar ekan, shoir buyuk salafi Alisher Navoiy ijod laboratoriyasidan saboqlar olgani qiyosiy tahlil asosida dalillangan. Oltin qafas, bulbul, tosh obrazlari, “vafo qasri” – “muhabbat saroyi”, “ishq bahri” – “karashma dengizi” istioralari Navoiy lirikasida irfoniy ma’no ifodalagan bo‘lsa, Cho‘lpon she‘riyatida ijtimoiy mazmun talqiniga xizmat qilgani dalillangan.

Kalit so‘zlar: obraz, ramz, dunyoqarash, estetik mezon, badiiy tafakkur, poetik tasvir, ijodiy niyat.

Milliy she‘riyatni yangilash Cho‘lpon ijod konsepsiyasining negizini tashkil etadi. Lekin bu ulkan ishni Sharq, jumladan, o‘zbek mumtoz adabiyotidagi badiiy kashfiyotlarni o‘rganmay va ularni ijodiy qayta ishlamay turib, amalga oshirish imkonsiz edi. “Ishqiy g‘azaliyotni yangicha ruh bilan boyitganlardan biri Cho‘lpon bo‘ldi, – deb yozadi Nodira Afoqova. – Bu yangichalik faqat davr bilan – Cho‘lpon she‘riyati o‘z maslakdoshlari she‘riyatidan sal keyinroq – adabiyotning asosiy parametrlari o‘zgargan davrda bunyod bo‘lganligi bilangina bog‘liq emas. Bu – Cho‘lponning badiiy tafakkur tarzi hamda olamni badiiy idrok va ifoda etish prinsiplari bilan bog‘liq deb qarash lozim” [Afoqova, 2005:163]. Darhaqiqat, mumtoz shoirlar va Cho‘lponning estetik tafakkuri hamda olam va odamni idrok etish mezonlari farq qiladi. Lekin ana shunday o‘ziga xos dunyoqarash va estetik mezonlar shakllanmog‘i uchun Cho‘lpon o‘zigacha bo‘lgan milliy va jahon adabiyotini chuqur o‘rganishi, mavjud an‘analarni yangilamog‘i zarur edi.

Cho‘lponning she‘riyatda bu qadar yuksaklikka ko‘tarilishi sabablarini, avvalo, poetik timsollar yaratishda buyuk Alisher Navoiy ijodxonasidan saboq olgani, bu timsollarga yangi mazmun, yangi ruh bag‘ishlagani bilan izohlash to‘g‘riroq bo‘lar edi. Cho‘lpon qalamiga mansub “500 yil (O‘zbek bilim hay‘atiga)” sarlavhali maqola ham uning buyuk Alisher Navoiy adabiy merosiga bo‘lgan chuqur ehtiromidan darak beradi. “Chig‘atoy adabiyoti va tiliga Navoiyning qilg‘an xizmati juda ulug‘dir, – deb yozadi Cho‘lpon. – Bu kungi yangi o‘zbek adabiyoti va uning bu kungi sodda shevasi, meningcha, o‘sha chig‘atoy shevasidan o‘zga emasdir. Ba’zi bir kishilar Navoiydan ancha keyin chiqqan adib va shoirlarimizdan bir-ikkita soddaroq yozg‘anlarini ushlab olib, ularni haddan tashqari ko‘tarmak bilan narigini bir qadar tubanlashtirmoqchi bo‘lsalar ham, Navoiy o‘zbek tili va adabiyotida tegishlik yuksak mavqeini olg‘andir. Usmonli adabiyotining eng ulug‘ vakili bo‘lg‘an Fuzuliyni mashhur usmonli yozg‘uchisi Shamsiddin Somibek Navoiydan keyinga qo‘yib ko‘rsatadir. Mana bu ham Navoiyning birgina o‘zbek qavmi adabiyotida emas, umumturk xalqi adabiyotida ham o‘ziga yarasha joy olg‘anini ko‘rsatadir” [Cho‘lpon, 2016:20].

Adabiyotshunoslikda ba‘zan Cho‘lponning “Ulug‘ hindiy” maqolasidagi: “O‘zimning yo‘lsizlig‘imdan bir oz so‘zlab o‘tayin: Navoiy, Lutfiy, Boyqaro, Mashrab, Umarxon, Fazliy, Furqat, Muqimiylarni o‘qiymen: bir xil, bir xil, bir xil!

Ko'ngil boshqa narsa – yangilik qidiradir", [Cho'lpon, 2016:33] degan so'zlarini dalil sifatida keltirib, shoirni mumtoz adabiy an'analardan butunlay uzib ko'rsatishga harakat qilish tamoyili seziladi. Aslida, unday emas. Navoiy haqidagi maqolasidan olingan iqtibos ham fikrimizni tasdiqlaydi. Cho'lpon yoniq iste'dod sohibi edi. Yuqoridagi gapni buyuk salaflarini kamsitish yoki ular an'anasidan butunlay voz kechish ma'nosida emas, bu an'anani boyitish, yangilash zaruratidan kelib chiqib aytgan. *"Bu kungi yangi o'zbek adabiyoti va uning bu kungi sodda shevasi, menimcha, o'sha chig'atoy shevasidan o'zga emasdir"*, degan fikri uning nafaqat poetik timsollar, balki badiiy asar tili borasida ham Navoiyni o'ziga ustoz deb bilganidan darak beradi. Biz shoir she'riyatini ana shu jihatdan – Navoiyona poetik timsollarning yangilanishi nuqtai nazaridan tahlil etishga harakat qilamiz.

Cho'lponning "Suygan choqlarda" she'rida mana bunday satrlarni o'qiymiz:

*Go'zallarning malikasi ekansan,
Buni sening ko'zlaringdan o'qidim.
O'qidim-da, istiqbolim qushiga
Xayolimdan oltin qafas to'qidim.*

Istiqbol haqidagi o'y nafaqat Cho'lponni, u bilan bir zamonda yashagan barcha millatparvarlarni o'ylantirgani ayon. Millatning munavvar siymolari bu o'ydan iztirob iskanjasiga tushgani ham rost [To'raev, 2002:84]. Shoirning istiqbol qushiga xayolidan oltin qafas to'qishi – buning yorqin dalili. O'kinch ruhi bilan sug'orilgan bu satrlarni o'qir ekansiz, beixtiyor hazrat Alisher Navoiyning "G'urbatda g'arib..." deb boshlanuvchi ruboiysidagi *"Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa, Bulbulg'a tikandek oshyon bo'lmas emish"*, misralari yodga keladi. Navoiyshunos Yoqubjon Is'hoqov "Muhim falsafiy xulosa yoki tezisni bayon qilib, uni hayotiy detallar yordamida asoslash bir qator ruboiylar uchun xos bo'lib, bu hol ularning semantik strukturasiga ham o'ziga xoslik bag'ishlashi" [Is'hoqov, 1983:82] haqida yozar ekan, misol sifatida ayni shu ruboiyni keltiradi. Ma'lum bo'ladiki, garchi Cho'lpon she'ri barmoqda, hazrat Navoiy ruboiysi aruzda bitilgan bo'lsa-da, bu ikki she'rni "oltin qafas" timsoli va uning zamiriga singdirilgan falsafiy (Cho'lponda ijtimoiy) mohiyatning o'ziga xos badiiy talqini birlashtirib turadi. Cho'lpon istibdodni ham g'ariblikning bir ko'rinishi deb tushunadi. Uningcha, istiqbol qushi erk istaydi, go'zallar malikasi – o'sha erk. "Istiqbol"ning "istiqlol"ga hamohangligi ham e'tiborli. "Oltin qafas" timsolining mazkur she'r mohiyatiga singib ketgani ikkinchi bandda bulbulning eslanishida ham ko'rinadi: *"Alamzada bulbul yig'lab kechalar, Alamingning so'ngin tamom etmadi"*. Ma'lum bo'ladiki, Cho'lpon buyuk salafi she'riyatidagi har ikki – "oltin qafas", "bulbul" poetik timsollariga zamon ruhini olib kirgan, an'anaviy obrazga yangi mazmun bag'ishlagan. Zero, adabiyotshunos Ibrohim Haqqul ta'biri bilan aytganda: "Cho'lpon ijodining zamini va osmoni – Vatan. U hur va muzaffar Turkiston kuychisi. Cho'lpon o'zini yurtning pok istakli shoiri deb bilgan va hech qachon pokiza istaklaridan kechmagan. Cho'lpon orzu-istaklarining kuchi shundaki, shoir ona Turkiston tuprog'i kelgindi yovlar tomonidan toptalishiga qarshi munosabatini yashirmagan. Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy,

Mirzo Bobur avlodlarining tarixi, tili, malaniyati, fan va san'ati buzg'unlik, siquvga giriftor etilayotganini baralla so'zlay olgan" [Haqqulov, 2018:5].

Cho'lponning "Qalandar ishq" g'azali 1920-yilda yozilgan. Ma'lumki, o'sha yili 1-5 sentyabr kunlari Bokuda Sharq xalqlari qurultoyi bo'lib o'tadi. Shoirning aksar she'rlari ana shu qurultoy munosabati bilan qilingan sayohat taassurotlari natijasida yozilgan. Qurultoyga Turkistondan butun boshli poezd to'la odam borgan. Xorijdan ham vakillar kelgan. Cho'lponning mazkur g'azali ostida "Boku, 1920 yil" degan qayd uchraydi. She'r an'anaviy aruzda va muhabbat mavzusida, hazaji musammani solim vaznida yozilgan.

*Muhabbatning saroyi keng ekan, yo'lni yo'qotdim-ku,
Asrlik tosh yanglig' bu xatarlik yo'lda qotdim-ku.*

G'azalda mazmun – ishqiy, ohang – ravon, dard – cho'ng. Ammo, "asrlik tosh", "xatarlik yo'l" va unda "qotmoq" tasviri ishqiy mazmundan uzoqroqday go'yo. Sarlavhadan so'ng "Eski tartibda" degan izohning kelishi uning har jihatdan, jumladan, poetik obrazlariga ko'ra ham, mumtoz shoirlar ijodiy yo'lida yaratilganini ko'rsatadi. Jumladan, "muhabbatning saroyi" iborasi shoir tomonidan ishq bilan yashash tarzi, muhabbat kechinmasi bilan umrguzaronlik qilish mazmunini ifodalaydi. Muhabbat dialektikasi visol va hajr, lazzat va iztirob tushunchalari uyg'unligida mavjuddir. Navoiyda bunday turmush tarzini ifodalashda shunga muvofiq bo'lgan vafo qasri, sanam qasri, tun qasri, oy qasri, jahon qasri, falak qasri kabi o'nlab metaforalar mavjudki, Cho'lpon ulardan ta'sirlanmagan bo'lishi mumkin emas.

*Imorat tarhidur na'lu alifdin har taraf ko'ksun,
Vafo qasrin qo'parsang, bu binolar uzra devor et.*

Hazrat Navoiy qo'llagan "vafo qasri" metaforasi zamirida chuqur mazmun ifoda etilgan. "Vafo qasri" va "muhabbatning saroyi" metaforalariga yuklangan ma'noda muayyan farq bo'lgani singari o'zaro uyg'unlik ham borligi kuzatiladi. Bundan tashqari, "Asrlik tosh" birikmasi ifodalagan mazmun, xususan, toshning poetik timsolga aylanishi ham xalq tili bilan birga Navoiy ta'sirida shakllanganidan dalolat beradi. Navoiyning bir qancha g'azallarida tosh betakror poetik timsolga aylantirilgani bu obrazning lirik qahramon ruhiyatini tasvirlashdagi o'rni qanchalik baland ekanini ko'rsatadi. Misol uchun quyidagi baytni keltirish mumkin:

*Qatra qonlar gar tomar ko'ksunga urg'an toshdin,
Zaxmdindur demakim, qon yig'lar ahvolimg'a tosh* [Navoiy, 2001:45].

Bunday tadrij usulida balog'at bilan yozilgan misralar Cho'lpon tafakkuriga chaqmoqday ta'sir etgani shubhasiz. Shuning barobarida, bu kabi satrlar Cho'lponning nazm imoratini Navoiy she'riyatiga xos timsollar asosiga qurgani haqidagi fikrni tasdiqlaydi.

*Karashma dengizin ko'rdim, na nozlik to'lqini bordir,
Halokat bo'lg'usin bilmay qulochni katta otdim-ku.*

Ushbu baytni tahlil etar ekan, professor Begali Qosimov mana bunday yozadi: "Karashma birovga yoqish uchun qilinadigan nozli, yoqimli xatti-harakatdir. Shoir uni dengizga qiyos qilyapti. Yoqimli dengiz, muallif nazdida uning po'rtanali ham, osoyishta ham payti emas. Yengil chayqalib turgan holati.

Ohista chayqalgan dengiz kishini o'ziga rom etib, unga tushgan kishini ichkarilarga olib ketib qolganiday ma'shuqaning ham yoqimli harakatlari oshiqni sehrlab, oxiri nima bilan tugashini aytib bo'lmaydigan holga keltirib qo'ygan. She'rda mumtoz adabiyotimizga xos bo'lgan mana shu ruhiy va moddiy holatlarning ayni bir matnda jamlanishi yaqqol ko'rinib turibdi. Ayni paytda, bu yerda aldanganlik e'tirofi, hatto uning yengil iztirobi ham bo'rtib turibdi" [Qosimov, 2004:445]. Olimning bu tahlili bugungi o'quvchining she'r mohiyatini anglashida katta ahamiyatga ega ekani shubhasiz. Biroq hazrat Alisher Navoiy va Cho'lpon qo'llagan poetik timsollarni qiyosiy o'rganish she'r mazmunini yanada chuqurroq tushunish imkonini berishi ham aniqdir. Cho'lpon she'riyatida har bir misraning poetik mukammallikda namoyon bo'lishi buyuk salafi ijod maktabidan bahramandlik natijasi sifatida baholanishi mumkin. Yuqoridagi bayt avvalida kelgan *"Karashma dengizi"* kabi nozik iboralar Navoiyning "ishq bahri", "vasl bahri", "latofat bahri", "g'am bahri", "ko'k bahri", "fano bahri", "chaman bahri" kabi juda ko'p takrorlanuvchi istioralari ta'sirida yaralganini anglab olish qiyin emas.

*Ishq bahrida duri vasl istasang, ey ahli dard,
Ko'nglunguz ul naqd yodi birla xursand aylangiz.*

Tabiiyki, Navoiy baytidagi *"ishq bahri"* bilan Cho'lpon she'ridagi *"karashma dengizi"* metaforalari o'rtasida muayyan farq bor. Navoiy g'azalida agarchi *ahli dard ishq bahrida vasl durini istasa, ko'nglini ul naqd yodi birla xursand etmog'i* zarurligi uqdiriladi. Ya'ni bu o'rinda sof oshiqona tuyg'ular talqini berilgan. Cho'lponda *"karashma dengizi"* metaforasi zamirida ishqiy kechinma tasviri tagmatniga ijtimoiy ruh ifodasi ham singdirib yuborilgani kuzatiladi. *"Halokat bo'lg'usin bilmay qulochni katta otdim-ku"* satri shunday xulosa chiqarish uchun yetarli asos beradi. Lekin har holda *"karashma dengizi"* metaforasi mumtoz she'riyat, alalxusus Navoiy lirikasi ta'sirida ijod etilgani haqiqatga yaqindir.

Ta'kidlash kerakki, Cho'lpon XX asr boshlari sharoitida butun qalbi bilan hazrat Alisher Navoiyga muhabbat va ehtirom ko'rsatgan, buyuk salafi ijodxonasidan muttasil saboq olgan, she'riyatda uning lirikasiga xos poetik obraz va timsollarni yangi ruh, yangicha talqinlar asosida davom ettirgan va shu negizda yangi zamon she'riyatiga asos solgan.

ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Ғаройиб ус-сиғар. /Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011.
2. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Наводир уш-шабоб. /Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011.
3. Афоқова Н. Ўзбек жадид адабиётида шеърий шакллар тараққиёти тамойиллари: филол.фан. д-ри.... дисс. – Тошкент, 2005.
4. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т.: "Фан", 1983, 82-бет.

5. Чўлпон. 500 йил. / Асарлар. Тўрт жилдлик, IV жилд. – Т.: “Akademnashr”, 2016.
6. Чўлпон. Улуғ ҳиндий. / Асарлар. Тўрт жилдлик, IV жилд. – Т.: “Akademnashr”, 2016.
6. Тўраев Д. Миллий истиқлол ғояси ва жаҳид адабиёти / Жаҳидчилик ва миллий истиқлол тантанаси. – Тошкент, 2002, – Б.84.
7. Ҳаққул И. Ўлка қайғуси. / Чўлпон ижоди ва замонавий жараён. – Т.: “Mashhur-Press”, 2018.
9. Қосимов Б. ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Олий ўқув юр்தларининг филология факультетлари учун дарслик. – Т.: “Маънавият”, 2004.

ALISHER NAVOIY “XAMSA”SIDAGI OBRAZLAR TALQINI (QUYOSH OBRAZI MISOLIDA)

*Zuhra Umaraliyevna MAMADALIYEVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti
filologiya fanlari nomzodi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada quyosh obrazining kelib chiqishi, yetti sayyoraning biri sifatidagi dunyo madaniyati va adabiyotidagi ahamiyatiga nazar tashlangan. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda ulug‘ o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy ijodidagi ahamiyati to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Ushbu obrazning Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlaridagi ramziylik xususiyati va uning ulug‘ shoir ijodidagi ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: muqaddas yettilik, shumerlar madaniyati, yetti sayyora, Alisher Navoiy, “Xamsa” dostonlari, me‘rojnoma, go‘zallik timsoli.

Buyuk mutafakkir shoir, g‘azal mulkingning sultoni Alisher Navoiy qalamiga mansub “Xamsa”si dostonlarining har birining muqaddimasida etti sayyora an‘anaviy tarzda berilgan me‘rojnomalarda muhim obraz sifatida uchraydi [Davlatov: 2021, 84-97]. Nega aynan yetti sayyora? Chunki bu raqam sehrli raqamlarning eng mashhuri bo‘lib, ayniqsa, Sharqda juda e‘zozlangan. Bu raqamning kelib chiqishi va sayyoralar bilan bog‘lanishi haqida ma‘lumot berar ekan, S.Hasanov uni Bobilning janubida yashagan shumerlarning diniy e‘tiqodlari bilan bog‘liq holda tushuntiradi [Hasanov: 1991, 151-161]. Adabiyotlarda Shumerlarning aslida O‘rta Osiyo xalqlarining ajdodlari sifatida talqin etish ko‘p uchraydi [Ziyotov 2012]. Shumerlarning madaniyatini o‘zlashtirib, rivojlantirgan Bobil tamaddunida astronomiya ham asosiy o‘rin egallab, Yer atrofidagi yetti sayyora (o‘sha davrdagi tasavvur bo‘yicha) olam va inson hayotiga ta‘sir o‘tkazuvchi yetti iloh deb qabul qilinadi. Yettilikka asoslangan hafta kunlari shakllangan. Yetti iloh har bir kunning homiysi deb belgilangan.

Yetti sayyora yetti iqlim, panteon (dastlabki madaniyatlarda barcha ma‘budlarga atab qurilgan ibodatxona)ning yetti asosiy ma‘budi va haftaning yetti kuni bilan ham bog‘lanadi.

Islom dinining yakkaxudolik g'oyasi – Tavhid ta'sirida Musulmon sharqi tasavvurlarida olam muvozanati masalasida yettilik garmoniyasi diniy-ilohiy ahamiyatini pasaytirdi. Bobil diniy qarashlari va madaniyati orqali o'zlashgan qahramonlar endi ilohlar emas, shunchaki Yer atrofini o'rab turgan sayyoralar sifatida talqin qilina boshlandi. Biroq bu garmoniya xalqlar ongiga shunchalik singib ulgurgan ediki, odamlarning tafakkuri va iste'molidan butunlay chiqib ketmadi. Natijada, yetti sayyora haftaning yetti kuniga, yetti iqlimga va kishilar ongiga ta'sir o'tkazishi, homiylik qilishi, xosiyatli yoki xosiyatsiz ekanligi va hokazolar haqidagi qarashlar Musulmon sharqi astrologiyasida ham saqlanib qoldi. Garchi endi ular ma'budlar yoki farishtalar darajasida bo'lmasalar ham, me'rojnomalarda tasvirlanishicha, islom payg'ambarining uzangisini o'pib, uning qadami yetganidan faxrga to'lsalar ham, yashab qoldilar [Ziyotov: 2012; Jumayeva: 2006; Jorayev: 1991; Jorayev: 1991]. Bu sayyoralar orasida Quyosh yoritqichi (Navoiy ijodida sayyora deb ataladi) quyidagicha tasnif etiladi:

Quyosh (Mehr, Kun, Shams, turkiycha Yashiq) – Quyosh sistemasining markaziy qismi; Yerga eng yaqin joylashgan, issiqlik va yorug'lik manbai bo'lgan юлдуз.

Quyosh ko'pincha oliy ma'budning dastlabki ramzi sifatida namoyon bo'ladi va u bilan uyg'unlashtiriladi. Qadimgi Misrda Quyosh ma'budi Ra ma'budlarning "rahbar ilohi" sanalgan.

Zardushtiylik dinida Quyosh ma'budi – Mitraning hamma narsani ko'radigan ko'zi adolatni mujassamlashtiradi. U hamma narsani ko'radi va biladi – bu esa Quyosh ma'budining eng muhim xislatlaridan biridir.

Islom dini ta'sirida Quyoshning bunday "ilohiy xususiyatlari" kamaygan bo'lsa-da, islom davridagi yozma yodgorliklarda ularning unsurlari saqlanib qolganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, "Qutadg'u bilig"da to'rt asosiy qahramondan dastlabkisining ismi Kuntug'di bo'lib, u podsho, shu bilan birga adolat ramzi. Bu Quyoshning doimo nur taratib turuvchi, hamma narsadan ogoh va ayni paytda dunyoda adolatday ustuvorlik kasb etganligidan kelib chiqqan, deyish mumkin.

Navoiy ijodini kuzatar ekanmiz, biz bu obrazlarning bir necha ming yillik taraqqiyotini islomiy qarashlar bilan omixtalashgan va ayni paytda shoirning dohiyona iste'dodi bilan yangidan yangi qirralari kashf etilgan holda ko'ramiz. Shu o'rinda bir ishtiboh. Adabiyotshunos olim H.Eshonqulov "Samovot – ishq mazhari" nomli monorgafiyasida sayyoralar obrazlari haqida fikr yuritir ekan, "Alisher Navoiy va boshqa ijodkorlarimiz ma'naviy ijodiy merosi misolida ko'rib o'tganimiz yetti sayyora va o'n ikki burj mumtoz she'riyatda qo'llanish ko'lami keng bo'lgan samoviy timsollar bo'lib, ular birinchidan, o'z ma'nosida (samovot jismlari), ikkinchidan, ishq-u oshiqlik bilan aloqador murakkab ruhiy jarayonlarni ifodalash uchun faol tashbehtar vazifasini o'taydi"[Eshonqulov: 2008,60], deb fikr bildiradi. Ko'rib o'tganimiz misollarda nafaqat ishq-u oshiqlik, balki yana ko'plab ma'no qirralari namoyon bo'ladi. Jumladan: Quyosh (mehr) – Islom dini ta'sirida quyoshning "ilohiy xususiyatlari" kamaygan bo'lsa-da, islom davridagi ba'zi yozma yodgorliklarda ularning unsurlari saqlanib qolgan. Masalan, "Qutadg'u

bilig”da to’rt asosiy qahramondan dastlabkisining ismi Kuntug’ di bo’lib, u podsho, shu bilan birga adolat ramzi. Bu quyoshning doimo nur taratib turuvchi, hamma narsadan ogoh va ayni paytda moddiy olam hodisalariga bir xilda yondashuvchi ekanligidan kelib chiqqan.

Umuman olganda, quyosh faol va ijobiy tamoyil bilan ifodalanadi. Ingliz tilida va boshqa tillarda yakshanba quyosh sharafiga Sunday – Quyosh kuni deb nomlangan. Navoiy asarlaridagi sermahsul obrazlardan biri hisoblanib, shoir lirikasida u oy obrazi bilan gohi tanosub, gohi tazod san’atlarini yuzaga keltiradi. Ba’zida Tangri va banda, oshiq va ma’shuq orasidagi munosabatni ifodalash uchun zarra obrazi bilan parallel ravishda, tazod san’atini ifodalagan holda qo’llangan:

Budu nobudum agar teng bo’ldi jonon ollida,

Zarra yo’qu bori tengdur mehri raxshon ollida.[Navoiy: 1987,448]

U me’rojnomalarda to’rtinchi iqlim va payshanba kuni homiysi shohi anjum (yulduzlar podshosi), ilohiy manba sifatida ham talqin etiladi. Me’rojnomalarda to’rtinchi falak sohibi, Iso payg’ambar bilan ham ayniylashtiriladi.

“Hayratu-l-abror”da quyosh so’zi 80 marta ishlatilgan bo’lib, ular Navoiyning ustozlari, do’stlari, Husayn Boyqaro va boshqa qahramonlari ta’rifida keltirilgan. Dostonda mehr so’zi to’qson sakkiz o’rinda qo’llanilgan bo’lib, quyosh va muhabbat ma’nolarini ifodalagan. Me’rojnoma esa odatdagidek, rasululloh bilan qiyosan tasvirlanadi. Ko’ngulning safari ta’rifida Navoiy uni obrazli til bilan yorug’, nurafshon pari paykar deya ta’riflaydi. “Farhod va Shirin”da quyosh so’zi 124 marta ishlatilgan bo’lib, aksariyati ko’chma ma’noda qo’llanilgan. Masalan, na’tda Navoiy Muhammad payg’ambarni quyosh deb ataydi. Mehr so’zi 106 marta keltirilgan bo’lib asosan qahramonlar va ayniqsa, Shirin ta’rifida ko’p qo’llanilgan.

Dostondagi me’rojnoma:

Quyoshqa chun surub gardun xiromin,

Uyotdin yer quyi aylab maqomin.[Navoiy: 199,122]

bayti keltiriladi. Ya’ni: Rasululloh Quyoshga falakka monand tulporini yetkazgandan so’ng u uyatdan yerga kirib ketdi. Ko’rganimizdek, tabiiy hodisa, ya’ni quyoshning har shomda yerga botishidan Navoiy o’ziga xos poetik xulosa chiqarmoqda.

“Layli va Majnun”da quyosh so’zi 42 marta qo’llanilgan bo’lib, Muhammad payg’ambar madhi va qahramonlar ta’rifida faol ishtirok etadi. Chunonchi, me’rojnoma esa Iso Quyoshga emas, balki Quyosh Isoga yetishganligi uchun libosi zarbaft bo’ldi, deyiladi. “Sab’ai sayyor”da quyosh 77 marta, mehr so’zi esa 22 bor ishlatilgan bo’lsa, “Saddi Iskandariy” dostonida quyosh so’ziga 129 bor murojaat etilib, qahramonlar va ayniqsa Iskandar ta’rifida faol qo’llanilgan. Me’rojnoma esa, quyoshning rasululloh salobatidan xijolat bo’lib yerga kirgani ta’riflanadi.

Navoiy Quyoshni mehr, munavvar pari paykar, quyosh va to’rtinchi osmon egasi nomlari bilan ataydi. U qiyomat yaqinligini bilib, qorayib ketdi, deya munojotda unga murojaat qiladi. Ayni paytda Iso payg’ambarning makoni ekanligini eslatadi. Iso unga yetishgach, Quyoshning libosi zarbaft (sariq) bo’ldi, Muhammad payg’ambarning salobatini ko’rgach esa, soyasidan chiqolmadi,

xijolatdan hilolga aylanib qoldi, uyatdan yerga kirib ketdi, deya uning har shom yerga botish hodisasini poetik izohlaydi.

“Xamsa”da pari-paykar istilohi qo‘llanilganda quyoshning majoziyliги biroz o‘zgartirilgan. Bu o‘rinda Navoiyning lirikasiga xoslik, ya‘ni ma’shuqani quyosh sifatida tasvirlashga yaqinlik ko‘rinadi. Qolgan o‘rinlarda quyoshning azaliy majoziyliги kuchaytirilgan. Mehr so‘zi bilan ayniy qo‘llanilganda quyoshning azaliy “xususiyati” – beminnat mehr-muhabbat ulashuvchi manba ekanligiga ham e’tibor qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy o‘zigacha bo‘lgan davrda majoziy obrazlar sifatida forsiy va turkiy adabiyotda faol qo‘llanilgan yetti sayyora, jumladan Quyosh obrazini ijodiy qayta ishladi va faollashtirdi. Ushbu obrazni “Xamsa”da bir necha ma’no qirralarini jilvalantirgan holda tasvirladi.

ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий. Наводир ул-нихоя. МАТ. 20 томлик. Тузувчи: М.Рахматуллаева. –Тошкент: Фан, 1987. Т.2.
2. Алишер Навоий. Фарход ва Ширин. МАТ. 20 томлик. – Тошкент: Фан, 1991. Т.8.
3. Давлатов О. “Хамса” дostonларида меърож ходисасининг бадий талқини . / Алишер Навоий шеъриятида Қуръон оятлари ва хадислар./ Истиклол даври ўзбек Навоийшунослиги. 30 жилдлик. 28-жилд. –Тошкент: TAMADDUN, 2021.
4. Зиётов З. Шумерлар ва Турон қавмлари. –Тошкент: Mumtoz so‘z , 2012.
5. Жумаева С. Ўзбек мумтоз шеъриятида рақам рамзлари ва уларнинг талқини (XII-XV асрлар). Фил. фан. ном. ... дисс. – Тошкент: 2006.
6. Жўраев М., Холмухамедов К. Етти иқлимдаги “етти”лар. –Тошкент: Фан, 1989
7. Жўраев М. Сехрли рақамлар сири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1991.
8. Жўраев М. Ўзбек халқ эртакларида “сехрли” рақамлар. –Тошкент: Фан, 1991.
9. Эшонқулов Ҳ. Коинот – ишқ мазҳари. –Тошкент: Фан, 2008.
10. Ҳасанов С. Рақамларнинг рамзий жилвалари. / Навоийнинг етти тухфаси. –Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991.

MUSTAQILLIK DAVRI NAVOIYSHUNOSLIGI: TADQIQ, TALQIN VA SHARH

***Zarif Omonboyevich QUVONOV,
NavDU dotsenti, f.f.f.d. (PhD)***

Alisher Navoiy nomi asrlardan beri xalqimizning birligi, buyukligi, faxru iftixori timsoli bo‘lib kelmoqda. Shu paytga qadar necha-necha avlodlar bu buyuk zotning merosidan bahramand bo‘lib o‘tdi. Mutafakkir ijodiyotini xalqimiz

ma'naviyatiga yetkazish, bu nodir merosning badiiy qimmatini, uning sir-u asrorlarini ko'rsatib berish adabiyotshunosligimizning muhim tarmog'iga aylangan navoiyshunoslik sohasining muhim vazifasidir. O'zbek va jahon adabiyotshunosligi uchun eng dolzarb ilmiy muammolardan biri Hazrat Navoiy ijodining mislsiz qirralarini tahlil va talqin qilish, Navoiyning jahoniy fenomenining joriylanishiga hissa qo'shishdan iborat.

“Hayrat ul-abror” didaktik ruhning ustuvorligi, obrazlar rang-barangligi, o'z davridagi ijtimoiy muammolarning bir qanchasining ro'y-rost ochib berilishi, xususan, turkiy tildagi ulkan obidaning ilk muqaddimaviy dostoni sifatida shoirning “Xamsa” yozishdan maqsad-muddaosini o'zida to'la-to'kis namoyon eta olishi va mavzu ko'lamining kengligi bilan “Xamsa”ning keyingi dostonlaridan ajralib turadi. Ustoz Oybek aytganidek, “Hayrat ul-abror” Navoiy dunyoqarashini o'rganishda nihoyatda boy va qimmatli materiallarni o'z ichiga olgan dostondir”¹. Demak, mutafakkirning olam va odam, dunyo hodisotlari, diniy-irofniy qarashlar majmui... barcha-barchasi haqida badiiy-falsafiy qarashlari ifodasini topgan “Navoiy dunyoqarashining bayonnomasi” (N.Komilov)dir. Navoiyshunos N.Jabborovga ko'ra “ulug' shoir ijodining cho'qqisi bo'lgan “Xamsa”ning yangicha talqinlari yaratilishi zarur. Bizningcha, “Xamsa”ning kaliti bu – “Hayratu-l-abror”. Keyingi to'rt doston mohiyatini tahqiq etish uchun “Hayratu-l-abror” to'laqonli ilmiy inkishof etilishi, boshqa dostonlar tadqiqida ham undan foydalanilishi zarur”². Shu boiski, buyuk beshlikning ilk dostoni – “Hayrat ul-abror” yuzasidan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Quyida biz istiqlol davri xamsashunosligida “Hayrat ul-abror”ning yangi tadqiq va talqinlari haqida mulohaza yuritishni joiz topdik.

“Hayrat ul-abror”da diniy-ma'rifiy g'oyalar talqini. Milliy istiqlol bergan ulug' ne'matlardan biri, bu – e'tiqod, o'zlik, ajdodlar merosini xolis o'rganish bo'ldi. Sobiq sho'ro adabiyotshunosligi Alisher Navoiyga gumanistik g'oyalar manbai, turkiy til fidoyisi, adabiyotshunos o'laroq munosabatda bo'ldi. Asarlaridan ijtimoiy g'oyalarni davrga moslashtirish talab qilindi. Mustaqillik davri o'zbek adabiyotshunosligida esa shoir asarlarining tasavvufiy qirralarini tadqiq etish, badiiyat shunchaki jamiyat talabalari mahsuli bo'lmay, san'at namunasi ekanligi asosiy masalaga aylandi.

Mustaqillikkacha bo'lgan nashrlarda tushirib qoldirilgan hamd va na'tlar talqini, munojotlar tahlili orqali Navoiy adabiy-estetik, diniy-ma'rifiy qarashlari o'rganila boshlandi. “Xamsa” tarkibiga kirgan har bir doston Alloh taologa hamd, munojot va Rasululloh (s.a.v)ga na't bilan boshlanadi. Aqoid ilmiga oid haqiqatlar ana shu muqaddima qismlarining asosini tashkil etadi. Ulug' shoir har bir bayt, har bir misra zamiriga Qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflar mazmunini mahorat bilan singdirib yuboradi. Ayrim o'rinlarda ulardan iqtiboslar keltiradi”³. Olim fikrini dalillashda “Hayrat ul-abror” ning avvalgi munojotida insonga berilgan “*“Karramno” keldi manoqib ango, “Ahsani taqvim”munosib ango. Baytini*

¹ Каранг: Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн учинчи том. Тошкент, 1979. 257-бет.

² Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. Монография. Тошкент, “Adabiyot”. 2021. 9-бет.

³ Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. Монография. Тошкент, “Adabiyot”. 2021. 24-бет.

shunday talqin etadi: “Karramno” so‘zi “Isro” surasining “Batahqiq Biz bani Odamni azizu mukarram qilib qo‘ydik” mazmunidagi 70-oyatidan iqtibos. “Ahsani taqvim” jumlasini “Tiyn” surasining “Batahqiq, Biz insonni yaxshi suratda yaratdik” mazmunidagi 4-oyatidan olingan. Hazrat Alisher Navoiy Alloh taolo insonni mukarram qilgani va yaxshi suratda yaratgani bilan bog‘liq Qur’oni karimdagi ikki ilohiy xabarni bir baytga jamlash orqali Odam farzandlarining maqomi yuksak ekani, shunga munosib hayot kechirmog‘i zarurligi masalasiga urg‘u bergan”⁴. “Xamsa”ning kaliti” maqolasida olim dostonning nomlanishidan bahs yuritadi hamda ma’qul variant sifati “Hayratu-l-abror” shaklini asoslab ko‘rsatadi. Akademik A.Rustamov ham asar nomini shu tarzda qo‘llaydi⁵. **“Bismillahir-Rahmonir-Rahim” kalimasining sharhiga bag‘ishlangan bobni nuqtadonlik bilan talqin qilar ekan:** “Asarning mazkur bobida insonlar ana shu kalima (durri yatim– Z.Q)mohiyatiga ko‘ra ikki toifaga: ahli qabul va ahli radga bo‘linishi chuqur mazmun va go‘zal badiiy shakl uyg‘unligida yoritilgan, – deb ko‘rsatadi. – Muallif ta’rificha, Haq taolo dargohida ular ikkalasi ham mehmon. Farqi shundaki, ahli rad qahr aro bo‘lsa, ahli qabul – lutf aro. Qahr va lutf tushunchalari “Xamsa”– ning o‘q ildizini tashkil etadi⁶. “Xamsa”ning hamda sarlavhasi A.Rustamiy, yosh tadqiqotchi A.Malik tomonidan ham sharh va talqin etilgan⁷.

Ma’lumki, dostonning 17-bobi “Ko‘ngil ta’rifida” deb ataladi va shoir azalda Xoliqning maqsadi Odami xokiy emas, balki ko‘ngil ganjinasini ekanligini, shu bois kasbi kamolot aynan ko‘ngilga, ruhga xosligini ta’kidlaydi:

*Solik ani argi muallo dedi,
So‘fi ani olami kubro dedi.*

*Ka’baki, olamning o‘lub qiblasini,
Qadri yo‘q andoqki ko‘ngul ka’basi.*

*Kim bu xaloyiqqa erur sajdagoh,
Ul biri xoliqqa erur jilvagoh.*⁸

Solik va so‘fiy uchun “olami kubro” bo‘lgan ko‘ngil, Xoliqning jilvagohidir. Tasavvuf bilimdoni Najmiddin Komilov “Ko‘ngil o‘z sayri davomida barcha borliq, butun mavjudotning Allohga zikr aytishini, alloh nuri bilan yoritilganini ko‘radi. Jumladan, inson a’zolari ham o‘z Yaratuvchisiga tasbeh aytadi deb tasvirlaydi Navoiy. Bu bilan shoir aytmoqchiki, inson ko‘ngli (ko‘ngil bu – ruh) – Alloh yaratgan oliy hilqat, u ilohiy nur makoni”⁹, – deydi.

⁴ Kўrsatilgan asar, 24-бет.

⁵ Рустамий А. Адиблар одобидан адаблар. Тошкент, “Маънавият”, 2003.

⁶ Жабборов Н. Маоний ахлининг соҳибқирони. Монография. Тошкент, “Адабиёт”. 2021. 139-бет.

⁷ Рустамий А. Ҳамд сарлавҳаси // Китобда: Адиблар одобидан адаблар. Тошкент, “Маънавият”, 2003. 64-72-бетлар; Малик А. Алишер Навоийнинг илоҳ, олам ва одам ҳақидаги фалсафаси (“Хамса”даги Ҳамд ва муножот боблар таҳлили) // <https://www.ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/akrom-malik-alisher-navoiyning-iloh-olam-va-odam-haqidagi-falsafasi/>

⁸ Алишер Навоий. Ҳайрат ул аброр. МАТ. 7-том. 1991. 73-бет.

⁹ Н.Комилов. Хизр чашмаси. Тошкент, “Маънавият”, 2005. 8-бет

Alisher Navoiy dunyoqarashi – diniy-tasavvufiy, ma’rifiy-falsafiy ham ijtimoiy qarashlari, ayniqsa, komil inson, ma’rifatli shaxs haqidagi mushohadalari dostonning birinchi va ikkinchi maqolotlarida o‘z ifodasini topgan. Ular mutafaakkir ijodining asosiy mohiyatini to‘la anglashga xizmat qiladi. Keyingi yillarda xamsashunoslikni bu jihatlar tadqiqiga e’tibor qaratganidan shuni anglash mumkinki, shoir badiiy tafakkur dunyosini teranroq anglashga yo‘l ochadi. “Xamsa” tarkibidagi na’tlarning o‘rganilishi ham yuqoridagi fikrlarimizni to‘ldiradi¹⁰.

“Hayrat ul-abror”ning tasavvufiy mazmun-mohiyati N.Komilov, M.Muhiddinov, I.Haqqulov, M.Imomnazarov, N.Jabborov tadqiqotlarida o‘z aksini topganini ko‘rishimiz mumkin.

“Hayrat ul-abror”ning tuzilishi, poetikasi va obrazlar olami.

Muayyan ijodkorning badiiy salohiyati va iste’dodi haqida so‘z borganda, uning tasvir ob’ekti sifatida nimalarni olgani emas, balki o‘sha ob’ekt yoki predmetni qanday tasvirlagani muhim hisoblanadi. Shu ma’noda u yoki bu muallif ijodiga yoxud muayyan badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalamoqchi bo‘lgan g‘oya qanday badiiy timsollar, poetik vositalar, badiiylik qonuniyatlari orqali ifodalanganiga diqqat qaratilgan. Adabiy asarning badiiy jihatdan yetukligiga birlamchi asos voqelik, deb ko‘rsatadi A.Rustamiy va ikkinchi asosi sifatida: “Adabiy asarning badiiyligi tabiat yaratgan mavjudot va mahluqotdagi go‘zallik singaridir. Farqi shundaki, badiiylik sun’iy, ya’ni inson yaratgan go‘zallikning bir turidir. Lekin sun’iy go‘zallik ham yetuk bo‘ligi uchun tabiiy go‘zallikka xos xossalarga ega bo‘lishi kerak. Ana shu xossalar badiiy yetuklikning ikkinchi asosini tashkil qiladi”¹¹, – deydi. Demak, badiiy asarning qurilmasi, ya’ni kompozitsion butunligi, poetik mukammalligi uning to‘kisligini ta’min etadi.

“Hayrat ul-abror” “Xamsa”ning boshqa dostonlaridan farqli ravishda bir necha qasidalar, hikoyalar majmuasidir, – deb ko‘rsatadi tadqiqotchi N.Sharipova. – Dostonda epik tasvir emas, falsafiy talqin ustunlik qiladi, muallifning ta’rif va tavsiflari yetakchi rol o‘ynaydi, syujet va voqealar bayonini shoirning fikr-u qarashlari boshqarib turadi¹².

Xamsashunoslikda keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda dostonlarning poetikasi masalasi, jumladan, obrazlar tizimi, kompozitsion tuzilishi, strukturalari, xronotop, balog‘at, germeneytik, vazn va qofiya xususiyatlari hamda til va uslub masalalarini o‘rganishga ko‘proq e’tibor berilganini ko‘rishimiz mumkin. Istiqlool davri navoiyshunosligida birgina, “Hayrat ul-abror” dostoni asosida bir qancha dissertatsiyalar yaratildi¹³. Mazkur doston an’anaviy xamsanavislikning ilk dostonlari ruhida yozilgan bo‘lib, unda ulug‘ shoirning o‘ziga xos g‘oyaviy-badiiy kashfiyotlariga ham salmoqli o‘rin berilgan. Bu kashfiyotlarning mohiyatini to‘la

¹⁰ Искандаров Ф. Алишер Навоий дostonларида наътлар поэтикаси. Филол... фанлари бўйича фалсафа доктори дисс... Тошкент, 2023.

¹¹ А.Рустамий. Адиблар ободидан адаблар. Тошкент, 2003. 45-бет.

¹² Шарипова Н. Алишер Навоийнинг “Хайрат ул-аброр” дostonи поэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори дисс... 16-бет.

¹³ Мухиддинов. Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида инсон концепцияси (“Хамса”ларнинг биринчи дostonлари асосида) филол.ф.док. дисс... Тошкент, 1995.

anglash uchun salaflar xamsalarining ilk dostonlari bilan “Hayrat ul-abror”ning poetik xususiyatlarini qiyosiy-tipologik yo‘sinda o‘rganish, Navoiy dostoning o‘ziga xos strukturasi, syujeti, kompozitsiyasi, obrazlar tizimining g‘oyaviy-badiiy ifodasidagi poetik vazifalarni aniqlash, komil inson tushunchasining birinchi masalaga ko‘tarilgani atoqli olim M.Muhiddinovning doktorlik dissertatsiyasida o‘rganilgan bo‘lsa, dostonning struktural qurilishi, hikoyatlarning o‘rni va kompozitsion jihatlari, badiiyat masalalari hamda til xususiyatlari N.Sharipovaning tadqiqotida o‘rganilgan.

Ma’lumki, jahon adabiyotshunosligida struktura va struktural poetika xos tadqiqotlarda matnning butunligini tashkil etgan har bir unurning (sarlavha, so‘z, jumla va boshq) badiiy vazifasini ochib berishga qaratilgani bilan ahamiyatli. N.Sharipova “Hayrat ul-abror”ning kompozitsion qurilishidan kelib chiqib, dostonning tarkibiy asoslarini belgilagan. Asarning arxitektonikasini basmala (1-bob), hamd (2-bob), 4-munojot (3-6 bob), 5 na’t (7-11 bob), salaflarga munosabat (12-13 bob), so‘z ta’rifida (14-15 bob), hukmdorlar madhi (16-bob), ko‘ngil ta’rifi (17-bob), uch hayrat (18-20 bob), Bahouddin Naqshband va Xoja Ahror madhi (21-bob) kabi kirish manbalardan so‘ng maqolotlar (1-20) berilib, ularning doston semantik qurilishidagi o‘rni, poetik vazifasi tahlil etiladi. Hamd, munojot, na’t va hayratlarning ma’rifiy-irfoniy mohiyati, asar strukturasi pozitsiyasi, shoir estetik idealini ifoda etish, doston semantik qurilishini shakllantirish singari muhim vazifa ekanligi, ularning “kirish boblar”, “muqaddimaviy boblar”, “ilova xarakteridagi boblar” emasligi, xususan, hayratlar dostonida asosiy semantik qatlamni, g‘oyaviy-badiiy markazni tashkil etishili tadqiqotchi tomonidan ilgari surilgan.

Adabiyotshunos T.Xo‘jaev “Navoiy “Xamsa”si:obraz, badiiyat va mohiyat” nomli monografiyasida dostonidagi obrazlarni: payg‘ambarlar obrazi, avliyo, so‘fiy, shayx, umuman diniy tushuncha bilan bog‘liq siymolar, tarixiy shaxslar timsoli (hukmdorlar, olimlar va hakimlar, shoirlar, turli toifa, kasb-hunar va amal egalari), mifologik obrazlar (ezgulik, yovuzlik miflari, abadiy tiriklar (o‘lmaydiganlar) obrazi), ishq-muhabbat bilan bog‘liq an’anaviy adabiy qahramonlar hamda afsonaviy qahramonlar obrazi sifatida tasnif qiladi¹⁴. N.G‘afforovning “Alisher Navoiy “Xamsa”sida so‘fiylar timsoli” mavzusidagi dissertatsiyasida ham so‘fiylar, tarixiy-tasavvufiy shaxslar, mohiyatan tasavvuflashgan siymolar, Xoja Bahouddin, Xoja Ahror, Xoja Muhammad Porso, Xoja Abu Nasr va boshqa ulug‘ siymolarning navoiyona talqinlari o‘rganilgan. Olim so‘fiylar timsolini ikkiga: tarixiy hamda ramziy ajratib, tarixiy siymolarning o‘n ikkitasi “Hayrat ul-abror”da zikr zikr etilishi, ramziy timsollar esa “Xamsa”ning qolgan dostonlarida uchrashi va bundan obrazlarga pirlik sifatleri aks etgan payg‘ambarlar, murshid sifatida talqin etilgan tarixiy shaxslar va mohiyatan so‘fiylashgan siymolar kirishini ta’kidlaydi¹⁵.

¹⁴ Хўжаев Т. Навоий “Хамса”си:образ, бадийат ва мохият. Тошкент, 2023. 7-бет.

¹⁵ Гаффоров Н. Алишер Навоий “Хамса”сида сўфийлар тимсоли. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун дисс... Тошкент, 1999. 122-бет.

Alisher Navoiy ijodiyotini, jumladan, tafakkur nahri – “Xamsa”ni yangicha yondashuv, poetik mezonlarda tadqiq va tahlil qilish ijodkorning badiiy tafakkur taraqqiyotidagi o‘rnining nechoqli baland ekanligi, ijodining benazir qirralarini isbotlaydi.

“HAYRATU-L-ABROR” STRUKTURASIDA SUJETDAN TASHQARI KOMPOZITSION JIHATLARNING O‘RNI

Nigora Nuriddinovna SHARIPOVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Maqolada “Hayratu-l-abror” dostonidagi syujetdan tashqari kompozitsion jihatlar: badiiy qoliplash, lirik chekinish, kiritma voqea yoki obraz tahlilga tortilgan bo‘lib, ularning asar strukturasi shakllantirishdagi roli misollar vositasida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: struktura, kompozitsiya, badiiy qoliplash, lirik chekinish, kiritma voqea, badiiy mahorat.

“Xamsa” ilk dostonlari strukturasi o‘ziga xos tarzda shakllantirilgan. Asarda syujetdan tashqari kompozitsion jihatlar ham mavjud bo‘lib, muallif badiiy konsepsiyasini shakllantirishda, asarning umumiy g‘oyasini yuzaga chiqarishda ularning munosib ulushi mavjud. Bular quyidagilar:

-badiiy qoliplash.

-lirik chekinish;

-kiritma voqea yoki obraz.

“Hayrat ul-abror” dostoni yaxlit holda badiiy qoliplash asosiga qurilgan. Chunki bu dostonida keltirilgan masala va hikoyatlar keyingi dostonlar uchun o‘zak, asos hisoblanadi. “Xamsa” yaxlit kompozitsion yetuk asar bo‘lib, uning ilk dostoni “Hayrat ul-abror”dagi bir qator hikoyatlar keyingi dostonlardagi syujetlar uchun badiiy qoliplash vazifasini bajaradi.

Lirik chekinish voqealar rivojiga daxldor bo‘lmagan unsur sifatida “Hayrat ul-abror”da har bir bob so‘ngida shoirning Tangriga, soqiyga, o‘ziga murojaatida ko‘zga tashlanadi. Boblar so‘ngida masalani xotimalash, asoslash va o‘z nuqtayi nazarini ifodalash maqsadida lirik chekinishga murojaat qilinadi:

Tebra Navoiyu navo demagil,

Harne emas bo‘lsa, ravo, demagil.

Savtung erur boshtin-ayog harza, qo‘p!

Boshlarig‘a evrul, ayog‘larin o‘p! [H.A. –B.56]

Lirik chekinishlarda shoirning o‘ziga bo‘lgan o‘tkir da‘vat, kuchli murojaatlarda masalaga Navoiyning munosabati aniqlanadi va shu orqali kitobxonga estetik ta‘sir ko‘rsatiladi. Soqiyga murojaatlarda da‘vat, chaqiriq ohanglaridan tashqari iltimos, o‘tinch ma‘nolari ham uyg‘unlashadi:

Soqiy, yetubdur yana jisming‘a tob,

Yuzuma ur, boda suyidin gulob. [H.A. –B.70]

Lirik chekinishlarning ba'zilarida munojotlar ruhi, Tangriga umidvorlik ohanglari ustunlik qiladi:

*Yo Rab, o'shul tuhfani oxir nafas,
Ayla Navoiy ila hamrohu bas. [H.A. –B.94]*

Soqiyga murojaatlar ham zimdan Allohga murojaatdir. Bu kabi lirik chekinishlarda ham shoirning maqsadi, ma'lum masala yuzasidan fikri va munosabati ayonlashadi. Lirik chekinishlar maqolat so'ngida emas, unga ilova qilingan va maqolat g'oyasini tugal yakunlaydigan hikoyatlar so'ngida keladi va hikoyatda ilgari surilgan masala, ko'tarilgan muammoga shoir munosabatini ko'rsatadi. Soqiy(Tangri)ga murojaat shoirning o'ziga murojaatidan ko'proq uchrab, odatda har ikki holatda ham muallif pozitsiyasi ayonlashadi:

*Soqiy, ilik tut, gunahim afv etib,
Kim chiqadur jonim og'izg'a yetib. [H.A. –B.214]*

Bu lirik chekinishlarda dostonning mohiyatidan kelib chiqib, tasavvufiy ruh ustunlik qiladi.

*Soqiy, adab shartini omoda tut,
Ollima to'qquz yukunib boda tut. [H.A. –B.143]*

Kiritma voqea yoki obraz. "Hayrat ul-abror" dostonidagi hikoyat va obrazlarni "Maxzan ul-asror", "Matla' ul-anvor", "Tuhfat ul-ahror" asarlaridagi hikoyat va obrazlar tizimi bilan solishtirilsa, Navoiy ilk dostonida ustozlari asarlarida uchramaydigan qator hikoyat va obrazlarning xamsachilik an'anasiga yangilik sifatida kiritilganiga guvoh bo'lamiz. Ganjaviy, Dehlaviy, Jomiy ilk dostonlarida Navoiyda uchraydigan bir qator obrazlar mavjud emas. Bularga Boyazid Bistomiy, Robiayi Adviya, Abdulloh Ansoriy, Hotami Toyi, Shayx Iroqiy, Imom Faxr Roziy, Sulton Muhammad Xorazmshoh, Shayx Suhravardiy, Yoqut, Ayyub payg'ambar, Iskandar, Isroiliyi Rind, Abdulloh Muborak, Zaynul-obidin, Xoja Muhammad Porso, Xoja Abu Nasr Porso.

Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror"ning so'nggi yigirmanchi maqolati tarkibida bo'lgan hikoyatda Xoja Bahouddin Naqshbandning kibor ashoblaridan Xoja Muhammad Porso o'g'li Abu Nasr bilan birga haj ziyoratiga borgani tasvirlanadi. Unda aytilishicha, haj marosimlari ado etilib, xalq tarqalayotgan vaqtda Xoja Muhammad Porsodan "Sizning duolaringiz mustajob bo'lishini eshitganmiz, bizning tilaklarimiz ijobat bo'lishi uchun duo qiling", deb iltimos qilishadi. Xoja Muhammad Porso: "Men yo'l mashaqqatlarini tortib keldim, o'g'lim faqat Haqni o'ylab, yo'l zahmatlaridan huzur topdi. Men o'z ustozimdan beruxsat duo qila olmayman. O'g'limning ustozini men bo'lganim uchun unga sizlarni duo qilishiga ruxsat berama'", deydi. O'g'il Abu Nasr duo qildi va oxirida Haq taolodan "Otamning shu duoga "Omin!" degani hurmatiga bu duoyimni ijobat etgi", deydi. Bu so'zlar barchaga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Hikoyatdagi bu obrazlar real tarixiy shaxslar bo'lib, Xoja Muhammad Porso "Qudsiya" va "Fasl ul-xitob" asarlarida naqshbandiya tariqati tamoyillari haqida ma'lumotlar bergan. "Hayrat ul-abror"da keltirilgan voqea "Nasoyim ul-muhabbat"da ham bayon qilingan.

Ota va farzand munosabati xususidagi mazkur hikoyatning dostoniga kiritilishi besabab emas. Dostoniga yakun yasaydigan yigirmanchi maqolatda Navoiy

shahzoda Badiuzzamonga nasihatlar qiladi. Shahzoda Badiuzzamon va Husayn Boyqaro o'rtasidagi ota hamda farzandlik munosabatlari doimiy murosasiz bo'lib, uni yaxshilashning ko'p ulushi Navoiy zimmasida edi. "Hayrat ul-abror"dagi Xoja Muhammad Porso hamda uning o'g'li Abu Nasr Porso haqidagi hikoyatning shahzoda Badiuzzamonga nasihat qilingan maqolatga ilova qilinishi Husayn Boyqaro va shahzoda o'rtasidagi ota va farzandlik munosabatlarining yaxshilanishi yo'lidagi muhim qadamdir.

"Hayrat ul-abror" hikoyatlari ham o'z davri ijtimoiy hayot ruhi bilan yo'g'rilgan. Xususan, Badiuzzamon Mirzoga bag'ishlangan yigirmanchi maqolat va uning tarkibidagi Xoja Muhammad Porso va uning o'g'li Abu Nasr haqidagi hikoyat syujeti boshqa salafлари dostonlarida uchramaydi.

"Hayrat ul-abror"ning o'n sakkizinchi maqolatiga o'tkir syujetli hikoyat ilova qilinadi. Bu hikoyatda "Chin marg'zori mushkin g'izolining shershikorlig'i..." sarlavhasi ostida "Ming bir kecha" ertaklari ruhida bir voqea tasvirlanadi. Shoh qizining husn-jamolini bir ko'rgan oshiqlarni o'limga hukm etib, devorga qo'shib, suvatadi. Bu qadar jallodlikka qaramay, bir vafodor oshiq ma'shuqasi uni o'ldirayotganiga xursandligini bildirib, xarobada yotadi. Mazkur ertak-hikoyatda sirli ma'nolar, xalq ijodi – ertakka xos syujet, ishqiy mavzuning yangi qirralari, haqiqat va majozga aloqador g'oya, zolim xonning oshiq vafodorligidan, sadoqatidan, o'limga xursandligidan ta'sirlanishi, badiiyluk va g'oyaviylukning barcha unsurlari mavjud.

Hikoyat voqealari, konflikt, to'qnashuvlar xarakterlar mantig'iga muvofiq rivojlanadi. Xon va uning sohibjamol qizi xarakteridagi kibru havo, yovuzlik syujetni harakatga keltiradi. Haq taolo Chin go'zali, nozaniniga husn-jamol bergan, qiz va otasi – xon ana shu Xudo bergan ne'matni xalq, fuqarolar ko'rishini istamaydi. Bu xarakterga xos salbiy fojialarni keltirib chiqaradi. Mazkur hikoyatda tafakkur emas, tahayyur, abrorlar vafosi, sadoqati – johillarga, qotillarga ham ijobiy ta'sir qilishi real hayotda uchramasa-da, badiiy asarda, ertakda bo'lishi mumkin. Shoirning maqsadi, g'oyasi shunga imkon beradi.

Ertak-hikoyat g'oyasi – agar husn-jamol insoniy fazilatlar bilan qo'shilmasa, xalq boshig'a qayg'u, kulfatlar, halokatlar keltirishi poetik mukammal ifoda topgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, dostondagi mazkur kompozitsion unsurlarning asar arxitektonikasidagi ahamiyatini o'rganish doston mohiyatini teranroq anlash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. To'la asarlar to'plami. Oltinchi jild. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 812 b.
2. Бертельс Е. Э. Наваи и Джами. – М.: Наука, 1965.
3. Erkinov A. Alisher Navoiy "Xamsa"si talqinining XV-XX asr manbalari. Filol.fan.dok.diss. – Toshkent, 1998. – B.87.

4. Hayitmetov A. Navoiyning ijodiy metodi masalalari. – Toshkent: O‘zRFA nashriyoti, 1963. – B.166.
5. Is’hoqov Yo. Navoiy va Xusrav Dehlaviy // Navoiy va adabiy ta’sir masalalari. – T.: Fan, 1968. – B.88-98.
6. Qayumov A. Hayrat ul-abror talqini. Asarlar. 1-jild, 1-kitob. – T.: MUMTOZ SO‘Z, 2008. – B.18
7. Турсунзода М. Весенний сад поэзии // Джамии. Избр. произв. 64 – х томах, том 1. – Душанбе: Ирфон, 1972. с. 5-6.
8. Shodiyev E. Alisher Navoiy va uning salaflari. – L., 1967. – B.10.

ALISHER NAVOIY IJODIDA FOLKLORIZM

***Nilufar Shirinboyevna TOSHEVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning asarlaridagi xalq og‘zaki ijodiga oid bo‘lgan unsurlar tahlilga tortilgan. Bunda, asosan, mutafakkirning “Xamsa” dostonlaridan ba’zilaridagi folklor vositalarining poetik vazifalari o‘rganildi.

Kalit so‘zlar. Folklor, folklorizm, mifologiya, g‘azal, ruboiy, poetika.

Badiiy adabiyotning asosiy quroli so‘z hisoblanadi, ammo bu so‘z san’atining mahorati va kuchidan sa’natkorlarimiz turli maqsadlarda foydalanadi. Xalq og‘zaki ijodi adabiyotimizning keng tarmog‘ini o‘z ichiga oladi. Adabiyotimizda nasr va nazmda ham og‘zaki ijodning ta’sirini ko‘rishimiz mumkin. Folklor janrlari ta’sirida o‘zbek nasrida ham ba’zi janrlar paydo bo‘ldi. Xalq og‘zaki ijodida mavjud bo‘lgan ertak, dostonlar, qo‘shiq, alla kabi janrlar yozma adabiyotda aynan individual tarzda vujudga keldi.

Jahon adabiyotshunosligida adabiy jarayon bilan bog‘liq badiiy asar tarkibida keladigan folklorga oid vositalarni o‘rganish va uni anglash zarurati filologiya sohasida ham jiddiy masalalarni kun tartibiga qo‘yyapti. Mumtoz adabiy jarayonda gumanitar sohalarida shakl va mazmuni mukammal, sifat jihatidan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun imkoniyatlar yaratildi. Bundan unumli foydalanayotgan adabiyotshunoslik fani ham o‘z obyektiga yangicha nigoh bilan qarash, folklor bilan bog‘liq adabiy muammolarni chuqurroq anglash yo‘lidan bormoqda. Nasrda xalq og‘zaki ijodiga xos xususiyatlar badiiy asarning g‘oyaviy mazmunini ifoda etishda juda muhim sanaladi. Tabiiyki, bu hol adiblarning iste’dodi, badiiy mahorati, tafakkur tarziga ham daxldor. Ijtimoiy muhit doimo adabiy-ma’naviy, madaniy hayot bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Darhaqiqat, bugungi davr kishilari ong-u tafakkuri, dunyoqarashi va ruhiyatidagi o‘zgarishlar, eng avvalo, adabiyot va san’atda o‘z aksini topadi. Mumtoz adabiyot durdonalarini olamizmi yoki zamonaviy adabiyot namunalarinimi ularning barchasi folklor unsurlari ma’lum poetik vazifa bajargan.

Adabiyotshunoslar tomonidan olib borilgan folklor va yozma adabiyot munosabatlariga bag'ishlangan tadqiqotlarni quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Mumtoz adabiyot va folklor munosabati masalalari tadqiqi.
2. Zamonaviy adabiyot va folklor munosabati masalalari tadqiqi. [2,132b.]

Mustaqillikdan avval mutafakkir ijodidagi folklor elementlari adabiyotshunos olim N.Mallayev [1, 430b.] o'rgangan bo'lsa, istiqldan keyin A.Navoiy asarlaridagi folklor unsurlarini poetik tahlil qilishga e'tibor kuchaydi. M.Narziqulovning [3, 24 b.] "Sab'ai sayyor" dostonida folklorizmlar va o'zbek folklorida Bahrom syujetining talqini", T.Xo'jayevning "XV asr birinchi yarmi o'zbek adabiyoti va folklor" [4, 24 b] mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyalarida mumtoz adabiyotimizning ba'zi bir vakillari ijodidagi folklor motivlari va ularning poetik vazifalari yoritib berilgan.

Xalqimiz tarafidan ijod etilgan namunalarni adabiyotimizga ijodkor tomonidan olib kirilishi yoki ularga ishlov berilishi folklorizm hisoblanadi. Folklorizmlar yozma adabiyotimiz paydo bo'lgan vaqtdan beri mavjud. Hazrat Alisher Navoiy ijodi ham xalq og'zaki ijodi g'oyalari bilan yo'g'rilgan. Mutafakkirning buyuk so'z merosi bo'lgan "Xamsa" dostoni ham folklor ta'siri ostida yaratilgan. "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" dostonlarining yaratilishi zahirida ushbu qahramonlar qatnashgan dostonlar g'oyasi va syujeti yotibdi. Xalq orasida Farhod degan kuchli, jasur yigit bo'lib, u Shirin ismli bir go'zal qizga oshiq bo'ladi. Shirinning go'zalligi tillarga doston edi, shu mamlakatning ham shohi oshiq edi. Farhod va o'sha shoh o'rtasida katta konflikt yuzaga keladi. Alisher Navoiy ham Nizomiy Ganjaviy ham, Xusrav Dehlaviy hazratlari ham xalq orasida tarqalgan "Farhod va Shirin" haqidagi doston hamda ertak asosida yaratilgan.

"Farhod va Shirin" xalq orasida yanada kengroq tarqalgan, shuhrat topgan mumtoz asardir. Uning afsona va rivoyat, ertak va doston variantlari bor. Bular syujeti va kompozitsiyasi, obrazlar sistemasi jihatidan bir-biridan farq qiladi, lekin g'oyaviy mazmuni, maqsadi jihatidan juda yaqin turadi. Suvsiz yerga suv chiqarib hayot bag'ishlash, xalqning osoyishtaligi va farovonligi uchun kurash, sevgi va sadoqat, olijanob insoniy fazilatlar "Farhod va Shirin" variantlarining asosiy mohiyatini tashkil etadi. Ularning ko'pchiligida Farhod ijobiy qahramon sifatida ko'rsatiladi, Xusrav esa ushbu ijobiy qahramonga qarshi qo'yiladi. Xalq orasida "Farhod va Shirin" dostoni variantlari bir qancha bo'lib, ular folklorshunos olim M.Afzalov tomonidan o'rganilgan. Ushbu doston variantlari qaysi davrda yaratilganining aniq vaqti mavjud emas.

Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonini yaratishda bu qahramonlar haqidagi doston, ertak, rivoyatlar syujetidan foydalangan. Farhod obrazini bosh qahramon qilib ko'rsatadi.

"Layli va Majnun" dostoni ham xalq orasida yaratilgan ertak va dostonlar asosida yaratilgan. Ulardagi mazmun mohiyat, syujet deyarli bir xil. Alisher Navoiydan avval ham "Xamsa" dostonlari yaratilgan bo'lib, ular faqat yaratilish

tili bilan farq qilgan va ijodkorlar tomonidan asarlarning ba'zi qismlariga o'zgartirish kiritilgan.

Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonidagi boshqa dostonlarida ham xalq og'zaki ijodi ta'siri sezilib turadi. "Saddi Iskandariy" dostonida Luqmoni hakim haqida so'z boradi. Luqmoni hakim xalq qahramoni hisoblanadi. Ushbu qahramon xalq hikoya va ertaklarida ham Luqmon tabib va donishmand sifatida gavdalanadi. U xalqqa shu darajada el bo'lib ketgan qahramonki, xalq ko'pincha o'z bilimi, tajribasi va tadbirlarini Luqmon qiyofasida mujassamlashtiradi. "Luqmon hakim" ertagida [5, 447b.] xalq tibbiyotidagi tabobat usullari va dori-darmonlar Luqmon bilan bog'lab beriladi. Ushbu ertakda Luqmon Iskandarga zamondosh kishi sifatida tasvirlanadi. Bir qishloqda Luqmon degan tabib bor ekan, Iskandar Zulqarnayn "Odami obi" ("Suv odami")ni bilmoqchi bo'lib, vazirlarning maslahati bilan zindondagi bandilardan birini shishadan yasalgan uyga solib, Sho'r daryoga tushuribdi, u odami oblarni ko'rib, podshohning tobe bo'lish taklifini aytgan ekan, ular bir kosa un berib, kosani oltin bilan to'ldirsin, agar kosa to'lsa biz tobe bo'lamiz, debdi. Xazinachi tanga-oltin to'kkan bilan kosani oltin bilan to'ldira olmabdilar. Kurondozlar kosaga tuproq solib, hiyla bilan kosani oltinga to'ldiribdilar. Podshohning xotini suv odamlari bergan undan xamir qiladi, ammo xamir turmay oqib ketaveradi. Shu oqib yaxshi chiqmagan nonni bir devonaga beradilar. Bu Devona Luqmoni hakim edi. Luqmoni hakim o'g'liga Iskandarning o'g'linikiga o'xshagan kiyim tikib bergani uchun Iskandar Luqmonni o'ldirtirib yuboradi. Ammo mo'jiza bilan u va uning o'g'li o'lmay qolishadi.

Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonida ham boshqa xamsanavislarning yaratgan dostonlarining barchasida bu ertak syujeti ta'siri ko'rinib turasa-da, ular Luqmoni hakimga, Iskandarga bergan ta'rif-tavsiflari bilan, ularni badiiy gavdalandirgani bilan farq qiladi. Alisher Navoiy asarlarida xalq qahramonlaridan tashqari xalq maqollaridan, mifologik obrazlardan foydalangan. Bizga ma'lumki, folklorizmlarning ikki xil turi mavjud: oddiy va murakkab. Mutafakkir ijodida ikkala shakldagi folklorizmlar ham uchraydi. Yuqorida keltirilgan dostonlarda folklorizmning har ikki turi ham uchragan. "Xamsa" dostonlaridagi dostonlar ma'lum bir ertak, doston syujeti va g'oyasi asosida yozilganligi uchun murakkab folklorizmning sintezlashgan turi hisoblanadi.

Xalq ijodi va folklor – nazariy jihatdan qadimdan hozirgacha turli tasnif va talqinga asos ilmiy tushuncha. Badiiy asar asos-negizini tashkil qiladigan folklorizm tushunchasi – tarixiy va nazariy poetikaning eng muhim komponenti, san'at asarining o'ziga xos xususiyatini ifodalovchi vosita. Folklor va yozma adabiyot munosabatini o'rganish XXI asrda ham dolzarb muammolardan biri sifatida adabiyotshunoslikning ajralmas qismi bo'lib saqlanib qolmoqda. Xalq ijodi va yozma adabiyotga adabiy jarayonning tarixiy-tadrijiy rivojida ikki xil badiiy-estetik hodisa sifatida o'zaro munosabatda bo'lib kelingan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy asarlarida folklor motivlarini mohirlik bilan qo'llashi ming yillar davomida xalq ma'naviyatining yuksalishiga qimmatli manba bo'lgan xalq ijodining badiiy qimmatini oshirgan. Va mumtoz adabiyotimizni folklordan o'z genotipi sifatida ozuqa olishi, milliy

ruhning saqlanib qolishi, asar voqealarining xalq yaratgan an'analar, urf-odatlar bilan bog'lanishi hamda ularning yozma adabiyotimizda ma'naviy merosga aylanib qolishi uchun katta ma'naviy-ma'rifiy manba bo'lgan.

ADABIYOTLAR:

- 1.Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – Toshkent: G'afur G'ulom NMIU, 2015. – B. 200-300.
- 2.Tosheva N. Hozirgi o'zbek nasrida folklorga oid vositalarning poetik funksiyasi. – Toshkent: Bookmany print. 2024.12-b.
- 3.Narziqulova M. "Sab'ai sayyor" dostonida folklorizmlar va o'zbek folklorida Bahrom syujetining talqini: Fil.fan.nomz. ... dis.avtoref. – Toshkent, 2006.
- 4.Xo'jayev T. XV asr birinchi yarmi o'zbek adabiyoti va folklor: Fil.fan.nomz. ... dis.avtoref. – Toshkent, 1994.
- 5.O'zbek xalq ertaklari, 2-tom, 437-447-b

“HAYRATU-L-ABROR” ASARINING KOMIL INSON TARBIYASIDAGI ROLI

Nodira Bahodir qizi KOBULOVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodida muhim o'rin tutgan “Hayratu-l-abror” asari va unda ilgari surilgan o'lmas g'oyalarning bugungi kundagi dolzarbligi misollar yordamida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: milliy o'zlik, doston, odob-axloq, pand-nasihat, komillik.

Mustaqillik milliy, madaniy boyliklarimiz tiklanib, milliy o'zlikni anglash, ma'naviy merosni xolisona o'rganish va tadqiq etish, mutafakkir va allomalarimizning boy madaniy merosidan xalqimizni bahramand etishga hayotiy zaruriyat sifatida yondashildi va bu borada bir qancha ijobiy natijalarga erishildi. Alisher Navoiy adabiyotimiz tarixida bezavol va betakror, buyuk asarlari bilan mangulikka erishgan ulkan so'z san'atkori sifatida e'tirof etilib, ijod namunalari turli nuqtayi nazarlardan tadqiq etilib kelinmoqda.

Inson qalbining quvonch va qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam uchraydi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ong-u shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptitirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz.

Alisher Navoiyning hayoti, adabiy, ilmiy merosini o'rganish va uni tadqiq etish o'z zamonida - XV asrda boshlangan. Navoiy ijodini o'rganish va uni hayotga tadbqiq etish, ulug' so'z san'atkorining ijodiy merosi yosh avlodga tanishtirish, Navoiy dahosiga hurmat-ehtirom tuyg'usini uyg'otish orqali biz yoshlarda ma'rifat, ezgulik, komillik, kamolot, qanoat, sabr, insoniylik kabi bir

qancha ijobiy fazilatlarni shakllantiramiz. Ustoz Ibrohim Haqqul ta'kidlaganlaridek: "Navoiy saboqlariga amal qilgan kishi o'z-o'zidan xalq dard-u tashvishlarini yengillatishga bel bog'laydi, fikrni-fikrsizlikka, ilm-ma'rifatni – nodonlikka va jaholatga qarshi qurol o'rnida ishlatadi." [1,10] Navoiyning purma'no so'zlarini tahlil va talqin eta olishimiz orqali biz yosh avlodning insoniy fazilatlarini kamol toptirishga erishamiz.

Alisher Navoiy turkiy adabiyotimizning markaziy siymosi, ijod olami ummon qadar keng mohir so'z san'atkoridir. Bu ijod ummonida bir tengsiz javohirlar shodasi borki, bu o'z zamonida, umuman, turkiy adabiyotda tengsiz va takrorlanmas gavhar hisoblangan "Xamsa"dir. Besh ulkan obidadan tarkib topgan bu asar Navoiy ijodining gulto'ji, ijodiy jasoratining mahsulidir. "Xamsa" tarkibidagi har bir doston bir olam bo'lib, undagi qahramonlar taqdiri, voqealar rivoji, badiiy tasvir vositalarining qo'llanishi o'ziga xosdir. Ayni shu dostonlar orasida "Hayrat ul -abror" yuksak sur'at bilan bitilgan, salkam to'rt ming baytdan iborat bo'lib, Navoiy bu dostonni "obi zindagoniy" ya'ni "hayot suvi" deb ta'riflagan edi.

Navoiy ushbu dostonda ham Sharq dostonchiligi an'analarini davom ettirgan holda, diniy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy masalalarni oldinga qo'yib, ularga o'z munosabatini bildirdi. "Hayrat ul abror"da ilohiyot, dunyoni bilish, inson va tabiat, jamiyat va shaxs mohiyati bilan bog'liq turli vaziyatlar yuzaga keltirilgan va Navoiy insoniy sifatlarni ulug'lab, zulm, zo'ravonlik, adolatsizlik, tengsizlik, jaholat kabi illatlarni avj pardada qoralagan.

Dostonda pand-nasihat ruhi yetakchilik qiladi, Navoiy insonning o'zligini namoyon etuvchi ilohiy qudrat sanalmish so'zga yuksak baho beradi. Badiiy tashbehtar orqali so'zning qudratini vasf etar ekan, til bir po'lat xanjar bo'lsa, unga qadalgan injularni so'zga qiyoslaydi. So'z bir jon bo'lib, uning qolipi tildir, tanidaki joni bor odam so'zga ehtiyoj sezadi, deydi Navoiy. Quyidagi misralari orqali so'zning ilohiy qudratini yana bir bora namoyon etadi:

*So'z din o'likning tanida ruhi pok,
Ruh dog'i tan aro so'z din halok. [2,8]*

Xalqimizda "Shirin so'z jon ozig'i, yomon so'z bosh qozig'i" degan naqlga hamohang tarzda yozilgan bu ikki misra inson ruhiy olamiga so'zning ta'siri naqadar kuchli ekanligini yana bir bora badiiy tasvirda gavdalantiradi.

Mutafakkir shoirning ushbu dostonda tarbiyaviy qarashlari o'z aksini topgan bo'lib, buni oltinchi maqolatda kuzatishimiz mumkin:

*Tarki adabdin biri kulgu durur,
Kulgu adab tarkiga belgi durur.
Qahqahadin kabk navo keltirub,
Boshig'a ul kulgu balo keltirub. [3,25]*

Yuqoridagi maqolat odob mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, ushbu misralarda shoir tashbih san'atidan mohirona foydalangan holda, odobsizlikning belgisi bo'lgan kulguga ta'rif beradi. Fikrini dalillash uchun kaklikning baland ovozda sayrash natijasida ovchi o'ljasiga aylanishini, chaqmoq o'z kulgusi bilan tog'ning ichiga qulab, hatto yerga pastlab, tuproqqa kirib ketishini, noo'rin va me'yorsiz

kulgu orqali inson faqat sharmandali holatga tushib qolishini mahorat bilan yoritadi.

Ushbu dostonida shoir shaxs ma'naviy takomilida axloq-odob va ta'lim-tarbiyaning o'rni beqiyos ekanligiga urg'u berar ekan, inson ma'naviy kamolotida yuksak o'rin tutuvchi ota-onani e'zozlash zarurligini uqtiradi:

Boshni fido ayla ato qoshig'a,

Jismni qil sadqa ano boshig'a.

Odobning eng muhim shartlaridan biri ota-onaga ehtirom bajo keltirmoqlikdir deb ta'rif berar ekan, o'z fikrini ko'rkam tashbihlar orqali quvvatlantiradi. Ikki dunyo saodatiga erishmoq uchun avvalo, bu ikki insonning roziligini olmoq lozimligini ta'kidlar ekan, ota-onani insonning tun-u kuniga nur bag'ishlovchi "oy" va "quyosh"ga mengzaydi. Ota-onani hurmat qilish, keksaygan damlarida g'amxo'rlik qilish, xalqimiz qon-qoniga singib ketgan. Yaratgan ham ularga g'amxo'rlik qilishga buyuradi. Navoiy ushbu ko'rsatmani badiiy uslubda xalqqa yetkazadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoni o'quvchiga dunyoni anglash, borliq haqida ham diniy ham dunyoviy tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. Pand-nasihat mazmunidagi purmano fikrlar ko'rkam tashbihlar orqali jonlantiriladiki, bu yuzaga chiqarilishi ko'zda tutilgan g'oyaning kitobxon qalbiga chuqur joylashuviga sharoit hozirlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. - T.:2007, 10-bet
2. Hayitmetov A. Alisher Navoiy "Hayrat ul abror"dan. - T.: 1983, 8-bet
3. Hayitmetov A. Alisher Navoiy "Hayrat ul abror"dan. - T.: 1983, 25-bet

ALISHER NAVOIY IJODINING NUROTA SHOIRLARI IJODIDA TUTGAN O'RNI

Faxriddin Toshpo'lotovich RAJABOV,

Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsent v.b., f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma'lum bir hududdagi ijodkorlikning rivojlanishida aynan Nurotalik ijodkorlarning Alisher Navoiy ijodidan ta'sirlanib yozilgan she'rlari ularning mazmuni va badiiy xususiyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Xamsa, navoiyshunoslik she'riyat, mumtoz poetika, nazm, nasr, g'azal, ruboiy.

Mumtoz adabiy asarlarning adabiy-badiiy qimmatini inson ma'naviyatini shakllantirishida muhim manba hisoblanadi. Badiiy ijodkorlik masalasi haqida gap ketganda barchamizning ko'z oldimizga har tamonlama yetuk va mukammal ijod namunalari keladi va albatta, ijodkorlikdagi eng asosiy va kerakli shartlardan biri ham shu. Asrlar davomida inson ma'naviyatini shakllantirishda aynan shunday talablar asosida shakllangan asarlar ko'proq xizmat qilgan. Lekin masalaning ikkinchi tomoni ham borki, badiiy jihatdan nasr va nazm talablariga javob bera

olmagan asarlar ham kitobxonni balki yozuvchi va shoirlarni ham o'zidagi kamchiliklarni shunday turdagi asarlarda ko'rgan bo'lishi va shu orqali asarlar yaratilishidagi kamchiliklarga yo'l qo'yilishining oldi olingan bo'lishi mumkin. Bu kabi mavzularda ya'ni badiiy jihatdan yetuk va yetuk bo'lmagan asarlar har doim mavjud bo'lgan va bu hol bugungacha davom etib kelmoqda va bundan keyin ham davom etadi. Sababi har bir shaxsning dunyoqarashi har xil badiiy tafakkur hosilasida pishib etilgan asarning umrboqiyligi uning dolzarb va o'lmas mavzularni qay darajada qalamga olganligi bilan belgilanadi.

Nurotalik shoirlarning Navoiy ijodidan ta'sirlangani va bugungi kunda yoshlar tarbiyasida va umuman bugungi kun kitobxoniga Navoiy asarlarining mazmun mohiyati nechog'lik ahamiyatli ekanligi ijodkorlar tomonidan yaratilgan ijod namunalari orqali ham anglash qiyin emas.

Nurotalik ijodkorlardan Ergash Asaboyev, Eshniyoz O'rolov, Safar Umrzoqov, Rahmon Asadov, Suyundik Mustafoev, Shodigul Husenova, Baxtiyor Halimov, Mazura Mustafoeva, Gulhayo Qobilovalar tomonidan Navoiy dahosiga ehtirom sifatida yoki Navoiy ijodidagi o'lmas va umrboqiy mavzularning amaliy ahamiyati inson ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rni xususidagi mavzularni o'z ichiga olgan she'rlar yaratilgan. Ushbu she'rlar bilan tanishar ekansiz ularning mazmuni o'z davrida ham, bugun ham ahamiyatga ega. Shuningdek, Nurota adabiy muhiti vakillari Alisher Navoiy ijodiga murojaat qilib, ulardan ta'sirlanib ijod qilib kelishgan. Ular yaratgan ijod namunalari Navoiy asarlarining tarbiyaviy ahamiyati, inson ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rniga alohida e'tibor qaratishadi.

Nurotalik shoir Eshniyoz O'rolov ning Alisher Navoiy tavalludining 560 yilligi munosabati bilan yozilgan "She'riyat quyoshi" nomli she'rida Navoiyning shaxs sifatidagi ulug' siymo ekanligi, asarlari davrlar suronlardan mardonavor bo'y ko'rsatib turganligini, "Xamsa" asaridagi yurtparvarlik, adolat, muhabbat mavzulari o'zligini izlagan xalqqa qo'ng'iroqli karvon ekanligini ta'kidlaydi:

Yurtparvar, adolat, muhabbat uchun,

To abad haykaldir "Xamsa" bebaho.

O'zligin izlagan elatga har kun,

Qo'ng'iroqli karvonday satrlar daho.

Ijodkorning bu da'vati bugun Navoiy tavalludining 584-yilligi munosabati bilan o'tkazilayotgan adabiy-badiiy kecha va navoiyxonlik tadbirlarining asosiy mavzusi ekanligining o'zi Navoiy dahosiga bo'lgan e'tiborning har doimgidan-da zarurati oshib borayotganligini ko'rsatadi.

Yoki ziyokor-ijodkor Safar Umrzoqov ning "Nazm elin Payg'ambari" nomli she'ri ham Navoiyga bag'ishlangan bo'lib, Navoiy ijodi orqali turkiy tilning kamol topganligi, turkiy xalqlarning azaliy orzularining ro'yobi Navoiy asarlari orqali amalga oshganligi, asarlaridagi qahramonlar va ularning bugungi kun yoshlari uchun ibrat bo'larli xislat sohib va sohibalari ekanligi, shuningdek, Navoiy asarlari qahramonlari bo'lgan Layli, Shirin, Diloromlarning baxt quchgani har xonadonda Navoiy devonlarining borligi, balki dunyo ahli tafakkurini zabt etganligini shunday ta'riflaydi:

Ozod yurtda Layli, Shirin, Diloromlar baxt quchgan,

*Har xonadon tokchasida kulliyoting taxlangan.
Jahon xalqi qalblaridan asarlaring joy olgan,
Nazm elin Payg'ambari! Buyuk shoir Alisher,
Ijod ahlin g'olibisiz, sherlar sheri - buyuk Sher!*

Nurotalik adib Rahmon Asatov ijodi turli mavzulardagi she'rlar bilan birga Navoiy ijodiga bag'ishlangan "Navoiyni o'qing" nomli she'ri ham o'z uslubi va mavzu mundarijasi bilan bugungi yoshlarga, bugungi kitobxonlarga da'vatdek yangraydi:

*Burro Shirin bo'lsin doim tillaring,
Do'stlar davrasida shodmon ellaring.
Millatning faxri bo'l, oydin yo'llaring,
Navoiydan o'qing jon qiz, jon o'g'lon!*

Shirin kabi hozirjavob bo'ling. Yana do'stlar davrasida shodon bo'lasiz, millatning faxri bo'lasiz, yo'llaringiz oydin bo'ladi qachonki, siz Navoiydan o'qisangiz, o'rgansangiz saboq olsangiz...

Shoir yana fikrini davom ettirib, yoshlarni umuman olganda kitobxonni ogoh bo'lishga chorlaydi. Va shunday deydi:

*Esda tut hali ham Surxayllar bor,
Vataningni asra sen sergak hushyor.
Kelajak bugundan boshlanar har bor,
Navoiyni o'rgan ey qiz, ey o'g'lon!*

Lirik qahramon ta'kidlagan, inson uchun zarur bo'lgan bilimlar inson duch kelishi mumkin bo'lgan muammo va masalalarning yechimi manbasi Navoiy asarlarining zamiridadir. Shunig uchun Navoiy asarlarini o'qish va uqish har davrdagidan ham bugun dolzarb ekanligini ta'kidlamoqda.

Nurota adabiy muhitining yirik vakillaridan biri Suyundik Mustafo Nurotoiy bo'lib, ijodining serqirraliligi bilan alohida ajralib turadi. Adib "Alisher Navoiy" nomli maqolasida Hazrat Navoiy o'z asarlarida Qur'oni Karimdan ham keng foydalanganligini, uning "Xamsa", "Sittai zaruriya", "Nasoyim ul-muhabbat", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Siroj al-muslimin" kabi asarlarida, umuman, nazm va nasrdagi yozma merosida islom masalalari bo'yicha ko'p hollarda Qur'on oyatlariga asoslangan mulohazalar bayon qilingani haqidagi ilmiy qarashlarini bayon qiladi. Adib mulohazalarini bayon qilib shunday xulosaga keladi: "Alisher Navoiyning mazkur diniy yo'nalishdagi asarlarini o'rganish orqali uning dinga bo'lgan munosabati, e'tiqodi bilan bog'liq muayyan ma'lumotlar olish bilan birgalikda, uning islom ilmlarining yetuk bilimdoni ekanligi to'g'risida tasavvur hosil qilamiz. Bu ulug' shoirning o'z davri ijtimoiy hayotida tutgan o'rni nechog'lik muhim bo'lganligini belgilab beruvchi o'ziga xos omil ekanligi bilan ahamiyatli sanaladi".

Umuman olganda, adib ijodi Navoiyning teran ilmiy, irfoniylar, falsafiy, diniy qarashlari bilan yuksak mazmun kasb etgan.

Shoira Shodigul Husenova "Buyuk siymo" she'rida Navoiyning donishmandligi, "Xamsa"dek bebaho asarning qimmatini va inson tarbiyasidagi o'rni xususidagi mulohazalarini ifodalaydi. U sevgi va sadoqat, mehnat mardlik

mavzulardagi bebeho besh haykal yaratganligi g‘azallari esa ko‘ngil to‘ridan joy olib tillarda umrbod yangrashiga diqqat qaratadi:

*Sevgi va sadoqat, mehnat mardlik deb,
Bebaho besh haykal yaratdi ustod.
Boqiy g‘azallari ko‘ngil to‘ridan,
Joy olgan, tillarda yangrar umrbod.*

Umuman olganda, Nurota adabiy muhiti vakillari tomonidan Alisher Navoiy an‘analari hamda merosiga murojaat mavzusida ayrim ijodkorlar ijodi misolida fikrlarimizni bayon qildik, xolos. Navoiy asarlarini o‘rganish uni anglash yo‘lida amalga oshirilgan va Navoiy ijodiga bo‘lgan munosabatni targ‘ib qilish borasidagi ishlar barcha davrlarda yangicha qarashlarni tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Chunki, shiddat bilan rivojlanayotgan axborot texnologiya asrida tarbiya masalasi haqidagi Navoiyning o‘lmas g‘oyalarini zamonga mos tarza tushuntirish muhim. Bu borada Navoiydan o‘rgangan ijodkor ziyolilarimizning yaratgan ijod namunalarini hamisha o‘quvchilar kitobxonlar e‘tiboriga havola qilib borish dolzarb vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR:

- 1.Rajabov F. Olg‘ali ko‘nglin Navoiyni... Navoiy, 2021, 312 b.
- 2.Eshniyoz O‘rolovningning shaxsiy delosi. Nurota tuman davlat arxivi, 145-fond,1-ro‘yxat,19-yig‘ma jild.
- 3.Ражабов Ф. Нуроталик зиёкор ижодкор. “Ўзбек адабиётшунослигининг долзарб муаммолари: таҳлил ва талқин” республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Термиз. 2019. 17-18 май 130-132 б.
- 4.Суюндик Мустафоев. Шомуродчорбоғ ва Шомуродчорбоғликлар. Т.; 2009, 125 б
- 5.Ражабов Ф. Ўлкашунос адиб (Ғозғонлик шоир Раҳмон Асатов портретига чизгилар). “Сўз санъати” халқаро журнали, 2020 й, № 3, 238-242.
- 6.Rajabov F. Sundin Mustafu Nurotoi artistic and literary heritage. Econspeak a journal of advances in management, it& social sciences www.skirec.org 5-may 2019-yil 19-22 b. impact factor 6.569. (issn:2231-4571)
- 7.Ражабов Ф. Нуроталик шоира Шодигул Хусеновнинг ҳаёти ва ижодий фаолияти//ЎЗМУ хабарлари (Тошкент). 2020. №3.174-176-б.

ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTIDA NAVOIY AN‘ANALARI: ADABIY TA‘SIR VA O‘ZIGA XOSLIK

*Ra‘no Maxmudovna PAYZULLAYEVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Navoiy innovatsiyalar universiteti*

Annotasiya: Alisher Navoiyning “Xamsa”si tarkibiga kiruvchi birinchi doston “Hayrat ul-abror” dostoni hisoblanib, shoir Sirojiddin Sayyid “Hayrat ul-abror” ta’sirida o‘zining “Xamsa hayratlari” nomli turkum she’rlarini yaratadi.

Ushbu maqolada Sirojiddin Sayyidning “Xamsa hayratlari” tarkibiga kiruvchi ba’zi she’rlari qiyosiy tahlilga tortilgan.

Kalit soʻzlar: Alisher Navoiy, “Xamsa”, “Hayrat ul-abror”, hamd va na’t, maqolat, hayratlar.

Sharq mumtoz adabiyoti – bitmas-tuganmas xazina. Alisher Navoiy ijodi bu xazinaning noyob dur-u gavharidir. Shuning uchun har bir davrda qalam ahli Alisher Navoiy ijodiga murojaat etadi va undan oʻrganib, mumtoz adabiyot anʼanalarini oʻz ijodida davom ettirishga harakat qiladi. Bu harakatlar samarasi esa oʻziga xos yangi tajribalar tugʻilishiga sabab boʻladi. Jumladan, Alisher Navoiy yaratgan buyuk “Xamsa”ni bugungi avlod tushunib yetishi uchun unga murojaat qilish va undagi ma’ni durlarini sharhlash tajribasini, anʼanasini atoqli oʻzbek shoiri Omon Matjon boshlab berdi. Uning “Ming bir yogʻdu” deb nomlangan ma’rifiy dostoni “Xamsa” mohiyatini anglashda juda katta ahamiyatga ega. “Ayrim bir kishi “Xamsa”ni toʻlaligicha ilgʻab-uyqab olishi qiyin. Bu koʻpchilik mehnatini, uygʻun idrokni talab qiladigan ish! Har bir avlod bu borada oʻz faolligini koʻrsatishi kerak” [4;4], deydi shoir oʻz dostonning muqaddimasida.

Alisher Navoiy “panjasiga panja urmoq” mushkul bir ish. Uning bir misrasini sharhlash, birgina baytda ifodalangan mazmun-mohiyatni anglata olish nihoyatda qiyin. Ana shunday zalvorli vazifani uddalashni Sirojiddin Sayyid zimmasiga olgani uning naqadar mahorat va jasorat sohibi ekanligini koʻrsatadi. U shunday murakkab anʼanani davom ettirib, “Xamsa” hayratlari” turkumini yaratdi. Shoirning ulugʻ daho, soʻz sanʼatkori Alisher Navoiyning muazzam badiiy obidasi qoshida hayratga tushishi bejiz emas. “Xamsa” hayratlari” – Sirojiddin Sayyid sheʼriyatida yangi sahifa ochgan turkum. Buyuk beshlikdagi oʻzi hayraylangan satrlarga tazmin bitgan shoir koʻnglidan oʻtkazgan lirik kechinmalarni falsafiy tafakkur uygʻunligida betakror talqin etadi [3;56]. “Hayrat ul-abror” dostonining na’t, munojot va maqolotlari baytlariga yozilgan sharhlar chindan ham hayratni oshiradi. Baytlarni sharhlar ekan, shoir oʻz hayratini yashirmaydi: “Satrma-satr, baytma-bayt–ustma-ust hayrat, varaqma-varaq, dostonma-doston, kitobma-kitob – toʻla hayrat. ...Navoiy hayratlari tugamaydi. “Xamsa” hayratlari tuganmasdir” [5;14]. Hayrat – aql bovar qilmaslik, moʻjiza qoshida lol qolishdan tugʻilgan holat. Adabiyotshunos Ibrohim Haqqul unga muxtasar taʼrif bergan: “Hayrat–kutilmagan gʻaroyibotlar, favqulodda tilsimli hodisalardan aqlning ajablanishi. Hayrat – inson ruhining hududsiz koinot asrorlaridan taajjublanishi. Hayrat–koʻngil tilsimi” [2;122].

Sirojiddin Sayyid “Hayrat ul-abror” dostonini chanqoqlik bilan mutolaa qiladi. “Munojot”, “Na’t”, “Maqolat”larda aytilgan fikrlar magʻzi-mazmunini rosa aql-idrok elagidan oʻtkazib, ulardan olgan hayratlari, saboqlari, xulosalarini sheʼriy misralarda ifodalaydi. “Nazm togʻida” sheʼrining tugʻilishiga dostonning beshinchi naʼtida kelgan ushbu bayt sabab boʻlgan:

*Ranj togʻin qozmoq aning peshasi,
Togʻi aning nazm-u tili teshasi [1;41].*

She'rdagi baytdagi so'zlarning ma'nolari sharhlanmaydi, balki Navoiyning mashaqqat chekib tog'ni qazish ijodkorning kasbi ekanligi, tog' u yaratgan nazmiy asarlari, tili esa o'sha nazm tog'ini qazgan teshasi ekanligiga o'z munosabatini bildiradi. Navoiy aytganidek nazm tog'ini qazish nihoyatda qiyin va mas'uliyatli ekanligi, Navoiy zamonidagi kabi bu ishda ham taqlidchilar, to'tilar davr-u davron surib yurganligini o'ksinib aytadi:

*Qazish oson emas so'z xarsanglarin,
Tavofut bo'lmagay tun bilan kunda.
She'rning sho'xu shingarf rang, ohanglarin
Giyohlar, jilg'alar bergaylar shunda [5;23].*

Navoiy baytida aytilgan fikr shu tarzda shoirning aql elagidan o'tadi, ulug' so'z san'atkori aytgan o'git bugun ham eskirmagani, yana ham hayotiylik kasb etib, so'zga, badiiy ijodga e'tiqod, mas'uliyat oshishi zarurligi uqtirilgan.

"Ulug'lar va kichiklar" she'ri oltinchi maqolotdan keltirilgan "Kimki ulug'roq anga xizmat kerak, Ulki kichikroq anga shafqat kerak" baytidan tug'ilgan taassurot asosida yuzaga kelgan. "Ota va ona" she'rida oltinchi maqolotda Navoiyning ota-ona haqida aytgan, aforizmga aylanib ketgan "Boshni fido ayla ato qoshig'a, Jismni qil sadqa ano boshig'a" deb boshlangan ta'rif tabdil etiladi.

"Hayrat ul-abror" dostonining "Avvalg'i hayrat"ida tong otishi, quyosh chiqishi juda go'zal, ta'sirchan ifodalangan. "Shom savodi asarin tiyra xok, Subh supurgisi bila qildi pok" baytida tongning supurgisi (ufqning asta-sekin yorishib kelishi) qorong'ilikni chekintirishi haqiqatan ham chiroyli aks ettirilgan. Sirojiddin Sayyid ham bunga munosib hayratini yaxshi ifodalay olgan. Beshinchi na'tda "Yo bu navo zimnida asrab mahal, Cheksa Navoiy so'zidin bir g'azal" bayti keltirilgan. Bayt mazmuni sharhida Sirojiddin Sayyid Navoiyga o'zining buyuk ehtiromini izhor etadi. Uni bog'ga qiyoslaydi, o'zini shu bog'ning bog'boni deb biladi, Navoiy mezbon bo'lsa, uning etagini tutganlar mehmon ekanligini ta'kidlaydi:

*Qancha mehmon o'tdi, lek mezbon o'shal,
Barcha mehmon ichra biz nodonimiz [5;35],*

deya yetuk ijodkorlarga xos kamtarlik xususiyatini namoyon etgan. Navoiy buyuk ummon ekanligi, "Xazoyin ul-maoniy"dan tilimiz boshlanishi, "Xamsa" porlab turgan besh oftob (quyosh) ekanligidan faxrlanadi. Qo'rg'onimiz qanchalik baland bo'lsa ham, agar Navoiyni bilmasak, e'zozlamasak, shu qadar past bo'lib qolishimiz aniq. Chunki:

*To Navoiy bor – muhabbat dildadir,
So'lmagay hargiz ko'ngil bo'stonimiz.
Shul ismdan yurt aro yuz ming umid,
Shul ismdan nurlanur davronimiz [5;36].*

Navoiyning ko'pgina baytlari xalq maqollari, aforizmlarga aylanib ketgan. "Hayrat ul-abror"da ham bunday baytlar juda ko'p. Ularning har biri kishida cheksiz hayrat uyg'otadi. Sirojiddin Sayyid ulardan eng xarakterlilari, ayni bugungi kunimiz ruhiga mos keladigan, o'sib kelayotgan avlod saboq olishi, hamisha yodida tutishi zarur bo'lgan hikmatlarga kishi diqqatini qaratadi. "Avvalg'i maqolat"da shunday bayt bor:

*Bo'lmadi bas noqis-u komilda farq,
Topmag'ay el olim-u johilda farq [1;86].*

Bayt aruzning ramali musaddasi solim vaznida. Sirojiddin Sayyid bu baytning sharhiga bag'ishlangan g'azalni ramali musammani maxzufda yaratgan. Baytning mazmuni: nuqsoni bo'lgan (tarbiyada, xulq-atvorda) kishi bilan yetuk, kamolga yetgandan farqini anglamaslik savodsiz, johil odam bilan olim o'rtasidagi farqni el ham topolmaydi. Sakkiz baytlik g'azalda Navoiy nimani nazarda tutganligi va undan qanday saboq chiqarish lozimligiga jonli misollar keltiradi. Noqis bilan komilni farqlamaslik bedor bilan g'ofilni, johil bilan fozilni, telba bilan oqilni farqlamaslikka olib kelganligi talqin etiladi:

*El deb aytgil el aro kimlarki dilbedordir,
El sanalgay ko'rsa kim bedor bilan g'ofilda farq.*

*Choh qazib olimga olim, shoiriga shoiri,
Yo'qdayin go'yo jahonda johil-u fozilda farq [5;58].*

Shoirning mulohazalari Navoiyning o'lmas bayti tufayli yaralgani, birgina bayt mazmunini keng va ta'sirchan ifoda etgani mutolaa qiluvchiga ham ta'sir etadi, shoirning hayratlariga qo'shilib hayratlantiradi.

Hazrat Navoiy "Hayrat ul-abror"ning yigirmanchi maqolatida yurt tuzish va uni boshqarishda adolatni asosiy mezon qilib ko'rsatadi:

*Shohki ish adl ila bunyod etar,
Adl buzuq mulkni obod etar [1;283].*

Alisher Navoiyning bu qarashlarini bugungi kunda izdoshlik ijodkor sifatida Sirojiddin Sayyid g'oyaviy-badiiy jihatdan yana-da rivojlantiradi. Shu bir baytda ifodalangan fikrni sakkiz bandli she'rda bosqichma-bosqich ochib beradi:

*Davlat poydevori – adl-u diyonat,
Shudir mamlakatning ikki asosi.
...Kundan-kun yuksalib borgaydir davron,
Rizq-u nasibasi elning butundir.
Muhtasham qasrdir agarda zamon,
Adl va diyonat ikki ustundir [5;24].*

Ijodkorning fikricha, davron kundan kun yuksalib borishi, elning rizq-u nasibasi butun bo'lishi uchun adolat va diyonat mustahkam ustun bo'lmog'i lozim. Shu ikki jihat ustun bo'lgan yurtda kuzatilajak jarayonlar birma-bir sanab o'tiladi. Bunday yurtda "ko'ngillar hamisha to'q" bo'lishi, mamlakatni "balo-yu qazo chetlab o'tishi", buyuk kelajak sari qo'yilgan ko'priklar mustahkam bo'lishi, uni "aziz avliyolar ruhi doimo omon saqlashi", sof niyatli insonlar tufayli yurt yuksak va ozod bo'lishi yuksak pafoslarda haqqoniy tasvirlanadi. She'rda "Adl va diyonat ikki ustundir", "Suvlar bulbullarday taratgay navo", "Rubob torlariday yo'llar solgan iz", "Ko'priklar – kelajak ko'priklariday", "Niyatlar bog'larday gullagay qiyg'os" kabi quyuq tashbehlar qo'llash orqali, birinchidan, Vatanning beqiyos tasviri yaratilsa, ikkinchidan, uning kelajagi haqida aniq faktlar keltiriladi.

Navoiy talqinicha, xalqqa nafi tegadigan kishi insonlarning eng yaxshisidir. Shoir "Hayrat ul-abror"ning o'n uchinchi maqolatida bunga alohida urg'u beradi:

*Naf'ing agar xalqqa beshak durur,
Bilki, bu naf' o'zungga ko'prak durur [1;205].*

Sirojiddin Sayyid esa Navoiy g'oyalariga ergashib, o'z tasavvuridagi xalqqa foyda keltiruvchi insonlarni shunday tasvirlaydi:

*Har kim ham bir kuni dunyodan ketar,
Jismi alal oxir tuproq bo'lg'usi.
Biror foydang tegsa xalqingga agar,
Undan naf o'zingga ko'proq bo'lg'usi [5;51].*

Elga foyda keltiruvchi insonlar, avvalo, o'zlariga yaxshilik yetkazgan bo'ladi, hech bir yaxshilik esa bu dunyoda izsiz ketmaydi. Hatto keragida suv uzra qo'yilgan birgina xas ham kun kelib, ko'priikka aylanib, o'zi uchun manfaat keltirishi mumkinligini ijodkor alohida ta'kidlaydi.

“Xamsa” hayratlari” buyuk so'z san'atkori Alisher Navoiy ijodini ilmiy tadqiq etishdan boshqa – adabiy-badiiy usulda tashviq, targ'ib etishning bir yo'lidir. U Sirojiddin Sayyidning Navoiy asarlarini o'qish va uqish, mutolaa qilish jarayonida orttirgan tajribasi sifatida qimmatlidir. “Hayratlar” Sirojiddin Sayyidning Navoiy “Hayrat ul-abror”i bilan o'ziga xos muloqotidir. Bu muloqot orqali she'rxonda Navoiy asarlariga muhabbat oshadi, bu asarlarni qunt bilan o'qib, misralar qatidagi ma'nolarni teran anglab yetishimizga yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror”. To'la asarlar to'plami, Oltinchi jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013-y.
2. Xaqqulov Ibrohim, “Xamsa” badiiyatiga doir, “Alisher Navoiy “Xamsa”si(tadqiqotlar)”. – Toshkent: “FAN”, 1986 y.
3. Jabborov N. Ikki qilich аро. Шарқ юлдузи. – Toshkent, 2023. – №11
4. Омон Матжон, Эркин ҳаволарда, битиклар, драматик дoston, шеърӣй қисса, шеърлар. – Toshkent, F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1997 й.
5. Сирожиддин Саййид. Асарлар. IV жилд. –Тoшкент: “Sharq”, 2019 й.

ALISHER NAVOIY VA HOFIZ XORAZMIY G'AZALLARIDA “VAHDAT UL-VUJUD” NAZARIYASINING AKS ETISHI

***Shohsanam Sodiq qizi AHMADOVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti doktoranti***

Annotatsiya. Mumtoz adabiyot namunalarini tahlil etar ekanmiz, “vahdat ul-vujud” terminiga ko'p bor duch kelishimiz, tabiiy. Negaki, ushbu nazariya o'z davrida badiiy adabiyotga ta'sirini ko'rsatdi. Jumladan, Navoiy hamda Hofiz Xorazmiy she'riyatida buni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Shu bois, ushbu maqolada Alisher Navoiyning g'azallarida “vahdat ul-vujud” nazariyasining badiiy talqini, tasviri, qo'llanilgan badiiy obraz va o'xshatishlarni tahlil etishga e'tibor

qaratildi. Qolaversa, Navoiydan bir asr oldin ijod etgan shoir Hofiz Xorazmiy g'azallarida qalamga olingan vujud birligi g'oyasi, uning badiiy qiymati, takrorlanmas sifatlashlari hamda tasvir mahorati tahlilga tortildi. Ikki ijodkor qarashlari hamda tasvir usulidagi mushtarak va farqli jihatlarini yoritildi.

Kalit so'zlar: vahdat ul-vujud, Alisher Navoiy, Hofiz Xorazmiy, tasavvufiy qarashlar, vahdat, tasavvuf adabiyoti.

“Vahdat ul-vujud” nazariyasi 1164-1240-yillarda yashab ijod etgan Muhyiddin al-Arabi tomonidan yaratilgan bo'lib, borliqning bir butunligini anglatuvchi ta'limotdir. Adabiyotshunos Najmiddin Komilov ushbu ta'limotga ta'rif berar ekan, uning butun olam zoti azaliy nurining porlashidan paydo bo'lishi, inson bu haqiqatni anglab yetsa, o'z Robbisini tanishi g'oyasini ilgari surilishini ta'kidlaydi [Komilov, 2009:248].

Taniqli islomshunos olim A.Sh.Juzjoniyning Islom Buyuk ensiklopediyasida Ibn al Arabi tomonidan yaratilgan bo'lib, borliqning bir butunligini anglatuvchi ta'limotdir. Adabiyotshunos Najmiddin Komilov ushbu ta'limotga ta'rif berar ekan, uning butun olam zoti azaliy nurining porlashidan paydo bo'lishi, inson bu haqiqatni anglab yetsa, o'z Robbisini tanishi g'oyasini ilgari surilishini ta'kidlaydi [Komilov, 2009:248].

Taniqli islomshunos olim A.Sh.Juzjoniyning Islom Buyuk ensiklopediyasida Ibn al Arabi tomonidan yaratilgan bo'lib, borliqning bir butunligini anglatuvchi ta'limotdir. Adabiyotshunos Najmiddin Komilov ushbu ta'limotga ta'rif berar ekan, uning butun olam zoti azaliy nurining porlashidan paydo bo'lishi, inson bu haqiqatni anglab yetsa, o'z Robbisini tanishi g'oyasini ilgari surilishini ta'kidlaydi [Komilov, 2009:248].

Taniqli islomshunos olim A.Sh.Juzjoniyning Islom Buyuk ensiklopediyasida Ibn al Arabi tomonidan yaratilgan bo'lib, borliqning bir butunligini anglatuvchi ta'limotdir. Adabiyotshunos Najmiddin Komilov ushbu ta'limotga ta'rif berar ekan, uning butun olam zoti azaliy nurining porlashidan paydo bo'lishi, inson bu haqiqatni anglab yetsa, o'z Robbisini tanishi g'oyasini ilgari surilishini ta'kidlaydi [Komilov, 2009:248].

Alisher Navoiy ijodi, uning tasavvufiy qarashlari shu kunga qadar ko'pgina o'zbek va chet el olimlari tomonidan tadqiq etilgan hamda turlicha fikrlar berilgan. Jumladan, akademik V.Zohidov Navoiyning “vahdat ul-vujud” nazariyasini o'z asarlariga jo qilganini ta'kidlab shunday deydi: “Navoiyning fikricha, birgina xudo bor va u o'zini tabiat, tabiatdagi butun mavjud narsalarda zuhur etgandir. Butun mavjudot konkret borliq shaklidagi xudodir” [Zohidov,1970:259-260].

Hofiz Xorazmiyning bizgacha yetib kelgan devonini har tomonlama o'rganish va tadqiq etishda, ijodkorning tasavvufona qarashlarini tahlil etishda Hamid Sulaymonovning shoir devonining fotonusxasini yurtimizga olib kelgani, M.Inog'omxo'jayevaning “Hofiz Xorazmiy lirikasida tashbeh”, Y.Jumanazarovning “Hofiz Xorazmiy va o'zbek adabiy tili”, M.Sulaymonovning “Hofiz Xorazmiyning didaktik qarashlari” nomli ilmiy tadqiqot ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo shoirning so'fstik fikrlari to'liq o'rganilganicha yo'q.

Alisher Navoiy o'z davrining eng yetuk mutasavvuf shoirlaridan biri sifatida tasavvufiy xarakterga ega bo'lgan ko'pgina asarlar ijod qildi. “Lison ut-tayr”, “Nasoyim ul-muhabbat”, besh dostonidan iborat bo'lgan “Xamsa”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Arbain”, “Munojot” asarlari shular jumlasidandir. Shuningdek, bir qator g'azallarida ham ilohiyot, so'fizm haqidagi qarashlarini qalamga oldi:

Azal ham sen, abad ham sen, ne avval birla oxirkim,

Anga yo‘q ibtido paydo, munga yo‘q intiho paydo.[Navoiy, 1990:8]

Demak, Navoiy Allohni azaliy, abadiy va nihoyasiz deb biladi. Zero, Uning mavjudligi hech narsa yo‘q bo‘lgan davrdan boshlangan edi: “Sen edingu bas yana mavjud yo‘q” [Navoiy,1991:20].

Oxiri ham nihoyasizdir. Ya’ni olamda barcha yaratilqlar yo‘q bo‘lishi mumkin, Alloh esa abadiy mavjuddir. Ushbu qarash “vahdat ul-vujud” falsafasining bosh g‘oyasi hisoblanadi. XIII asrda keng yoyilgan mazkur g‘oya badiiy adabiyotning ajralmas qismiga, asosiy tasvir obyektiga aylandi.

Navoiy g‘azalning keyingi o‘rinlarida barcha narsaning Alloh tomonidangina yaratilishi, hatto inson hayotida yuz beruvchi voqea-hodisalar ham yolg‘iz Uning ixtiyori bilan bo‘lishini ta’kidlaydi:

Falak ham ojiz, axtar ham zabun, sayru sukun ichra,

Ki, sendindur, ne bo‘lsa anjumu aflok aro paydo.[Navoiy,1990:8]

Bu o‘rinda yana bir narsaga ahamiyat berishimiz lozimki, shoir “ne bo‘lsa anjumu aflok aro paydo” jumlasini orqali nafaqat bu dunyodagi barcha maxluqotlarni, balki ularning hayotidagi eng kichik o‘zgarishlarni, qisqacha qilib aytganda, taqdirni nazarda tutadi hamda qazoyi qadarni o‘zgartirishlikka inson zotining ham falakning ham kuchi yetmasligini badiiy tarzda ifoda etadi.

Hofiz Xorazmiy esa Navoiydan bir asr oldin vujud birligi g‘oyasini quyidagicha tasvirlaydi:

Nedir jahonda, oyo nozaninki, sandin emas,

Vujud-u, bog‘u, gulistonu xor sandin erur.[Xorazmiy,1981:130]

Mumtoz adabiyotda Allohni go‘zal yor, habib, jonon yoxud nozanin obrazlari orqali ifodalash an‘anasi mavjud. Ijodkor shu an‘anaga muvofiq Yaratuvchiga qarata ey nozanin deya murojaat etib, tabiat hamda undagi bor mavjudotlarning Allohdan ekanligini aks ettirmoqda. Yana bir o‘rinda esa “har oyinaga boqsam ko‘runur jamoli jonon” deya Ibn Arabiyning olamdagi barcha mavjudlik Allohning nuridan paydo bo‘lganligi hamda insonning qalbida tajalliy etishi haqidagi fikrlariga hamohang qarashlarini ifoda etadi. Misradagi oyina - insonning ko‘ngli ramzi, jonon-Alloh timsolidir. Ya’ni Alloh jamoli har bir ko‘ngilda aks etadi. Shuning uchun ham tasavvufda qalbni poklashga katta e’tibor qaratiladi.

Vahdat ul-vujud falsafasidagi “birlik” g‘oyasi ikki ijodkorning ham asosiy tasvir obyekti bo‘lgan. Jumladan, Navoiyning quyidagi baytida bir sonining qolgan barcha sonlarning asosi ekanligini misol keltirib, yagona Alloh kasrat(ko‘plik) dunyosiga asos bo‘lganini ta’kidlaydi:

Asli bir zot kelib, chunki marotibg‘a o‘tib,

Benihoyat bo‘lub ijodu sifat ichra adad.

Birdirur asli adad, kimki haqiqatbindur,

Gar adad yuz tuman o‘lsa, tuzatur birga sanad. [Navoiy,1990:90-91]

Hofiz Xorazmiy xuddi shu ma’noda “Xurshid, bale, bir eruru sonsizo zarrot” [Xorazmiy,1981:72] deya Allohni Quyoshga, dunyodagi sonsiz mavjudotlarni uning nuri zarralariga qiyos etadi.

Vahdat ul-vujud nazariyasida Alloh butun borliqni o'z vujudidan yaratishi hamda o'z go'zalligini hazrati Odam va odam zotida tajalliy etishi g'oyasi ilgari suriladi. Bu haqida Navoiy shunday deydi:

*Ey, jamoling jilvasi mir'ot insu jon aro,
Lek o'lub ul jilva komil mazhari inson aro. [Navoiy,1990:9]*

Demak, shoir fikricha, Yaratuvchi o'z sifatlarini olam va undagi mavjudotlarda aks ettirgani holda, inson zotiga eng oliy husnni beradi. Bizningcha, bu yerda faqatgina tashqi ko'rinishni anglatuvchi husn haqida so'z borayotgani yo'q, balki Alloh tomonidan insonga in'om etilgan aql, his-tuyg'u, zabon hamda o'ziga xos yaratuvchilik qobiliyatlari haqida gap ketmoqda. Zero, Navoiy insonning aynan shu xislatlar bilan boshqa mavjudotlardan yuksak maqomda ekanligini ko'p bor ta'kidlagan.

Bu borada Hofiz Xorazmiy quyidagi baytni keltiradi:

*Ul mus'hafi husnki yuzinda ko'runadur,
Olamg'a o'shandin ochilur husn-u rivoyat. [Xorazmiy,1981:68]*

Bir so'z bilan aytganda, ikki ijodkorning ham she'riyatini vahdat ul-vujud falsafasisiz tasavvur etish mushkul. Zero, biz yuqorida keltirib o'tgan baytlar mazmunidagi g'azallarni yana yuzlab keltirish mumkin.

Ibn Arabiy asos solgan vahdat ul-vujud nazariyasi falsafa fanlari doktori J.Xolmo'minov ta'diklaganidek, Qur'oni karim, hadisi sharif, sharq aristotelizmi g'oyasi, yunon falsafasi hamda neoplatonizmi g'oyalari ta'siri ostida maydonga keldi. [Xolmo'minov, 2020:13] Badiiy adabiyotning tengsiz ta'sir kuchi tufayli juda tez ommalashdi hamda bir necha asr mobaynida musulmon davlatlarida adabiyot, san'at, ijtimoiy va madaniy hayotning ajralmas qismiga aylandi. Shu sababli ham XIV asrda Hofiz Xorazmiy, XV asrda esa Alisher Navoiyning ham ijodining mazmun-mohiyati vahdat ul-vujud nazariyasi asosiga qurilishi tabiiy edi.

Alisher Navoiy ulug' dohiyona tafakkuri va o'zi yashagan zamondagi g'oyaviy hurfikrlik natijasida o'z ijodidagi bu vahdat ul-vujud g'oyalari ta'sirini oshkora ya'ni orifona g'azal va shu mazmundagi baytlarda tasvir etgan bo'lsa, Hofiz Xorazmiy bu kabi qarashlarini bir muncha maxfiyroq tarzda, ya'ni oshiqona g'azallarning obraz va badiiy san'atlari vositasida ifodalagan.

ADABIYOTLAR:

- 1.Najmiddin Komilov. Tasavvuf. Toshkent "Movarounnahr" nashriyoti: 2009. B.448
- 2.Hofiz Xorazmiy. Devon. I kitob. O'zbekiston KP Markaziy komitetining nashriyoti. Toshkent.:1981. B.303
- 3.Abdulhakim Shar'iy Juzjoniy. Tasavvuf va inson. T.: Adolat, 2001
- 4.Zohidov. V. Ulug' shoir ijodining qalbi. Toshkent.: O'zbekiston, 1970-B495
- 5.Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami, 20jildlik, 5-jild.-Toshkent: Fan,1990.-B544
- 6.Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami, 20 jildlik, 7-jild.-Toshkent:Fan, 1991.-B392

7.Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami, 20 jildlik, 6-jild.-Toshkent:Fan, 1990.-B568

8.Xolmo'minov Ja'far. Vahdat ul-vujud falsafasi va uning naqshbandiya ta'limotiga ta'siri(Ibn al-Arabiy, Muhammad Porso va Abdurahmon Jomiy qarashlari asosida) DSc dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent-2020

FORMATION OF NATIONAL IDENTITY INTEGRATION IN ADOLESCENTS THROUGH THE PERSONALITY OF ALISHER NAVOI

***Malika Lutfullo qizi QAHHAROVA,
Teacher of Navoi Innovation University***

A person who is not a crown or a crown knows no beauty,
He knows no beauty but modesty.
Everyone who is not a gentleman knows his business,
In short, show modesty to the Iranians.
Alisher Navoi.

In recent years, the necessary legal and regulatory frameworks have been created in our republic to form young people as well-rounded individuals with universal human qualities based on the ideas of educating them: "Promoting the spiritual, intellectual, physical and moral development of young people..." [1], which sets the tasks of developing national virtues in accordance with the competency-based approach outlined in the "Concept of Continuous Spiritual Education" [2], can serve as a sufficient basis for the scientific study of the socio-psychological factors of the formation of national education. As a result, special attention is paid to the formation of young people as well-rounded individuals, increasing their social activity, strengthening their participation in the socio-economic, political and cultural spheres of society, improving their educational system, and improving the quality of education. Of course, all this is to create a happy and prosperous future for our future generations, and to make them understand that their role in this area is incomparable. The role of Alisher Navoi's works in the formation of national identity in adolescents is incomparable. National identity serves to strengthen social ties between the individual and society. This process is based on the common cultural values, language, customs and historical traditions of the people. In our opinion, national identity helps the individual to understand himself through understanding his cultural identity. In order to develop national identity, it is important to pay attention to national values in the education system. The reason is that Hazrat Mir Alisher Navoi is a thinker who left a high and indelible mark on the entire world civilization with his unparalleled wisdom, epics and ghazals for every age group. When the expression Mutafakkir is also used in relation to Hazrat Navoi, we should know that the meaning of the word Mutafakkir means a person with a mind, a person with broad and deep potential. This task is not within the power of any talented writer. That is

why, although many poets and writers have passed through the world, only a very small number of them have been considered worthy of this honorable title.

In the eyes of the poet, life is the most precious gift given to a person. Living itself is an inestimable blessing. He wants both the wealth earned by hard work and all his actions to be the decoration of life and to serve to strengthen the bonds of love and affection between people: If peace is not enough for your life from the wealth, what is the court.

If you gather the wealth of Noah, you will gather the treasure of Qarun. That is, if peace does not come to you from the wealth you have gathered, what is the use of living for a thousand years like Noah (a.s.) and gathering the treasure like Qarun! The poet wants to say that the purpose of life is to understand the value of life, to benefit humanity. If this is not the case, then there is absolutely no benefit from living long and having unlimited wealth. Alisher Navoi emphasized that the decoration of life is purity and loyalty [3]. A thoughtful writer must, firstly, have deep knowledge, a broad outlook, and vast life experience; secondly, he must deeply understand the essence of such ancient and eternal concepts as the meaning of life, man, and life, goodness and evil, love and hatred, halal and haram, science and science, elegance and wickedness, friendship and enmity, piety and betrayal, and be able to analyze them from a philosophical point of view; and thirdly, he must have the skill of expressing his thoughts clearly, concisely, and impressively using various artistic means. This is a great status that not all creators are able to achieve. By reading Navoi's works, we all feel that national identity is the main idea in his works, and that the path of life has reached a stage of maturity through this identity. Today, it is not difficult for young people in adolescence, which is called the "crisis period" and is more significant than other youth periods with its physiological and spiritual changes, to understand their identity by reading the works of Hazrat Navoi. The reason is that the main idea in the works of our grandfather Navoi is national identity, that is, we can safely say that it is aimed at understanding the identity through personal experience. We should dwell on the expression of national identity, what it is and what it can give us. . The development of national identity serves to ensure the social adaptability of the individual and his active participation in his society. This process affects not only the inner psychological world of the individual, but also the general spiritual environment of society. When a person understands his national identity, he feels his place, role and responsibility in society more deeply. This helps to strengthen social unity, respect cultural diversity and preserve national values. In this sense, the life path of the great writer Nafat can also serve as an example. In particular, what we are thinking about shows that Alisher Navoi was able to do great things in his teenage years, and his life path is also a very meaningful example. Alisher Navoi memorized more than 50 thousand verses of poems by his favorite poets in his teenage years, and Navoi gave the pseudonym Foni for his poems written in Turkish and Foni for his poems in Persian. Since childhood, young Alisher memorized Farididdin Attor's "Mantiqu-tair", came to the attention of Sharafiddin Ali Yazdi, Mevlana Lutfi highly appreciated the talent of the young poet, and

Kamol Turbatiy recognized him. The fact that he studied under masters such as Sayyid Hasan Ardasher and Pahlavon Muhammad, and collaborated creatively with Abdurahmon Jomi, demonstrates the relevance of the formation of social and psychological factors of national identity integration in childhood, especially adolescence, in the development of a person. In the wisdom and epics of our great thinker, the sultan of ghazals, Hazrat Alisher Navoi, we can see that the main place in this idea is the issue of morality. From a psychological point of view, the need for a person to understand his own identity encourages a person to look at events in nature with an example.

The egg fell to the ground and became a smallpox

The worm passed through its life and became silk.

Do you have no energy, like a tulip?!

Do you have no courage, like a cocoon and like a worm?

The fact that the happiness of the two worlds is to find the father's approval and to honor the mother, in the eyes of the Hazrat, explains how beautiful our values are, and how we can even become the owner of endless happiness in this regard: The young poet, who caught the eye of Mevlana Lutfi since his adolescence with this poem, not only wrote this quality, but also put forward this idea in his life. Since these thoughts were also reflected in his life path, it is not surprising that we still consider Navoi to be the sultan of the word.

Make your head a sacrifice, a spoon of food

Make your body a charity, a head.

If you wish for your two worlds, space

And obtain pleasure from these two.

May the light of night and day be revealed,

One is the moon, the other is the sun.

Do not draw a pen from your words except for one,

Do not step out of your letters except for one,

Let your service be accompanied by manners.

Also, do not remain like a "rich" person.

Not only did the great poet advocate for love for loved ones and respect for others, but also for the feeling of gratitude to be seen as values in people.

Our great grandfather also emphasizes that qualities such as humility, generosity, gentleness, and patience can lead a person to greatness and that through these actions a person can achieve perfection.

He praises the qualities that bring goodness to any person and believes that every believer should have them in his life.

In conclusion, we can say that our great grandfather Navoi, in accordance with his time, considered the process of developing national identity as the main factor that strengthens the inseparable connection between the individual and society and preserves the uniqueness of the people. This process is psychologically based on such mechanisms as self-awareness of the individual, social identification and emotional attachment. We can be sure that he considered national identity to be of decisive importance in ensuring social cohesion and stability by forming an

individual's respect and loyalty to his national memory and values. The education system plays a central role in the formation of national identity. In order for the younger generation to accept national values and develop respect for them, it is necessary for the family, school and cultural institutions to work in an integrated manner. At the same time, state policy should develop strategies for the active promotion of national history, culture and traditions in order to popularize and protect national identity.

REFERENCES:

1. Ibratli hikoyatlar va Hislatli hikmatlar A. Tilavov, I. Saydullayev.
2. Imom Buxoriy nomidagi Toshkeny Islom Instituti "Tillar" kafedrasida katta o'qituvchisi Faxriddin Yernazarov
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmon
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 1059-son. 2019-yil 31-dekabr.
5. <https://lex.uz/docs/4676839>

“SITTAI ZARURIYA”NING G‘OYAVIY – BADIY ASOSLARI VA O‘ZIGA XOSLIGI

***Asatillo Ekramovich ASLANOV,
Navoiy innovatsiyalar universiteti
Filologiya va tillarni o‘qitish kafedrasida o‘qituvchisi
Muxlisa Asatillo qizi IKROMOVA,
Navoiy davlat universiteti
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasida o‘qituvchisi***

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiyning fors tilida yaratgan “Sittayi zaruriya” asariga kiritilgan qasidalarining g‘oyaviv va badiiy asoslari, shoirning hayotiy tajribalari asosidagi falsafiy va axloqiy qarashlari o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: qasida, hamd, faqr, orif, faqih, fiqh, “Ruhul quds”, “Aynul hayot”, bayt, “Tuhfatul afkor”, “Qutul qulb”, “Minhojun najot”, “Nasimul xuld”.

Milliy istiqbolgacha Sharq, jumladan, o‘zbek mumtoz adabiyoti sho‘rolar mafkurasi tazyiqi ostida Alisher Navoiyning “Devon”lari, “Xamsa” dostonlari ibtidosida kelgan kirish boblar hamd, na’t, sano, me’roj, munojot talqiniga atalgan maxsus parchalar, nasriy asarlari, ilohiy-irfoniy g‘oyalar, ilohiy tavhid madh etilgan “Sittai zaruriya” qasidasi, ilohiy-islomiy hukmlar talqiniga bag‘ishlangan “Siroj ul-muslimin”, “Munajot” kabi asarlari, ilohiyotga doir qarashlari maxsus tadqiq etilmadi.

Mustaqillik adabiy merosimizni yangicha yo‘nalishda o‘rganish istiqbollari ochib berdi. Zero, Birinchi Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek: “Biz ma’naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o‘zlikni anglashning o‘sishidan, xalqning ma’naviy

sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy tabiiy jarayon hisoblaymiz. [1]

Alisher Navoiy nafaqat o‘zbek, balki fors-tojik tilida ham Foniylar taxallusi bilan barakali ijod qilgan zabardast zullisonayn shoir hisoblanadi. U “Xazoyin ul-maoniyy” (“Chor devon”) devonlar turkumini tuzib bo‘lgach, fors-tojik tilidagi ijod namunalarini ham to‘plab, “Devoni Foniyy”ni tartib beradi. 12 ming misra she‘rdan tashkil topgan bu devon Hofiz Sheroziy devoniga qariyb teng keladi. Agar “Sittai zaruriya” va “Fusuli arbaa” turkumlariga kirgan o‘n qasidasi va adabiyotshunoslikka oid “Risolai mufradot” asarini ham qo‘shsa, shoirning forsiy tildagi merosi ham salmoqli ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Alisher Navoiyning forsiy merosi o‘z davrida Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Binoiy, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy kabi zamondoshlari tomonidan ham yuksak baholangan.

“Devoni Foniyy”ning mo‘tabar qo‘lyozmalari Parij, Tehron va Turkiya kutubxonalarida saqlanadi. Tehrondagi nusxasi 1963-yili mashhur adabiyotshunos olim Rukniddin Humoyunfarrux tomonidan nashr etilgan. Hozircha eng mukammal deb qaralayotgan Parij nusxasi esa 1965-yili taniqli sharqshunos Hamid Sulaymon tomonidan Alisher Navoiyning o‘n besh jildlik asarlari tarkibida ilk bor bosilib chiqqan. Shoirning XX jildlik “Mukammal asarlar to‘plami”ga ham shu nusxa asos qilib olingan.

“Devoni Foniyy” devonidan G‘afur G‘ulom va Habibiy bir necha g‘azalni, Sh.Shomuhamedov “Tuhfat ul-afkor” qasidasini, qit‘a va ruboiylaridan ba‘zi namunalarni, Nosir Muhammad ham bir necha g‘azal, qit‘a va ruboiylarini o‘zbekchallashtirganlar. Taniqli navoiyshunos Abduqodir Hayitmetov esa mazkur qasidani nasriy tarjima qilgan.

Asosiy qism. Qasidanavislikda ham Alisher Navoiy barakali ijod qildi, o‘zining ona tilidagi “Hiloliya” qasidasi bilan bir qatorda forsiy tilda “Sittai zaruriya” va “Fusuli arbaa” nomlari bilan ma‘lum bo‘lgan ikkita majmua yaratdi. “Sittai zaruriya” olti qasidadan iborat bo‘lib, Navoiy ularning mavzu ko‘lami haqida: “Bu olti qasida hamd va na‘t va sano va ma‘vizotdur va ahli tasavvuf va haqiqat tili bila ma‘rifat”[2], — deb yozgan edi. “Sittai zaruriya”ning olti qasidasidan biri Allohning yaratuvchilik qudrati vasfida: “Ruhul quds” (“Muqaddas ruh”), ikkinchisi “Ayn ul-hayot” (“Hayot chashmasi”) Muhammad payg‘ambarning na‘ti, ulug‘vor siymosining ta‘rifiga bag‘ishlangandir. Qolgan to‘rt qasida (“Tuhfat ul-afkor” (“Fikrlar tuhfasi”), “Qut ul-qulub” (“Qalblar quvvati”), “Minhoj un-najot” (“Najot yo‘li”), “Nasim ul-xuld” (“Jannat shabadasi”). Bu qasidalar Sharqda shuhrat tutgan Xisrav Dehlaviy, Jomiy, Anvari, Haqoniy, Solmon Sovajiy va boshqa qasidanavislarning asarlariga tatabbu tarzida yaratilgan. Shoir ulardan ijodiy bahramandlik yo‘li bilan bir qatorda o‘z davri hayotining muammolariga, ma‘naviy hayotning inson istiqbolini ko‘zlagan masalalariga diqqat qiladi.

Navoiy “Tuhfat ul-afkor” haqida so‘z ochib yozgan edi: “Va ko‘p ma‘niangiz iborat va ta‘miyaomez ishorat izofa qilib menkim, bu fan ahlining mohirlari musallam tutubturlar”. “Nasim ul-xuld” haqida esa shoir “Bu qasidaga dag‘i ko‘p umr naqdi xarj bo‘lubdur”[2] deb ta‘kidlagan edi. Bu qaydlar shoirning tatabbu’ qasidalaridagi ijodiy o‘ziga xoslikni anglatib turadi.

“Sittai zaruriya” asariga bo‘lgan qiziqish asrimizning 60-yillaridan jonlana boshladi. Forsiyda bitilgan, 724 baytdan iborat bu asarning to‘la matnini professor Hamid Sulaymon ulug‘ shoirning Parij Milliy kutubxonasida 285-raqami ostida saqlanayotgan qo‘lyozma devoni asosida arabiy va krill imlosida 1968-yilda “Adabiy meros” majmuasida nashr ettirdi. Prof.R.Vohidovning “Sittai zaruriyada tatabbu” maqolasida mazkur turkumning g‘oyaviy ildizlari tatabbuchilik an‘anasi, qasidalarining yozilish tarixi haqida keng ma‘lumot beriladi. Prof. Najmiddin Komilovning “Faqr nuri porlagan qalb” risolasida “Sittai zaruriya” tarkibidagi qasidalar, ularning badiiyati, tatabbuchilik an‘anasi xususida qiziqarli fikrlarni o‘qish mumkin. Hajmiga ko‘ra qasidalar turlicha: “Ruhul quds”132 bayt, “Aynul hayot”106 bayt, “Tuhfatul afkor” 99 bayt, “Qutul qulb” 120 bayt,”Minhojun najot” 138 bayt, “Nasimul xuld”esa 129 baytdan iborat bo‘lib, jami 724 baytdir.

“Sittai zaruriya” qasidalarini yozishga Navoiyni avval ustози Jomiy, ul zot vafotidan keyin Sulton Husayn Boyqaro undagan. Buni shoir ”Sittai zaruriya”dagi qasidasida ham qayd etgan. Olti qasidaning hammasi vobasta mavzularda yaratilganligi uchun ham yaxlit bir turkum asarlar qiyofasini olgan. Navoiyning o‘zi ham buni “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida qayd etadi:”Bu olti qasida hamd-u na’t va sano-u mavizat’dur (nasihatdur) va ahli tasavvuf va tariqat tili bila marifat bay’on etilibdir”[3]. Shoirning keng qamrovli nigohi, olam va odamning bir butunlikda olib qarashi uning qasidalarida yaqqol izini qoldirgan. Ulug‘ san’atkorlarning hammasida bo‘lganiday, Navoiy ham yaxlitlik va butunlik qoidasiga, izchil fikriy-shuuriy tizimga amal qilib, so‘z qasrini bunyod etgan. Olti qasidani, agar o‘xshatish joiz bo‘lsa, bemaolol mustahkam poydevorli, naqsh-u koshinlari har xil, ammo bu uslubda yaratilgan olti oshyonli ulkan binoga qiyos qilish mumkin. Har bir oshyon-bir hayrat xonasi, tavajjuh va tafakkur, taxayyul va tasvir hayrati.

“Sittai zaruriya”tarkibidagi har bir she’r mustaqil, ayni paytda yaxlit ma’no zanjiriga ega qasidalar bo‘lib, Alisher Navoiy o‘zigacha o‘tgan betakror tafakkur egalarining har biri ijodidagi eng ilg‘or xulosalarni teran anglab yetdi va alohida-alohida xulosalarni yashash tajribasi orqali ijodiy ravishda bir o‘zanga birlashtirdi.

“Tuhfatul afkor” qasidasi A.Navoiyning shoh asarlaridan biri bo‘lib, unda abadul-abad ahamiyatini yo‘qotmaydigan, hamisha dolzarb g‘oyalar ifoda etilgan. Bu qasida Amir Xusrav Dehlaviyning “Daryoi abror“ Nuriddin Abdurahmon Jomiyning “Lujjat ul-asror”asarlari ta’sirida dunyoga kelgan. Alisher Navoiyning “Xamsat ul-mutaxayyirin” asarida mazkur qasidaning yaratilishi tarixiga doir qiziqarli lavhalar keltiriladi. Xuroson davlatining vaziri lavozimida faoliyat ko‘rsatayotgan ulug‘ shoir Marvga qilishi lozim bo‘lgan rasmiy safari oldidan Maxdumi Nuran ziyoratiga kiradi. Suhbat jarayonida Jomiy “Lujjat ul-asror”qasidasini Alisher Navoiyga beradi. Ulug‘ o‘zbek shoirining o‘z taklifi bilan Amir Xusrav Dehlaviy “Daryoi abror”iga javobiya tarzida yozilgan bu qasida unga favqulodda ta’sir etadi va shu tabarruk dargohga ushbu she’rga tatabbu’ qilish niyati tug‘iladi. Alqissa, Hirot - Marv safari davomida, ot ustida to‘qson to‘qqiz baytdan iborat shoh qasida “Tuhfatul-afkor” dunyoga keladi. Asar chindan ham jo‘shqin ilhom, ulkan ehtiros va zavqning mahsulidir. Unda mansab va mansabdor

shaxslar axloqi bilan darvesh va tariqat ahli axloqi qiyoslangan va faqir ma'naviy yetuklikning oliy namunasi deb ta'riflangan. Shunga ko'ra, shohlik va faqirlik orasida katta jarlik borligi aytilib, faqir darvesh shoh hashamatidan ustun qo'yilgan. Ya'ni ma'naviyat saltanatdan baland, bu ikkisi orasida doimiy kurash boradi, ammo saltanat ahli har qancha intilgani bilan faqr ahli darajasiga yetolmaydi. Agar shoh faqir martabasini orzu etsa, unda saltanat orzusidan voz kechsin deyiladi. Faqr ahli bilan mehnat ahli (kosib, dehqon) ranj-u zahmati va axloqi orasida yaqinlik borligi qayd etilgan. Asar mazmunida abadul-abad ahamiyatini yo'qotmaydigan, hamisha dolzarb g'oyalar ifoda etilgan.

“Tuhfatul-afkor” badiiy jihatdan g'oyat yuksak badiiy saviyada yozilgan, unda ikki jihat yaqqol ajralib ko'zga tashlanadi: biri-har bir baytni tamsil san'ati bilan qurollantirib, (ikkinchi misrada) fikrni oydinlashtirish bo'lsa, ikkinchisi-ko'plab so'z o'yinlari, muammo san'atidan foydalanish mumkin. Bunda, ayniqsa, arab yozuvi xususiyatlaridan foydalangan.

Navoiy ijodida orif obrazi salmoqli o'rin egallagan. “Tuhfat ul-afkor” qasidasida Navoiy dastlab, faqirlik maqomi haqida payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning hadislariga ham to'xtalib o'tishni joiz ko'radi.

*“Rah suyii Haq behad, ammo hast aqrab rohi faqr,
Bahri onki “Al-faqr faxri” guftai payg'ambar ast”. [2]*

Ya'ni, Haqqa olib boradigan yo'llar ko'p, ammo tez eltuvchi va yaqin yo'l faqr yo'lidir, shuning uchun ham payg'ambar «alfaqru faxri» (faqirlik faxrimdir) degan. Bu o'rinda “alfaqru faxriy”, ya'ni “faqrlik mening faxrimdir” iborasi Muhammad payg'ambarning hadislaridandir. Navoiy bu o'rinda tamsil san'atini qo'llab, “Olloh dargohiga olib boradigan yo'l ko'p, biroq “faqr yo'li eng yaqin yo'lidir”[12], deb hazrat payg'ambarimizning so'zlarini dalil sifatida keltiradi. Faqr atamasining tasavvufiy ma'nosi Haqqa yetishishga monelik qiladigan barcha to'siqlar (o'zlik, kibr-u havo, g'urur, manmanlik, nafs talablari, mol-mulk va mansab orzusi va hok.)dan voz kechib, ko'ngilni Haq nazargohiga aylantirishdir. Alisher Navoiyning “Tuhfat ul-afkor” qasidasidan olingan quyidagi baytlarga e'tiborni qaratamiz:

“Shah, ki yod az marg norad zo'st vayronii mulk.

Xusravi be oqibat xusri bilodu kishvar ast.”[12]

(O'limni eslamaydigan podshohing mamlakati vayron bo'ladi, oqibatsiz shoh (Xusrav kabi)yurtiga ziyon keltiradi).

“Qaydi zinat musqiti farro shuko'hi xusravist,

Sheri zanjiry zi sheri besha kamsavlattar ast.”[12]

(Zeb-ziynatga hirs qo'yish shohona shon-shavkatni barbod etadi, o'rmon sheriga nisbatan zanjirband sherning savlati ko'rimsizdir)

“Lozimi shohy naboshad xoly az dardi sare,

Ko'si shah xoliyu bongi g'ulg'ulash dardi sar ast.”[12]

(Shohning bosh og'rig'idan xoli bo'lishi maholdir, “Katta nog'oraning ichi bo'sh-u, g'avg'osi boshni og'ritadi”.

“Ba dahoni xushku chashmi tar qanoat kun az onk,

“Har ki gone' shud ba xushku tar shahi bahru bar ast.”[12]

(Qurigan og‘iz va namli ko‘zga qanoat qil, ho‘l-u quruqda qanoat qilgan quruqlik va dengiz podshohidir).

*“Az bidoyat har chi ovaray ba murdan on bary,
Dar tufuliyat chi omo‘zy ba piry az bar ast”. [12]*

(Boshda nima hozirlagan bo‘lsang, o‘lganingda (oxiratda) o‘shani olib ketasan. Yoshlikda nima o‘rgangan bo‘lsang, qarilkda ham yodingda bo‘ladi.

Xulosa. Shoir umrining so‘nggi yillarida yozilgan bu qasidalarda falsafiy va axloqiy qarashlari hamda hayotiy tajribalri o‘z ifodasini topgan. Alloh insonni mukarram qilib yaratganligi, Xoliqi kibriyo irodasi bilan har bir ashyoda hikmat, san‘at va mutanosiblik borligi, dunyoning foniyligi-yu oxiratning boqiyliigi, imon va diyonat bilan bog‘liq tushunchlar o‘rin olgan. Navoiy har bir qasidada insonni hushyorlikka chaqiradi. Uni asl dushmanlari-nafsi ammora va yolg‘on dunyo muhabbatidan ogohlantiradi. Gunohlardan saqlanish va axloqni go‘zallashtirish bilan diyonatli inson bo‘lishni uqtiradi. Hazrat Navoiy butun koinotni harakatga keltirib turgan yaratilarni uzviy bog‘lovchi qonuniyatlar va tartibotlarni sinchkovlik bilan kuzatadi hamda ularni badiiy san‘atlar va timsollar vositasida yoritib kitobxonni fikrlashga undaydi. Shoir hech bir insonning bu dunyodan izziz ketmasligini, hammaga faqat yaxshilik qilish lozimligini eslatib turadi.

Navoiyni anglash, tushunish uchun inson sobit e‘tiqodli, muhabbatli va riyozatli bo‘lishi kerak. Chunki ulug‘ shoir imon va e‘tiqotdan, insof va diyonatdan saboq beradi. Qasidalarini o‘qisangiz yana bir bor bunga amin bo‘lasiz.

ADABIYOTLAR:

- 1.Karimov I. Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch.-Toshkent: Ma‘naviyat, 2016.
2. Sayfiddin Rafiddinov Sittayi zaruriya. –Toshkent:Fan, 2005.
3. Alisher Navoiy Mukammal asarlar to‘plami. 20-jild.-Toshkent:Fan, 2002.
- 4.Yusupova D. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Alisher Navoiy davri). –T: Akademnashr,2013.
5. Xomidiy X. Ganjalik pir “Sino”. 2002.
6. Donishmandlar tuhfası, O‘zbekiston. –T,2009.
7. Ali Muhammadiy Xurosoniy . Devoni forsiy.-Dushanbe:Donish, 2021.
8. Воҳидов Р. “Ситтаи зарурияда татаббуъ”. // Бухоро университети илмий ахборотлари. 2001, №1, 10-18-бетлар
- 9.<https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/alisher-navoiy-tuhfat-ul-afkor-qasida.html>

NAVOIYNING AXLOQIY BARKAMOLLIK VA MA‘NAVIY KAMOLOT HAQIDAGI PEDAGOGIK QARASHLARI

B.IBRAGIMOV,
*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
erkin tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodidagi axloqiy barkamollik va ma'naviy kamolot masalalari tahlil qilinadi. Navoiy o'z asarlarida insonning ruhiy va axloqiy rivojlanishini, uning ma'naviy kamolotga erishishini markazga olib chiqadi. Maqolada Navoiyning pedagogik qarashlari asosida axloqiy tarbiya, nafsni tiyish, yuksak fazilatlarni rivojlantirish va ilm-fan orqali ma'naviy o'sishning ahamiyati ta'kidlanadi. Shuningdek, uning asarlarida yaxshi inson bo'lish va jamiyatda adolatni ta'minlash masalalari ko'rsatiladi. Navoiy o'zining tasavvufiy va falsafiy tafakkuri orqali nafaqat axloqiy, balki ma'naviy kamolotga erishish yo'lini belgilaydi.

Kalit so'zlar: axloqiy barkamollik, ma'naviy kamolot, pedagogik qarashlar, tasavvuf, axloqiy tarbiya, nafsni tiyish.

Bugungi kunda oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalarda vatanparvarlik ruhini shakllantirish va ularga jamiyat farovonligi uchun mas'uliyatni his qilishni o'rgatish jarayoni ko'p qirrali va izchil yondashuvni talab etadi. Bu jarayon ta'lim, tarbiya, madaniy tadbirlar va ijtimoiy faoliyatlar orqali amalga oshiriladi.

Talabalarga o'z xalqining tarixiy xotirasini va buyuk ajdodlarining hayoti va faoliyatini o'rgatish ularning mas'uliyat hissini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Tarixiy xotira talabalarda yuksak mas'uliyatning shakllanishi va rivojlanishi uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Bu insonning o'tmishga hurmatini oshiradi, o'zligini anglashiga yordam beradi va kelajak uchun mas'uliyatni his qilishga undaydi. Insoniyat avlodlarining o'zaro aloqadorligi natijasida vujudga kelgan qadriyatlar, ya'ni ajdodlar va avlodlarning ma'naviy merosi umuminsoniy madaniy meros xazinasiga qo'shiladi va asta-sekin Tarixiy xotiraga aylanadi. Shuning uchun ham insonning ma'naviy yetukligi, mas'uliyatliligi uning Tarixiy xotirasi bilan bog'lanadi, ya'ni tarix inson uchun buyuk xotira vazifasini bajaradi.[1] Talabalarda davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyat hissini rivojlantirishda tarixiy xotiraning ta'lim va tarbiyadagi ahamiyati shundaki:

- tarixiy xotira orqali talabalarga ajdodlarning fidoyiligi, mashaqqatli mehnati va yutuqlari haqida bilim berish, ularda o'tmishga hurmat va kelajakka mas'uliyat hissini uyg'otadi;

- talabalar tarixni o'rganib, xalq va millatning qiyinchiliklarni qanday yengganini tushunib yetadilar. Bu ularda jamiyat farovonligi uchun javobgarlikni his qilishga yordam beradi;

- tarixiy xotira talabalarining o'z millatining o'ziga xosligini, boshqa xalqlar orasidagi o'rnini anglashiga xizmat qiladi;

- ajdodlarning muvaffaqiyatlari milliy g'ururni kuchaytiradi va yoshlarda o'z yurti kelajagini obod qilishga bo'lgan istakni rag'batlantiradi.

Buyuk davlat arboblari, masalan, Amir Temur va Alisher Navoiy kabi shaxslar xalqning tarixiy xotirasini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratgan. Amir Temur o'zining "Temur tuzuklari" orqali davlatni boshqarishdagi tajribasini kelajak avlodlarga meros qilib qoldirdi. Bu nafaqat davlat boshqaruvi, balki millatning birligini saqlash mas'uliyatini ham o'rgatadi. Bu asarda Temur davlat boshqaruvi, adolat, harbiy tartib va iqtisodiy barqarorlik tamoyillari bilan bir

qatorda, millat birligini ta'minlash mas'uliyati haqida ham chuqur fikrlarni bayon etgan.

“Temur tuzuklari”da Temur davlatni boshqarishda qat’iyat, adolat va mas’uliyatning naqadar muhimligini ta’kidlaydi. U rahbarning shaxsiy namunasi, dono qarorlari va insonlar o’rtasidagi tenglik tamoyillariga tayanishini aytadi. Bu kitob nafaqat tarixiy tajribani o’rgatadi, balki bugungi kun rahbarlari va yosh avlodga ham mas’uliyatli bo’lish, o’z xalqining farovonligi va birdamligini saqlashga intilish darsini beradi. Shuning uchun “Temur tuzuklari” faqat tarixiy hujjat emas, balki davlat boshqaruvi va milliy yuksalish borasidagi universal qo’llanmadir.

Alisher Navoiy o’z ijodi orqali millatga xizmat qilish, adolat va axloqiy yuksaklikni targ’ib qilgan. Uning asarlari bugungi yoshlar uchun ma’naviy meros va mas’uliyat darsidir. Alisher Navoiy o’z asarlari bilan nafaqat o’z davridagi, balki bugungi kun yoshlari uchun ham buyuk ma’naviy meros qoldirgan. Masalan, “Xamsa” dostonida insoniylik, sabr, adolat, vafo va mehr-oqibat kabi qadriyatlar yuksak darajada aks etgan. Uning ijodiy yondashuvi yoshlarni nafaqat ilm olishga, balki jamiyat oldidagi ma’naviy mas’uliyatni his qilishga undaydi. Yoshlar Navoiy asarlarini o’qib, hayotga va jamiyatga bo’lgan munosabatlarini yanada mukammallashtirishi mumkin. Bugungi kunda uning asarlarini o’rganish va tushunish yoshlar uchun nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki ular axloqiy barkamollik va ma’naviy kamolot sari olib boruvchi yo’l-yo’riqdir. Shu sabab, Navoiy ijodi hozirgi kunda ham dolzarbligini yo’qotmagan.

Alisher Navoiy o’zining adabiy va falsafiy merosida axloqiy barkamollik va ma’naviy kamolot masalalariga alohida e’tibor qaratgan. Uning asarlari nafaqat she’riyat, balki insonning ichki dunyosini, ma’naviyatini yuksaltirishga qaratilgan falsafiy tafakkur mahsulidir. Navoiy bu borada insonni ma’naviy yetuklikka erishishga, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo’lishga chaqiradi.

Navoiy ijodida axloqiy barkamollik - bu faqatgina tashqi me’yorlar yoki ijtimoiy qoidalar bilan bog’liq bo’lmagan, balki insonning ichki dunyosida shakllanadigan, uning ruhiy o’zgarishlarini ifodalovchi jarayondir. Navoiy axloqni, uning yaxshilik, haqiqat va adolatni anglatishini tushunib, axloqiy barkamollikni asosan ma’naviy poklik, sabr-toqat, haqiqiy sevgining ifodasi sifatida ko’radi.

“Xamsa” asarida, xususan, axloqiy barkamollik va ma’naviy yuksalish masalalari markaziy o’rin tutadi. Navoiy o’zining qahramonlari orqali, ular orasida samimiy munosabatlar, haqiqiy muhabbat, do’stlik va sadoqatni targ’ib qiladi. Shuningdek, u insonni o’zining ichki fazilatlarini rivojlantirishga, nafsini tiyishga chaqiradi. «Navro’znoma» va «Mahbub ul-qulub» asarlarida ham axloqiy tarbiya va ma’naviy kamolot masalalari ko’tarilgan.

Navoiy ma’naviy kamolotni insonning o’zligini anglashida, bilimga intilishida va cheksiz mehnat orqali o’zini takomillashtirishida ko’radi. Uning asarlarida ma’naviyat yuksalishiga erishish uchun ilm va amaliyotning uyg’unligi zarur deb ta’kidlanadi. Navoiy axloqiy kamolotni faqat tashqi me’yorlarga amal qilish bilan cheklanmasdan, balki ichki poklik, to’g’rilik va chin dildan yaxshilik qilish sifatida tasvirlaydi.

“Farhod va Shirin” asarida, masalan, qahramonlar o‘zaro muhabbat va fidoyilik orqali yuqori ma’naviy kamolotga erishishga intilishadi. Navoiy Farhodni haqiqiy muhabbat va ma’naviy o‘zishning ramzi sifatida taqdim etadi. Bu yerda ma’naviy kamolot insonning hissiy va ruhiy salohiyatlarini yuzaga chiqarish, maqsadga erishish uchun kerak bo‘lgan ruhiy kuchni shakllantirishda namoyon bo‘ladi.

Navoiy ijodida axloqiy barkamollik va ma’naviy kamolot masalalari faqatgina adabiy narsa sifatida qolmaydi, balki falsafiy tafakkur asosida shakllanadi. Uning falsafasida insonning yuksalishi, o‘zligini anglash va jamiyatda yaxshi inson bo‘lish masalalari muhim o‘rin tutadi. Navoiy haqiqat, adolat va yaxshilikka intilishning shakllarini ko‘rsatib, ularning har birini o‘zining falsafiy tafakkuri bilan bog‘laydi.

Xususan, u tasavvuf falsafasidan foydalanib, insonning ma’naviy yetukligiga erishish uchun “o‘zini anglash” va “nafsni tiyish”ni alohida ajratadi. Bu o‘rinlarda Navoiy insonni o‘zining yuqori ma’naviy fazilatlarini rivojlantirishga, nafsini zabt etishga va mashaqqatli hayotda barqaror bo‘lishga chaqiradi.

Alisher Navoiy ijodida axloqiy barkamollik va ma’naviy kamolot masalalari jamiyatda adolat va tinchlikni saqlash, insonlarni yaxshi fazilatlar bilan to‘ldirishga qaratilgan falsafiy asoslar sifatida namoyon bo‘ladi. Uning asarlari orqali axloqiy yuksalish, bilim va ma’naviyatga intilish, haqiqiy muhabbat va do‘stlikning ahamiyati tarannum topgan. Navoiy ta’limotlari bizga nafaqat adabiyot, balki hayotning barcha jabhalarida yuqori ma’naviy kamolotga erishish yo‘lini ko‘rsatib beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. Mahbubul-qulub. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1998
2. Ibrohimov X. Alisher Navoiyning pedagogik va axloqiy ta’limoti. Toshkent: Ta’lim, 2014.
3. Nasriddinov, A. Navoiy va axloqiy tarbiya. Toshkent: Fan va texnika, 2006.
4. Gulomova M. Alisher Navoiy va milliy tarbiyaviy an’analar. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009.
5. Shomansurov T. Tasavvuf va axloqiy barkamollik. Toshkent: O‘zbekiston yoshlar nashriyoti, 2012.
6. Ibodullaev A. Navoiy va uning axloqiy fikrlari. Toshkent: Til va adabiyot institute, 2010.
7. Safarov Sh. (2007). Alisher Navoiyning ijodi va uning pedagogik maqsadlari. Toshkent: Bildirish, 2007.
8. Sharifov B. (2015). Alisher Navoiyning axloqiy va ma’naviy dunyoqarashi. Toshkent: G‘oya, 2015.

АЛИШЕР НАВОИ – ВЕЛИКОЕ ДОСТОЯНИЕ УЗБЕКСКОГО НАРОДА

Мамура Шахридиновна РАХМАТОВА,
преподаватель кафедры филологии и обучения языкам
Навоийского университета инноватсий

Аннотация. Вданной статье рассматривается жизнь и деятельность Алишера Навои как выдающегося поэта, его вклад в развитие узбекской литературы и культуры.

Ключевые слова: поэт, поэзия, общественный деятель, культура, литература, наука.

Алишер Навои — выдающийся узбекский поэт, философ, государственный деятель и учёный, один из самых значимых представителей персидской и тюркской литературы. Его жизнь и творчество оказали глубокое влияние на развитие культуры Центральной Азии, и по сей день его произведения продолжают изучать и восхищаться ими.

Навои с ранних лет проявлял выдающиеся способности к обучению, изучая арабский, персидский и туркменский языки, а также основы философии и астрономии. Алишер Навои вырос в эпоху расцвета Тимуридов, когда культура и наука процветали, а Самарканд был одним из крупнейших центров исламской цивилизации. Навои поступил на государственную службу, где вскоре стал советником султана Хусейна Байкары, правителя Мавераннахр. Однако, несмотря на успешную карьеру в качестве государственного деятеля, Навои всегда оставался преданным литературе и науке. Он был человеком с разносторонними интересами и работал в различных областях. Он занимался философией, астрономией, математикой и теологией, однако его истинное призвание оказалось в поэзии и литературе. Алишер Навои — автор многочисленных произведений, среди которых наиболее известны его поэмы, лирические стихи и трактаты. Навои писал как на персидском, так и на тюркском языках, что было необычным для того времени, так как большинство литературных произведений создавались на персидском языке. Он стал основателем литературного тюркского языка, что сделало его выдающимся реформатором и создателем литературной традиции. Одним из важнейших произведений Навои является его поэма «Хамсе» («Пять поэм»), в которой он продемонстрировал высокий уровень мастерства и литературной изобретательности. В её состав вошли пять поэм, каждая из которых была посвящена разным темам, от любви и философии до политической сатиры. Эти произведения оказали огромное влияние на дальнейшее развитие литературы в Центральной Азии и за её пределами. Навои также писал многочисленные лирические стихотворения, в которых выражал свои мысли о жизни, любви, вере и человеческих ценностях. Его поэзия отличалась глубиной и проникновенностью, а также строгим соблюдением литературных форм. Навои был не только поэтом, но и философом, который в своих произведениях часто затрагивал вопросы смысла жизни, духовности и морали. В его творчестве можно найти множество философских размышлений, часто в контексте суфизма — исламского мистицизма, который оказал большое влияние на его взгляды. Одним из важнейших аспектов философии Навои было стремление к гармонии и

справедливости, что отражалось в его произведениях. Он подчеркивал важность знания и саморазвития, а также приверженности высоким моральным идеалам. Навои был сторонником гуманистических ценностей, и его взгляды часто пересекались с идеями, которые позже нашли развитие в эпоху Ренессанса в Европе.

Алишер Навои остаётся символом культурного и интеллектуального наследия Центральной Азии. Его творчество продолжает изучаться и восхищать поколения учёных и читателей. Он считается одним из величайших поэтов Востока и внес неоценимый вклад в развитие мировой литературы. Его работы стали основой для развития персидской и тюркской литературы, а также для формирования культурной идентичности народов Центральной Азии. Кроме того, Навои активно занимался благотворительностью, строил школы, медресе, мечети, а также был покровителем искусства. Его вклад в развитие культуры региона невозможно переоценить. Его день рождения, 9 февраля, является важной датой в культурной жизни Узбекистана и других стран Центральной Азии, где отмечается как день поэзии и искусства. Регулярно издаются произведения великого художника слова, проводится множество исследований в области красноречия, проводятся научные конференции на национальном и международном уровне. Бесценное творческое и научное наследие великого поэта и мыслителя, известного государственного и общественного деятеля Алишера Навои занимает особое место не только в истории нашего народа, но и в истории мировой литературы, в развитии национальной культуры и литературно-эстетического мышления. Великий поэт со всем обаянием и изяществом проявил в своих поэтических и прозаических произведениях высокие общечеловеческие идеи, несравненный словарный запас и безграничные возможности выражения родного языка и завоевал достойное место в сердцах миллионов читателей. За последние годы проведен ряд работ по всестороннему изучению богатого творческого наследия Алишера Навои, широкой пропаганде его бессмертных произведений в нашей стране и за рубежом, увековечению его памяти. Творчество и общественная деятельность великого узбекского поэта и мыслителя Алишера Навои является уникальным примером служения человечеству и духовности, стране. Всю свою жизнь он посвятил борьбе за счастье человека, обеспечению спокойствия и благополучия народа, благоустройству, развитию науки, искусства и литературы. Алишер Навои-великая личность, истинный представитель духовности и культуры.

Необходимо изучать творчество Алишера Навои, знакомить молодое поколение с его нравственно – просветительскими взглядами.

В своих произведениях Алишер Навои воспевал человека, который является «венцом всех существ», воспевая его радости, заботы, проблемы, мечты. Поэт, так глубоко выразивший радость и печаль человеческой души, доброту и смысл жизни, как Навои, редко встречается в истории мировой литературы. Любовь к родному языку, чувство осознания его несравненного

богатства и величия также проникают в наше сознание, в наши сердца, прежде всего, через произведения Навои. Произведения Навои имеют неопределимое значение для духовного совершенствования подрастающего поколения. В его работах затрагиваются такие вопросы, как воспитание, уважение к старшим, овладение наукой и просвещением. Богатое литературное и духовное наследие, оставленное нашими предками, в частности, Алишером Навои, играет важную роль в духовном воспитании людей, особенно подрастающего поколения. Алишер Навои всю свою жизнь посвятил человеческому счастью, благополучию своего народа. Алишер Навои был не только великим поэтом, но и философом, учёным и культурным деятелем. Его жизнь и творчество стали неотъемлемой частью истории Центральной Азии и мирового культурного наследия. Его произведения, идеи и философские размышления продолжают оказывать влияние на последующие поколения, и его имя навсегда останется символом величия восточной культуры.

ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Акрамов Б. «Сахибкиран поэтического наследия». Ташкент, 2016.
2. Акрамов Б. «Шахбейты Навои». Ташкент, 2007.
3. Гулямова Г.С. Своеобразие развития духовной культуры в XV-XVI веках на территории Центральной Азии. Ташкент, 2020.

NAVOIY LIRIKASIDA KOMIL INSON TUSHUNCHASI

*Dilnavoz RAHMONOVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada Navoiy lirikasiga murojaat qilingan bo'lib, ma'nolar xazinasini atalmish bu bo'stondan o'quvchilarni bahramand etish orqali ularning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Yoshlarini ma'naviy yetuk, aqlan barkamol etib tarbiyalashda mutafakkirning hikmatlar yo'g'rilgan lirik asarlari, alohida ahamiyatga ega ekanligi haqida ma'lumotlar yozilgan.

Kalit so'zlar: lirik tur, ma'naviyat, she'riyat, qit'a janri, doston, himmat.

*Kamol et kasbkim olam uyidin,
Senga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o'tmak biaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmoq.*

So'z mulkining sultoni Alisher Navoiy axloqiy, ma'naviy fikriy kamolotga erishish mavzuda ko'p asarlar yaratgan. Bunda ulug' shoir har bir janrning talabi, tabiati va ifoda yo'li hamda usullarini hisobga olib qalam yuritgan. Bu holni yuqoridagi qit'a janridagi to'rtlikda ham kuzatishimiz mumkin. Qit'aning dastlabki misralari to'g'ridan-to'g'ri "Kamol et kasbkim...", degan da'vat bilan boshlanishi

navoiyvor xususiyatga egadir. Ulug' alloma Aziziddin Nasafiyning yozishicha: "Komil inson, yaxshi so'z, yaxshi amal, yaxshi axloq va puxta ilmga sohib bo'lgan kishidir". Navoiyning nuqtayi nazariga ko'ra, mol-u davlatni yig'ish emas, balki xayrli ishlarga, xalq farovonligi yo'lida sarflash himmat va kamolotga yetishishning muhim belgisidir.

Saxiylik va himmat xususida so'z borganda, Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarini eslamaslikning hech ham iloji yo'q. Negaki, bu asarda shoir himmat borasida faxr va iftixor ila shunday yozadi: "Odam bir badan bo'lsa, himmat uning jonidir[1]. Himmatlilardan olam ahli uchun yuz ming sharaf va shukuh yetishadi. Navoiy himmati baland insonlarni hamisha ulug'lar ekan, avvalo, o'ziga ham nasihat qilishni unutmaydi. Bu borada "Hayrat ul-abror" dostonida shunday yozadi:

*Himmat agar bo'lsa Navoiy sanga,
Bandadurur Hotami Toyi sanga.*

Navoiy "Olam tarki kishiga himmatdin erur" degan fikrni ilgari suradi. Ya'ni: kishi bu yorug' olamga kelar ekan, yaratgan unga munosib umr beradi. Ana shu umrni barchamiz ezgu ishlar ila ado etib, bu yorug' olamni tark etsak, bu ham himmatlilik belgisi ekan.

Himmat egasi boshpanasi bo'lmasa-da hamisha boy kishi sanalgan. Chunki ulardagi muloyimtabiatlilik, mehribonlik, shirinsuxanlik, yomonliklarga yaxshilik ila javob bera oladigan mustahkam iroda, sabr-qanoat kabi insoniy fazilatlarining mujassamligi ularning mol-dunyosi mo'l har qanday himmatsiz insondan ustun ekanligidan dalolat bergan". Saddi Iskandariy" dostonida shu xususidagi ibratli haqiqat o'z aksini topgan.

*Birovkim, aning himmati yo'turur,
G'aniy bo'lsa ham hurmati yo'qturur.*

Himmat egasi hech qachon shuhratparastlikka intilmaydi. Uning go'zal fazilati bo'lgan himmati bunga yo'l qo'ymaydi. Hatto himmati baland gado ham shohlik tojidan voz kechishi mumkin[2]. Buni biz ushbu dostonidagi "Iskandar va gadolikni ixtiyor etgan shahzoda muloqoti" orqali bilib olamiz. Inson degan oliy maqomni ulug'lovchi himmat tushunchasini anglab yetmoqlik, u bilan oshno bo'lmoqlik bugun barchamiz uchun sharaftir. Hamisha ana shunday ezgu ishlarga posbon bo'lib, hech kimdan saxovatimizni darig' tutmaylik. "Odam bir badan bo'lsa, himmat uning jonidir. Himmatlilardan olam ahli uchun yuz ming sharaf va shukuh yetishadi. Himmatsiz kishi-er sonida emas; jonsiz badanni hech kim tirik demas. Oliyhimmat odam balandparvoz lochindir; behimmat-sichqon ovlovchi kalxatdir. Himmat egasi qashshoq bo'lsa ham tubanlik qilmas; himmatsiz kishi xazina topsa ham buyuklarga teng bo'lmas. Himmatli kishilarning darajasi yuksakdir". O'z zamiriga yashiringan ma'no nozikliklarini topishga undayveradi.

Zero, Navoiyning so'zi oddiy so'z emas. Uning qaryib olti asrdan buyon o'rganilishining siri ham ana shunda. Navoiy ijodi o'ziga xos hikmatlar bo'stonidir. O'zingizda tug'ilgan har qanday savolga javob izlab, unga murojaat qilsangiz, ahvoli ruhiyatingizga mos bir hikmat topib, murodingiz hosil bo'lishi, ko'nglingiz taskin topishi shubhasiz[3]. Ko'pni ko'rgan donishmand shoir

hayotning deyarli hamma yaxshi yomonini boshidan o'tkazgan, insoniyat fe'l-atvorini yaxshi xis qila olgan, jamiyat va xalq munosabatlarini tahlil qila olgan va aql tarozisida o'lchab, ko'ngil daftariga bitgandir. Ulug' Navoiyning har bir misrasini o'qib qalbimiz shuurga, nurga to'ladek bo'ladi[4]. Biz so'z olamining podshohi Mir Alisher Navoiy hazratlarining boy merosini ongimizga singdira olsak, har biri bir dunyoga teng misralarni qalbimiz mulkiga aylantira olsak, o'ylaymanki, dunyoda hech qachon, hech kimdan kam bo'lmaymiz.

ADABIYOTLAR:

- 1.Alisher Navoiy. Navodir un-nihoya.Yigirma tomlik. 2-tom. – Toshkent: Fan, 1987. – B. 619.
- 2.Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G'.G'ulom, 2006. – B. 389.
- 3.Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning almiy-nazariy asoslari. – Toshkent: O'qituvchi. 1996. – B. 8.
- 4.Hojiahmedov A. Aruz nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 1998. – B. 36.

ALISHER NAVOIY VA MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI

*Firdavs Nasritdin o'g'li ACHILOV,
Navoiy innovatsiyalar universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiy va Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifatparvarlik g'oyalari, ma'naviy va axloqiy qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jadidlar, tarbiya, ezgulik, ijtimoiy-siyosiy hayot, ma'rifat, erk.

XX asr o'zbek adabiyoti va san'atida, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida faol ishtirok etgan, millat ma'rifati, ozodligi, hurligi yo'lida mardonavor kurashgan allomalarning sermashaqqat va sermahsul faoliyati tarix sahifalaridan mangu o'rin egalladi, avlodlar uchun ibrat maktabi bo'lib qoldi.

Mahmudxo'ja Behbudi milliy til masalasiga katta e'tibor qaratgan. Birgina uning "Oyna" jurnali ma'rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Unda millat va uning haq-huquqiga, tarixiga, til-adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Ayniqsa, til masalalari muharrirning hamisha diqqat markazida bo'lgan. Behbudi millatning taraqqiyoti uchun bir necha til bilishni shart hisoblardi. Masalan, jurnalning 1913-yil avgust, birinchi – nishona sonidayoq, "Ikki emas, to'rt til lozim" degan maqola bilan chiqqan edi. Uning "Padarkush" dramasi ham o'zbek adabiyotida ilk dramatik asar hisoblanib, o'z davrining oynasi hisoblangan.

Alisher Navoiy nomi bizning tafakkurimizda avval-boshlab til, turkiy til tushunchalari bilan yondosh turadi. Bunda ikki jihatni farqlash kerakdek. Dastlabkisi shuki, shoir tilning faqat insongagina ato etilgan "guhari sharif", so'zning qudratli qurol ekanini urg'ulaydi. Ta'sir kuchiga shubha qilmaganidan,

mangulikka daxldor yuksak insoniy ideallarini ham badiiy soʻz libosiga oʻrab taqdim etadi.

Ikkinchi tarafdin esa mutafakkir turkiy til mavqeini oʻz oʻrniga qaytarib qoʻydi. U davrda ulkan hududdagi koʻp sonli aholi oʻzaro turkiyda soʻzlashar, idoraviy va badiiy til – fors-tojikcha, ilmiy asarlar esa koʻproq arabiyda bitilgan. Navoiy savqi tabiiy ila turkiy til imkoniyatlarini koʻrsatish va darajasini koʻtarish zaruriyatini anglardi, shu anglamga koʻra badiiy asarlarida ona tilining qudratini amalda, “Muhokamatul-lugʻatayn”da esa nazariy jihatdan asoslaydi. Taʼbir joiz boʻlsa, Nuh paygʻambar zamonidan buyon, asosan, oddiy xalqning kundalik muloqoti orqali boʻlsa-da, yashab kelgan til ijtimoiy hayotning yuksak jabhalarida qoʻllashga ham yaroqli va munosib ekanini isbotlaydi.

Til muammosi XX asr boshlarida yana oʻrtaga chiqib, jadidlar ham xuddi Navoiy singari masalani avvalo maʼnaviy-maʼrifiy sathda idrok etadilar. Yaʼni boshqa til unsurlaridan xoli boʻlgan, oʻz lugʻat boyligi va imkoniyatlariga tayangan sof milliy lison uchun kurashga kiradilar. Buning yorqin misoli 1919-yilda tashkil topgan “Chigʻatoy gurungi”dir. Binobarin, Navoiy zimmasiga turkiy tilning butun boyligi, goʻzalligi, qudratini namoyish qilish vazifasi tushgan boʻlsa, jadid maʼrifatparvarlari uni ibtidoiy sofligida koʻrmoq, oʻz imkoniyatlari negizida taraqqiy ettirmoqni koʻzlaydilar. Ular, Navoiydan farqli ravishda, tilimizga chuqur oʻrnashgan arabiy-forsiy kalimalarni isteʼmoldan butunlay oʻchib ketgan eski turkiy soʻzlar bilan almashtirib, ajnabiy ifoda usullarini oʻzgartirish tashabbusi bilan chiqadilar. Rus tili “bosqin”iga qattiq qarshilik koʻrsatib, yangi tushunchalarning oʻzbekcha muqobilini topishga intiladilar. Sheva – adabiy til muxolifati ham ilk bora XX asr boshlarida farqlanib, adabiy tilni shakllantirishga qoʻl uriladi.

Alisher Navoiy ayolni sevimli maʼshuqa, ona, yaratuvchi shaxs va doʻst-u anis sanaydi. Oʻrta asrlar ojiza deb qaragan jins vakillarini jamiyatning muhim boʻgʻini deb bilgan shoir “Mahbub ul-qulub”da alohida faslni ularga bagʻishlagan (“Kadxudoligʻ sifati va xotunlar zikrida”). U xotinlar erkak kishining ijtimoiy faolligi, davlat va jamiyat oldidagi xizmatiga taʼsir qiladi deydi: “Muvofiq tushsa kadbonu, davlat va jamiyatga boʻlmoqdurur hamzonu”. Agarda oqila boʻlsa, turmush obodligi undan; hayotdan jafo yetganda – doʻst-u hamdam, taqdirdan balolar yuzlanganda – gʻamdosh-u hamnishin; ular farishtalarga yaqin turadilar, bunday ayolga yoʻldosh, turmushdosh boʻlish – saodat, taqdirning muborakligi nishonasidir. Navoiy ayol siymosida eng qadrlagan sifat bu – hayo, iffat, vafo va poklikdir. Shoirga koʻra, “Yuz tuman nopok erdin yaxshiroq, Pok xotunlar ayogʻining izi”! “Mahbub ul-qulub”da esa shunday duo bor: “...ismat hullasidin yuzlarida burqaʼ, bu burqaʼni ul yuzidin haq yiroq qilmasun...” (ularning yuzlarida maʼsumlikning harir pardasi borkim, Haq bu pardani ularning yuzlaridan aslo koʻtarmasin). Poklik shuning uchun ham muhimki, faqat shunday ayollardangina solih va yuksak fazilatli farzandlar dunyoga keladi: “Pokdomon zuafodin neki zoyanda boʻlur, Ruhparvardur, jonbaxsh zihi xilqati pok”.

Navoiyona konsepsiyaning keyingi muhim nuqtasi shuki, unda har birimizning ichimizda istisnosiz mavjud boʻlgan ezgulik va yovuzlik urugʻidan qay

birining unib-o'sishi uchun kurashamiz, qay biriga yo'l bermaymiz; faqat o'z kamolotimiz bilan cheklanamizmi va yo undan jamiyatni ham bahramand qilamizmi – komillik masalasi ayni shu tarzda qo'yilgan.

ALISHER NAVOIY VA MUNAVVARQORI ABDURASHIDXONOVNING TA'LIM-TARBIYAGA OID QARASHLARI

Nodira SHARIPOVA,

*Navoiy davlat universiteti Milliy g'oya: ma'naviyat asoslari va huquq
ta'limi kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiy va Mahmudxo'ja Behbudiy ilgari surgan xalqparvarlik, insonparvarlik g'oyalaridan bugungi kunda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida oqilona foydalanish oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri ekanligi bilan bog'liq. Hazratning g'oyasida so'z va ishning birligiga amal qilish fikri ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: ma'rifatparvar, insonparvar, adolat, qanoat, sabr, rostgo'ylik.

Buyuk mutafakkir, davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy qoldirgan ma'naviy meros nafaqat xalqimizning, balki butun insoniyatning ma'naviy mulkiga aylangan. Chunki, hazratning insonparvarlik g'oyalari millatidan, jinsidan, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar umuminsoniyatning manfaatiga xizmat qilmoqda.

Alisher Navoiy ijodining markazida inson turadi. Allomaning nazaridagi inson ijodkor, qobiliyatli, bilimli, sabr-qanoatli, rostgo'y adolatli, halol, insofli mehnatsevar va kamtarlik kabi insoniy fazilatlariga ega bo'lgan shaxs.

Alisher Navoiyning ma'rifatparvarlik g'oyalari, ta'lim-tarbiyaga doir konseptual qarashlari o'z davridagi va o'zidan keyingi ijodkorlar ta'limotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgani hech kimga sir emas. Xususan, jadid ma'rifatparvarlari dunyoqarashiga ham ulkan ta'sir ko'rsatdi.

Alisher Navoiy va Mahmudxo'ja Behbudiy ilgari surgan xalqparvarlik, insonparvarlik g'oyalaridan bugungi kunda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida oqilona foydalanish oldimizda turgan asosiy vazifalardan biridir. Hazratning g'oyasida so'z va ishning birligiga amal qilish fikri ilgari surilgan.

Turkiston jadidlari ozodlik, ma'rifat uchun kurashlarini ma'lum dastur asosida ikki yo'nalishda madaniy taraqqiyotni rivojlantirish, buning uchun ma'rifatparvarlikka asoslanish va bu boradagi faoliyatni amaliyot bilan bog'liq holda olib borish orqali amalga oshiradilar. Ular milliy uyg'onishning asosini ta'lim o'quv dasturlarini isloh qilishda qurdilar, shu tariqa Turkistonda ijtimoiy ong taraqqiyotini boshlab beradilar. Ular kishilar qalbini harakatga keltirish, milliy iftixor tuyg'usini uyg'otish uchun kurashdilar.

XIX asrning oxiri XX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan zabardast pedagog olimlardan Isxoqxon Ibratdir. U adabiyotga, she'riyatga ixlosmand bo'lganligi uchun "Xodim opamiz" taxallusi bilan she'rlar yozgan. Isxoqxon Ibrat

1886-yil o'z qishlog'ida maktab ochadi. "Lug'ati sitta al-sina", "Jomeul Xutut", "Tarixi Farg'ona", "Devoni Ibrat", "Tarixiy madaniyat", "Toshkent musulmon maktablari haqida" asarlarini yozgan Isxoqxon Ibrat 1914-yilda Namanganning To'raqurg'onida rus maktabini ochadi va uni "Учитель" nomi bilan ataydi.

Munavvar Qorining "Usuli jadid" maktabi ochilgan yili to'g'risida yana bir misolni keltirishni lozim topamiz. E.Fyodorov "O'rta Osiyoda milliy inqilobiy harakat tarixi" nomli kitobida ma'lumot berishicha, jadid Behbudiy Samarqandda birinchi marta yangi usul maktabini ochganligi, Munavvar Qori Abdurashidxonov ham 1904-yilda Toshkentning eski shaharida shunday maktab ochganligi aytiladi.

Munavvar Qori yangi usuldagi maktabini dastlab o'z hovlisida ochgan, keyinchalik boshqa joylarda ochish uchun keng harakatni boshlab yuborgan. Bu yillarda uning yaqin qarindoshlari ko'makdosh bo'ldilar. Bu to'g'rida M. Muhammadjonov o'zining "Turmush urinishlari" kitobida keng ma'lumotlar beradi: Shayx Xonavand Taxur dahalik Mirza Dadaxo'jaboyning mehmonxonasida maktab ochib, bir-ikki yildan beri Abdusami Qori degan bir kishi bilan bola o'qitib turmoqda bo'lg'onini aytdilar. Borib ko'rdim. Bolalarning o'qishlarini sinf-sinflarida yurib ko'rib chiqdim. Hozirda 4-sinf boshlang'ich (ibtidoyi) maktab bo'lib, yaxshigina tartiblik: parta, qora taxtalar, yer yuzi bo'laklarining (Qit'alarining) qisqacha ham butun xaritalari bor ekan. Bu yangi tartiblik maktablarning Toshkent shahrida bo'lib ketishiga birinchi sabab Munavvar Qori bo'lib, barchasining prog'omini shul tuzub bergan".

O'quvchi-yoshlarda ma'naviy, axloqiy, insonparvarlik sifatlarini shakllantirishda, Navoiy merosidan foydalanishni takomillashtirish uchun quyidagilarga e'tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

- maktabgacha va kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun Navoiy asarlaridagi maqolot, hikoyat va rivoyatlar asosida multimediyalar tayyorlansa;
- boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan tasviriy san'at, musiqa darslarining imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilsa;
- boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun Navoiy asarlarining lug'ati ishlab chiqilsa;
- umumta'lim maktablari va akademik litseylarda "Navoiyning til sandig'i" tashkil etilsa;
- oliy ta'lim muassasalarida "Navoiy pedagogikasi" maxsus kurs yoki tanlov fan sifatida o'qitilsa;
- kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida o'qitiladigan ijtimoiy fanlardagi mavzularga Navoiyning insonparvarlik g'oyalari singdirilib, ular tinglovchilarga yetkazilsa;
- Navoiyning bolaligi, o'smirligi, o'spirinligi va katta yoshdagi hayotiy faoliyati aks etgan seriallar tayyorlanib xalqimizga taqdim etilsa.

Alisher Navoiy va Mahmudxo'ja Behbudiy kabi mutafakkirlarimizning ma'rifatparvarlik g'oyalari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizga oid qarashlari millatimizning faxri bo'lgan buyuk ajdodlarimizning ma'naviy merosini o'sib kelayotgan yosh avlodga singdirishimizda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

ISHTIQOQ SAN‘ATIDA OSHIQ HOLATI INKISHOFI

Rano Norboyevna YUSUBOVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti professori

Annotatsiya. Maqolada ishtiyoq lafziy san‘atining poetik imkoniyatlari Alisher Navoiy asarlari misolida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: sinonimlar, she‘riy san‘at, turkiy so‘zlar, arabiy so‘zlar, forsiy so‘zlar, poetizmlar.

She‘riy san‘atlar mumtoz adabiyotimizda qofiya ilmi kabi alohida ilm sifatida o‘rganib kelingan. Bu ilm arablarda “balog‘at ilmi”, forsiy va turkiylarda “ilmi sanoye” – san‘at ilmi deb o‘rganilgan. She‘riy san‘atlar lafziy san‘atlar, ma‘naviy san‘atlar va lafziy-ma‘naviy san‘atlar tavsifiy guruhlarini bo‘yicha o‘rganiladi. Ma‘lumki, lafziy san‘atlar she‘riy nutqdagi so‘zning tovushi bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘proq shakl hodisasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ammo uning ham o‘z shartlari mavjud. “Bilginki, lafziy go‘zalliklarning asosi uldurkim, alfozni ma‘noga tobe qilg‘aylar”, - deb ta‘kidlaydi Atoulloh Husayniy.

Alisher Navoiy asarlarida ishtiyoq lafziy san‘atidan keng foydalanganlikni ko‘rish mumkin. “Ishtiyoq (so‘zdan so‘zni ajratmoq) – she‘r baytlarida o‘zakdosh so‘zlarni qo‘llash san‘atidir”, ishtiyoqni qo‘llashdan maqsad o‘zakdosh so‘zlarni shunchaki keltirib she‘rga bezak berish emas, bunda o‘zakdosh so‘zlar orasidagi ma‘no aloqadorligi asosida mazmunni tiniq va teran, xushohang ifodalash kabi muhim estetik samaralar ko‘zlanadi.

“Do‘st tutilgan shaxs” ma‘nosini beruvchi o‘zbek tilidagi o‘rtoq turkiycha so‘zining forsiya do‘st, oshno, hamdam; arabcha rafiq, muhib, harif, habib, mahbub, anis kabi sinonimlari xususida shunday deyish mumkin. Ot turkumiga mansub o‘rtoq so‘zi qadimgi turkiy til davridan buyon qo‘llanib, “...asli fe‘l asosiga -q qo‘shimchasini qo‘shib yasalgani shubhasiz, lekin “teng holatda bo‘l-” ma‘nosini anglatgan orta fe‘li mavjud bo‘lganini tasdiqlovchi dalil manbalarda yo‘q”. Bu xususda E.V.Sevortyan lug‘atida ham keltirilgan. O‘rtoq so‘zining forsiya sinonimlaridan do‘st (دوست) so‘zi “shafqatli o‘rtoq, yor, oshno, mahbub(a)” etimologik ma‘nosini anglatadi, oshno (أشنا) so‘zi “tanish”, “o‘rtoq” ma‘nolarini anglatadi, hamdam (همدم) so‘zi ham “ulfat, birga yuruvchi; o‘rtoq, do‘st” ma‘nolarini anglatadi. Shuningdek, o‘rtoq so‘zining arabcha sinonimlaridan rafiq (رفيق) so‘zi “yo‘ldosh; sherik, o‘rtoq, do‘st; ma‘shuq, mahbub” ma‘nolarini anglatadi, muhib (محب) so‘zi “sevuvchi, do‘st tutuvchi” ma‘nolarini anglatadi, harif (حريف) so‘zi “o‘rtoq, sherik, ulfat” ma‘nolarini anglatadi, habib (حبيب) so‘zi “sevikli, do‘st” ma‘nolarini anglatadi, mahbub (محبوب) so‘zi “sevgili; ma‘shuqa; do‘st” ma‘nolarini, anis (انيس) so‘zi “ulfat; do‘st, yaqin, o‘rtoq; oshna” ma‘nolarini anglatadi.

Navoiy lirik qahramonga (yor) murojaat qilganda, uni tavsiflaganda turkiy tilda mavjud an‘anaviy ifodalarni emas, ko‘pincha arab, fors tilidan o‘zlashgan

leksemalarga murojaat qiladi va ikki qaytariqning oldini oladi. Birinchidan, oddiy takrordan xalos bo'ladi, ikkinchidan, poetizmni ishtiyoq san'atiga asoslangan holda qo'llab poetik timsolning bo'rtib turishiga, fon bo'yoqdorligiga erishadi. Muhib, mahbub, habib variantlari ishtiyoq sanalib, shu boisdan Navoiy ushbu so'zlarni nisbatan ko'p qo'llaydi. Shoir "Ey habib" radifli g'azali matla'sida "sevikli" ma'nosida muhib, mahbub, habib arabcha sinonimlarini ketma-ket leksik ortiqchalik asosida qo'llab, yuqorida aytilgan maqsadga erishgan, deb hisoblash mumkin, masalan:

*Haq o'zin qildi muhib sen oyni mahbub, ey habib,
Ul muhibqa sen kibi mahbub erur xo'b, ey habib.*

Keyingi baytda ham yuqorida keltirilgan o'zakdoshlar bilan bir qatorda, mazmun bilan aloqador ravishda ularning boshqa bir o'zakdoshi ham qo'llanilgan: Bo'lsalar ahli muhabbat har kishining tolibi, Bizga sendursen iki olamda matlub, ey habib.

Baytda muhabbat, habib so'zlari bilan bir qatorda, tolib, matlub so'zlari (tolib va matlub keng ma'noda qo'llanadi. Bu o'rinda tolib "istak", matlub esa "istalgan" ma'nosidadir) vositasida yana bir ishtiyoq san'ati qo'llangan. Muhabbat ahlidan bo'lishlik har bir kishining mayli, istagi bo'lsa, biz uchun ikki olamda istalgan sendursan, ey sevikli, deydi shoir. Baytda ishtiyoq san'atining qo'sh qo'llanishi badiiy mazmun qamrovi sababi bilan yuzaga kelgan.

*Har kishi ahhobing ichrakim o'zin aylar hisob,
Bermayin jon ul muhibqa qayda mahsub, ey habib.*

Ahhob habib so'zining ko'pligi bo'lib, "seviklilar" ma'nosini beradi, bu o'rinda baytda ahhob, muhib, habib so'zlari ishtiyoq san'atini shakllantirgan. Shoir nazdida, har bir kishi o'zini seviklilar qatorida deb biladi, kishi seviluvchi (muhib) uchun jon bermay turib o'zini qanday shu qatorga mansub deb hisoblashi mumkin, ey sevikli, deya murojaat etadi. Shu o'rinda e'tibor berilsa, hisob va mahsub so'zlari ham ishtiyoq sanaladi, mahsub so'zi "hisoblanmoq" ma'nosini beradi, ya'ni hisob o'zagidan yasalgandir. Natijada baytda tovushlar uyg'unligi, ohangdoshlik ravon o'qilishni ta'minlabgina qolmasdan, badiiy mazmun bilan bir butunlikni kasb etgan.

Uchinchi baytda ham ishtiyoq san'ati g'azalda ifodalanishi ko'zda tutilgan badiiy mazmunni rivojlantirishga xizmat qildirilgan:

*Bir sari mo'olam ahli bug'zidin parvoyi yo'q,
Aylagan o'zni sening hubbungga mansub, ey habib.*

Baytning ikkinchi misrasida o'zakdosh so'zlarning yana biri – hubb so'zi qo'llanilib "sevish" degan ma'noni anglatadi va bu o'rinda habib so'zi bilan ishtiyoq san'atini yuzaga keltirgan. Baytdan esa quyidagi mazmun anglashiladi: Bunday insonlarning tanasidagi har bir tola uchun dushmanlik (bug'z) ahamiyatsiz, ular o'zini faqat seni sevishga mansub deb bilganlardir, ey sevikli, deya murojaat etadi.

Ma'lumki, ahhob, muhib, habib, mahbub, muhabbat so'zlarining o'zagi "hibba" o'zagidan yaralgan so'z bo'lib, "ustiga tuproq tortilgan urug'" ma'nosini

anglatadi. Hayotning asli va asosi ana shu urug‘da bo‘lganidek, diniy, ma‘naviy va ruhoniylar hayotning urug‘i, ildizi va daraxti ham muhabbatdir” .

G‘azalning Maqtasiga diqqat qaratamiz:

Chun muhabbat ahliga toat hunardur, rahm qil,

Kim Navoiy keldi ul xayl ichra ma‘yub, ey habib.

Muhabbat (ishq) ahli uchun itoat qilish (toat) kasbdur, vojibdur, rahm qil, netayki, el ichida aybdor Navoiy ham bor, ey sevikli, deya shoir fikriga nuqta qo‘yadi. E‘tibor berilsa, Alisher Navoiy murojaatlarida komillikning mohiyati ochib berilgan, g‘azalda ilohiy muhabbat obrazlashtirilgan holatda tarannum etilgan va ishtiyoq san‘ati orqali badiiy kamolotga yetkazilgan.

DUNYO HUSNIN SO‘ZDA YARATDI

Nasiba Jumayevna YARASHOVA,

Navoiy innovatsiyalar universiteti professori v.b., f.f.d. (DSc)

So‘z – barcha yaratilarning avvalidir. Uning qudrati va kuchi boshqa narsalarga nisbatan ancha yuqoriroqdir. So‘zning qudrati va nafosati haqida ko‘plab buyuk allomalar, olimlar fikr yuritishgan. So‘z qudratini yuksaklarga ko‘targan Mir Alisher Navoiy ham o‘zining bir qator asarlarida, xususan, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida bir-biridan qimmatli fikrlarni keltirib o‘tgan. Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida so‘zni bir durga qiyoslab, uning daryosini esa ko‘ngilga o‘xshatadi. Gavhar daryodan g‘avvos orqali chiqarilib, uning qiymati toshiga qarab belgilangani singari so‘z ham ko‘ngildan so‘zga chechan kishi vositasida nutq sharafiga erishadi, darajasiga ko‘ra shuhrat qozonadi va hamma yerda ulug‘lanadi. Asarda so‘zning qiymati, gavharning qiymatidan ham ustun ekanligi alohida ta‘kidlanadi. “Gavhar qiymat yuzasidan bir diramdan yuz tumangacha borsa, so‘z shunday gavharki, martabasini aniqlashda hatto mohir so‘z egalari ham ojizdirlar: uning martabasi- yomon so‘zning halok qiluvchanligidan tortib, yaxshi so‘z bilan Isoning mo‘jiza ko‘rsatishiga qadar boradi”,- deyiladi asarda. Ya‘ni bu o‘rinda yomon so‘z shunday kuchga egaki, insonni halok qilishi ham mumkin, yaxshi so‘zning qudrati esa Isoning jon bag‘ishlovchi mo‘jizasiga teng bo‘lib, o‘lim yoqasidagi insonni ham hayotga qaytarishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tilmoqda. Shuningdek, yaxshi so‘z toza ruh bag‘ishlovchisiga, yomon so‘z bo‘lsa zaharga o‘xshatiladi. Ijodkor so‘zning turlari ko‘pligi, ularni aniq aytib bo‘lmasligi, qisqa qilib aytganda esa 72xil bo‘lib, u hamma joyda har xil bo‘lishini ta‘kidlab, insonlarni hayvonot olamidan farqi sifatida so‘z va nutq sohibi ekanligini ko‘rsatadi. So‘z va gapni qo‘llashdan maqsad ma‘nodir. So‘z qo‘llashda, avvalo, uning ma‘nosiga ko‘proq e‘tibor bermoq joizdir. Boisi, o‘sha ma‘no orqali so‘z tezroq tinglovchiga anglashiladi va ma‘nosi to‘g‘ri tanlangan so‘zning ta‘sir kuchi ham yuqori bo‘ladi. Buni Navoiyning so‘z qo‘llashda turk tilining fors tiliga nisbatan nozik ma‘noli so‘zlarga boy ekanligini isbotlash jarayonida ko‘rishimiz mumkin:

Hajri anduhida bo‘xsabmen, bila olman netay,

May ilojimdur qo‘pub dayri fanog‘a azm etay.

Ko‘rinadiki, forsiy tilda so‘zlashuvchi turk beklari va mirzodalari “bo‘xsamoq” so‘zini qo‘llab noto‘g‘ri qilganlar. Sababi she‘rning shakli va mazmuni ishqdir va oshiqlikda yig‘lamoqdan boshqa qulliylik va doimiy amr yo‘q va uni ifodalovchi “yig‘lamsinmoq” mazmunidagi turkcha ajoyib so‘z borki, ma’no jihatdan ko‘proq mos kelur. Jumladan:

*Zohid ishqin desaki, qilg‘ay fosh,
Yig‘lamsinur-u ko‘ziga kelmas yosh.*

“Yig‘lamsinmoq” so‘zi, chindan ham, “bo‘xsamoq” so‘ziga qaraganda, o‘qilish jihatdan ham, ma’no jihatdan ham go‘zal va ustundir. Navoiy shu bilan birga, turkcha “o‘kurmak” va forsha “inichkirmak” so‘zlarini ham bir-biriga solishtirib, ma’no jihatdan turk tilining ustunligini yana bir bor ko‘rsatib beradi. “O‘kurmak” bu- baland ovozda, cheksiz hayajon, to‘lg‘anish bilan yig‘lash degani. Turkchada ushbu so‘z qo‘llangan shunday matla’ beriladi:

*Ishim tog‘ uzra har yon ashk selobini surmakdur,
Firoq oshubidin hardam bulut yanglig‘ o‘kurmakdur.*

Ijodkor “o‘kurmak” so‘zi ma’nosida fors tilida birorta so‘z yo‘qligi va fors shoirlarining bunday ma’noli so‘zdan mahrum ekanligini aytadi. Ular yig‘lashning “o‘kurmak” turi o‘rnida “inichkirmak” so‘zini qo‘llashadi, vaholanki, bu so‘z past ovoz bilan yig‘lashni anglatadi va turk tilida bu ma’noni ham ifodalovchi boshqa bir so‘z bor deydi Navoiy. Shu o‘rinda yuqorida aytilgan fikrlarning isboti maqsadida forsha bayt keltiriladi:

*Charx zulmidaki, bo‘g‘zimni qirib yig‘larmen,
Igirur charx inchkirib yig‘larmen.*

Bu baytning birinchi misrasida charxning, ya’ni falakning zulmida qahramonning bo‘g‘zini qirib yig‘layotgani, charx aylanib past ovozda yig‘layotgani aytiladi. Bilamizki, insonning bo‘g‘zi qirilib yig‘lashi uchun u, albatta, baland ovozda yig‘lashi kerak. Shu sababli ham ikkinchi misradagi “inchkirib” so‘zi ma’no jihatdan birinchi misraga nomutanosibroq bo‘lib, u o‘z navbatida, she‘rning mazmunini ham, ta’sir doirasini ham kamaytirgan. Turk tilida keltirilgan baytda esa “o‘kurmak” so‘zi ma’noni yanada kuchaytirib, oshiqning firoqda qanchalik qiynalayotganini ta’sirli ifodalashga xizmat qilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, so‘zdan so‘zning farqi bor. Bejizga dono xalqimiz: ” So‘zdan so‘zning farqi bor, O‘ttiz ikki narxi bor”, -deyishmagan. So‘z qo‘llash mahorati ham insonning ichki dunyosini, nutq madaniyatini, nutq odobini ko‘rsatib turadi. Shuning uchun so‘z tanlayotganda ma’no jihatdan yuqori, tinglovchiga yoqimli va tez ta’sir qiladigan so‘zni tanlash maqsadga muvofiqdir. Tilga kelgan har so‘zni esa gapiravermaslik darkor. Mir Alisher Navoiy bu haqida shunday ajoyib hikmatni keltiradi:”Og‘ziga kelganini demoq nodonning ishi, Oldiga qo‘yganini yemoq hayvonning ishi”. Gapirayotganda o‘ylab gapirish , ma’noli va yaxshi so‘zlarni qo‘llash nutq odobining asosidir va bu orqali odamlarni o‘zimizga jalb etishimiz, ularda yaxshi taassurot qoldirishimiz mumkin. So‘z qudratidan to‘g‘ri va oqilona foydalanish esa nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiladi. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida ham so‘zlar bir-biriga qiyoslanib, ma’no jihatdan ustunlari ko‘rsatib beriladi. Bu bilan esa shoir so‘z

qo‘llash, so‘zning bahosi va ma’no nozikliklari, yaxshi va yomon turlari haqida bir qancha fikrlar aytib o‘tiladi. Asarni o‘qish orqali kitobxon o‘zida so‘z haqida, uning kuchi va qo‘llash doirasi bo‘yicha anchagina ma’lumotlarga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari so‘z qo‘llash mahorati va nutq odobi borasida benazir dasturilamal bo‘ladi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

ALISHER NAVOIY MUALLIFLIK KORPUSINING SEMANTIK TEGLARI BAZASINI YARATISH TAMOIYILLARI

Nargiza Sa’dullayevna G‘ULOMOVA
Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Jahonda mualliflik korpuslarini yaratish va qo‘llash ijtimoiy talabga aylanib bormoqda. Mualliflik korpuslari tadqiqotchilar uchun eng qulay axborot manbayi hisoblanishi bilan zamonaviy tilshunoslikda nazariy hamda amaliy yo‘nalishlarning muhim qismiga aylanib ulgurdi. Maqolada mualliflik korpuslari texnik jarayonni tezlashtiruvchi vosita bo‘libgina qolmay, muayyan muallif tilining turli shakllari axborot tizimiga kiritilgan, muallif haqidagi kutilmagan savollarga ham javob bera oladigan innovatsion tizim ekanligi haqida ma’lumotlar yoritilgan. Yangi tipdagi Alisher Navoiy mualliflik korpusining takomillashda foydalanilgan statistik tahlillar maqolaning asosini tashkil etadi.

Kalit so‘zlar: statistik tahlil, tavsiflash, Alisher Navoiy mualliflik korpusi, lingvistik ta’minot, lug‘at, semantik kategoriya, g‘azal.

So‘nggi yillarda o‘zbek korpus lingvistikasida leksik birliklarni modellashtirish, korpus matnlarini morfologik va semantik tahlil qilish, omonimlarni aniqlash, leksik birliklarni grammatik va semantik teglash masalalarida umumturkiy tilimiz asosiy masala sifatida o‘rganildi. Davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish, davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda[1]. Sun’iy intellektning matnni avtomatik tarzda qayta ishlash sohalarining rivojlanishi tilni tadqiq etish, lingvodidaktika, leksikografiya, tarjimonlik borasidagi tadqiqotlarda korpus lingvistikasi yutuqlaridan keng foydalanishga ehtiyoj paydo qildi. Buning natijasida ushbu sohaning ilmiy-nazariy asoslari yaratildi va amaliyotga joriy etildi, til korpuslarining maqsadiga ko‘ra farq qiluvchi ko‘plab turlari paydo bo‘ldi.

Tilning ko‘p asrlik milliy merosidan foydalanish imkonini oshirish maqsadida ularni elektronlashtirish jahon tilshunosligida dolzarb masalaga aylandi. Milliy merosimizni, xususan mumtoz adabiyot vakillarining nodir asarlarini kelajakda avlodga innovatsion tarzda taqdim etish maqsadida yangi tipdagi Alisher Navoiy mualliflik korpusi yaratildi[7]. Korpusning ta’limiy, tarbiyaviy, ijtimoiy, ma’naviy, tarixiy va lingvistik ahamiyati e’tiborga olinib, “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida mavjud 2600 ta g‘azalni semantik teglanadi va korpus bazasiga joylashtirildi.

Alisher Navoiy korpusining Frontend qismi 4 ta tilda: o‘zbek, rus, ingliz va turk tillarida ishlaydi. Quyida hozirgi davrda Alisher Navoiy mualliflik korpusining ish holati haqidagi ma’lumotlar taqdim etildi.

Yangi tipdagi Alisher Navoiy MKni takomillashtirishda asosan, qoidalarga asoslangan metod va statistik metodga tayanildi. Ta’kidlash joizki, Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti mantiqiy mezonlar asosida tartiblagan. Kulliyot 4 devondan iborat, har bir devonda 650 tadan g‘azal joylashtirilgan. Hozirda o‘zbek adabiyotida XV asr tilini tushunish va tadqiq etish uchun Navoiy asarlaridan ko‘p foydalaniladi, shu bois korpus uchun ijodkorning eng sara she’rlari jamlangan ushbu kulliyotdagi g‘azallar semantik teglandi va tarixiy so‘zlar qo‘l mehnati bilan hozirgi o‘zbek tilida kontekstual semantik tavsiflandi.

Alisher Navoiy XV asrda yashab ijod qilgan. O‘rta asrlardagi o‘zbek tili bilan hozirgi o‘zbek tili katta farqlanishga ega. Unda bugungi kun o‘quvchisi uchun ko‘plab iste’moldan chiqqan yoki shakliy ifodasi boshqa holatga o‘tgan leksik birliklar mavjud[2]. Ularni biz izohtalab so‘zlar deymiz. Bunday so‘zlar izohini foydalanuvchiga aniqlashtirib bermasdan, uning semantik guruhi yoki semantik maydonini ko‘rsatish mantiqsizlik hisoblanadi. Hozirda Navoiy davri tilining 60%i bugungi kun o‘quvchisiga tushunarsiz, ya’ni o‘sha davrdagi ko‘plab so‘zlar arxaiklashgan, iste’moldan chiqib ketgan. Natijada Alisher Navoiy asarlarini to‘g‘rida-to‘g‘ri o‘qib tushunish uchun maxsus lug‘atlar talab qilinadi. Korpusdagi Navoiy g‘azallarini o‘qish jarayonida tushunish qiyin bo‘lgan so‘zlarning semantik izohi interaktiv tarzda taqdim etilishi uchun korpus materiallaridagi tarixiy va eskirgan so‘zlar 12 ta lug‘at yordamida kontekstda anglatgan ma’nosi bo‘yicha navoiyshunos mutaxassislar tomonidan qo‘l mehnatida aniqlab bazaga kiritildi[3]. Masalan, “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi g‘azallarda izohtalab “ganj” so‘zi 65 o‘rinda qo‘llangan bo‘lib, turli semantik ma’nolarni ifodalab kelgan. E.Fozilov tahriri ostida nashr etilgan “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da “*ganj*” so‘zining 6 xil ma’nosi baytlar misolida izohlangan[4]. Aksariyat g‘azallarga *ganj* so‘zi xazina, boylik ma’nolarini ifodalagan, g‘azallarda, shuningdek, boshqa ma’nolarda ham qo‘llangan (1-rasm):



1-rasm. *Ganj* so‘zining semantik ma’nolari.

Korpusdan foydalanuvchi kursorni izohtalab so‘z hisoblangan *ganj* so‘zining ustida harakatlantirsa, misrada qaysi leksik ma’noni anglatib kelishi ma’lum bo‘ladi. Bu innovatsion yondashuv orqali foydalanuvchi shu ondayoq izohtalab so‘z(shakl)ning aniq ifoda ma’nosini anglab oladi. *Ganj* leksemasi ko‘p ma’noli

bo‘lib, semantik teglashda ham misralarda uchragan barcha ma‘nolarini hisobga olish zarur.

Navoiy g‘azallaridagi hozirgi o‘zbek tiliga oid so‘zlar 40%ni tashkil etishi statistik jihatdan aniqlandi va ularning kontekstual semantikasi o‘rganildi. Tadqiqot natijasida bunday so‘zlarning (masalan, *kitob, olam, dunyo, yer; yosh, quyosh, ko‘z; men, sen, u, biz, siz, ular; sari, uzra*) 15%i maxsus semantik tavsifni talab etmasligi aniqlandi. Masalan, *quyosh* so‘zi nafaqat koinot jismi sifatida, balki *mehr, muhabbat tafti* kabi ma‘nolarda qo‘llangan. Demak, bunday ma‘nolar o‘z misrasida kontekstual semantik izohini talab qiladi. Qolgan 15% ko‘chma ma‘noga ega bo‘lmagan so‘zlar esa korpusda avtomatik tarzda o‘z semantik ma‘nosini ifodalash imkoniyati yaratildi.

“Xazoin ul-maoniy” kulliyotidagi 2600 g‘azalda Navoiyning ijod uslubi, so‘z qo‘llash mahorati, g‘azallarda qo‘llangan so‘zlar ko‘lami, o‘ziga xos yozish uslubi *statistik tahlil* metodi yordamida aniqlandi. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun kulliyotdagi jamiki so‘zlar ikki guruhga ajratildi: 1)tarixiy, eskirgan – bugungi kunda tushunish qiyin bo‘lgan so‘zlar; 2)hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanilayotgan so‘zlar. Ishning ko‘lami va hajmi 1-jadvalda statistik jihatdan ko‘rsatildi: jadvalda kulliyotdagi 4 ta devon, ularning har biri 650 ta g‘azalga egaligi, g‘azallardagi misralar miqdori, kulliyot bo‘yicha jami so‘zlar va 2600 ta g‘azaldagi jami so‘zshakllar miqdori.

1-jadval. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi so‘zshakllar miqdori.

“G‘aroyib us-sig‘ar”	650 g‘azal: 4975 bayt – 9950 misra	Jami 75 350 000 ta, g‘azallarda 66 954 ta so‘zshakl
“Navodir ush-shabob”	650 g‘azal: 4998 bayt – 9996 misra	Jami 71 527 000 ta, g‘azallarda 66 596 ta so‘zshakl
“Badoye’ ul-vasat”	650 g‘azal: 5001 bayt – 10002 misra	Jami 71 580 000 ta, g‘azallarda 66 539 ta so‘zshakl
“Favoyid ul-kibar”	650 g‘azal: 5029 bayt – 10058 misra	Jami 75 911 000 ta, g‘azallarda 66 722 ta so‘zshakl
Jami:	2600 g‘azal: 20003 bayt – 40006 misra	Jami 294 368 000 ta, g‘azallarda 266 811 ta so‘zshakl mavjud.

G‘azallar konseptuallik tamoyili asosida, ya‘ni muayyan so‘z o‘zi bilan bir baytda kelgan boshqa so‘zlar qurshovida, baytning asosiy mazmuniga hamohang tarzda ma‘lumotlar bazasida semantik tasnifga ega bo‘ldi. 1-jadvaldan ayon bo‘lganidek, tadqiqotimizda Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti[5] devonlarida mavjud 2600 ta g‘azaldagi 266 811 ta so‘zshakl semantik qayta ishlandi.

Tadqiqot natijasida SQL bazasida g‘azallarga quyidagi ma’lumotlar biriktirildi:

- 1) g‘azallarning matn tipi;
- 2) auditoriya yoshi;
- 3) g‘azalning tartib raqami;
- 4) misradagi tarixiy, iste’moldan chiqqan so‘z va uning hozirgi semantik izohi alohida maydonlarda berildi;
- 5) har bir izohtalab so‘zlar ID kodlandi.

SQL ma’lumotlar bazasidagi yuqorida berilgan maydonlari yordamida Alisher Navoiy mualliflik korpusida qidiruv filtri yuzaga keldi. Qidiruv tizimida kalit so‘z(shakl)ning qo‘llanish o‘rni va chastotasi ko‘rsatiladi[6].

Navoiy yashagan davr leksikologiyasi bilan hozirgi leksika ko‘p jihatlari bilan farqlanadi, xususan, g‘azallarda uchragan arxaizm, istorizmlarning hamda ma’no torayishiga uchragan izohtalab leksemalarning tushunarli, o‘qishli bo‘lishini ta’minlash uchun ularni semantik teglash va leksik, morfologik tahlil qilish lozim. Hozirda korpus bazasida ko‘p ma’noli so‘zlarning misralarda ifodalab kelgan har bir ma’no munosabatini fasetli tasnif asosida semantik teglanmoqda. Bunday yondashuv korpus materiallaridagi barcha so‘zlarning semantik guruhiga ega bo‘lib, kontekstual semantikasini to‘g‘ri chiqarishga yordam beradi. G‘azaldagi so‘zlarni leksik-semantik guruhlariga ajratish orqali shoirning uslubini, so‘zni qo‘llash mahoratini, aniq va to‘liq tarzda, qisqa vaqt ichida bilish imkoniyati mavjud bo‘ladi [7].

G‘azallardagi leksik birliklarning semantik bazasini yaratishda qiyoslash tamoyili asosida leksik birliklarni izohli lug‘atlar yordamida tahlil qilish; kontekstuallik tamoyili asosida misradagi izohtalab so‘zni o‘zi bilan kelgan boshqa so‘zlar qurshovida anglatgan ma’nosini aniqlab, ma’lumotlar bazasida </kontekstual tushuncha> ID kodi bilan kiritish; keng qamrovlilik tamoyili asosida kulliyot g‘azallari tarkibiga kiruvchi barcha so‘zshakllarni o‘z semantik tavsifiga ega qilish; tizimlilik tamoyilida har bir devondagi 1-raqamdan 650-raqamgacha bo‘lgan g‘azallar ketma-ketlikda tahlil qilinib, ularga o‘quvchi kognitsiyasining qabul qilish imkoniyati e’tiborga olinib, auditoriya yoshi, matn tipi belgilanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida aytish o‘rinliki, jahon tilshunosligida kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish ehtiyojlari ortib borishi bilan korpus lingvistikasi muammolarini o‘rganishga ehtiyoj ham oshmoqda. Katta hajmdagi matnlar ustida ishlash ehtiyoji bilan yuzaga kelgan til korpuslari dastlab kompyuter lingvistikasida, hozirda esa tabiiy tilni qayta ishlash sohasida korpus lingvistikasini yuzaga keltirdi. Jahon tajribalari asosida yaratilgan Alisher Navoiy mualliflik korpusida Navoiy asarlarini umumturkiy alifboda ham kiritib, korpusning foydalanish ko‘lamini kengaytirish hamda umumturkiy tillarda Navoiy asarlarining parallel korpusini yaratish soha vakillarining dolzarb masalasi sanaladi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>
2. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий. Манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. Тошкент: Академнашр. 2011. – 329. б.
3. Abjalova M., Gulomova N. Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182187. <https://www.scopus.com/authid/detail.uri?authorId=57964667500>
4. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. / Фозилов Э. таҳрири остида. 1 жилд – Тошкент: Фан, 1983-1985. – В. 32.
5. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 1-4 жилдлар. – Тошкент: Гафур Ғулом, 2011.
6. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – В. 103.
7. Abjalova M.A., Gulomova N.S. Alisher Navoiy mualliflik korpusi va uning imkoniyatlari. // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim va istiqbollar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO'TAU, 22.04.2022. – В. 89-93.
8. <http://alishernavoicorpus.uz/uz>

АЛИШЕР НАВОИЙНИНГ ТИЛ ХОСИЯТЛАРИ ВА ОФАТЛАРИ ҲАҚИДАГИ МУЛОҲАЗАЛАРИ

*Ҳикматхон Турсуновна АҲМЕДОВА,
Қўқон давлат педагогика институти,
Ўзбек тили кафедраси доценти*

Аннотация. Ушбу мақолада Алишер Навоийнинг сўз, унинг илоҳийлиги, нутқ маданияти ҳақидаги мулоҳазалари ва бунинг аҳамияти юзасидан фикр юритилган. Алишер Навоийнинг тил хосиятлари ва офатлари, тилдан ўринли фойдаланишнинг фазилатлари ҳақидаги фикрлари шарҳланган.

Калит сўзлар: филология, сўз, калом, сўзнинг илоҳийлиги, нутқ, нутқ маданияти, маданий нутқ, кўнгил, хазина, сўзчи, чечанлик, нутқнинг тозаллиги, равонлик, тўғрилиқ, ширин сўз, яхши тил, ёмон тил, ёлғон сўз, самимий сўз, ифодали нутқ, юмшоқ сўз.

Нутқ маданияти муаммоси ўзбек тилшунослигининг анчайин қийин, амалиёт учун ўзлаштирилиши бирмунча мураккаб соҳаларидан бири саналади. Кейинги 30-40 йил мобайнида ўзбек филологиясида нутқ маданияти муаммосига алоҳида эътибор берилаётгани, унинг объекти, предмети, субъекти, ўзига хос белгилари ва бошқа аспектларига илмнинг мустақил йўналиши ҳал этилиши зарур муаммоларидан бири сифатида

каралаётгани шундан далолат беради. Бу соҳада амалга оширилган ва бугунги кунда ҳам бардавом бўлиб келаётган изланишлар ҳамда тадқиқотлар ушбу илмий муаммонинг бир қатор тармоқларига алоҳида эътибор қаратишни тақозо қилиб турибди. Зеро, нутқ маданияти ёки тил маданияти деб юритилаётган мазкур илмий соҳанинг генезиси, унинг илмда тадқиқ этилиши, ҳозиргача ечимини у қадар топа олмаган зарурий қонун-қоидаларини инкишоф этиш, уларни амалиётга татбиқ қилиш мураккаб жараён бўлиши билан бирга, долзарб муаммолардан саналади. Биринчи навбатда, нутқ маданиятининг лисоний ҳамда илмий объекти аниқ белгиланиши ва у лингвистиканинг бошқа тармоқларини текширувчи муаммоларидан чегараланиши ғоят зарур. “Нутқ маданияти учун сўзнинг моҳияти, сўзларнинг ясаилиши, сўзларнинг ўзлаштириш қонуниятлари, сўзларнинг морфологик тузилиши ва гапларнинг синтактик қурилиши, товушларнинг сифатий белгилари ва талаффузи, шунингдек тилнинг ёзув системасига хос хусусиятлари ҳам тааллуққидир. Аммо нутқ маданияти бу келтирилган лисоний ҳодисаларни адабий тил нормалари, нутқий амалиётнинг талаблари нуқтаи назаридан таҳлил қилади ва ўрганади. Нутқ маданияти учун тил ва нутқни норматив баҳолаш хосдир. Тилга оид, кундалик оғзаки ёки ёзма нутқда учрайдиган бирор бир тил ҳодисасини нутқ маданияти шунчаки қайд этиш билан кифояланмайди, балки адабий тил нормалари, адабий нутқ амалиёти нуқтаи назаридан баҳо беради”.[5,149] Мазкур талаб нутқ маданиятига тегишли лисоний манбаларни жиддий ўрганиш ва бу соҳага дахлдорлигини аниқлашни тақозо этади. Бу эса, биринчи галда, нутқ маданиятини юзага келтирувчи манбаларни кўздан кечириш, уларнинг нутқ маданиятидаги ўрнини асослаш вазифасини келтириб чиқаради.

Биламизки, дунё мутафаккирлари, жумладан, Шарқ алломалари сўз ва нутқ маданиятига алоҳида эътибор қаратганлар. Ҳазрат Алишер Навоийнинг мазкур масаладаги қарашлари алоҳида эътибор ва эътирофга лойиқ. Унинг лирик ва эпик асарларида, “Муҳокамат ул-луғатайн”, “Маҳбуб ул-қулуб”, сингари ижтимоий ва илмий яратилганлиги фикримизнинг далилидир. Ҳатто девонларининг дебочаларида ҳам мазкур масалалар мутафаккир шоирнинг эътибордан четда қолмаган. Чунончи, “Ғаройиб ус-сиғар” девонининг дебочасида сўз ва унинг нутқ маданиятидаги ўрни тубандагича изоҳланган: “Шукру сипос ул қодирғаким, чун адам осойишгоҳидин вужуд оройиши огоҳлариға жилва берди, инсонни сойир махлуқотдин нутқ шарафи била мумтоз қилди” деган шоир шундан сўнг бир рубой келтиради:

Улким, чу жаҳон хилқатин оғоз этти,

Сунъи қилқини нақшпардоз этти.

Инсон хайлин нутқ ила мумтоз этти,

Нутқ аҳлини назм ила сарафроз этти”. [1, 10]

Яъни Қодир Аллоҳга беҳад шукрлар бўлсинки, йўқлик осойишгоҳидин вужуд оройиши огоҳлариға жилва берди, инсонни барча махлуқотдан нутқ

шарафи била мумтоз қилди (баланд мартабали қилиб қўйди). Айни чоғда, У жаҳоннинг барча хилқатларини бошлаб берди, санъаткорлик қаламини нақшпардоз қилиб, шундай ажойиботлар билан жилвалантирди. Одам зотини нутқ билан мумтоз қилди, нутқ аҳлини эса назм билан сарафроз этди. Навоий рубоийсидаги охирги мисрага алоҳида эътибор қаратиш даркор. Магарки, Аллоҳ ватаъло, - дейди шоир, - инсон зотини нутқ билан мумтоз қилган экан, ана шу халқни назм билан сарафроз этиб ҳам қўйди, яъни назм нутқ маданиятининг энг юксак кўриниши ҳисоблангани учун ҳам бу ўринда шоирнинг фикрини биз мушоҳа юритаётган масалага бевосита алоқадор ҳисобласак ўринли бўлади.

Буларнинг давомида яна ёзади: “Ва ҳамди беҳадду қиёс ул сониъғаким, чун иборат жавоҳирин назм силкига тортди, ул гулшани Эрамойинни назм аҳли хомайи гавҳарафшони била рашки нигорхонайи Чин ва ғайрати хулди барин ясади. Р у б о и я:

*Чун хайли башарға нутқ комин берди,
Ул нутқ ила назм ихтиромин берди.
Назм ичра балогат интизомин берди,
Таркибида эъжоз мақомин берди”. [1, 10]*

Яъни беадад ва беқиёс ҳамдлар бўлсинки, Инсонга ато этган буюк неъмат – сўзларни назм ипига тортди. Назм аҳли ўша гулшанни гавҳар сочувчи қалами билан Чиннинг нигорхоналарининг рашкини келтирди. Рубоийсида эса ана шу фикрларини тўлдиради: Башар зурриётларига нутқ комини берди. Ўша нутқ билан назм қилмоқ, назмни эҳтиром тутмоқни ҳам берди. Назм қилганда маҳорат билан йўл тутмоқ, бу йўлда собит бўлмоқ вазифасини ҳам юклади. Кўриниб турибдики, Алишер Навоий нафақат, сўз, балки нутқ ва назмни яхлит бир ҳодиса, бир-биридан ажрамайдиган яратик сифатида эътироф этади. Бу дегани – назм, юқорида айтилганидек, нутқ маданиятининг энг юксак, мукаммал кўриниши, демакдир.

Шоир инсон – нутқ – нутқ маданияти учлиги масаласини лирик ва эпик асарларида шундай мухтасарлик ва аниқликда берадики, уларни ўқилганда ўқувчи ўз нутқининг қандай эканлигини ўйламаслиги асло мумкин бўлмай қолади. Масалан, бир қитъасида бундай ёзади:

*Чун гараз сўздин эрур маъни анга,
Ноқил ўлса хоҳ хотун, хоҳ эр.
Сўзчи ҳолин боқма, боқ сўз ҳолини
Кўрма ким дер ани, кўргилки не дер. [2, 685]*

Мазкур қитъада Ҳазрат Навоий ҳар бир сўзда маъни бирламчи турар экан, нақл қилувчи (сўзловчи) хоҳ хотин, хоҳ эр бўлсин, унинг аҳволига боқма, балки сўзига қара; қараки, бу сўзларни ким айтяпти эмас, балки нимани қандай айтяпти, дея мулоҳаза қил, дея экан шоир бу ўринда ҳам нутқ маданияти инсон ҳаётида бирламчи мавқе тутишига эътибор қаратади.

Инсоннинг нутқи, кўрдикки, илоҳийлик билан вобаста. Модомики шундай экан, ҳар қандай нутқ эгаси аввало сўзнинг муқаддаслиги, кейин эса нутқнинг илоҳийлигини доимий ёдида тутмоқлиги керак. “Муҳокамат ул-

луғатайн”да Алишер Навоий сўзнинг моҳиятан кўнгилда пайдо бўлиши, кўнгил хазинасининг мулки эканлигини алоҳида таъкидлаганидан мурод шундаки, Инсоннинг кўнгли Аллоҳ ва таъалонинг жилвагоҳи, сўз эса ана шу жилвагоҳда пайдо бўлади ва уларнинг занжири нутққа айланади. Шунга кўра ҳар бир нутқ соҳиби ўз нутқининг мукамаллиги учун масъулдир Мана, ўша сатрлар: “...сўз дурредурким, анинг дарёси кўнгулдур ва кўнгул мазҳаредурким, жомии маонийи жузв ва кулдур. Кўнгулдин доғи сўз дурри нутқ шарафига соҳиби ихтисос василаси била гузориш ва оройиш кўргузур ва анинг қиймати ҳам мартабаси нисбатиға боқа интишор ва иштиҳор топар. ..шарифидин тўлган баданға руҳи пок етар, касифидин ҳаётлиқ танға захри ҳалок хосияти зухур етар.

Қитъа:

Сўз гавҳаридурки, рутбасининг

Шарҳидадур аҳли нутқ ожиз.

Андинки эрур хасис муҳлик,

Кўргузгуча дурур Масиҳ мўъжиз”. [4]

Яъни “...сўз бир дур бўлиб, унинг дарёси кўнгилдир. Кўнгил шундай бир ўрин бўлиб, унда майда ва йирик маънолар тўплангандир. ...Сўз дури ҳам кўнгилдан сўзга чечан киши воситаси билан нутқ шарафига эришади, унинг қиймати ҳам ўзининг даражасига қараб шуҳрат қозонади ва ҳамма ёққа ёйилади. ...яхши сўздан ўлган баданға тоза руҳ етади, ёмон сўздан тирик танға ўлдурувчи заҳар хосияти пайдо бўлади. ...Сўз шундай гавҳардирки, мартабасини аниқлашдан нутқ эгалари ожиздирлар: мартабаси — ёмон сўзнинг ҳалок қилувчанлигидан тортиб, яхши сўз билан Исонинг мўъжиза кўрсатишига қадар боради”.

Навоий эпик асарлари, хусусан, “Ҳайрат ул-аброр” достонида ҳам сўз таърифига махсус боблар бағишлаган. Достоннинг XIV ва XV боблари бевосита сўз, унинг илоҳийлиги, инсоннинг нутқ билан шарафлангани, нутқ маданиятининг бадиийлашган таърифи кабилар борасида сўз юритилади. Биз мақола ҳажмидан келиб чиқиб, XIV бобнинг айрим байтларининг насрий баёнини келтириш билан кифояланамиз. Мана, шоир мазкур бўлган бобда сўз, нутқ ва нутқ мезонлари, маромлари – нутқ маданияти ҳақда нималарни қайд этади: “Сўз жон бўлиб, руҳ унинг қолипидир. Танида руҳи бор одам доим унга эҳтиёж сезади. Сўз дунёда бор барча кўнгилларнинг қутисидаги жавҳар, ҳамманинг оғиз қутисидаги қимматбаҳо гавҳардир. Агар тил бамисоли бир пўлат ханжар бўлса, сўз унга қадалган инжулардир. Тил шу чаманнинг очилган лоласи бўлса, сўз дурлари унга кўнган шабнамлардир. Сўз ўлган одамнинг танасига пок руҳ бағишлайди. Сўздан тандаги тирик руҳ ҳалок бўлиши мумкин. Яхши сўз билан ўлганни тирилтира олгани учун Исо пайғамбар ўзини “Жонбахш” деган лақаб билан атаган. Сўз туфайли Халил ўзини ўтга ташлаган; Жабраил ҳам сўз юкига ҳаммол бўлган. Тангри инсонни сирлар хазинаси даражасига кўтарган экан, уни сўзлаш қобилиятига эга бўлгани учун ҳайвонлардан ортиқ қилиб яратди.

Гунча оғизлик, ширин лаб жонон гапирмасдан лабини ёпиб туриб олса, унинг майдай тотли лаъли лаблари ақлни маст қилса, мастлик у ёқда турсин, майпараст қилиб қўйса ҳам, ташқи кўриниши билан осмондаги ой бўлса ҳам, девордаги сурат билан унинг кўриниши ўртасида фарқ йўқ.

Чиройда юзи оининг рашкини келтирмаса ҳам, лаълга ўхшаш лаблари шакардон бўлмаса ҳам, ғамзаси билан бировларга ўқ отмаса ҳам, шундай қилиб киприклари сафини камайтирмаса ҳам, ўз гўзаллиги билан талончи ва танноз эмас эса-да, унда фақат тўғри ҳусн билан ноз бўлса, лекин пўписа билан сўзлаётган чоғида, тили аччиқ бўлса ҳам, жавоби ширин бўлса, ўзича фитналар қилса, турли ваъда ва хабарлар келтирса, дашномлар бериб, ақлни маст қилса, шундай малоҳат устига яна ёлғончилик қилса, ёлғончилиги ярангга туз сепиб турса – бундай алангаларда ким ёнишни истамайди?! Ва бундай ярага ким ҳам даво қила олади?!

У ўз ҳусни билан ибодат қилувчини ҳам йўлдан оздирса, ҳуснига ширин сўзлиги зеб бериб турса, шу ҳусну малоҳат билан гапириб, ўткир сўзлигини қоида билан баён этса - бундай гўзал бутун одамзод жинсига ўт ёқади, бутун одамзодни эмас, бутун оламни ёндиради”. [3, 48-49]

Нутқ, тил одамлар ўртасида алоқа, муомала воситаси бўлиш (коммуникатив функция)дан ташқари, халқ маданияти ва маънавияти, руҳий олам кўзгуси ҳамдир. Мир Алишер Навоий айтганидай: “Аҳли саодатлар руҳбахш зуломига манбаъ ҳам тил, аҳли шақоват наҳс кавкабига матлаъ ҳам тил”. Аҳли саодатлар учун тил – уларнинг соф дили, руҳияти кўзгусидир, эзгу, савоб ишлар эшигини очувчи сеҳрли калитдир. Аҳли шақоват ҳам шу тилдан ўзларининг тубан ва разил ишларида фойдаланадилар.

Алишер Навоий тил хосиятлари ва офатлари ҳақида фикрини давом эттириб, бундай дейди: “Тилига иқтидорлиғ ҳаками хирадманд, сўзига ихтиёрсиз (яъни, тилини тиймай, оғзига келганини ўйламай-нетмай гапирувчи) – лаими нажанд (бахтсиз, шўрпешона). Тилки, фасих (фасоҳатли, гўзал, нафис) ва дилпазир бўлғай, хўброқ бўлғай агар кўнгул била бир бўлса, яъни тили ва дили бир бўлғай”[6,93-94].

Алишер Навоий сўзнинг маъно товланишларини билишга даъват қилиб, бундай дейди: “Чучук тилки, аччиғликка эврулди, зарари оммавий бўлди. Қандники, мускир-бода қилдилар, харом бўлди. Чучук сўз соф кўнгулларга қўшдур, барча атфол табъига мулойим ҳалвофурушдур”. Яъни, ширин сўз кўнгилларга роҳат беради, чучук сўзни эшитган одам гўё ҳалвофурушни кўриб қувониб кетган болалардай яйраб кетади.

Алишер Навоийнинг яхши тиллилик ва ёмон тиллилик ҳақидаги фикрлари нотик учун биринчи галдаги йўлланмадир: “Ямон тиллик андоғким, эл кўнглига жароҳат еткирур, ўз бошига ҳам офат еткирур... Хушгўйким сўзни рифқ ва мусово била (дўстона ва аҳиллик билан) айтғай, кўнгулға юз ғам келадурғон бўлса, анинг сўзидан қайтғай (яъни, ғам қайғу кетғай). Сўзда ҳар яхшиликларни имкони бор, мунда дебдурларки, нафаснинг жони бор. Масихоким, нафас билан ўлукка жон берди, гўё бу жиҳатдан эрди (яъни, яхши сўз билан жон бағишлар эди)” (6,94).

Алишер Навоий фикрича, бекорчи гапларни хунук овозда узоқ гапириш (харзаси тавил ва овози карихдур), ўз “савти” била қурбақага шабихдур. “Тилига иқтидорлиғ-ҳакими хирадманд, сўзига ихтиёрсиз-лаими нажанд. Тилки, фасих ва дилназир бўлғай, ҳўброқ бўлғай, агар кўнгул бирла бўлғай”. Яъни, нотик тили фасоҳатли, чиройли сўзловчи ва самимий бўлса, кўнгилдан чиқариб айтилган бўлса-тингловчиларнинг ҳам дилларига етиб, тўлқинлантиради. Нутқ мазмундорлиги ҳақидаги бу фикрлар ҳар бир нотик учун, ўқитувчи учун дастуруламал бўлса яхши.

Алишер Навоийнинг одоб, тавозе, ҳилм, хушмуомалалик ҳақида сўзлар экан, ушбу фазилатлар ифодали нутқнинг энг гўзал намунасидир. Шоир “Маҳбубул қулуб” асарида инсонийлик ҳақида теран фикрларини, гўзал ташбеҳлар, ўхшатишлар билан далиллар экан, бунинг асосида тил ва нутқнинг гўзаллиги талаб этилишини таъкидлайди. Атоқли педагог ва тилшунос Низомиддин Маҳмудов ёзганидек, “Зотан, тўғри ёки аниқ бўлмаган, бўш ёки мантиқий бўлмаган нутқнинг таъсирчанлиги ҳақида гапириб бўлмайди. Лекин, айти пайтда ифодалилиқ сифатининг алоҳида, ҳатто ҳал қилувчи ўрин тутишини таъкидламоқ жоиз” [7].

Алишер Навоий “Маҳбуб ул-қулуб” асарида нутқ маданияти, яхши ва ёмон сўзларнинг таъсир кучи ҳақида ажойиб умумназарий, ахлоқий ва эстетик фикрларини билдиради: “Кўнгулда тил синони жароҳати бутмас, анга ҳеч нима марҳам ерин тутмас. Ҳар кўнгулки, тил синонидин жароҳатдир, ҳам юмшоқ сўз ва ширин тил анга марҳам ва роҳатдур” [6,93]. (Тил найзаси жароҳати битмас, бу жароҳатга ҳеч нима малҳам ўрнини босмас, яъни малҳам бўлолмас. Лекин фақат юмшоқ сўз ва ширин тил бу жароҳатга малҳам ва роҳатдир). Мутафаккир яна маъносиз ёки бекорчи гапларни айтувчиларни қоралайди, у сергап, эзма одамлардан нафратланади: “Ҳарзагўйким, кўп такаллум сургай, итдекдурким, кеча тонг отқунча хургай”. Яъни, ҳарзагўй – беҳуда, кераксиз, енгил-елпи, саёз ва сийқа, бемаъни сўзларни айтувчи одамнинг кўп гапиргани тун бўйи ҳураётган итга қиёсдир. Бу ерда мутафаккир зиддиятларни ҳал этиш қуроли – диалектик фикрлаш ва силлогизм – қиёс усулидан фойдаланади.

Агар шу фикрни Алишер Навоий риторика санъатига хос силлогизм – қиёсдан фойдаланмай, оддий қилиб, “Кўп ва бемаъни сўзларни айтиш яхши эмас”, деб қўя қолса, унчалик таъсирли чиқмайди, тингловчининг, ўқувчининг қалбига етиб бормайди. Алишер Навоий “Маҳбубул-қулуб”да кўп гапиришни ҳам иллат, тубанлик дейди: “Оз демак – ҳикматқа боис ва кам емак сиҳҳатқа боис. Оғизга келганни демак нодон иши ва оллиға келганни емак ҳайвон иши” [6,108].

Байт:

Кўп демак бирла бўлмағил нодон,

Кўп емак бирла бўлмағил ҳайвон [6,108].

Бу ерда табиий ҳамда ижтимоий ҳодисалар ўртасидаги аналогия – ўхшашлик адиб диққат марказига олинган. У кўплик тушунчаси атрофида жамланган. Кўплик ва унга интилиш инсон учун хос ва мос тушунчадир.

Аммо адиб бу ерда кўпликнинг ижобий эмас, балки салбий жиҳатларига урғу бермоқчи. Шунинг учун ҳам “кўп гапириш” ва “кўп ейиш” ҳодисалари махсус ажратиб олинган. Уларни яқинлаштирадиган жиҳати бор. Бу уларнинг инсон деган юксак номга, шарафли номга доғ туширишидан иборатдир. Уларнинг биринчиси кишини жамиятнинг энг қуйи, яъни инсонликка номуносиб бўлган қатламига туширса, иккинчиси уни жамият аъзолари ичида бўлишига умуман имкон қолдирмайди, энди у бошқа ном билан аталиши керак. Бу ном эса байтда “хайвон” сўзи билан ифодалаб берилган.

Сўз борким, эшитгувчи танига жон кийирур, ва сўз борким, айтгувчи бошин елга берур. Тилинг бирла кўнглунгни бир тут, кўнгли ва тили бир киши айтган сўзга бут (ишон). Агарчи тилни асрамоқ кўнгулга меҳнатдур, аммо сўзни (ҳар ерда ва ҳар вақт) сийпаламоқ – бошга офатдур. Айтур сўзни айт, айтмас сўздин қайт. Оқил чиндин ўзга демас, аммо барча чинни ҳам демак оқил иши эмас” [6,124-125].

Ёлғончи уйқуда такаллум сурувчи, яъни ёлғон гапирувчилар хуши жойида эмас, уйқуда гапиргандай, одамлар уйқудаги одамнинг гапига ишонадими? “Ёлғон айтгувчи ғафлатдадур” [6,94]. Афсуски, кўпчилик ёшлар рост сўзнинг қадр-қимматини, ёлғончилик оғир гуноҳ эканлигини билмайдилар. Сўзларнинг энг ёмони – ёлғонидир:

“Сўзнинг аснофи (сўз турлари, навълари) бағоят чўқдур (кўпдур), ёлғондан ёмонроқ синфи (тури) йўқдир”. Демак, сўзнинг барча турлари орасида ёлғони энг ёмонидур.

“Тил ва кўнгул хўброқ аъзодур инсонда, савсан ва ғунча марғуброқ райоҳиндурлар бўстонда. Одаме тил била сойир хайвондин мумтоз бўлур ва анинг била сойир инсонга сарафроз бўлур” [6,94]. Бу ерда Навоий тил сўзини икки маънода қўллайди. Биринчиси, одамзодни хайвондин фарқловчи умуман тил. Иккинчиси, одамларни бир-биридан фарқловчи ширин сўзлар ва аччиқ сўзлар маъносида. Чуқур маъноли, кўнгилга шодлик бағишловчи сўзлари билан ва енгилтак, кўпол сўзлари билан ҳам одамлар бир-биридан фарқланадилар.

“Тил мунча шараф била нутқнинг олати (воситаси, қуроли) ва ҳам нутқдурки, агар нописанд зоҳир бўлса, тилнинг офатидур” [6,94]. Яъни, ботинан теран маъноли бўлса-да, зоҳиран кўпол кўринувчи сўз инсон бошига офат келтиради.

Алишер Навоий “Маҳбуб ул-қулуб”да воизлар ҳақида ҳам алоҳида фасл ажратган. У “Насиҳат аҳли ва воизлар зикрида” деб номланади. Унда воизга қўйиладиган биринчи талаб сифатида имонли ва эътиқодли бўлиш кўрсатилади. Уларда элга насихат қилиш имкони бор. Шунинг учун унинг ўзи шахсий намуна кўрсатиши керак. Зеро, “Ўзи киргондин сўнгра насихат била элни ҳам кивурса”. Бунинг сабаби бор: “Юрумаган йўлга элни бошқармоқ – мусофирни йўлдан чиқармоқдур ва биёбонга кетурмақ ва бодияда итурмақдур” [6,32].

Алишер Навоий фикрича, панд-насиҳат билан халқни тўғри йўлга солиш илмда етук, маънавияти юксак воизлар, устозлар, муаллимлар ишидур. Ва аксинча, “йўлни юрмай кирган йитар ва ғайри мақсуд ерга етар”. Яъни тариқат, маърифат, йўлига кирмаган пир, устоз бу йўлда йўқолар.

Буларнинг барчаси Алишер Навоий ижодида нотиқлик санъатига оид гўзал намуналарнинг ниҳоятда фаровонлигини, таълим-тарбия жараёнида улардан фойдаланиш имконларининг нақадар кўплигини кўрсатиб турибди.

Навоий асарларининг ифода имконияти ниҳоятда кенг. Улар билан атрофлича танишиш инсонларнинг бу борадаги тасаввурларини, билимларини кенгайтиради, улардаги кўникма ва малакаларнинг шаклланиши ва такомиллашишига муносиб замин яратади.

Улуғ мутафаккир Алишер Навоий сўз, нутқ маданияти борасида лирик асарларида ҳам, эпик асарларида ҳам, илмий асарларида ҳам кўп ва хўб сўз юритган. Унинг сўз ва нутқ мезонлари, маромлари ҳақидаги қарашларининг бу қадар салмоқдор ва таъсирчан бўлишининг бош омили эса унинг ўзи ва яратган асарларининг бу соҳада намуна бўларли даражадалигидир.

Навоий асарларининг матнини нотиқлик санъати нуқтаи назаридан ўрганиш бўлажак мутахассисларни ҳам, ўқувчи ёшларни ҳам ўз нутқларининг бой ва гўзал бўлиши учун, нутқий баркамолликка эришишлари учун энг муносиб восита ва омил вазифасини адо этади

АДАБИЁТЛАР:

- 1.Алишер Навоий Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик, 1-жилд. -Т.: НИМУ, 2011. Б. 804.
- 2.Алишер Навоий Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик, 2-жилд. -Т.: НИМУ, 2011. Б. 764.
- 3.Алишер Навоий Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик, 6-жилд. - Т.: НИМУ, 2011. Б. 808.
- 4.Алишер Навоий Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик, 9-жилд. - Т.: НИМУ, 2011. Б. 838.
- 5.Бегматов Э. Турсунпўлатов М. Ўзбек нутқи маданияти асослари. Т.: Ўқитувчи, 1991. Б. 149.
- 6.Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Маҳбуб ул-қулуб. Йигирма жилдлик. –Т.: Фан, 14-жилд, 1999.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA NUTQ MADANIYATIGA OID TERMINLARNING TAHLILI

***Maftuna Azamatovna UBAYDULLAYEVA,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti dotsenti***

Annotatsiya. Ushbu maqolamizda buyuk tilshunos olim Alisher Navoiyning nutq madaniyatiga oid yaratgan asarlarida qo'llangan terminlarning mazmuniy tahliliga e'tibor qaratganmiz. Alisher Navoiyning o'zi ham davrining mohir

so‘zamoli, zabardast shoiri, yetuk suhandonlaridan biri bo‘lgan. Notiqlik masalasi bilan qiziqishi uning nihoyatda chuqur bilim egasi ekanligidan, o‘z bilimini turli dunyoviy ilmlarni o‘rganib oshirib borganligidan dalolat beradi. Alisher Navoiy o‘z asarlarida notiqlik bilan bog‘liq bo‘lgan “v‘az”, “voizlik”, nadimlar, qissago‘ylar, masalgo‘ylar, badihago‘ylar, qiroatxonlar, muammogo‘ylar, voizlar, go‘yandalar, maddohlar kabi terminlardan samarali foydalangan.

Kalit so‘zlar: shoir, so‘z, nutq, voiz, va‘z, go‘yanda, sozanda, maddoh.

Alisher Navoiyning notiqlik haqida yozib qoldirgan ma‘lumotlari shoirning nima sababdan voizlar bilan qiziqqanligi, ular faoliyatini o‘rganishga nima sabab degan savollarni o‘rtaga tashlaydi. Darhaqiqat, biror masalani o‘rganishdan oldin, shu masala yuzasidan nazariy bilimlarga ega bo‘lish uni to‘g‘ri hal qila olishni bildiradi. Alisher Navoiy ham voizlikni nazariy tomondan tahlil qilgan. Shoir badiiy so‘z bilan shug‘ullanuvchilarni nadimlar, qissago‘ylar, masalgo‘ylar, badihago‘ylar, qiroatxonlar, muammogo‘ylar, voizlar, go‘yandalar, maddohlar, qasidaxonlarga ajratadi. Navoiyning fikricha, ular kuchli, yoqimtoy va jozibali ovozga ega bo‘lishlari kerak. Ko‘pchilik oldida ehtirosli nutq so‘zlay olish usullarini yaxshi bilishlari, o‘z so‘zlariga, nutqlariga e‘tiborni qarata olishlari kerak. Alisher Navoiyning nutq madaniyati va notiqlikka oid mulohazalari uning til, nutq, badiiy so‘z, nutq madaniyati, nutqiy odob, nutqiy nafosat haqidagi teran fikrlarida o‘z ifodasini topgan. Prof. Ernest Begmatov fikricha, shoirning nutq odobiga oid talqinlarida: 1) nutq, uning og‘zaki va bitilgan (yozma) shakli; 2) nutqiy faoliyatning mohir ustalari; 3) nutqning yuzaga chiqish usullari; 4) nutqiy uslublar; 5) nutqda ma‘no va shakl, ularning uyg‘unligi; 6) nutqiy ohang; uning ko‘rinishlari; 7) nutq odobi; 8) nutq nafosati (estetikasi), kabi muammolar tilga olingan. Ushbu muallifning qayd qilishicha, A.Navoiy notiqlikni ularning nutqiy kamoloti va notiqlik maqsadidan kelib chiqqan holda ikkiga – ijobiy sifatga ega notiqlik, hamda salbiy sifatga ega notiqliklarga ajratgan. Adib ijobiy sifatli notiqlikni balog‘at shoir, bulag‘o, guharposh, durbor, nuqtadon, sehrso‘z, xushgo‘y, shakarlab kabi 80 dan ortiq ibora bilan ta‘riflagan.[Aripova,745] Ajdodlarimiz o‘tmishda nutq madaniyati bo‘yicha salmoqli meros qoldirgan. Ular orasida Alisher Navoiy asarlari alohida ajralib turadi.

Alisher Navoiy notiqlik san‘atining insonni o‘zgartira oluvchi katta kuch ekanligiga alohida e‘tibor qaratadi. “Mahbubul-qulub” nomli falsafiy asarining 24-faslini “Nasihat ahli va voizlar zikrida” deb ataydi va bunda voizlik san‘atiga, va‘zga, voizga o‘z munosabatini bildiradi. Alisher Navoiyning voizlik haqidagi fikrlari va o‘z asarlarida notiqlik san‘atiga doir qo‘llagan terminlari hozir ham o‘zining tarbiyaviy ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Rost so‘zlash: Voiz, va‘z aytuvchi, bir kishiga, jamoatga pand-nasihat qiluvchi shunday bo‘lishi kerakki, “qolalloh – Alloh dedi” so‘z aytsa, va “qola rasululloh – Allohning rasuli, ya‘ni Payg‘ambar dedi” muxolafatidan, qarama-qarshiligidan, kelishmovchiligidan, teskarilashishidan qaytsa, Xudo va rasul yo‘liga qadam ursa, qadam bossa.

Fikrlarni nasihat usulida berish: O‘zi shu yo‘lga kirgandan keyin nasihat bila elni ham kivursa, kiritsa. O‘zi yurmagan yo‘lga elni boshqarmoq – musofirni

yo‘ldan chiqarmoqdir va biyobonga keturmak va cho‘lu sahroda yo‘qotmoqdir, yo‘q qilmoqdir. Uning bu ishi tarang mast odam elga hushyorlikni buyurgandek – el uyquvchidekdurki elga uyg‘oqlikni buyurg‘ay. Uyqusida so‘z degan jevlignon bo‘lur, ul degandek qilmoq ne degon bo‘lur. Uyqusirab gapirganni bosinqirash deydilar, bosinqirashda aytilgan gapni amalga oshirilgan ishni nima desa bo‘lur.

Eshituvchini to‘g‘ri yo‘lga solish: Va‘z – bir to‘g‘ri yo‘lga soluvchi va ogoh etish ishidir, bir komil ahlulloh vazifasi, odatidir va uning nasihatini qabul etmoq ma‘qul ishdur. Avval bir yo‘ldan bormoq kerak, andin so‘ngra elni boshqarmoq kerak. Yo‘lni yurmay kirgan izsiz yo‘q bo‘lib ketar va boshqa, teskari maqsad yeriga yetar.

Olim va halol bo‘lish: Voiz uldurki, majlisiga xoli, bo‘sh kirgan to‘lg‘ay va to‘la kirgan xoli bo‘lg‘ay. Voizkim, bo‘lg‘ay olim va halol ish tutuvchi – aning nasihatidan chiqqan buzuqi. Ulki, buyurib o‘zi qilmag‘ay, hech kimga foyda va asar aning so‘zini kimsa qilmag‘ay. Nazoirxon – maddohlik yo‘lida so‘z aytuvchi, maqola yozuvchi – yugurdagi bila qo‘shiq aytuvchi, ashulachi, bari bir go‘r.

Qit‘a:

Voizki, yugurdaksiz so‘z ayta olmas,
Unga yorodu, bunga ayolg‘uchi hukmi bor.
Tengri so‘zin ayolg‘uchi bo‘lmasa aytolmas,
Bittagina asbob bo‘lsa ham zor istar.

(Yorodu – musiqa asbobi. Ayolg‘uchi – kuyning cho‘ziq nag‘malarini ijro etuvchi)[Bahodir Kobul, 2021:60-61].

Alisher Navoiy tomonidan notiq oldiga qo‘yilgan talablar o‘sha davrdagi Sharq notiqdari oldiga qo‘yiladigan talablarga juda mos keladi. Alisher Navoiy mohir so‘z ustalari haqida so‘zlar ekan, so‘z qudratiga quyidagicha ta‘rif beradi:

U so‘z san‘atkorlarining boshidagi toj, hatto bahosi xazinaga teng o‘sha tojning gavharidir. U fazilat konidagi gavharlarning qo‘riqchisi, kamolot daryosining qimmatbaho injusidir. Uning ijodxonasi suvoqlaridan anbar hidi keladi. Xohaning to‘rt tomoniga esa sakkiz jannat yashiringan. Garchi uning uyi ko‘ngil kulbasidek ixcham bo‘lsa ham, unda ikki jahon jilvalanadi. Baland osmon uning masjidiga qandil, nur sochuvchi quyosh esa o‘sha qandildagi sham. Ka‘ba uyidan doim unga bir eshik ochiq; namoz vaqtida unga bu eshik mehrob vazifasini o‘taydi. Ganja - uning vatani, ko‘ngli boyliklar koni bo‘lib, fikri xazinasi, tili esa o‘sha boyliklarni ulashuvchidir. Uning fikr tarozusi “Xamsa”ni, “Xamsa” emas, balki “Besh xazina”ni o‘lcharkan, unga Osmon tarozusi pallas, Yer kurrasi esa botmon tosh bo‘ldi. Aql xazinachisi yuz avlod umri davomida tarozuda tortsa ham bari bir, uning kichik bir qismini tortib ulguradi, xolos.

“Hayratul-abror”da shunday yoziladi: Fikr haqiqat o‘tidan bahramand bo‘lgan bo‘lsa, u toshni ham suv qilib eritib yubora oladi. Biroq fikr haqiqat gavharidan uzoq bo‘lsa, unga ip topish to‘g‘risida so‘zlamagan ham yaxshi. Ipni topsang-u o‘rish-arqog‘i bilan keltirsang-u, yaxshi dur bo‘lmasa, uning chiroyli rang va naqshidan ne foyda?

Shoir asarda so‘zning qudratini quyidagicha tasvirlaydi:

Soʻz gavharining sharafi shunchalar yuksakki, gavhardek qimmatbaho narsa ham unga sadaf boʻla olmaydi. Toʻrt sadaf ichidagi gavharga quti ham shu soʻz, yetti qavat osmon yulduzlarining burjlari ham shu soʻzdir. Inson koʻngli qaysi tomonga boqmasin, jahon bogʻchasida yuz xil yangi gullarni koʻrarkan, ular barchasi bir vaqtlar sirli yoʻqlikning gulshanida yashiringan, gʻunchalar ham hammasi ochilmagan xolda edi. Azaliyat togʻidan mayin shabada esa boshlashi bilan jahon bogʻidagi shuncha gullar ochilib ketdi. Bu oddiy shabada emas, gullar sochuvchi shabada boʻlib, u naʼmatak va undan toʻkilgan gul yaprogʻiga oʻxshab ketadi. Shu ikki narsani donishmand odam bir-biriga yopishtirsa, “kofu nun” hosil boʻladi. Dunyodagi hamma bir-biriga bogʻliq va bogʻliq boʻlmagan narsalar - barchasi shu “kof” va “nun”ning bolalari, oʻshandan paydo boʻlganlar. Bu bolalar yana hisobsiz bolalar koʻrib, bola oʻzi ham ota, ham oʻgʻilga aylandi. Uni soʻz bilan qanday maqtash mumkin? Axir, nima deyilsa ham uning oʻzini oʻzi bilan maqtalgan boʻladi-da! Soʻz jon boʻlib, ruh uning qolipidir. Tanida ruhi bor odam doim unga ehtiyoj sezadi. Soʻz dunyoda bor barcha koʻngillarning qutisidagi javhar, hammaning ogʻiz qutisidagi qimmatbaho gavhardir. Agar til bamisoli bir poʻlat xanjar boʻlsa, soʻz unga qadalgan injulardir. Til shu chamanning ochilgan lolasi boʻlsa, soʻz durlari unga qoʻngan shabnamlardir. Soʻz oʻlgan odamning tanasiga pok ruh bagʻishlaydi. Soʻzdan tandagi tirik ruh halok boʻlishi mumkin.

Alisher Navoiyning “Muhokamatul lugʻatayn” asari soʻz bilan bogʻliq jumlar bilan boshlangan: Takallum ahli xirmanining xoʻsha chini va soʻz, durri samini maxzanining amini va nazm gulistonining andalibi nagʻma saroyi, yaʼni Alisher almutaxallas bin-Navoiy... mundoq arz qilurkim, soʻz durredurkim, aning daryosi koʻnguldur va koʻngul mazharedurkim, jomi maoniysi juzv va kuldur. Andoqki, daryodin gavhar gʻavvos vositasi bila jilva namoyish qilur va aning qiymati javharigʻa koʻra zohir boʻlur. Koʻnguldin dogʻi soʻz durri nutq sharafigʻa sohibi ixtisos vasilasi bila guzorish va oroyish koʻrguzur va aning qiymati ham martabasi nisbatigʻa boqa intishor va ishtihor topar. Gavhar qiymatigʻa nechukki, marotib usru koʻpdur, hattoki, bir diramdin yuz tumangacha desa boʻlur.

Qitʼa: Injuni olsalar mufarrih uchun,

Ming boʻlur bir diramgʻa bir misqol.

Bir boʻlur hamki, shah quloqqa solur:

Qiymati mulk, ibراسi amvol

Soʻz durrining tafovuti mundin dogʻi begʻoyatroq va martabasi mundin ham benihoyatroqdur. Andoqki, sharifidin toʻlgan badangʻa ruhi pok etar, kasifidin hayotliq tangʻa zahri halok xosiyati zuhur etar.

Qitʼa: Soʻz gavharidurki, rutbasining

Sharhidadur ahli nutq ojiz.

Andinki erur xasis muhlik,

Koʻrguzgucha durur Masih muʼjiz.

“Xamsa”ning birinchi dostoni boʻlgan “Hayratul-abror”ning 14-bobi “Odamzod vujudi osmonning jahon yoritar yulduzlari va inson zotiga xos boʻlgan konning behisob javohirlari boʻlgan soʻz taʼrifida...” deb boshlanadi va bu bob toʻligʻicha soʻz taʼrifiga bagʻishlanadi.

Alisher Navoiy fikricha, soʻzning qadri qimmatbaho gavhar kabidir: “Soʻz gavharining sharofati shunchalar yuksakki, gavhardek qimmatbaho narsa ham unga sadaf boʻla olmaydi. Toʻrt sadaf (suv, havo, oʻt, tufroq) ichidagi gavharga quti ham shu soʻz, yetti osmon yulduzlarining burji ham shu suv”.

“Hayratul-abror”da shunday yoziladi: “Nazmda ham asosiy narsa maʼnodir, uning shakli esa har xil boʻlishi mumkin. Yaxshi mazmunga ega boʻlmagan sheʼr tushungan odamlarning yaxshi bahosini olamaydi. Ham yaxshi shaklga ega boʻlgan, ham goʻzal maʼno asosiga qurilgan sheʼr haqiqiy sheʼr”.

Ayniqsa, Alisher Navoiyning xatlardan toʻplangan “Munshaoot” (“Xatlar namunalari”) asari nutq odobiga oid quyidagi misralar bilan boshlanadi: Hamdi mavfur ul soniʼgʻakim ilmi munshiysi sunʼ qalami bila kalomi majid inshosin ofarinish avroqigʻa raqam qildi, to ofarinish ahli aning ahkomi bila amal qilgʻaylar va yaxshini yomondinu qilurni qilmasdin bilgaylar .

*Ul hokimkim omdurur ehsoni,
Shahlar boshigʻa nofiz aning farmoni,
Farmonigʻa insho suvari qurʼoni,
Inshosiga eʼjoz kelib arzoni.
Jalla alouhu va ammat naʼmouhu
Va durudi nomahsur ul rofiʼgʻakim,
Sharʼi muftisi kilki amri bila shariati
hamid imlosi zamon sahoyifigʻa yozildi,
to zamon eli aniing amr va nahyisi bila
ishtigʻol koʻrguzib xato paydosidin
savobi tariqigʻa rosih boʻlgaylar.
Ul shohki moyan fasohat keldi,
Har nukta anga mahzi balogʻat keldi,
Haqdin ishi olamgʻa risolat keldi,
Shoni bu risolatda adolat keldi.
Sallallohu alayhi va alo olihi va ashobihi*

Ammo baʼd: ajillai ashob ollida aidog maʼruz boʻlur va aizzai ahbob xizmatida andog arzgʻa etkurulurkim, atrok inshosida va bu ahli idrok bayonu adosidakim, birovdin birovga ruqʻa yozgʻay, yo ul kishi ul ruqʻagʻa javob bitigay, dagʻi ruqʻa kelturgan qosidni qaytargʻan – alfozi latofatdin muarro va tarokibi balogʻatdin mubarro erdi va adosi rangin fiqarotdin namoyishsiz va mazmuni rangin abyotdin oroyishsiz va muqobalada forsiy alfozning insholari dilpisand va makotibu imlolari arjumand erdi, xayolgʻa andog keldikim, turk alfozining dagʻi ruqʻalari hamul misol bila bitilgay va bu tilning nomalarini ham oʻshul minval bilan sabt etilgay. Oz fursatda bu ruqʻalar jamʼ boʻlib va nomalar yigʻilib erdikim, bu avroq zimnida sabt boʻldi. Ruboiya: Har kimki ani oʻqurni bunyod etgay, Roqimni agar duo bila yod etgay, Tengri oni har banddin ozod etgay, Har gʻamdin aning xotirini shod etgay.

Alisher Navoiyning nutq madaniyati, soʻz qoʻllash toʻgʻrisidagi fikrlari “Muhokamatul-lugʻatayn” asarida feʼl soʻz turkumiga oid terminlar misolida koʻrsatib berilgan. Quyida Navoiyning bu boradagi qarashlarini koʻramiz: Ammo

turkning kattadan kichigigacha, xizmatkoridan begigacha sart tilidan bahramanddirlar. Shundayki, o'z tirikchiliklariga oid ahvollar ustida so'zlasha olurlar, balki ba'zilar adabiy ravishda so'zlashaolurlar. Hattoki turk shoirlari forsi tilida rangdor she'rlar va shirin hikoyalar yuzaga chiqara olurlar. Andoqki: quvormoq va quruqshamoq va usharmak va jiyjaymoq va o'ngdaymoq va chekrimak va do'msaymoq va umunmoq va o'sanmoq va itirmak va egarmak va o'xranmak va toriqmoq va aldamoq va arg'adamoq va ishashtmak va iglanmak va aylanmoq va erikmak va igranmak va ovunmoq va qistamoq va qiynamoq va qo'zg'almoq va sovrulmoq va chayqalmoq va devdashimoq va qiymanmoq va qizg'anmoq va nikamak va siylanmoq va tanlamoq va qimirdamoq va serpmak va sirmamak va ganorgamak va sig'riqmoq va sig'inmoq va qilimoq va yolinmoq va munglanmoq va indamak va tergamak va tevrarak va qingg'aymoq va shig'aldamak va singramoq va yashqamoq va isqarmoq va ko'ngranmak va suxranmoq va siypamoq va qoralamoq va surkanmak va kuymanmak va intramoq va tushalmak va mung'aymoq va tanchiqamoq va tanchiqolmoq va ko'ruksamak va bushurg'anmoq va bo'xsamoq va kirkinmak va sukadamak, bo'smoq, burmak, turmak, tomshimoq, qahamoq, sipqormoq, chicharkamak, jurkanmak, o'rtanmak, sizg'urmoq, gurpaklashmak, chuprutmoq, jirg'amoq, bichimoq, qikzanmoq, singurmak, kundalatmak, qumurmak, bikirmak, ko'ngurlamak, kinarkamak, kezarmak, do'ptulmoq, chidamoq, tuzmak, qazg'anmoq, qichig'lamoq, gantiramak, yadamoq, qadamoq, chiqanmoq, ko'ndurmak, so'ndurmak, suqlatmoq. Bu 4 yuz lafzdurki, g'arib maqosid adosida tayin qilibdurlarki, hech qaysi uchun sort tilida lafz yasamaydurlarki, barchasi muhtojun ilayhdurki, takallum chog'ida kishi anga muhtoj bo'lur. Ko'pi andoqdurki aslo aning mazmunin tafhim qilmoq bo'lmas va ba'ziniki, anglatsa bo'lg'ay, har lafz tafhimi uchun necha lafzni tarkib qilmag'uncha bo'lmas, ul dag'i arabiy alfoz madadi bila. Va turk alfozida bu nav' lafz ko'p topilur. Masalan, bu mazkur bo'lg'on yuz lafzdin bir nechaga mashg'ulluk qilib sobit qilali, to xasm muqobalada ilzom bo'lsunki, o'zgalarni munga qiyos qilsun.

Navoiy "Muhokamat ul-lug'otayn"da bir-birlariga nisbatan sinonimik munosabatda bo'lgan 100 ta fe'lning ro'yxatini keltirgan, ularni o'zaro qiyoslab tahlil qiladi. Ayniqsa, uning yig'lamoq ma'nosidagi fe'llar haqidagi fikrlari o'zbek tilining naqadar boy til ekanligidan dalolat beradi. Alisher Navoiy quyidagicha yozadi: "Bu yuz lafvdurki, g'arib maqosid asosida tayin qilibdurlar.... barchasi muxtojun ilayhdurki, aslo aning mazmunining tafxili qilmoq bo'lmas..."

"Muhokamat ul-lug'atayn"ning so'ngida o'zbek (turkiy) tilining stilistik imkoniyatlari, so'z qo'llash imkoniyatlari haqida ko'plab misollar asosida aks etgan.

ADABIYOTLAR:

- 1.Арипова А.Х.Шарқнинг буюк нотиклари. Scientific progress volume 2 | issue 1 | 2021 issn: 2181-1601page 745.
- 2.Навоий, Алишер Махбуб ул-қулуб. Муҳокамат ул-луғатайн: асар/ўғирувчи Баҳодир Қобул. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт- матбаа ижодий уйи, 2021.Б.60-61.

- 3.file:///C:/Users/Domlabobo/Downloads/AlisherNavoiy.%20Xamsa.%20Hayratul
abror%20(nasriy%20bayoni).pdf
4.file:///C:/Users/Domlabobo/Downloads/AlisherNavoiy.%20Xamsa.%20Hayratul
abror%20(nasriy%20bayoni).pdf
5.file:///C:/Users/Domlabobo/Downloads/AlisherNavoiy.%20Xamsa.%20Hayratul
abror%20(nasriy%20bayoni).pdf
6.http://lib.jizpi.uz/pluginfile.php/15160/mod_resource/content/0/Alisher%20Navoiy%20-%20Muhokamatul%20lugatayn%20%281%29.pdf
7.file:///C:/Users/Domlabobo/Downloads/AlisherNavoiy.%20Xamsa.%20Hayratul
abror%20(nasriy%20bayoni).pdf
- екистон Миллий кутубхонаси, 2007 й.

NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDA BELGINI IFODALOVCHI FORSIY LEKSEMALAR HAQIDA

*Zarifaxon Vaxobovna ALIMOVA,
FarDU tilshunoslik kafedrasi dotsenti
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida belgini ifodalovchi forsiy leksemalar xususida soʻz boradi. Asarda sifat turkumiga oid forscha leksemalarining etimologik xususiyatlari, leksik maʼnolari, forscha-tojikcha izohli lugʻatlarga asoslanganligi, boshqa manbalardagi izohlarga taqqoslanganligi, forscha sifatlarning Navoiy asarlari izohli lugʻatidagi talqinlari yuzasidan maʼlumotlar keltirilgan. Sifat turkumiga tegishli forsiy leksemalarni tahlil qilish maqolaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Kalit soʻzlar: belgining ifodalanishi, forsiy sifatlari, forsiy sinonimlar, sifatdan ot hosil qilinishi, “yo-ye masdari”, mavhum tushunchaning ifodalanishi.

Navoiy haqida uning koʻp zamondoshlari, buyuk muarrixlar muhim maʼlumotlar keltirib oʻtganlar, u haqda nodir asarlar yozganlar. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari ham shular jumlasidandir. Garchi Bobur Navoiy bilan yuzma-yuz koʻrishmagan boʻlsa-da, soʻz mulking sultoni bilan maktub orqali tanishgan edi. Bobur Navoiyning asarlarini sidqidildan mutolaa qilar, gʻazallarini yod olar edi.

O.Sharafiddinov taʼkidlashicha, “Hirotlik Zayniddin Mahmud Vosifiyning “Badoeul-vaqoe” nomli asari ham Alisher Navoiy toʻgʻrisidagi xotiralar, uning suhbatlari va qatnashgan majlislari, kishilar bilan muomalasi toʻgʻrisidagi muhim faktlarni oʻz ichiga olgan boʻlib, koʻp izlanuvchilar tomonidan foydalanilmay qolgandir”[4,11].

Mazkur maqola Navoiyning “Saddi Iskandariy”da uchragan belgini ifodalovchi forsiy leksemalar tahliliga bagʻishlanadi. Maʼlumki, “Saddi Iskandariy” dostonida boshqa soʻz turkumlari singari sifat turkumli forsiy leksemalar ham talaygina.

Dalir (daler)– دلیر sifat turkumiga oid leksema boʻlib, “qoʻrqmas”, “botir”, “sheryurak” kabi maʼnolarni ifodalaydi. ANATILda “dalir” shaklida yozilgan

mazkur soʻz yuqoridagi maʼnolar orqali izohlangan. “Saddi Iskandariy” dostonidan keltirilgan baytda mazkur leksemaning daler shakli qoʻllangan:

Qochib Sher yetgan zamon ul daler,

Qari tulku ul nav'kim yetsa sher (Saddi Iskandariy, 20-bet).

Maʼnosi: “Sherni koʻrgan qari tulki qanday ahvolga tushsa, pahlavonimiz yetib kelgach, arslon ham shu koʻyga tushib qoldi” (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 21-bet). FTZTda “daler” leksemasining yuqoridagi maʼnolari bilan birga “shijoatli”, “jurʼatli” kabi maʼnolari ham keltirilgan (FTZT, 1-jild, 402-bet). PRSda ham “dalir” leksemasining yuqorida keltirilgan barcha maʼnolar mavjud (PRS, 1-jild, 658-bet).

Devonavash – ديوانه وش sifat turkumiga oid leksema boʻlib, Navoiy asarlari izohli lugʼatida ushbu soʻzning quyidagi maʼnolari keltirilgan: devonaga oʻxshash, devonavash, devonanamo (ANATIL, 1-jild, 481-bet).

Ki, Jomiygʻa oʻzni qilib jurʼakash,

Soʻz aylay ado, mast-u devonavash (Saddi Iskandariy, 37-bet).

Maʼnosi: Jomiy bilan birga may ichishib, men ham mast-u devonalardek otashin soʻz yuritay (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 40-bet).

Dilpazir– دليزير sifat turkumiga oid soʻz boʻlib, “yoqimli”, “goʻzal”, “maʼqul”, “koʻngildagidek”, “xush keluvchi” kabi maʼnolarni ifodalaydi (ANATIL, 1-jild, 489-bet).

Borin aytmoq gar emas dilpazir,

Vale sharhi maqsuddin yoʻq guzir (Saddi Iskandariy, 40-bet).

Maʼnosi: Buning barchasini aytish uncha yoqimli boʻlmasa ham, lekin izohlash maqsadga muvofiqdir (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 42-bet).

OʻTILda “dilpazir” leksemasiga quyidagicha izoh beriladi: Bu sifat “dil” otiga “kutib ol” maʼnosini anglatadigan “paziroʻftan” feʼlining “pazir” hozirgi zamon asosini qoʻshib hosil qilingan boʻlib, “ochiq koʻngil bilan kutib oladigan” maʼnosini anglatadi [1,88]. Bundan koʻrinadiki, OʻTILda dilpazir leksemasining “yoqimli”, “goʻzal”, “maʼqul” maʼnolari keltirilmagan. FTZT [3,450] hamda PRSda [2, 653] dilpazir leksemasining “yoqimli”, “goʻzal”, “maʼqul” maʼnolari ham uchraydi.

Farxanda//farxunda - فرخونده sifat turkumli leksema boʻlib, “qutluq”, “baxtli”, “saodatli” kabi maʼnolarni ifodalaydi (ANATIL, 3-jild, 330-bet).

Ayogʻinggʻa tayreki afgandadur,

Agar chugʻz boʻlsunki, farxandadur (Saddi Iskandariy, 35-bet).

Maʼnosi: Oyogʻing ostida senga qaram boʻlib yotgan qush hatto boyoʻgʻli boʻlsa ham baxtlidir (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 38-bet).

PRSda ushbu leksema farxoʻnde tarzida ifodalanib, keltirilgan barcha maʼnolarni oʻz ichiga olgan [2,227]. FTZTda esa farxunda leksemasining yuqoridagi maʼnolari bilan bir qatorda “muborak”, “yaxshilik” kabi maʼnolari ham keltirilgan [3,393].

Ki: «Bu farruxoyinu farxunda xayl,

Qilurlar dame ixtilotinggʻa mayl» (Saddi Iskandariy, 457-bet).

Jovid جاويد so'zi sifat turkumiga oid bo'lib, doimiy, hamisha, abadiy, mangu kabi ma'nolarni ifodalaydi. ANATILda ushbu so'zning qo'shma fe'l ko'rinishidagi jovid bo'l-o'l- shakli ham uchraydi va o'zbek tiliga doimiy bo'lmoq, abadiy qilmoq deya tarjima qilinadi (ANATIL, 1-jild, 582-bet). Fors-tojik tilida ushbu so'z orqali o'g'il bolalar ismi ham ifodalanishi izohlangan [2,428].

Bu gardun aro tab'i xurshid o'lub,

Aning nuri olamda jovid o'lub (Saddi Iskandariy, 31-bet).

Ma'nosi: Bu osmonda mavqei xurshidi tobondek bo'lib, u taratgan nur olamda abadiy so'nmaydi (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 34-bet).

Asarda jovid so'zi bilan bog'liq jovidoniy so'zi ham uchraydi. Ma'lumki, fors-tojik tilida sifat, ot va boshqa turkumdagi so'zlar oxiriga urg'uli bir yo harfi qo'shish orqali ulardan mavhum ma'noni ifodalovchi ot hosil qilinadi. Bu yo harfi fors tili grammatikasida yo-ye masdari deyiladi. Masalan: bad بَد - yomon, badi بدی - yomonlik; javon جوان - yosh, javoni جوانی - yoshlik kabi [6,199]. Shular sirasiga jovidoniy جاودانی so'zi ham kiradi va o'zbek tiliga abadiylik, mangulik deb tarjima qilinadi (ANATIL, 1-jild, 582-bet). Forscha-ruscha lug'atda ham جاودانی leksemasi abadiylik, mangulik deya izohlangan [2,428].

Labolab لابلاب sifat turkumiga tegishli leksema bo'lib, liq to'la, yetarli darajada; kam-ko'stsiz; barobar; silliq kabi ma'nolari mavjud (ANATIL, 2-jild, 120-bet).

Bu sarmoyadin bizga kome yetur,

Labolab mayi vasli Jomiy yetur (Saddi Iskandariy, 37-bet).

Ma'nosi: Ey tangrim, Jomiy fazilatlaridan bizni ham bahramand et, uning visol mayidan to'yib ichishni bizga ham nasib ayla (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 40-bet).

Lavand لوند leksemasi sifat turkumiga oid bo'lib, bo'shang, ishyoqmas, dangasa, yalqov, tanbal kabi ma'nolarni ifodalaydi (ANATIL, 2-jild, 120-bet).

Havo andoq aylabdur oni lavand,

Tarab tanbalu, komu g'aflat tanand (Saddi Iskandariy, 24-bet).

Ma'nosi: ...lekin battarroq yalqovlashib, bo'sh qolsam yotib uxlashning payida bo'lib qoldim (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 40-bet).

Nuhuft نهفت sifat turkumiga oid leksema bo'lib, yashirin, pinhon kabi ma'nolari mavjud (ANATIL, 2-jild, 494-bet).

Tikon sorikim qo'l uzotur nuhuft,

Qo'lig'a kirar g'unchai noshuguft (Saddi Iskandariy, 37-bet).

Ma'nosi: U ittifoqo tikanga qo'l uzatsa, qo'liga hali ochilmagan g'uncha tutiladi (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 40-bet). Nasriy bayondan ko'rinadiki, no'ho'ft so'zi ittifoqo deya tarjima qilingan.

Noshuguft ناشگفت sifat turkumiga oid leksema bo'lib, ochilmagan deya izohlanadi (ANATIL, 2-jild, 486-bet). Yuqorida no'ho'ft so'zi ishtirok etgan baytda noshuguft-ochilmagan so'ziga misol keltirilgan. Saddi Iskandariy asarida noshuguft so'zi bir marta qo'llanilgan.

Nokosta ناکاسته sifat turkumiga oid leksema bo'lib, to'lin, to'liq ma'nolarini ifodalaydi. ANATILda mazkur so'z oy so'zi bilan birga kelishi ta'kidlanadi: mohi nokosta – to'lin oy (ANATIL, 2-jild, 473-bet). FTZTd nokosta leksemasining yuqoridagi ma'nolaridan tashqari kam bo'lmagan, nuqsonsiz kabi ma'nolari ham uchraydi [3,929]. Forscha-ruscha lug'atda (PRSda) esa nokosta so'zi uchramaydi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ba'zan ayrim old qo'shimchali leksemalar forscha lug'atlarda kamdan-kam uchraydi. Aksincha, old qo'shimchasiz shakli ko'proq uchraydi [5,911]. Nokosta leksemasining ham kosta کاسته (koste) shakli mavjud bo'lib, uning ma'nosi kichraytirilgan, kamaytirilgan demakdir. Bundan ko'rinadiki, kosta (koste) leksemasi o'tgan zamon sifatdoshidir va u koston کاستن – kichraytirmoq, kamaytirmoq fe'lidan olingan [2,295].

Nopadidor ناپدیدار sifat turkumiga oid leksema bo'lib, ko'rinmaydigan, sezilmaydigan kabi ma'nolarni ifodalaydi (ANATIL, 2-jild, 480-bet). Forscha-ruscha lug'atda nopadidor so'zining ANATILda izohlangan ma'nolaridan tashqari noaniq, noma'lum kabi ma'nolari ham keltirilgan [2,596]. FTZTd esa ushbu leksema uchramaydi.

Shuru'i dog'i nopadidor o'lub

Ki, tag'yir vaz'ig'a dushvor o'lub (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 44-bet).

Ma'nosi: Bu ishni boshlab yuborish ham qiyin bo'ldi. Uning tuzilishini-tartibini bir rejaga solib olish ham oson bo'lmadi (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 47-bet).

Zahrnok sifat turkumiga tegishli leksema bo'lib, zaharli, zahar aralashgan kabi ma'nolarni ifodalaydi. ANATILda zahrnok leksemasining izohi berilmagan. Lekin forscha-ruscha lug'atda zahrnok so'zining ma'nosi zahrolud so'zi anglatgan ma'noni anglatishiga ishora qilingan. Ushbu lug'atda zahrolud leksemasining zaharli, zahar aralashgan kabi ma'nolari keltirilgan [2,773].

Bo'lub lola qon, sabza tig'i halok,

Giyohi dog'i sarbasar zahrnok (Saddi Iskandariy, 40-bet).

Tabdili: Lola qon-u, sabzalarining qirralari halokangez bo'lib, undagi har bir giyoh boshdan-oyoq zahrnok edi (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 43-bet).

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, barcha so'z turkumlari kabi sifat ham Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida ko'p uchraydi. Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida boshqa turkumdagi so'zlar qatorida sifatlar haqida ham so'z yuritib, ularning nutqni boyitishdagi rolini batafsil tahlil qilib bergan edi.

ADABIYOTLAR:

- 1.Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 3-жилд. – Тошкент: Университет, 2009. –В.88.
- 2.Рубинчик Ю. Персидско-русский словарь. I том, -Москва: Русский язык, 1983. 653-с.
- 3.Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ. –Душанбе, 2008. Ҷилди 1. –С.450.
- 4.Шарафиддинов О. Алишер Навоий. Ғафур Ғулом номидаги бадиий нашриёти. –Тошкент, 1971. –Б.187.

5.Z.Alimova. Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi “Ganj” va “Gavhar” istilohlari bilan bog‘liq leksemalar xususida. FarDU Ilmiy xabarlar jurnali, 2024, № 3. –B.907-912.

6.Z.Alimova. Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi “Zar” va “Zarra” asoslari bilan bog‘liq leksemalar xususida. FarDU Ilmiy xabarlar jurnali, 2024, №5. –B.198-201.

ALISHER NAVOIY MEROSIDA IJTIMOIIY-SIYOSIY VA AXLOQIIY TA’LIM BIRLIGI

***Nafisa Usmanovna SADINOVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiyning rasmiy munosabatlar odobini shakllantirishga qo‘shgan hissasi haqida so‘z yuritilgan va bu soha faoliyati borasida bayon qilgan fikrlari manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ish yuritish, muhrdor, lisoniy belgi, muloqot, tagma‘no, presuppozitsiya, subyektiv bilish.

Buyuk o‘zbek shoiri Alisher Navoiyning rasmiy uslub sohasidagi xizmatlari beqiyosdir. Ma’lumki, bu ulug‘ zot ijtimoiy-siyosiy faoliyatdan chetlashmagan holatda ijod qildi. Alisher Navoiy ko‘p yillar mobaynida Husayn Boyqaro saroyida oliy martabali lavozimlarda faoliyat yuritdi. Jumladan, muhrdor, vaziri a‘zam sifatida saroyda, devon va mahkamalarda rasmiy ish yuritish sohalariga rahbarlik qilgan. Turk tilining maqomini ko‘tarish uchun ko‘p kuch-g‘ayrat sarflagan shoir rasmiy ish yuritish sohasida ham o‘zbek tilini keng qo‘llash, uni davlat tili darajasiga ko‘tarishga harakat qiladi. Shu bilan birga ish yuritish sohasini shakllantirish va mukammallashtirishga ham katta hissa qo‘shdi.

Rasmiy-ish uslubi – bu siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sohalarida kishilar, shuningdek, korxona va muassasalar o‘rtasidagi rasmiy muloqotni ifodalash uchun xizmat qiladigan nutq uslubidir. Keyingi yillarda mamlakat boshqaruv tizimida, iqtisodiy va madaniy sohada keskin islohotlar olib borilmoqda. Fan va texnika sohasida ma’lum yutuqlarga erishish, kompyuter texnologiyasining taraqqiyoti rasmiy-ish uslubining rivojlanishida muhim rol ni bajardi. Keyingi o‘n yilliklarda ish yuritish sohasida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Mamlakatning jahon sahnasida paydo bo‘lishi, xalqaro aloqalarning o‘rnatilishi, davlat tilining mavqeyini ta’minlash rasmiy uslubni qayta ko‘rib chiqish, tuzish, mukammallashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Ma’lumki, o‘zbek tili rasmiy-ish uslubi va rasmiy munosabatlar odobi uzoq yillar davomida shakllangan. Faqat bu sohada ijtimoiy omillarga asoslangan bir qancha o‘zgarishlar yuz bermoqda. Shunday omillardan biri jamiyat hayotining tub o‘zgarishi, rasmiy munosabatlarning yangilangani va o‘zgarganligidir. O‘zgarishlar rasmiy munosabatlar odobi haqida so‘z yuritishga sabab bo‘lmoqda.

Alisher Navoiy bu sohaga alohida e’tibor beradi. Jumladan, shoirning Husayn

Boyqaroga yozgan maktubida ish yuritish sohasini mukammallashtirishga oid fikrlari bayon etilgan: “Yana ulkim, arkoni davlatg‘a har ishim, buyurulur, agar butmagi bir kun muyassardur, agar ikki yo uch kun andoq muqarrar bo‘lsakim, bot butardek ish hamul kun arz qilib, javob olsalar. Kechrak butar ishni tongla yo indin yo miodidin o‘tkarmasalar, har kun ne miqdor butganin kelib arz qilsalar”.

Buyuk idrok egasi ish yuritish sohasida faoliyat yuritganda ham o‘z o‘quvchisiga insoniy fazilatlarni yuqtirishga harakat qiladi va bu sohada ham ko‘rgan-kechirganlari ta’sirida paydo bo‘lgan mulohazalari va hukm-xulosalarini bayon etadi. Shoirning ish yuritish sohasiga aloqador qit’asi bu borada alohida e’tiborga molikdir. Shoir bu qit’ada, asarning o‘zi guvohlik berganidek, muhrdor lavozimida faoliyat yuritgan kezlarida yozgan bo‘lib, yuksak insoniy fazilatlar haqida fikr yuritadi.[1,143-b.]

Devonda muhr bosqondin nafsiga shikast yetmagan uchun muhriga shikast bergani

Chun manga lutf etti shah devonda muhr,

Bu edi eldin quyi muhr urmog‘im, –

Kim g‘ururi nafs sarkash ma’nig‘a

Borchadin bo‘lg‘ay quyi o‘lturmog‘im.

Chun shikasti nafs hosil bo‘lmadi,

Mundin o‘ldi muhrni sindirmog‘im.

Shoir ijtimoiy-siyosiy va axloqiy ta’limiy masalalarga bag‘ishlangan bu asarida o‘z hayotining bir lahzasinigina bayon etgandek tuyuladi. Lekin asarni nutq subyekti nuqtayi nazaridan tadqiq qilinganda diskurs tuzilishida muloqot maqsadining o‘rni, tagma’noning ifoda topishi, pressuppozitsiya va muloqot ishtirokchilarining mental qobiliyati kabi masalalar e’tiborni tortadi. Ma’lumki, nutq muloqot maqsadida yaratiladi. Lekin muloqot maqsadi oddiygina axborot almashish bilan chegaralanib qolmaydi, axborot uzatishdan “hamkor”ga ta’sir o‘tkazish, uni biror narsaga ishontirish, bo‘ysundirish, harakatga undash maqsadi kutiladi. Bundan tashqari, semiotiklarning o‘zlari e’tirof etganlaridek, aloqa vositasi bo‘lmish belgilar so‘zlovchi tomonidan o‘z maylini, bironi yoki biror narsani yoqtirishini, noroziligini, hayratini va boshqa ruhiy tuyg‘ularini izhor etish uchun ham qo‘llanadi.[2,28-b.] Shoir bu qit’a orqali o‘z shaxsiy fazilatlaridan bo‘lgan kamtarlikni o‘zgacha bir usulda ifodalaydi. Mansabdor kishining kamtarlikni saqlab qolish yo‘lidagi urinishini, mansab va kamtarlikning o‘zaro ziddiyatini hujjat tuzish jarayoni bilan bog‘liq holda tasvirlaydi. Shu o‘rinda eslatish kerakki, lisoniy belgilarni muloqotda qo‘llayotgan shaxs qandaydir bir emotsional ruhiy holatda bo‘ladi, uning xatti-harakatlarida ijtimoiy kelib chiqishi, madaniyati o‘z aksini topadi.[2,28-b.] Qit’ada vakolat berilgan shaxsning o‘ziga berilgan vakolatdan g‘ururlanib, nafs yetaklagan yo‘lga yurib ketmaslik, boshqalarni o‘zidan ustun ko‘rishga harakat qilish uchun kurash jarayoni mahorat bilan tasvirlangan. Shoir o‘z hayotiy lavhasini tasvirlash orqali muloqot ishtirokchilarining subyektiv bilishida umumiylikka erishadi. Ya’ni o‘z hayotiy falsafasini muloqot ishtirokchisi bo‘lgan o‘quvchiga ham singdira olgan.

Navoiyning buyukligi shundaki, u besh asr oldin soʻz yuritgan masalalar hozirgi kunga kelib ham oʻz qimmatini yoʻqotmagan. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan “Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”[3,1-b] gʻoyasi shu qitʼada soʻz yuritilgan falsafa bugungi kunda ham dolzarbligining isbotidir. Shunday ekan, hujjatga muhr bosayotgan, yaʼni ish yuritishda faoliyat yuritayotgan har bir shaxs Navoiyning mana shu qitʼasi bilan tanish boʻlishi, unda soʻz yuritilgan falsafani oʻziga chuqur singdirishi va dasturulamal sifatida foydalanishi bugungi kun talabidir.

ADABIYOTLAR:

- 1.Alisher Navoiy. Munshaot, MAT, 14-tom, Toshkent, 1998, 143-bet.
- 2.Safarov Sh. Pragmalingvistika. –Toshkent, 2008, 28-b
- 3.Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Ishonch” gazetasi, 2017-yil №157, 1-bet.

BADIIY MATN LINGVOPOETIKASI

Sadoqatxon SOTVOLDIYEVA,
erkin tadqiqotchi, Uchkoʻprik tumani 53-maktab oʻqituvchisi

Annotatsiya. Havola qilinayotgan maqolada badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari yuzasidan soʻz yuritilmoqda. Lingvopoetika badiiy matn doirasida ish koʻrishi maʼlum. Aniqroq qilib aytganda, lingvopoetika badiiy matnni ham tilshunoslik, ham adabiyotshunoslik kesimida ish koʻradi. Zero badiiy matnda umumxalq tili oʻziga xos tarzda jilolanadi ham matn sohibining obraz yaratishdagi mahorati namoyon boʻladi. Maqolada lingvopoetikaning ana shu tomonlariga eʼtibor qaratilgan. Oʻzbek tilining naqadar jozibadorligi, oʻz soʻzlarimiz hamda oʻzlashmalar yordamida soʻz sanʼatining goʻzal namunalarini yaratgan Navoiy, Bobur, Furqat singari bu borada zabardast shoirlarning badiiy til imkoniyatlaridan nechogʻlik foydalanganliklari xususida mulohazalar bayon etilgan.

Kalit soʻzlar: lingvistika, poetika, lingvopoetika, kesimi, uygʻunlashgan, umumxalq tili, adabiy til, badiiy til, timsol, obrazlilik, emotsionallik, metafora, istiora, tazod, tanosub, uyadoshlik, shakldoshlik, sunʼ, sanʼat, mahorat.

Lingvopoetikaning tekshirish obʼekti badiiy matn hisoblanadi. Lingvopoetika boʻyicha qator tadqiqotlarni amalga oshirgan professor M.Yoʻldoshevning eʼtiroficha, “...har qanday badiiy asarda tilning kommunikativ vazifasi ham reallashadi, ammo estetik vazifa birinchi planda turadi, yetakchilik qiladi”. [Yoʻldoshev, 95] Oʻzbek tilidagi badiiy matnlar ham bundan mustasno emas. Shuning uchun ham lingvistik adabiyotlarda bu holatga mana bu tarzda urgʻu beriladi, - deydi M.Yoʻldoshev, rus tilshunoslari M.Gorelikova hamda D.Magomedovalarning “Lingvisticheskiy analiz xudojesivennogo teksta” (“Badiiy matnning lingvistik tahlili”) kitobidan ushbu iqtibosni keltirishni lozim topadi: “Badiiy matn har qanday nobadiiy matndan farqli oʻlaroq, alohida vazifani –

kommunikativ vazifa bilan murakkab o‘zaro aloqadorlikda namoyon bo‘luvchi va matnning o‘ziga xos qurilishida hal qiluvchi omil hisoblanuvchi estetik vazifani bajaradi”.[Gorelkova, 5] Ushbu iqtibos aslida yangilik emas. N.Mahmudov ham, M.Mirtojiyev ham, M.Hakimov ham, boshqa lingvopoetika bilan maxsus shug‘ullangan katta avlod hamda ularning ortidan sobitqadamlik bilan kelayotgan boshqa tilshunoslar ham badiiy matn xususida xuddi shunday xulosalarni ilgari surganlar. Gap ayni badiiy til xususida borganidan “badiiy til” atamasi ham izohtalab bo‘lib qoladi. Tilimizning umumxalq tili hamda adabiy til sifatida tasniflanshi barchaga ayon. Badiiy til sun‘iy ravishda paydo bo‘lgan. Aslida, “badiiy til” - umumxalq tili fondida mavjud so‘zlarning muayyan badiiy asarda muallif tomonidan jilo berilgan ko‘rinishi. Muallif muayyan so‘zni tavsifiy matn yoki timsollar nutqiga olib kirar ekan, uning turli variantlarini, ekvivalentlarini, metaforik shakllarini, sinonim, omonim, antonim ko‘rinishlarini, bir so‘z bilan aytganda ko‘chimga uchragan ko‘rinishlarini matnga singdirib, obraz yaratadi yoki ta’sirchan manzaralar hosil qiladi. Shuning uchun mumtoz va zamonaviy shoirlarning, nosirlarning asarlari o‘qilganda o‘quvchini alohida hayajon bosib turadi. O‘quvchi o‘ziga tanish bo‘lgan manzaralarni badiiy matn muallifi ko‘zi bilan ko‘radi, uning ilgari surayotgan g‘oyasi bilan nafas oladi. Hazrat Alisher Navoiyning bir taronasi bor:

Jonimdagi “jim” ikki dolingg‘a fido,

Andin so‘ng “alif” toza niholingga fido.

“Nun” dag‘i ikki hilolingg‘a fido,

Qolg‘an iki nuqta ikki xolingg‘a fido.[Navoiy, 724]

Ruboiyga diqqat qilinsa, lirik qahramonning “jon”i lirik personajning uch a‘zosi – zulfi, qoshi, xoli bilan bir tashbeh san‘ati doirasida muqoyasa qilinyapti. Bunda arab harflarining shakli va ma’shuqaning sanalgan uch a‘zosi o‘rtasidagi nisbiy o‘xshashlik e’tiborda tutilmoqda. Ana shu qiyos asarga jon bag‘ishlab, o‘quvchini hayratga solmoqda. Yoki Oybekning “Qutlug‘ qon” romanining bosh qahramoni Yo‘lchi Mirzakarimboy xonadonidan badarg‘a qilinar ekan suyuqlisi Gulnorga “Seni sevaman, Gulnor!” deyishga andisha qiladi. Bu gapni xalqona iboraga “o‘rab”, alohida nazokat bilan aytadi: ”Seni ko‘zim qiymaydi, Gulnor!”. “O‘tgan kunlar”dagi “Siz o‘shami?!” kalimasini ham ana shu fonda anglash o‘rinli bo‘ladi.

Sharq she’rshunosligida masnu’ atalmish usul bor. Bunda bir bayt doirasida bir necha badiiy san’atni qo‘llab, turli masalalarda mushohada yuritish va bu bilan deyilmoqchi bo‘lgan fikrni she’rxonga tez va oson, emotsional tarzda yetkaza bilish nazarda tutiladi. Shundanmi, bir qator shoirlar she’rlarida turli xil usullar, vositalar istifoda etilib, shaklga zeb berish bilan, satrlarning o‘ynoqiligini ta’minlash, unda ilgari surilgan g‘oyani silsilaviy tarzda jimjimador chiqishiga erishish hollari ko‘p kuzatilgan. Ayni ana shunday she’rlar masnu’ she’rlar nomi bilan yoyilgan. Chunonchi, Zahiriddin Muhammad Bobur lirik merosida ana shunday she’rlar anchagina uchraydi. Aslida, masnu’ she’rlar bitish – masnu’ g‘azal, qasida, ruboiy qit’alar yaratish yangi hodisa emas. Bunday she’rlar arab, fors-tojik va turkiy she’riyatda bir muncha uzoq tarixga ega. “Masnu’” arabcha so‘z, asosi “sun’” – san’at demak. Ko‘pligi “masnuot”. Lug‘atlarda “yaratilgan,

bezatilgan, bezakli qilib ishlangan” ma’nolarida ishlatilishi aytilgan. Adabiy istiloh sifatida “san’at ichra san’atlarga yo’g’rilgan satrlar” degan ma’noda tushunish to’g’ri bo’ladi.

Bobur she’riyatida masnu’ bo’la oladigan baytlar ham, alohida olingan masnu’ she’rlar ham bor. Bir baytda lirik qahramonning yor va diyordan ayrilganlik azob-uqubatlarini antonim va metaforalar yuzaga keltirgan tazod, tashbeh, istiora va boshqa san’atlar vositasida berishga erisha olgan:

Xazon yaprog’i yanglig’ gul yuzing hajrida sarg’ardim,

Ko’rib rahm ayla, ey lolaruh, bu chehrayi zardim. [Bobur, 43-44]

Agar e’tibor berilsa, baytda badiiy san’at vazifasini o’tamagan biror so’zning o’zi yo’q. Baytda uyadosh so’zlar yuzaga chiqargan tanosub yetakchi badiiy san’at bo’lib oldin rejaga chiqyapti. Chunki, “xazon yaprog’i”, “sarg’armoq”, “chehrayi zard” bir holatni, “gul yuzing”, “lolaruh” yana bir ma’no guruhini tashkil etuvchi so’zlardir. Shuningdek, bu so’zlar uyushuvi anglatgan umumiy ma’no keyingi so’zlar guruhi anglatgan umumiy ma’no bilan zidlikni ham hosil qilyaptiki, buni hech ikkilanmay tazod (antonim)ga yo’yish mumkin. “Xazon yaprog’i” – ramz, unda ayriliqning mislsiz iztirobi tasviri namoyon bo’lgan. Bu birikmada oshiqning ma’shuqadan bir umrga ayrilgani yoki bir umrlik hijronning qismatga aylanishiga ishora mavjud. Ayni damda, lirik qahramon va Bobur qismatdosh. Zero muallifning o’zi ham yor-u diyorida mosuvo; binobarin lirik qahramon ham yorining hijronida xazon yaprog’i sifat sarg’aygan; har ikkalasi ma’shuqa va sun’i naqqosh - Yaratgandan rahmu shafqat tilab turmoqqa haqli (bu o’rinda muallif va lirik qahramon taqdirdosh bo’lib, kechinmada uyg’unlashib ketadi. – S.S.). Birikmadan keyin kelayotgan yordamchi so’z (yanglig’) misradagi asosiy o’xshatishni yuzaga keltiradi. Ma’shuqaning “gul yuzi” – metafora (istiora). Mazkur orqali ikki ob’ekt – ma’shuqa va ona yurtning bemisl timsoli chizilyapti: “gul” – qizillik, qizillik esa tomirlarda jo’sh urib oqayotgan sog’lom va navqiron qon - hayot belgisi. Bu holatda ma’shuqa va yurt timsollari uyg’unlashib, bir butunlikni tashkil qiladi. Bundan keyin kelayotgan “hajr” va undan so’ng ishlatilgan “sarg’ardim” so’zi shoirning yor va diyordan ayrilig’ini ifodalabgina qolmay, shu ayriliqdan bag’ri qon bo’lgan shoirning shu ondagi va muttasil kechayotgan ruhiy holatini tasvirlashga bo’ysundirilgan. “Sarg’arish” – bemorlik. Bu ham – metafora (istiora). Bobur ayni shu so’z tagzaminiga o’zining ham yor, ham diyor ishqida tan bemor-u umid notavon bo’lgan qismati tarixini singdirib yuborgan. Baytning keyingi misrasidagi “lolaruh” istiorasi va “chehrayi zardim” birikmalarida ham oldingi misralardagi mazmunning mantiqiy davomini ko’ramiz. Bularning hammasi birlashib, baytda hech bir kutilmagan mubolag’ani yuzaga keltiradi. Shoir ana shunday usullar bilan har bir baytini bezab borishini boshqa g’azallarida ham uchratish mumkin. Chunonchi:

Labing bag’rimni qon qildi, ko’zumdin qon ravon qildi,

Nega holim yomon qildi, men andin bir so’rorim bor. [Bobur, 31]

Baytda mumtoz she’riyatda eng ko’p istifoda etilgan “lab” timsoli manzarga aylangan; ma’shuqaning labi, demakki, xuddi gulning endi ochilishga yaqinlashib qolgan g’unchasi misol va yoki oshiqqa jon bag’ishlaguvchi kalima uchun

juftlangan lablari singari oshiqning bag‘rini tilka-pora qilib tashlaydi, ko‘zidan qon ravon qiladi. Bu timsol o‘zidan keyin bir necha timsol va holatlarni ergashtirib keladi. Bu - yana tanosubning sinalgan ko‘rinishi. Lab qizil, inchinun oshiqning ma’shuqa labi shavqida ko‘zidan qip-qizil qon to‘kishi ham ishonarli. Modomiki, oshiq shunday mushkulot girdobiga tushibdimi, holining yomon bo‘lishi ham tabiiy; “so‘rorim” so‘zi – shakldosh so‘zning bir matnda ikki xil ma’noga ishora qilishi - iyhom. Iyhom – shubhaga solish demakdir. Bu o‘rinda mazkur so‘zni ikki xil ma’noda anglash mumkin. Birinchi galda, oshiq ma’shuqadan nima uchun bu holga tushganini bilmoqqa o‘tinmoqda. Ikkinchi tomondan, oshiq o‘z yoridan shafqat tilab, lablaridan o‘pmoqlikni iltijo qiladi. Bu birmuncha ochiq, botil tuyulsa ham, ayni o‘rinda oshiqning ma’shuqaga benihoya yaqinligini ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, baytdagi qofiyalar bayt mazmuniga pardozi bo‘lgan holda unga alohida ohang – musiqiylik bag‘ishlab, deyilmoqda bo‘lgan fikrning hazin va ravon bo‘lishiga, bir nafas bilan bayon qilinishiga olib kelgan.

Bir vaqtlar Boburning masnu’ she’rlarini tekshirgan zukko adabiyotshunos R.Vohidov bular she’rda san’atlar majmuasini keltirishgina bo‘lmay, muayyan g‘oyani yuzaga chiqarishda vosita bo‘lgan til birliklari ekanligini ta’kidlagan. [Vohidov, 41-45] Olimning yozishicha, “uning (Boburning – S.S.) bunday she’rlari shunchaki san’atpardozlik namunasi bo‘lmay, muayyan g‘oyani yuzaga chiqarish, ma’shuqaning siyratiga mos suvratini chizish, she’r ixlosmandi qalbida go‘zallikka nisbatan shavq-u zavq uyg‘otish, misralarning ta’sir quvvati va uzoq esda saqlanishini ta’minlash kabi ulug‘vor maqsadlar yo‘lida xizmat qiladi”. [Vohidov, 42]

Boburning bir masnu’sida yetakchi she’riy san’at sifatida takrir yoxud bargardonish (qaytarmoq, muayyan nizom asosida takrorlamoq, iltizomga yaqin) tasvir vositasi asosiy o‘ringa chiqadi. Sharq she’riyatida takror so‘zlarni aniq maqsadlar yo‘lida qo‘llash san’at darajasiga ko‘tarilgani ilgari ma’lum. Ammo bu o‘rinda takrorni su’iste’mol qilish she’rning badiiy mohiyatiga salbiy ta’sir qilishini ham aslo unutib bo‘lmaydi. Takror qachonki shoir maqsadiga to‘kis xizmat qilsagina, o‘zining vazifasini o‘tagan bo‘ladi. Adib Ahmad bir hikmatida “Ko‘ni bo‘l, ko‘ni qil, atin ko‘ni, Ko‘ni teyu bilsun xalayiqli sani” [Yugnakiy, 204] der ekan, “ko‘ni” so‘zini to‘rt marta takrorlaydi. Takror na shaklga, na mazmunga salbiy ta’sir etgan. Bilaks, she’rda birgina so‘zni aniq bir maqsad va nizom asosida takror ishlatib, to‘g‘rilik (rostlik, halollik, vijdonlilik) naqadar ulug‘ fazilat ekanligini ta’kidlashga muvaffaq bo‘lgan. Shunday ekan, takrirlik lingvopoetik unsur sifatida she’rdagi g‘oyaning aniq va ta’sirchan chiqishiga xizmat qilsagina, san’at darajasiga ko‘tarila oladi.

Bobur masnu’larida takrir aynan keltirilmaydi, balki tardi aks, tilshunoslikda esa xiazm (xiazm “...so‘z yoki so‘z birikmasini shu misraning o‘zida yoki badda teskari takrorlash san’atidir” – tardu aks). [Muqimova, 94] pardozida havola etiladi va ularda yuzaga kelgan ta’kidni ikki hissa yuqori darajada ifodalashga bo‘ysundiriladi:

*Tishing dur, labing marjon, qading gul, xating rayhon,
Yuzing hur, soching anbar, so‘zing mul, menging menon.*

*Menon menging, so'zing mul, anbar soching, yuzing hur,
Rayhon xating, qading gul, marjon labing, tishing dur. [Bobur,74]*

Masnu'da so'zlar emas, so'z birikmalari hamda sodda yig'iq gaplar guruhi ishtirok etgan. Birinchi bayt misrasi oxiridagi takrir moddasi ikkinchi bayt misrasi avvalida keladi. Masnu' talabi bo'yicha takrir qat'iy nizomga tayanishi lozim ekan, Boburning mazkur bo'lgan masnu'sida bir xil nizom o'xshatilmish va o'xshatish orasida, to'g'risi, mushabbah va mushabbah bihi orasida bo'lyapti. Avval ma'shuqaning o'xshatilayotgan bir a'zosi va keyin unga mos tashbeh havola etilmoqda. So'ngra esa bu tizim teskari qilib hammasida emas, ayrimlaridagina qaytarilyapti. Buni shunday tushunish mumkinki, birinchi va ikkinchi misradagi kalimalar uchinchi va to'rtinchi misralarda tahrirga uchraydi: xating rayhon – rayhon xating, labing marjon – marjon labing, soching anbar – anbar soching, menging menon – menon menging kabi. “Xiazm vositasida ohangdorlik kuchaytirilgan hamda o'quvchiga zavq bag'ishlab, fikrni tez va oson esda saqlab qolishiga xizmat qilgan”. [Muqimova,74] Shoirning yana bir o'ziga xosligi shundaki, misralar tuzilishida ham o'zgacha tus olganligi, ya'ni birinchi misra to'rtinchi misrada ters kelib, alohida ta'sirchanlikni hosil qiladi. Yanada to'g'risi, ikkinchi misrani tugallagan o'xshamish uchinchi misrani boshlab beradi va birinchi misrani boshlab bergan kalima bilan masnu' she'r yakun topadi. Yana bir mulohazaki, “yuzing xur”, “tishing dur”, “qading gul”, “so'zung mul” birikmalari tardi aksga uchramaydi. Buning ham sababi borga o'xshaydi. Agar bu kalimalar teskari takrorlanganida, kutilgan ma'no yuzaga chiqmay qolishi mumkin bo'lgan va shuning uchun Bobur ushbu o'rinda ikkala birikmani o'zgarishsiz qoldirgan. Masnu' to'rtlikdagi so'zlarning lug'aviy hamda badiiy ma'nolari ham (qat'iy o'xshatishlar asosida) manzarni vasfini to'laqonli idrok qilishga safarbar etilgan: ma'shuqaning tishlari misoli dursifat oppoq va yaltiroq, lablari esa marjondek, qaddi-qomati xuddi ochilgan guldek chiroyli, lablari ustidaga mayin tuklar yangi chiqqan rayhondek tekis va xushbo'y; yuzi jannat hurlarining chehrasi yanglig' chiroyli, sochi mushk rangi kabi qora va anbar hidli, so'zi kishini mast qilguvchi sharobga monand, mengi, ya'ni labi ustidagi qora xoli e'tiborni tortar darajada rang olgan, uni qora ham deb bo'lmaydi, ko'kka tovin, ko'k esa kishining jon taslim qilayotgan jasadiga kuch-u quvvat bag'ishlaydi. Albatta, keltirganimiz sharh nisbiy. Boburning ushbu masnu'sidan ma'shuqa vasfining xos jihatlarini topish mumkin. Ma'shuqa surati va siyrati, uning takrorlanmas go'zalligini bilish uchun esa ilohiy bir ma'rifat kerak, masnu' she'r zamiriga yashiringan uxroviy ma'no va so'z tovlanishni tushunib yetish zarur.

Shoir Furqatning peyzaj lirikasida ajoyib bir g'azal mavjud - shartli ravishda “Fasli navbahor o'ldi” deyiladi. Bu g'azalning mavzusi va tasvir yo'nalishi Amiriy zamonlariga borib taqaladi. Fazliy, Amiriy, Xotif, Ado singari shoirlar ham shu mazmun va shaklda g'azallar bitganlar. Furqatniki, yengilroq qaralsa, ana shu g'azalga tatabbu', nazira, o'xshatma. Biroq ma'nida va tagma'noning kuchliligida, istifoda qilingan so'zlarning ta'sirchanligi hamda obrazliligida. Matnga lingvopoetik maqsadda nazar tashlanganida, Furqat hammasidan ilgarilab ketgandek taassurot uyg'otadi. Negaki, Furqat istifoda etgan poetik so'zlar, badiiy

tilni yuzaga keltiruvchi yana boshqa til unsurlari she'rdagi estetik ta'sirchanlikni haddi a'losida bo'lishini ta'min etgan. G'azalning matla'si bunday:

Fasli navbahor o'ldi, ketibon zimistonlar,

Do'stlar g'animatdur, sayr eting gulistonlar. [Furqat, 198]

Zohiran qaralsa, gap tabiatdagi o'zgarishlar – zimiston (qish) o'z o'rnini bahorga bo'shatib berayotganligi, bahor ham o'tkinchi, qisqa fursatda o'tib ketadi, shuning uchun gulistonlarni sayr etib qoling, deganday chaqiriq, da'vat bayt mazmuniga singdirilganday. Baytning poetik jihatdan mukammalligini birinchi galda “fasli navbahor”, “ketibon zimistonlar” singari inversiyaga uchragan ziddosh birliklar ta'minlagan. Agar Furqat baytni bu tariqa shakllantirmaganida, ehtimol, she'rning ibtidosidanoq diqqatni tortishga moyillik so'nishi mumkin bo'lardi. Bayt mazmunida Insonning bu yorug' dunyoga nima uchun kelganligi, bolalik davri (zimiston) tugab, navqironlik, yoshlik, umrni, uning navqironlik davrini qadrlashga yetganligi (fasli navbahor), shuning uchun berilgan g'animat umrni risoladagidek o'tkazishga, Allohni tanish, Uning ma'rifatini egallab, o'zligini anglashga sa'y qilishi lozimligi uqtirilyaptimikan?! Axir, Allohning Insonga ato etgan umrni sevish, uning qadriga yetish, dunyoga aldanmaslik necha zamonlardan buyon nosehlar tomonidan uqtirib kelinadi-ku! Hazrat Navoiy tomonidan bejiz “Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz”, deyilmagan-ku! Darhaqiqat, bu dunyo aldamchi – Insonni xuddi o'n besh kunlik kelinchakdek o'ziga maftun etadi, yuragida fitnalar uyg'otadi, Yaratgan buyurgandek yashashdan chalg'itadi. Buni g'azalning keyingi baytlari ham dalillaydi:

Subhidam tushib shabnam, bo'ldi sabzalar xurram,

Gul uza tomib kam-kam yog'di abri naysonlar. [Furqat, 198]

“Subhidam” – tong, tunning eng oxir nuqtasi, demakki, kunning ibtidosi; Kun esa insonning butun umri. Kunning sabzalari (ko'm-ko'k maysalari) umrning yoshlik bilan bog'liq bosqichlari. Tong chog'i shabnam tushishi naqadar go'zallik: ko'klam bulutlari bahoriy yomg'irlarni yog'ishi, gullardan tomayotgan tomchilar xuddi shabnamdek mavjud go'zallikka yanada chiroy baxsh etadi.

Nastaran yuvib yuzni, yosumon tuzib o'zni,

Nargis ochubon ko'zni intizori yoronlar. [Furqat, 198]

Mazkur bayt o'zidan oldingi baytning mantiqiy davomi. Shoir tevarak-atrof go'zalligiga yana urg'u bermoqda. Dunyo yanada chiroy ochib, insonni chalg'ityapti: nastaran guli yuzini yuvib, yosuman pardoz-andoz qilib, sochlarini tarab, “g'ozadan yuzlarda tobu, o'smadin qoshlar tarang” (Furqatning satri) bo'lib, nargis ohu ko'zlaridek ko'zlarini yumib-ochib, Insonni o'ziga chorlayapti; uni ma'rifatdan chalg'itishga, zohiriy go'zalliklar orqali aldashga harakat qilyapti. Bunga aldanish oson. Nechukkim, zohiriy, yolg'on dunyoga aldanish Insonning qonida bor. Biroq Furqatning lirik qahramoni bunday emas. Keyingi baytlarda ham shoir o'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan mo'l oziqlanib, takrorlanmas timsollar olamini yaratadi. Natijada asarning badiiy tili nafaqat bahorning manzarasi xususida kommunikativ ma'lumot beradi, balki g'azaldagi har bir so'z, har bir kalima estetik quvvati bilan takrorlanmas ta'sirchanlikni yuzaga keltiradi.

She'riy nutq o'zining siriqligi, jozibadorligi, metaforalarga to'yinganligi, emotsional-ekspressiv bo'yoqdorligi bilan prozaik nutqdan ajaralib turishi ma'lum. She'riy nutqda so'zlar denotativ ma'no ifodalishi bilan bir qatorda, asosan, konnotativ ma'no yetakchiligidagi qaror topishi mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgan. "Poeziya mohiyatan turli ifoda usullariga, badiiy tashbehlariga asoslanuvchi obrazli, ta'sirchan ifoda vositasidir. Obrazlilik va ekspressivlik ko'lamining poeziyada bo'rtibroq turishi ham bevosita she'riyatning tasviriy vositalariga asoslanishi, fikrni lo'nda, ifodali va ixcham formada ifodalanishi samarasidir". [Umurqulov, 11] Bu jarayon lirik she'riyatda bo'rtib ko'rinsa, epik poeziyada nisbatan sustroq ko'zga tashlanadi. Sustroq deyilganida emotsionallik va ekspressivlik (baholash me'yori)ning kamligi deb tushunilmasligi lozim. Mumtoz adabiyot tarixida shunday epik asarlar borki, ular xuddi lirik she'r o'qilganidek mutolaa qilinadi. Ularda leksik vositalar o'z va ko'chma ma'nolarda shu qadar mahorat bilan istifoda qilinadiki, bularni anglab yetish, so'z tagidagi ma'nolarni tushunish uchun alohida bilim, alohida zakovat talab etiladi. O'tmishda rumiyxonlik, navoiyxonlik, bedilxonlik, fuzuliyxonlik singarilarning paydo bo'lishi, qator badiiy san'atlarning ma'nolarini chaqish uchun maxsus ilm darkorligini e'tirof etilishi xuddi shu poetik nutqning murakkabliklaridan, so'zlarning serqatlamliligi va serma'noliklaridan yuzaga kelgan.

ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар // Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2011. – Б.724.
2. Аҳмад Югнакий. Ҳибат ул-ҳақойиқ.// Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. 1-жилд. Т.: Фан. 2003. - - Б.204.
3. Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. – Т.:
4. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Назм дурдоналари- Т.: Шарқ, 1996. . – Б.74.
5. Горелкова М.И., Магомедова Д.М. Лингвистический анализ художественного текста. – М.: Русский язык, 1989. – Стр. 5.
6. Йўлдошев М.Бадий матн лингвопоэтикаси. – Т.: 2007. –Б. 95
7. Muqimova Z. O'tkir Hoshimov asarlari tilining lingvopoetik va lingvomadaniy xususiyatlari: filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2020. –Б. 94.
8. Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. –Т.: Фан, 1990. – Б.11
9. Фурқат. Танланган асарлар. Икки томлик. Биринчи том. – Т.: Ўздавнашр, 1960. – Б.198.

O'ZBEK DRAMALARIDA AFFIKSAL, LEKSIK VA LEKSIK-AFFIKSAL PLEONAZMNING QO'LLANILISHI

Dilnoza Xasan qizi YO'LDOSHEVA,

*Navoiy innovatsiyalar universiteti Filologiya va tillarni o'qitish kafedrası,
o'qituvchisi*

She'riyat mulkida o'lmas asarlar yaratib, butun dunyoni lol etgan, o'zining ta'biri bilan aytganda, Xitoydan Xurosongacha bo'lgan yerlarni turk nazmida

yaqqalam aylagan buyuk shoir nizomiddin Mir Alisher hazratlari hamisha hurmat va ehtirom ila tilga olinadi. Xususan, Navoiy haqida yozilgan asarlar ham adabiyotda va tilda o'rganilayotgan muhim manba bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunda o'zbek adabiy tili yuksak taraqqiy etgan adabiy tillardan biriga aylandi. Adabiy asarlarning lisoniy xususiyatlarini o'rganish buguni kunning muhim vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda. Navoiy hayot yo'liga bag'ishlangan asarlar o'zbek adabiyotida salmoqli. Bugungi maqolamizda Iqbol Mirzoning "Samarqand sayqali" dramasida qo'llanilgan ortiqchalilik xususida to'xtalamiz.

Poetik nutq badiiy niyatni aniq, obrazli ifodalashni talab qiladi, leksik ortiqchalik asosida biror ma'noni to'laroq, yorqinroq ifodalash uchun sinonimlarning ketma-ket qo'llanishi bunga to'la mos keladi. Sinonimlarning "funksional aspekti bevosita turli matnlarda qo'llanishi va bir-birini almashtira olish va olmasligini, bunday almashtirishlardan yuzaga keladigan samara, ularning muallif ijodiy va g'oyaviy niyatining amalga oshuviga xizmati bilan aniqlanadi" [1]. Adabiy asarlarda bir so'z ifodalayotgan ma'noning ikkinchi so'z ma'nosi bilan takrorlash leksik ortiqchalik sanalib, bunday o'rinlarda lingvopoetik funksiya ko'zda tutilgan bo'ladi.

Badiiy asar, dramalarda ko'pincha so'zlarning ma'nosi o'xshatish qurilmasi asosida tasvirlanadi, "...o'xshatish qurilmasi tarkibidagi asos nimani anglatga (odatda, u belgi bildiradi), etalon ham ma'nosining shunday belgi bildirishiga ko'ra qurilma tarkibiga kiritiladi"[2].

Yengil hoyu havas, vujud sevgisi [3].

Bu kabi o'xshatish qurilmalari tarkibida xususiyat nomi ya'ni "yengil" (sifatlovchi) asos sifatida, shu xususiyat mansub bo'lgan narsa-predmet nomi "hoyu havas" leksemasi (aniqlanmish) etalon sifatida keltiriladi.

Agar sinonim yoki semantik jihatdan yaqin bo'lgan so'zlar leksik birlik sifatida birikib o'zaro aniqlovchi-aniqlanmish munosabatida bo'lsa, ular leksik pleonazmlar hisoblanadi [4].

Munofiq nokaslar qutqusi sabab

Yer yuzi aylanmish jang maydoniga.

Bunday tavnologik xarakterdagi pleonazmlar ko'pincha boshqa tillardan qabul qilingan so'zning ma'nosini anglamaslik yoki hisobga olmaslik natijasida, unga shu so'zning o'zbekcha sinonimini kontakt holatda qo'llash tufayli vujudga keladi. Pleonazm—bir xil yoki sinonimik ifoda vositalarining, ya'ni til birliklarining semantik jihatdan takror holda bo'lishidir. Bunday ortiqchalik asosan stilistik funksiya bajarishga asoslanadi. Ma'lumki, pleonazm ekonomiya prinsipiga zid hodisadir. Biroq shunga qaramay u stilistikada muhim o'rinni egallaydi. Bu hodisa ko'pincha og'zaki va badiiy nutqda kuzatiladi.

Dramada leksik pleonazm bilan birga affiksali pleonazmni ham ko'plab uchratishimiz mumkin. Affiksali pleonazm bir xil leksik yoki grammatik: ma'noni bildiruvchi affikslarning takror qo'llanishi natijasida sodir bo'ladi. Takrorlanayotgan affiksning distribuniyasi ikki holatda *distant* va *kontakt* holatlarda bo'lishi mumkin.

Affikslarning distant va kontakt holatda joylashuviga ko‘ra affiksial pleonazmni ikki guruhga bo‘lish mumkin: 1. Affikslarning distant pozitsiyada joylashib pleonastik qo‘llanishi; 2. Affikslarning kontakt holatda joylashib pleonastik qo‘llanishi. Affiksial pleonazmning bu tipida takrorlanayotgan affikslar formal holatda bo‘lsa-da, “sintagmalarning har bir qismiga alohida qo‘shiladi. Xuddi ana shu hodisalar hammadan ko‘proq grammatika va stilistikaning chegarasida turadi”[5].

Shunisi xarakterliki, affiksial pleonazmning bu tipida pleonastik qo‘llanayotgan affiks tamoman ortiqcha bo‘lmaydi, balki ular stilistik funktsiya bajaradi. Bu hol o‘zbek tilida gapning uyushiq bo‘laklarida ko‘plab uchraydi. Bir xil affiks har bir uyushiq bo‘lakda takrorlanib, uyushiq bo‘laklar forma jihatidan ham tenglikka ega bo‘ladi. Bunda pleonastik qo‘llanayotgan affiks uyushiq bo‘laklarning har birining mustaqilligini, ayrimligini chizib, ta’kid bilan ko‘rsatish uchun xizmat qiladi.

To‘fonlar , dovullar dag‘dag‘a solar.

Uyushiq bo‘laklarda (otlar uyushib kelganda) affikslarning pleonastik qo‘llanishi asosan uch xil grammatik kategoriya: son, kelishik va egalik kategoriyasi ko‘rsatkichlari doirasida kuzatiladi.

Egalik:

*Mushfig ‘im, munisim, g‘ambodam onam!..
Mening ham vazifam, burchim bor ayon.*

Kelishik:

Tushum kelishigi: Ipak sabolari, yayloqlarini,
To‘lin oydek kumush olmalarini...
Unutib bo‘lurmi madrasalarni,
Falakka nur sochgan maqbaralarni?
Jo‘nalish kelishigi: Shunday nozaninga, shunday sevgiga
Bulardan ne naf bor ulusga, fanga

Ko‘plik:

Xabar topmaganmi xesh-aqrabolar?
Qaydadir huzurbaxsh bodi sabolar?
Qaydadir ipakdek sirg‘algan nasim?
Qaydadir rayhonbo‘y xush shabbodalar?

Kelishik + egalik:

Dilimni, tilimni bog‘lagan pari.

Uyushib kelgan otlarda -lar affiksi ikki xil ishlatiladi:

1. Uyushuvchilarning har biriga qo‘shiladi va leksemaning semantikasiga bog‘liq holda har xil ma’noni ifodalaydi:

Ajib **naqshlari, peshravlari** bor.

2. Uyushuvchilarga yaxlitlovchi forma sifatida qo‘shiladi, bunda -lar affiksi ko‘plik, jamlash ma’nosini ifodalaydi:

Bog‘i Jahonnamo, bog‘i Dilkusho,
Bog‘i Baland... bori temuriy **bog‘lar**...

Bunday qo'llanishlarning faqat birinchisidagina pleonastik qo'llanish kuzatiladi. Bundan tashqari, -lari affiksi hurmat ma'nosini ifodalash uchun ham qo'llaniladi:

Lutfiy hazrat**lari** shu baytingizga

Almashmoq bo'lganmi butun ijodin?

-lar affiksi ma'no kuchaytirish uchun ham xizmat qiladi. Quyidagi misolda *buncha* miqdor olmoshi orqali ma'noning kuchayganligi, unga -lar affiksini qo'shib belgi miqdori yanada orttirilganligini ko'rish mumkin:

Oh, bunchalar go'zal, bunchalar mahzun!

Kelishik va egalik affikslarining uyushiq bo'laklarda pleonastik qo'llanishi ham ma'lum xususiyatlarga ega. Kelishik va egalik kategoriya ko'rsatkichlarining uyushiq bo'laklarda pleonastik qo'llanishi, ko'plik affiksi (-lar) ning pleonastik qo'llanishidan asosan ikki xususiyati bilan ajralib turadi. Birinchidan, uyushiq bo'laklarning har birida kelishik yoki egalik affikslari takrorlansa har doim ham pleonastik qo'llanishni uchratamiz, ikkinchidan, kelishik va egalik affikslarining uyushiq bo'laklarda pleonastik qo'llanishi -lar affiksiga qaraganda nutq situatsiyasida, kontekstda aniqroq ko'rinib turadi. Kelishik kategoriyasi sintaktik munosabat ko'rsatish uchun xizmat qilib, bu affikslar so'zning morfematik tarkibida odatda tugallovchi forma bo'ladi [6].

Shu sababli ham kelishik affiksi ko'pincha uyushiq bo'laklarning har biriga alohida-alohida qo'shib pleonastik qo'llanishni vujudga keltiradi. Bu hol barcha kelishiklar doirasida uchrashi mumkin. Ba'zan gapda bog'lovchi takrorlansa, odatda uyushiq bo'laklardagi son, kelishik va egalik affikslari ham takrorlanadi.

Na farzand diydori, na ro'zg'or tinchi,

Na dil halovati, na orzu havas.

Juft so'zlarda affikslarning distant holatda pleonastik qo'llanishi ularning har bir komponentiga alohida-alohida affiks qo'shish orqali vujudga keladi: *bolali-chaqali, sonsiz-sanoqsiz, qo'llik-oyoqli* kabi.

Bizningcha bunday pleonastik qo'llanishning asosiy sabablari quyidagilar:

1. Ma'lumki, juft so'zlarning komponentlari bir- biriga tobe bo'lmaydi, ularning har biri nisbiy mustaqillikka, o'z urg'usiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, ular grammatik forma jihatdan ham tenglikka intiladi, natijada ma'lum bir affiks pleonastik ravishda bo'lsa ham har ikki komponentga qo'shiladi: *sog'lik-salomatlik* tarzida.

2. Juft so'zda uning ikkala komponenti bir so'z turkumiga oid bo'ladi. Ot + ot modelidagi juft so'zlarga -li affiksi qo'shilishi bilan so'nggi komponent sifatga aylanadi: *ota-onali* kabi. Odatda ikki so'z turkumiga mansub bo'lgan so'zlardan juft so'z tashkil topa olmaydi. Shu sababli birinchi komponentga ham -li affiksi pleonastik tarzda qo'shiladi: *uyli-joyli,otali-onali, qo'lli-oyoqli, aqlli-hushli* shaklida.

3. Juft so'zlarning komponentlarini alohida-alohida chizib ko'rsatish, ta'kidlash uchun, ya'ni stilistik talab natijasida affikslar pleonastik qo'llanadi.

Uyli-joyli qilib, juftini topib,

Ro'zg'or qurishiga bosh bo'lmog'i shart.

Dramalarning boshqa adabiy asarlardan farqli jihatlarini til birliklarining poetik mazmun salmog'ini oshirish maqsadida nisbatan ortiqcha ishlatilishida ko'rinadi. Leksik ortiqchalikda sinonimik munosabatdagi leksemalarning, ya'ni til birliklarining semantik jihatdan takror holda kelishi mazmunni aniqlashtirish, takrorning oldini olish maqsadi bilan hosil qilinadi. Quyidagi misolda predmetning ko'pligini ifodalash uchun g'ujg'on leksemasidan ham ko'plik formasidan ya'ni - lar affiksida foydalanilgan:

Oy to'garagida **g'ujg'on** yulduzlar

Va yana **necha** el, **uluslar** sargardon.

Yuqorida keltirilgan misrada leksik-affiksial ko'plik formasi birgalikda qo'llanilgan.

Shunday qilib, affiksial va leksik-affiksial pleonazmlarni o'rganish, uning tiplarini, qonuniyatlarini ishlab chiqish amaliy ahamiyatga ega bo'lish bilan bir qatorda, tilning nazariy tomoni uchun ham, uning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash uchun ham juda muhimdir.

ADABIYOTLAR:

- 1.Shamsiddinov H. O'zbek tilida so'zlarning funksional-semantik sinonimlari: Filol. fan. d-ri ... diss. avtoref. – T., 1999. 5-b.
- 2.Тоғиматов Х. Сифат семемасининг реаллашувида контекст: Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 2007. – Б.19.
- 3.Iqbol Mirzo.Samarqand sayqali.“Sharq yulduzi”, 2016. 3-son. 52-b.
- 4.Аджибекова Г. Д. Место плеоназмов в системе средств языковой избмточности (на материале современного казахского язм-к а) //С Т. 1982.– Б.59.
- 5.Благова Г. Ф. Тюркский аффиксальнга плеоназм в сравни-тельно-историческом и ареально-лингвистическом освещении // ВЯ.1968.№ 6.Б 82.
- 6.Mahkamov N.Adabiy norma va pleonazm.T.: Fan,1988.17-b.

ALISHER NAVOIY VA SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDAGI AYRIM FRAZEMALARNING SOTSIOPRAGMATIK TAVSIFI

Bibisora Akram qizi AXTAMOVA,
NDU 2-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ulug' o'zbek shoiri Hazrat Navoiy va o'z davrining salohiyatli ijodkorlaridan bo'lgan Sadriddin Ayniy asarlarida uchraydigan ayrim frazemalar va ularning sotsiopragmatik tadqiqiga e'tibor qaratilgan bo'lib, ulardagi nutqiy o'ziga xoslik va farqlar ham keltirib o'tilgan. Navoiy asarlarida ma'rifatparvarlik va tasavvufiy g'oyalar ilgari surilgan frazemalar keltirilgan bo'lsa, Ayniy frazemalardan ijtimoiy vaziyatni ochib berishda foydalangani sotsiopragmatik tahlil jarayonida oydinlashadi.

Kalit soʻzlar: frazema, nutqiy vaziyat, sotsiopragmatik tavsif, ijtimoiy tabaqa, kommunikant.

Hozirgi paytda dunyo tilshunosligining diqqat markazida turli xil mavzular bilan birga sotsiopragmatika ham turibdi. Bu fan sotsiolingvistikaning ham lisoniy, ham ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tadqiq etuvchi tarmogʻi hisoblanadi. Sotsiopragmatika sotsiologiya va pragmatika, sotsiolingvistika va pragmalingvistika kabi yoʻnalishlar bilan kesishgan holda antroposentrik tilshunoslikning maʼlum bir qirrasida joylashadi. Sotsiopragmatik tahlil deganda muloqot vaziyati bilan til xususiyatlari oʻzaro aloqada boʻlgan holatda nutq ishtirokchilarining ijtimoiy holati, ijtimoiy vaziyati, ularning kommunikativ maqsadi va sotsial maqomi ham oʻrganiladi.

Alisher Navoiy asarlari nafaqat badiiy qiymatga ega, balki uning asarlaridagi til xususiyatlar tilshunoslikning har xil sohalarini kengroq tadqiq qilish uchun boy meros boʻlib xizmat qiladi. Oʻz davrining salohiyatli qalamkashlaridan biri boʻlgan Sadridin Ayniy ijodida ham nutqiy kommunikativ jarayon alohida koʻzga tashlanadi. Shu boisdan ikki yetuk ijodkor asarlarining sotsiopragmatik tavsifiga alohida eʼtibor qaratsak, maqsadga muvofiq boʻladi.

Alisher Navoiy va Sadridin Ayniy asarlarida frazeologik birliklarning sotsiopragmatik xususiyatlari turli xil kommunikativ muloqot vaziyatida koʻrinadi va ulardagi aksariyat frazeologik birliklar eski qatlamga oid hisoblanadi. Ularning asarlarida uchraydigan frazeologizmlarning koʻchma maʼnolari va sotsiopragmatik xususiyatlarini nutq situatsiyasi yoki kontekst yordamida oydinlashtirish mumkin. Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida :

Yo ulus ichra yuz suyun sochib

Yo olibon boshini bir yon qochib.

Baytda qoʻllanilgan *boshini olib qochmoq* iborasi ijtimoiy jihatdan barcha tashvishlardan qutulmoq yoki ularni tark etmoq kabi maʼnolarni namoyon qiladi. Frazeologik birlikdan yaxlitlanishicha anglashiladigan maʼno uning tarkibidagi soʻz komponentlariga xos leksik maʼnolarining oddiy yigʻindisiga teng boʻlmaydi, iboraning maʼnosi umumlashma maʼno - maxraj maʼno sifatida namoyon boʻladi.[2,3-b.]

Navoiy gʻazallarida asosan lirik qahramonning ijtimoiy va ruhiy holati tasviri keltiriladi, ammo uning ayrim gʻazallarida turli ijtimoiy qatlam vakillarini tasvirlashda ularning har qaysiga xos uslubiy nutqdan foydalanadi. Masalan, amaldor yoki podshoh yoxud bir valiahdga atalgan misralarida ulugʻvorlik, rasmiy nutqiy akti sezilsa, oddiy xalq vakillariga nisbatan oddiy, jonli va koʻpincha ogʻzaki nutqqa xos boʻlgan muloqotni uchratish mumkin. Shu bilan bir qatorda shoirlar va ilm ahllariga yoʻnaltirilgan nutqiy muloqot vaziyatida esa chuqur falsafiy, tasavvufiy qarashlarni aks ettiradi. Buni sotsiopragmatik tahlil jarayonida frazemalarning semaviy turlaridan ham bilamiz:

Lahza-lahza chiqdim-u chekdim yoʻlida intizor,

Keldi jon ogʻzingʻa-yu , ul shoʻxi badxoʻ kelmadi .

Hozirgi adabiy tilimizda ham *jonim og'zimga keldi* kabi jumlaning ishlatilishi. Uning ma'naviy xususiyatlaridan biri *qiynalmoq, bezor bo'lmoq* semasini anglatadi, boshqa bir o'rinlarda *qo'rqmoq, esi chiqib ketmoq* kabi ma'nolarni ifodalaydi. "Jonning shoirlar ko'p qo'llaydigan ikkinchi ramziy nomi "ravon" (yurib turuvchi) ekanini e'tiborga olsak, jon jismga qarama-qarshi o'laroq doimo harakatdagi narsa, ya'ni hayot ramzi deb qaralgani ma'lum bo'ladi. Shuning uchun u jism bilan kurashadi. O'z asli – mutlaq Ruhga borib qo'shilishga intiladi, deya talqin qilingan. "*Jonim og'zimga keldi*", "*jon rishtasi*", "*joni kirdi*" qabilidagi xalq iboralari ham shu tasavvurlar ta'sirida tug'ilgan.[4,193-b.] Sadridin Ayniy ushbu frazemani bir muloqot o'rnida *joni halqumga kelmoq* shaklida keltiradi:

- Qanday sabab bilan shahardagi javob muomalalariningizni tashlab qishloqqa chiqdingiz? – Choy buyuring, bir-ikki piyola choy ichib, ham hordig'imni chiqaray, ham qorinni siz dasturxonga qo'yadigan taomlarni shirirish uchun tayyorlay, biroz dam olganimdan keyin, qishloqqa chiqishimning sababini aytib beraman. Bir tosh yo'lni piyoda bosib, *jonim halqumimga kela yozdi*. [1,27-b.] Sadridin Ayniy yuqoridagi frazemani o'z qahramoni Qori-Ishkambaning ayni nutqiy vaziyatdagi jismoniy holatini ifodalashda foyalanadi.

Bu bir necha so'z *quloqqa olg'il*,

Balkim necha dur *quloqqa solg'il* [6,37-b.] *Quloqqa olmoq, quloqqa solmoq, quloq solmoq* frazemalari eshitmoq semasidan tashqari e'tibor bermoq, diqqat qilmoq, amal qilmoq kabi ma'nolarda ham keladi. Navoiy yuqoridagi baytlarda qo'llagan *quloqqa solmoq* iborasi bugungi kundagi *quloq solmoq shaklidagi* iboraning grammatik sayqallangan shakli bo'lib, adresantning ruhiy holatini ham bildirib kelgan va uni maslahat ma'nosidagi nutqiy akt sifatida pand-nasihati ma'nosida kelganini ko'ramiz. Sadridin Ayniy asarida ham bu kabi iborani uchratish mumkin:

Kattalarning gapga *quloq solmaganlarini*, hatto o'z tomoniga qiyos boqmaganlarini ko'rgan Bibi-Dahboshi bolalar o'rniga "kattalar"ni qarg'ay boshladi:

– Ilohi pul va molingiz o'g'rilarga, qaroqchilarga nasib etsin, kattalar. Bibi-Dahboshining o'shancha yalinib-yolvorishlariga *quloq solmagan* va uning arzdodini eshitmaganday bo'lgan "kattalar" uning bu qadar qarg'ishlarini ham eshitmaganday bo'lib keta olmasdilar. Chunki ular o'zlarini eshitmaganlikka salsalar ham, boshqa o'tkinchilar eshitayotirlar va ko'rayotirlarki, bu jinni xotin shaharning kattalarini qanday masxara qilmoqda, shohi va ipakli choponlariga qaramasdan ularni tuproqqa bulg'ab, balchiqqa belamoqda. [1,63-b.] Ushbu nutqiy muloqot vaziyatidan ma'lum bo'ladiki, "kattalar" deb nomlangan adresat (tinglovchi)lar ayolning gaplariga *quloq solmagan* edilar, ammo boshqa bevosita nutq ishtirokchilarining oldida hurmatlarining oyoqosti bo'lishiga qarab turolmaydilar. Nutqiy sharoit natijada adresantning nutqiga *quloq solishga* majbur bo'lishadi.

"Hayrat ul-abror" dagi ushbu baytga e'tibor qaratsak :

Silkibon ul yaxshi-yu yomonga yeng,

Aylab ulus yo'qina borini teng.

Baytdagi *yeng silkimoq* frazemasini uchraydi, ya'ni e'tibor bermaslik kabi ma'noda keladi. Navoiy bu kabi iboralardan ziddiyatli muloqot vaziyatida umunli foylanadi.

Bundan tashqari Navoiy qo'llangan iboralar hurmat va ehtirom, ishonitirish, adresatga ta'sir o'tkazish kabi muloqot strategiyalarini ham ifodalaydi.

Demak, bu frazemalar shoir ijodida semantik tomondan umumlashgan ko'chma ma'no ifodalasa, grammatik tomondan ularning butunligi komponentlarning o'zaro birikuvi va baytda ham shu tarkibni saqlab qolishi bilan izohlanadi, shoir nutqining didaktik xususiyatlarini kuchaytirib keladi. Sadridin Ayniy asarlaridagi iboralar esa o'zi yashagan davr muloqot xulqiga mos bo'lib, u asosan, ijtimoiy tabaqalarning (boy va kambag'al, xo'jayin va xizmatkor-qul) muloqot jarayonida keng foydalanilib, adresant va adresatning hayotiy tajribasiga, asoslanib o'z davrining ijtimoiy muammolarini ochib berishda yaxlit til birligi sifatida qo'llanadi. Frazologizmlarning ichki ma'nosi va ichki tabiati sotsiopragsmatik tahlil jarayonida yuzaga chiqadi, sotsiopragsmatik belgilarni e'tiborga olib nutqning jo'yallilik tamoyilini bajarishda frazemalarning o'rnini alohida ekanini bilishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Sadridin Ayniy. Sudxo'ring o'limi.—Toshkent,1982.
2. Rahmatullayev Sh.O'zbek tilining frazeologik lug'ati.— Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati,1992
3. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi.—Toshkent,2008
4. Komilov N. Ma'nolar olamiga safar.—Toshkent:Tamaddun,2012
5. Muhamedova S., Saparniyozova M. Matn lingvistikasi.—Toshkent,2011
6. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. —Toshkent, 2020

ALISHER NAVOIY IJODIDA UCHRAYDIGAN O'G'UZ SHEVASIGA OID BA'ZI KO'P MA'NOLI SO'ZLARNING TAHLILI

*Mohira Sobirovna SA'DULLAYEVA,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'g'uz lahjasida keng qo'llaniluvchi ba'zi asl turkiy polisemantik so'zlarning mohiyati, tavsifi va ularning turli asarlar, lug'atlarda kelishi haqida fikr yuritilgan. Jumladan, Alisher Navoiy ijodida uchraydigan so'zlar ham tahlilga tortilgan. O'xshash va farqli jihatlar O'zbek tilining izohli lug'ati, shuningdek, bugungi kunda hududlarda qay tarzda ishlatilishidagi ma'nolar bilan qiyoslab o'rganilgan.

Kalit so'zlar. Asl turkiy til, polisemiya, ko'p ma'noli so'z, o'g'uz, sheva, lahja, adabiy til, lug'at, leksema.

Ba'zi so'zlar tarixiy ifoda ko'rinishi va davrlar o'tishi bilan so'zlarning yangi ma'noga ko'chishi natijasida ko'p ma'noli so'zlarga aylangan. O'zaro fikr

almashuvi jarayonida bir soʻz bir necha maʼnoda qoʻllanishidan koʻp maʼnoli soʻzlar yuzaga keladi. Koʻp maʼnoli soʻzlarning qanday maʼnoda qoʻllanganligi va maʼnoni bildirishi matnda anglashiladi. Ammo soʻzdagi maʼno zanjiri uzilmay bir-biriga maʼno bogʻliqligini saqlab turadi. Maqolada asl turkiy tillarga xos boʻlgan soʻzlarning asosiy manbasi sifatida “Devon”da “oʻgʻuz” belgisi ostida qayd etilgan leksik birliklar bilan hozirgi oʻgʻuz shevalarida saqlangan koʻp maʼnoli leksik birliklar misolida qiyoslandi.

Oʻgʻuz shevasiga oid asl turkiy soʻzlar bilan bir qatorda, arab, fors, rus va boshqa tillardan oʻzlashgan polisemantik soʻzlar mavjud. Jumladan, Mahmud Qoshgʻariyning “Devoni lugʻotit turk” asaridagi ашлїк, эттї, бэклаттї, бәлли, ідіш, оғурланди, салтурдї, сартладї, сатғашдї, сїрт, тарїғ, тэк, токїндї, чакдї, қарақуш, қурт kabi soʻzlarni keltirib oʻtishimiz mumkin.

Эмми 1. Yaxshiladi, toʻgʻriladi, oʻngladi. 2. Jinsiy aloqa qildi (oʻgʻuz). 3. Biror narsani bajardi (oʻgʻuz) [1: 51]. Devonda leksik birliklarning birinchi maʼnosi vaqt oʻtishi bilan koʻpgina oʻgʻuz shevalaridan isteʼmoldan chiqib ketgan. (Bogʻot, Toʻrtkoʻl, Tuproqqalʼa, Xonqa tumanlarida saqlangan). Ammo oʻgʻuz shevalarida qolgan ikki maʼno toʻliq oʻz xususiyatini saqlab qolgan va XOʻShlarida эдмэк tarzida talaffuz qilinsa, BOʻShlarida *етмэк//едмэк* shaklida qoʻllanadi. Bu soʻz “Attuhfa”da *эмди* shaklida kelib, qildi maʼnosini bildirishi “Devon”dagi uchinchi maʼnoga mos keladi. [2:41] Bu leksema oʻzbek adabiy tilida mustaqil feʼl hisoblanmay, yordamchi feʼl holatiga kelgani qayd etilib, qoʻshma feʼl yasashda xizmat qilishi koʻrsatilgan. A.Navoiy asarlarida қилмоқ, бажармоқ; айтмоқ [3:711] kabi maʼnolarni ifodalagan.

Yoʻq edi odamiki bor etting,

Kishilik birla eʼtibor etting. [4: 5]

тэк– 1. Anchayin, shunchayin. 2. Jim (oʻgʻuz). [1: 260] Oʻzbek oʻgʻuz shevalarida *дэк* shaklida qoʻllanib, soʻzning birinchi maʼnosi isteʼmoldan chiqib, ikkinchisi “jim” maʼnosi barcha oʻgʻuz shevalarida faol qoʻllanadi. Oʻz navbatida oʻgʻuz shevalarida shu maʼnodan tashqari soʻzning bir nechta yangi maʼnolari yuzaga kelgan. 1. Gapirmaydigan, indamaydigan: Сїләр кәттә вәлп, дэк өтп вәлдім (BOʻSh; Qorakoʻl). 2. Ishlamaydigan, dangasa: Үнің ғізі дәккі (BOʻSh; Peshkoʻ). Bu soʻz A.Navoiy ijodida “tek” shaklida qoʻllanib oʻgʻuz shevalaridagi kabi jim, jim turmoq [3: 607] maʼnolarida qoʻllangan

Tonglagʻi kavsaruchun dersen bugun may ichmagil,

Tek tur, ey zohid Navoiy sen kibi noshiymudur.

қурт – 1. Qurt (hasharot). 2. Boʻri (oʻgʻuz). [1: 378] Bu polisemantik leksik birlik A.Navoiy asarlarida “Devon”dagi maʼnolardan tashqari keksa, qari, shuningdek, majoziy maʼnoda zoʻr, ayyor kabi maʼnolarda qoʻllagan. “Kelurnoma”da qurt, chuvalchang [4: 93] maʼnolari keltirilgan. Buxoro viloyatining Qorakoʻl tumani Arabxona qishlogʻida oʻgʻuzlar nutqida qurt “boʻri”, “qizilqurt”, “boʻrining bir turi”ni ifodalaydi. Masalan, Чопәның дүшүнә курт гирәр (Qorakoʻl, Arabxona); Шу гежә сүрийә (сурувга) қызылқурт йәнәп, ики қойунны ийип гидипдир (Qorakoʻl, Qoraqulonchi). Mahmud Qoshgʻariy qayd etgan ikki maʼno ham hozir oʻgʻuz lahjasining barcha shevalarida uchraydi. Shuningdek, hashorot

Jahon adabiyoti xazinasiga bebaho durdona bo‘lib qo‘shilgan klassik meros asrlar davomida avlodlarni tarbiyalab keldi va bundan buyon ham shunday ulug‘vor vazifani ado etaveradi. Alisher Navoiy o‘lmas asarlarni yaratib Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati tarixida o‘zining falsafiy-estetik, ma’rifiy qarashlari, g‘oyalari bilan katta falsafiy maktab yaratdi. Ulug‘ mutafakkir va insonparvar zot o‘zidan oldin o‘tgan Ahmad Yassaviy, Sakkokiy, Xorazmiy, Lutfiy singari salaflaridan tortib, zamondosh ijodkorlarni ham o‘z nazaridan qoldirmay, hurmat-ehtirom bilan tilga oladi va falsafa tarixi va va o‘sha davrdagi falsafiy qarashlarini aks ettirgan bir qator asarlarni yozib, adabiy tanqidchi, faylasuf-mutafakkir buyuk falsafiy asar qoldirdi. “Xamsa” dostoni tarkibiga kiruvchi “Sab’ai sayyor” dostonining hamd bobida quyidagilar keltirilgan:

Yo‘q edi odamiki bor etting,

Kishilik birla e’tibor etting.

Yo‘q ham etsang ani-o‘q etgungdur,

Bor qilgungduru yo‘q etgungdur. [1.277]

Ya’ni sen yo‘q odamni bor etib insonga e’tibor qilding. Uni bor qilish ham yo‘q qilish ham senga xosdir. Haqning bu ishlariga bandaning aqli ojizlik qiladi. Darhaqiqat, yo‘qlikni mavjud aylamoq va mavjudotni nobud aylamoqning nimadaligini inson bilmaydi. U faqat Olloh yaratgan narsalarga lol qoluvchi, ojizdir.

Asarda insonning hayotda tutgan o‘rni, borliqni yaratish va rivojlantirishga asos ekanligi falsafiy mushahada va dalillar asosida ochib berilgan.

Erkin Vohidov: “Alisher Navoiy misralarida nafaqat go‘zal tashbehlar, teran falsafiy o‘ylar mavjud, balki aqlni lol etuvchi sehr, samoviy ohang bor,” degan edi. Yuqoridagi misralarda ham bu holatni kuzatishimiz mumkin.. Dostonda ishq savdosi butun vujudini mahv qilgan oshiq holatining ifodasi tasvirlangan.

*Ishq sensen dog'iyu oshiqsen,
Yana ma'shuqluqqa loyiqsen.
Ayni ma'shuqluqda jilvai zot,
O'zini ko'rgali tilab mir'ot [1.279]*

Ishq sening o'zing, oshiq ham sen-sen. Sevilmoq loyiqi ham sen-sen. Jilvali zot ayni ma'shuqlikda o'zini ko'rish uchun ko'zgu tilaydi.

Tasavvufiy dunyoqarashnig falsafiy zaminida Xudo jahonning tashqarisida mavjud bo'lgan bir sabab emas, u olam bilan ayrilmas birlik sifatida qaraladi.

*Sensenu sendin o'zga xud nima yo'q,
Gar ko'runsa sen o'lg'ung ul nima-o'q.
Hech nima yo'q sen eding mavjud,
Ham sen ulg'ung bori bo'lub nobud.[1.280]*

Sen borsen, sendan o'zga hech narsa yo'q, agar ko'rinsa ham unda sen mavjudsen. Hech narsa yo'q edi, sen mavjud etting. Sen barhayot zotsen, qolganlari nobudlikka mahkumdir.

Hazrat Navoiy fikricha, dunyodagi hamma nafosat olami insonlarga xizmat qilishga qaratilgan bo'lib, bu nafosatning butun nozik qirralari va jabhalari Xudoning jamolida aks etadi. Insonning qadr qimmatini uning mol-muliki, zeb-ziynati, mansabi, ijtimoiy kelib chiqishi bilan emas, balki uning ma'naviy qiyofasi, axloqiy sifatleri elga qanchalik naf tegishi bilan belgilanishini falsafiy qarashlari bag'riga singdiradi.

Xulosa o'rinda aytish joizki, buyuk mutafakkir hazrat Alisher Navoiyning "Sab' ai sayyor" asaridagi olam va odam masalalarini tadqiq qilish, zamonamizdagi ijtimoiy holatimizdagi ijobiy o'zgarishlarga turtki, shuningdek, mutafakkir falsafiy qarashlarini o'rganishning keng ufqlarini ochishga yo'ldir.

“XAMSA” DOSTONLARIDA BA’ZI TASAVVUFIY RAQAMLARNING MOHIYATI

Farxod NIZOMOV

Navoiy davlat universiteti o'qituvchisi, tayanch doktorant

Annatotsiya. Ushbu maqolada Navoiy “Xamsa” dostonlarida qo'llangan tasavvufiy raqamlar tahlil qilingan. Bir dam, bir lahza, bir on, ikki olam, ikki gardun kabi birikmali raqamlarning tasavvufiy ma'nolari ochib berilgan

Kalit so'zlar: doston, vaqt, dam, raqam, bir dam, bir lahza, ikki olam, ikki gardun, olami sug'ro, olami kubro.

Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlarida ko'p uchraydigan jumlar qatoriga “bir dam”, “bir on”, “bir lahza” singari birikmalar kiradi. Ularda asosan vaqt, payt, ma'lum fursat nazarda tutiladi. Dam so'zi besh tomlik “O'zbek tilining izohli lug'ati”da shunday izohlangan: Dam I. [nafas, tin.] Damim qaytib kelyapti, damimni rostlab olay. II. [bir nafaslik fursat, vaqt, lahza]. Bir dam jim qolmoq, bir dam o'zini yo'qotib esankirab qoldi. III. [on, lahza, kez, payt] shu damda, shu dam,

baxtli damlar tarzida izohlangan²⁴. Eng qimmat, eng aziz ne'mat, shubhasiz, bu vaqt hisoblanadi. Vaqt faqat oldinga harakat qiladi, u sira ortga qaytmaydi. Inson taqdiri, uning qismati ham ayni shu vaqtning izmi bilan boshqariladi. Kecha - bugun – erta deb atalmish butunlikni tutashtirib turadigan narsa ham ushbu ne'mat hisoblanadi.

Vaqtning qanday o'tib ketishini tushunish rostdan ham qiyin. Kecha, bugun, erta.... Mana shu uch kun butun hayotimizni boshqaradi. Kechagi kun o'tmishga aylanadi. Bugungi kun bir umrga cho'ziladigandek tuyiladi. Ertangi kunni esa keladimi, yo'qmi deya ba'zan sezmaymiz ham. Ba'zida qiladigan ishlarimizni to'g'ri rejalashtirmaganimiz uchun o'z ishlarimizga ulgurmay qolamiz. Vaqtga Shayx Najmiddin Kubro shunday ta'rif beradi: "Vaqt bir keskir qilichdir. Agar keskir bo'lmaganida edi, holdan holga o'tguniga qadar seni kutgan bo'lardi. Holbuki, zamon o'tkir qilichdek haraklanardi va o'z hukmini ijro etadi. So'fiy inbul vaqt, vaqtning o'g'li. U bilan barobar yurar. U o'tmishga ham, istiqbolga ham nazar tashlamas. Chunki uning moziyga va mustaqbalga boqmog'i o'tmish yoxud kelajakni o'ylab ayni ondagi vaqtini etkazmog'i demakdir, buning takrori esa ko'p vaqtni zoye etadi. Sog'lom muroqabaning sharti ham muhofazayi vaqtdir"²⁵. Tasavvuf adabiyotida so'fiyga shunday ta'rif beriladi: "Junayd Bog'dodiy ta'rifiga ko'ra, ishi faqat Xudo bilan bo'lgan, vujudi mutlaqning mavjudliginagina tan tan oluvchilar so'fiylar deb yuritiladi"²⁶. Demak, o'z maqsadi yo'lida doim Yaratganga iltijo qiladigan So'fiy ham vaqtga bo'ysunadi, uning maqsadga erishishi ham shu tushunchaga bog'liq.

Vaqtga berilgan ta'riflardan yana biri adabiyotshunos olim I. Haqqulovga tegishli. Unga ko'ra: "Vaqtga faqat ma'naviy-ruhiy harakat va ma'rifiy faoliyat ila yuzlashish lozim. Vaqt oldidagi mas'ullik u bilan aloqa o'rnatishning o'ziga xos "maqom"larini egallashni talab qiladi. Shu ma'noda tasavvuf ahlining fikr-qarashlari va hayotiy tajribalari juda ibratli. Ibratlisi shundaki, ular vaqtning eng kichik birligi hisoblanmish dam va lahzaning mazmuniga alohida ahamiyat berganlar. Sharqning ko'p buyuk san'atkorlari singari Alisher Navoiyning Vaqtga doir qarashlari, munosabat tarzi va undan ko'zda tutgan maqsadlari ham tasavvuf maslagi bilan chuqur aloqadordir"²⁷.

Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonlarida keltirilgan vaqtga oid birliklarda qahramon ruhiyati, uning ichki olami, inson umrining g'animat onlarini rohat va farog'otda o'tkazish, har lahza, daqiqaning qimmatli ekanligi, har soniyaning muhim ahamiyat kasb etishi kabi o'rnlarni ham anglatib kelgan. "Farhod va Shirin"dan olingan quyidagi baytlarda ham yuqoridagi hissiy jarayonlarning kechinmalari tasvirlangan:

²⁴O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh tomlik. II tom. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 21-bet.

²⁵Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. Toshkent: "Movarounnahr". 2004. 157-158-betlar.

²⁶Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. Toshkent: "Movarounnahr". 2004. 241-bet.

²⁷Haqqul I. Tasavvuf va Navoiy she'riyati haqida. Navoiyning ijod olami. (Maqolalar to'plami). Toshkent: "Fan", 2001. 10-bet.

*Ki, ul Shiring'a bu yondoshsa bir dam
Aning shirinlig'idin kelmagay kam*²⁸.

Yoki:

*Ulus tutmay tarabdin bir dam orom ,
Vale asrab tarab tavrida andom .*

(“Farhod va Shirin”, 360-bet)

“Sab’ai sayyor” dostonining VIII bobida shoh Bahromning yetti qasr qurilishi va uning go’zalliklari ta’rifi berilgan. Shoir bu obidalar bir-biridan ajoyibligi, u yerda vaqt juda ham tez o’tishini ta’kidlaydi. Har bir qasrda o’ziga jalb etadigan bittadan go’zal borligi, ularning maqomi kishini lol etajagini ta’kidlaydi. U yerda bo’lgan odam bir lahza, biror daqiqa ham orom olmaydi, qasr go’zalligi ularni maftun etib qo’yadi. Bu yerda bir dam vaqt birligi ma’nosida kelgan.

*Topibon har biri ichida maqom ,
Lek bir dam biriga yo’q orom*²⁹.

Yana shu dostonida Alisher Navoiy shoh Bahrom qissasining qanday yozilgani, unga nima turtki bo’lganini qayd etadi. Unga ko’ra shu asar shoirga tushida a’yon bo’lgan. Bosh qahramonning o’zi Navoiyning tushiga kirib, unga chin dildan minnatdorchilik bildirgan. Shoirning tushiga kimdir kelib shunday deydi:

*“Qo’pu bir lahza ranja ayla qadam
Ki, tilar suhbatingni shah bir dam!”*

(“Sab’ai sayyor”, 620-bet.)

Ushbu baytda “bir lahza”, “bir dam” kabi ramziy birikmalar muallifga ilohiy bir xabar kelganligi, bu Allohning bandasiga ishorasini aks ettiradi, chunki ana shu qisqa fursat, oniy lahza sabab shoir o’z asariga kirishadi. Bu yerda tasavvuf ahliga xos bo’lgan ayni oniy lahzada Yaratganning vasli haqiqiy oshiqqa ma’lum bo’lishini ifodalab kelgan.

Tasavvufiy raqamlardan yana biri ikkidir. Ushbu raqam Zardushtiylik dinida ikki xudo Ahuramazda – haqiqat va adolat xudosini; Axriman – yolg’on va bo’hton timsolini ifoda qilgan. Insonlarning bu dunyo va oxirat haqidagi qarashlari ham ikki raqamida aks etgan. “Xamsa” dostonlarida “ikki olam”, “ikki jahon”, “ikki javhar”, “ikki gardun” tushunchalarida ba’zi o’rinlarda olam, ba’zilarida dunyo, boshqalarida insonlarga xos ikki qarama-qarshi xususiyatlar tilga olinadi.

Tasavvuf adabiyotida “olami sug’ro” va “olami kubro” birikmalari ko’p ishlatiladi. Shayx Najmiddin Kubroning “Tasavvufiy hayot” kitobida ushbu ikki olam haqida shunday deyiladi: “Olami kubro – buyuk olam. Zohiran buyuk olam koinotdir. Kichik olam esa inson. Darhaqiqat, koinot insonda mujas-samlashgandir. Zero, inson butun olamlarning aslidir. Inson zohiran kichik, haqiqatda esa ulug’ olamdir. Olami sug’ro – kichik olam. Bu esa insondir”³⁰. “Navoiy asarlari lug’ati”da olami kubroning ma’nosi sifatida yurak, dil, ya’ni ko’ngil ham

²⁸ Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. To’la asarlar to’plami. 10 jildlik. 2-jild. T.: O’zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012-yil. 336-bet.

²⁹ Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. To’la asarlar to’plami. 10 jildlik. 3-jild. T.: O’zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012-yil. 310-bet.

³⁰ Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. T.: “Movarounnahr”, 2004. 232-bet.

aytilgan. Professor N. Komilov fikri quyidagicha: “Tasavvuf bo‘yicha, parvardigor avval jabarut (buyuklik) olamini, keyin malakut (farishtalar) olamini, keyin mulk (moddiy) olamni, keyin inson badani olamini yaratgan. Ko‘ngil (ruh) shu olamlarni sayr etib, insonda nuzul etadi va ana shu olamlar bo‘ylab uruj etadi (ko‘tariladi). Oqibatda ruhning begonalashuvi va yana birlashuvidan bir doira yakun topadi. Bu doira olami kubroni olami sug‘ro – inson bilan bog‘laydi. Olami sug‘ro insonda olami kubrodagi jami xususiyatlar mavjud”³¹. Quyidagi baytlarda ayni shu olamlar haqidagi tasavvufiy g‘oyalar ilgari surilgan:

*Iki olamcha mulki vus‘at ichra,
Yeti garduncha taxti rif‘at ichra.*

(“Farhod va Shirin”, 354-bet.)

Yoki:

*Jahon ichra jahonkim topti muknat,
Solib ikki jahonahlig‘a hayrat*³².

“Xamsa” dostonlarida qo‘llangan olam haqidagi raqamlar ramziy ma’noda qahramonlarning ruhiy kechinmalari, olam to‘g‘risida turli qarashlarni tasvirlash, vaqt, lahza, payt, onning muhim daqiqalarini anglatish o‘rinlarida qo‘llangan.

ALISHER NAVOIYNING TA’LIM RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI

***Nargiza Baxshullayevna JURAYEVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi***

Alisher Navoiy – buyuk mutafakkir, shoir, davlat arbobi va ma’rifatparvar bo‘lib, uning ilm-fan va ta’lim sohasidagi hissasi beqiyosdir. U butun hayotini ilm-ma’rifat targ‘ibotiga bag‘ishlagan va ta’limning inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini chuqur anglagan. Uning asarlari va bunyodkorlik faoliyati o‘zbek ta’lim tizimining rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan [1,54-b].

Navoiyning ilm-fan va ta’limga bo‘lgan munosabati uning asarlarida keng yoritilgan. Shoir o‘z davrida bilim olishning ahamiyatini tushuntirgan va yoshlarni ilmga intilishga da’vat etgan. Uning fikricha, inson kamoloti va jamiyatning rivoji bevosita ilmga bog‘liqdir.

Uning quyidagi fikrlari ta’limning ahamiyatini ochib beradi: “Bilimsiz odam devorga yozilgan surat kabidir” – ya’ni bilim inson shaxsini to‘laqonli shakllantiradi[2].

“Hayrat ul-abror” dostonida ilm olishning inson hayotidagi o‘rni tahlil qilinib, johillikning zararli jihatlari yoritilgan [3,72-bet].

“Mahbub ul-qulub” asarida esa ilm insoniy fazilatlar bilan chambarchas bog‘liqligi ta’kidlanadi [4].

³¹Komilov N. Tasavvuf. II kitob. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at hamda “O‘zbekiston” nashriyotlari, 1999. 6-bet.

³²Alisher Navoiy. Layli va Majnun. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 3-jild. T.: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012-yil. 329-bet.

Bugungi kunda ham Navoiyning ilm-fan va ta'lim haqidagi qarashlari o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Alisher Navoiy faqat adabiy faoliyat bilan cheklanmay, amaliy jihatdan ham ilm-fan va ta'lim rivojiga hissa qo'shgan. U o'z mablag'lari hisobidan madrasalar, kutubxonalar va boshqa ilm-ma'rifat maskanlarini qurdirgan.

Tarixiy manbalarga ko'ra, Navoiy tomonidan quyidagi ilm-ma'rifat maskanlari barpo etilgan:

- 30 ga yaqin madrasa – islomiy va dunyoviy ilmlar o'rgatilgan joylar
- Kutubxonalar – ilm-fan rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etgan
- 17 masjid, 10 xonaqoh – diniy va ma'naviy ta'lim markazlari
- 9 hammom, 9 ko'prik, 20 ta hovuz – xalqning hayotiy ehtiyojlarini ta'minlovchi infratuzilma [5]

Bu ishlari orqali Navoiy ilm-ma'rifatning rivojlanishiga bevosita moddiy ko'mak bergan.

Alisher Navoiy nafaqat buyuk shoir va mutafakkir, balki ta'lim va ma'rifat rivojiga beqiyos hissa qo'shgan davlat arbobi ham edi. U ilm-fan va ta'limning jamiyat rivojidagi o'rnini chuqur anglagan va o'z mablag'lari hisobidan ko'plab maktab va madrasalar barpo etgan.

Navoiy o'z davrida 30 ga yaqin madrasa qurdirgan. Ushbu madrasalarda yoshlar islom ilmlari bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni ham o'rganganlar.

Eng mashhur madrasalari:

1. G'ijduvon madrasasi – Islom ilmlari va adabiyot o'rgatilgan.
2. Samarqanddagi madrasalar – Shariat, falsafa, matematika, astronomiya ta'limi berilgan.
3. Buxorodagi madrasalar – Bu madrasalar islom ilmlari bilan bir qatorda, falsafa va tilshunoslik fanlariga ixtisoslashgan edi.
4. Hirot madrasalari – O'sha davrning eng ilg'or ta'lim muassasalari bo'lib, bu yerda buyuk allomalar yetishib chiqqan [5].

Madrasalar faqat diniy ta'lim markazlari emas, balki ilmiy-falsafiy muassasalar sifatida ham faoliyat yuritgan.

Navoiy qurdirgan madrasalar zamonaviy universitetlar kabi faoliyat yuritgan va aniq bir tizim asosida ishlagan:

Ta'lim bosqichlari: Boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va oliy ta'lim darajalariga ega bo'lgan;

Fanlar: Qur'on, hadis, fiqh, falsafa, mantiq, matematika, tibbiyot, adabiyot, tilshunoslik;

Ustoz-shogird an'anasi: Talabalarga ustozlar shaxsiy tarbiya va ta'lim berish orqali ilm o'rgatishgan;

Kutubxonalar: Har bir madrasada kitob fondlari bo'lib, talabalar va olimlar undan foydalanishgan.

Navoiyning ta'lim sohasidagi merosi bugungi kun ta'lim tizimi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Alisher Navoiy ilm-fan va ta'lim mavzusini o'z asarlarida keng yoritgan.

Uning “Xamsa” asari tarkibidagi dostonlar ta’lim va tarbiya masalalarini keng yoritadi:

- “Hayrat ul-abror” – ilmning ahamiyati va jaholatning zararlarini tushuntiradi
- “Sab’ai Sayyor” – bilimdon va oqil insonlarning jamiyatdagi o’rnini tahlil qiladi
 - “Farhod va Shirin” – mehnatsevarlik va ma’rifat orqali kamol topish g’oyasini ilgari suradi[6].

Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida inson kamoloti va axloqiy tarbiyaning asoslarini belgilaydi. Unga ko’ra:

- bilimli inson doimo jamiyatda hurmat qozonadi
- ilm odamni jaholatdan qutqaradi
- o’qituvchi va olimlar jamiyat taraqqiyotida muhim o’rin tutadi [4].

Hozirgi kunda O’zbekiston ta’lim tizimida Alisher Navoiyning merosiga katta e’tibor qaratilmoqda: Navoiy nomidagi universitetlar, maktablar va kutubxonalar faoliyat yuritmoqda, o’quv dasturlarida uning asarlari chuqur o’rganiladi, Prezident maktablari va ixtisoslashgan maktablarda uning ilm-ma’rifat haqidagi g’oyalari asosida ta’lim berilmoqda. Bugungi kunda O’zbekistonda ta’lim tizimi isloh qilinayotgan bir paytda, Navoiyning ta’limga oid fikrlari muhim yo’nalishlardan biri bo’lib xizmat qilmoqda .

Alisher Navoiy nafaqat buyuk shoir, balki ta’lim va ilm rivojiga beqiyos hissa qo’shgan ma’rifatparvar mutafakkir edi. Uning asarlari va bunyodkorlik ishlari hozirgi ta’lim tizimi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

- 1.Karimov I. Alisher Navoiy va ta’lim falsafasi. Toshkent: Fan, 2020.
2. Qosimov, H. Navoiyning pedagogik qarashlari. Buxoro: Ma’naviyat, 2018
- 3.Turdaliyev, B. Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi. Toshkent: Ilm Ziya, 2021.
4. Mamatov A. O’zbek madaniyati tarixi. Samarqand: Sharq, 2019.
- 5.Usmonov M. Xamsa va ta’lim tarbiyaning asosiy g’oyalari. Navoiy: Ma’rifat, 2022

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TARIXNING YORITILISHI: YANGICHA YONDASHUVLAR (OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDAGI CHIQISHLAR MISOLIDA)

***Azizbek Shonazarovich RUZIMURODOV,
Navoiy innovatsiyalar universiteti***

Alisher Navoiy asarlarida tarixning yoritilishi hozirgi zamon axborot maydonida yangi talqinlar bilan namoyon bo’lmoqda. Ommaviy axborot vositalarida olib borilayotgan tahlillar, ilmiy maqolalar, raqamli texnologiyalar orqali qilinayotgan targ’ibot ishlari Navoiy merosining har tomonlama ochilishiga xizmat qilmoqda. Shu bois, Navoiy asarlaridagi tarixiy yondashuvlar nafaqat o’tmish uchun, balki bugungi va kelajak avlodlar uchun ham dolzarbdir. Ushbu mavzu ommaviy axborot vositalarida yangicha yondashuvlar orqali

yoritilmoqda va turli bahs munozaralar orqali Navoiy merosi zamonaviy nuqtai nazardan qayta talqin qilinmoqda.

Bugungi kunda Navoiy asarlarida tarixning yoritilishi ommaviy axborot vositalarida turli formatlarda muhokama qilinmoqda. Televizion dasturlar, internet maqolalari, ijtimoiy tarmoqlardagi postlar va podkastlar orqali Navoiy tarixiy asarlari yangi nuqtayi nazardan tahlil etilmoqda. Ayniqsa, hujjatli filmlar va ilmiy-ommabop ko'rsatuvlar Navoiy davrining tarixiy haqiqatlarini ommaga yetkazishda muhim o'rin tutmoqda. Alisher Navoiy asarlarida tarixning qanday yoritilgani va OAV orqali qanday talqin qilinayotganligini quyida tahlil etib o'tamiz va yangicha xulosalar bilan boyitamiz.

Navoiy merosining zamonaviy tahlili ijtimoiy tarmoqlar va multimedia platformalarida yangi yondashuvlar bilan namoyon bo'lmoqda. YouTube kabi platformalarda Navoiyga bag'ishlangan videobloglar, hujjatli filmlar va interaktiv taqdimotlar keng tarqalgan. Bu esa yosh avlodning Navoiy tarixiy qarashlariga qiziqishini oshirmoqda.

OAVda Navoiy asarlarida tarixning aks etishini yangicha talqin qilish tendensiyasi kuzatilmoqda. Jumladan, zamonaviy tarixchilar va adabiyotshunoslari Navoiy asarlaridagi tarixiy haqiqatlarni aniqlash va ularning bugungi kun uchun ahamiyatini tahlil qilishga e'tibor qaratmoqda. Bunda quyidagi jihatlar alohida ajralib turadi:

- tarixiy faktlarning badiiy tasvir bilan uyg'unligi;
- Navoiy asarlaridagi tarixiy shaxslarning obrazlari;
- uning tarixiy asarlari va zamonaviy manbalar orasidagi bog'liqlik;
- tarixiy voqealarning ijtimoiy-siyosiy kontekstda yoritilishi.

Alisher Navoiy ijodi nafaqat badiiy mahorati, balki tarixiy voqealarni yoritish uslubi bilan ham ajralib turadi. U o'z asarlarida tarixiy shaxslar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar hamda o'sha davr madaniy muhitini aks ettirgan. Alisher Navoiy o'zining "Tarixi muluki Ajam", "Nasoyim ul-muhabbat", "Majolis un-nafois" kabi asarlarida tarixiy voqealarni bayon qilgan. Shuningdek, "Xamsa" tarkibidagi dostonlar ham tarixiy jarayonlarni poetik talqinda yoritadi. Jumladan, "Farhod va Shirin" dostonida tarixiy va afsonaviy obrazlar orqali o'sha davr siyosiy-ijtimoiy hayoti aks ettirilgan.

Bir qator manbalarda Alisher Navoiy asarlarining ahamiyati turli jihatlarida talqin etilib tahlil etilgan va Navoiy merosining bugungi kundagi ahamiyati insonlar kamolotidagi o'rni haligacha ahamiyatliligini yo'qotmaganligi isbotini topib kelmoqda. Navoiy asarlari shunchaki adabiyotga oid bo'lgan nasriy asarlardangina iborat bo'libgina qolmay, yosh avlod tarbiyasi, ma'naviy jihatdan kamol topishida yordam beruvchi, ezgulik g'oyalari bilan boyitilgan ma'naviyat o'chog'i hisoblanadi.[1,112]. Filolog Sh.Rahimovning fikricha esa, Alisher Navoiyning asarlari faqatgina mahalliy ahamiyat kasb etibgina qolmay, jahon adabiyotida ham adabiy muhitning o'sishiga o'z ta'sirini o'tkazib, Sharq va G'arb adabiyotida o'ziga xos bo'lgan ko'prik vazifasini o'tadi.[2,87] Bu ham o'z navbatida tarix fanining yoritilishida Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy aloqalarni yoritilishida Navoiyning xizmatlari katta ekanligini isbotlaydi. Ushbu

fikrimizni Navoiy asarlaridagi tarixiy faktlar aniq ko'rsatilganligi va ularga zamonaviy yondashuvlarni taqbiq etib tarix fanini o'tilishida joriy etishimiz mumkin ekanligi bilan asoslanadi.[3,143]

Alisher Navoiy asarlarida tarixiy voqealar badiiy va falsafiy uslubda yoritilgan. Uning tarixga bo'lgan yondashuvi nafaqat davrining siyosiy-huquqiy holatini aks ettirgan, balki madaniy va ijtimoiy jihatlarini ham o'z ichiga olgan. Ommaviy axborot vositalari orqali esa bu asarlar turlicha talqin qilinmoqda.

Masalan, "Alisher Navoiy adabiy merosining jahon adabiyotida o'rganilishi" maqolasida uning asarlari jahon miqyosida qanday tadqiq etilayotgani bayon etilgan [4]. Ushbu maqolada Navoiy ijodining jahon adabiy jarayoniga ta'siri va uning g'oyalarini jahon miqyosida o'rganish holati ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, "Alisher Navoiy asarlarining tarbiyaviy ahamiyati" maqolasida uning asarlarining bugungi tarbiyaviy jihatlarini tahlil qilingan bo'lib, unda Navoiy ijodining yoshlarga axloqiy-ta'limiy ta'siri, ularning kamoloti uchun tutgan o'rni muhokama qilingan[5].

Ommaviy axborot vositalarida Alisher Navoiy asarlari yangi uslubda talqin qilinmoqda. Ba'zi chiqishlarda uning asarlari hozirgi kun masalalariga uyg'unlashtirilgan holda yoritilgan bo'lsa, ba'zilarida esa tarixiy an'anaviy yondashuv saqlanib qolgan. "Alisher Navoiy asarlarining tarixiy ahamiyati" maqolasida tarixiy materiallar asosida uning asarlari tahlil qilingan va bugungi kontekstda qanday qo'llanilishi bayon etilgan[6]. Ushbu maqolada Navoiy tomonidan yoritilgan tarixiy voqealarning to'g'riligi, ularning ilmiy ishonchliligi va ularni hozirgi kunda qanday tushunish mumkinligi haqida fikr yuritilgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Alisher Navoiy asarlarida tarixiy voqealar yoritilishi bugungi kun ommaviy axborot vositalarida turlicha talqin qilinmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ommaviy axborot vositalarida Navoiy merosiga yangicha qarashlar paydo bo'lgan bo'lsa-da, uning tarixiy ahamiyati hanuz saqlanib qolmoqda. O'z navbatida, OAVdagi chiqishlar ushbu merosni kengroq auditoriyaga yetkazish va zamonaviy talqin qilish imkonini bermoqda.

ADABIYOTLAR:

- 1.Karimov M. Alisher Navoiy asarlarining tarbiyaviy ahamiyati. Toshkent: Fan, 2015
- 2.Rahimov Sh. Alisher Navoiy adabiy merosining jahon adabiyotida o'rganilishi. O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018
- 3.Qodirov U. Alisher Navoiy asarlarining tarixiy ahamiyati. Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti, 2019
- 4.R.Ruzmanova. Alisher Navoiy adabiy merosining jahon adabiyotida o'rganilishi. <https://uza.uz/posts/345335>
- 5.azkurs.org
- 6.arxiv.uz

ЖЕНЩИНЫ В ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОИ: ИДЕИ РАВЕНСТВА И ПРОСВЕЩЕННОСТИ

*Ирода Саъдуллаевна ШОДИЕВА,
преподаватель Навоийского университета инноваций*

Аннотация. Алишер Навои в своем литературном наследии, особенно в отношении женщин, выражал свои уникальные, просветительские и справедливые взгляды. В его произведениях отношение к женщинам в значительной степени формировалось с социальной, духовной и просветительской точки зрения. Поэт подчеркивал социальную роль женщин, их место в обществе и важность справедливости и равенства в вопросах, касающихся женщин.

Ключевые слова: просвещение, место в обществе, справедливость, уважение к женщинам, социальная активность, вклад женщин в общество.

Взгляды Алишера Навои на женщин имеют важное значение в его литературе, и его целью было повышение их роли и значимости в обществе. Эти взгляды, особенно в узбекской литературе и культуре, сформировали новый подход и отношение к женщинам.

Взгляды Алишера Навои на женщин ярко выражены в его произведениях. Творчество Навои в значительной степени направлено на уважение к человечеству, особенно к женщинам, и на их возвышение. В его произведениях вопросы просвещения, равенства и уважения занимают центральное место. Взгляды Навои на женщин отражают уникальный подход, который учитывает ценности и социальное состояние той эпохи.

Во всех произведениях «Хамса» мудрые женщины изображаются как основные персонажи сюжета. Например, в поэме «**Сабаъи сайёр**» образ Дилором является одним из таких. Великий царь Бахром, который правит почти всей земной частью мира, услышав описание Дилором, становится тайным влюбленным, охваченным страстью. Эта любовь достигает такого уровня, что Дилором становится его целью и смыслом жизни. Поэт так прекрасно описывает внешность и нрав Дилором, что любой, кто читает эти строки, легко может представить ее красоту, как луну. *«Ее волосы темные, как два черных локона, лицо сияющее, губы, как лепестки розы...»* Когда Бахром достиг этой любви, он увез ее с собой на охоту. Во время одной из охот, царь подстреливает оленя, поражая его двумя ногами. Гордясь своим успехом, Бахром говорит Дилором: *«Ты видела мое мастерство?»* Он ждал безграничных похвал и восхищений от своей возлюбленной, но принцесса ответила мудро: *«Все это стало возможным благодаря бесконечным упражнениям и повторениям, накопленному опыту».*

Или, в поэме «**Лейли и Маджнун**», поэт через образ Лейли показывает образ умной и стремящейся к знаниям девушки. Увидев стремление своей дочери к обучению, ее отец открывает для нее специальную школу и

призывает всех детей племени, в том числе девочек, обучаться. Лейли, приходя в школу со своими подругами, среди них сияет, как алмаз.

Существует ещё несколько примеров, которые показывают просветительский подход Навои к женщинам. В его произведении «Хамса» встречаются идеи, призывающие женщин к обучению и научным знаниям. Например, в поэме «Лейли и Маджнун» из «Хамсы» говорится: *"Возвышение мысли, глубина знания приводят женщин к истинной красоте."* Здесь Навои выражает мысль, что красота женщины заключается не только в ее внешности, но и в знаниях и просвещении. Он призывает женщин к обучению и самосовершенствованию, ведь это не только улучшает их духовную, но и физическую красоту.

В поэме "Фархад и Ширин" Мехинбону изображена как женщина с глубоким разумом и умом, управляющая всей страной и народом. Чтобы испытать умственные способности и знания Фархада, стремящегося к совершенству, она вызывает десяти девушек, мастеров в различных науках, которые задают ему вопросы в десяти областях. Одна из них — мастер в поэзии, другая — танцовщица, одна — математик, другая — астроном, одна изучает философию, другая — историю, еще одна является экспертом в мудрости., Мехинбону, оценивая их знания, задает вопросы, и, услышав их, Фархад, не задумываясь, отвечает на них, подтверждая свою осведомленность. Видя его знания, Мехинбону сходит с трона, признавая его мудрость. Фархад же просит ее сесть на трон, Фархад отвечает, что его место — не на троне. Подобные события часто встречаются в сюжетах произведений.

Отношение Навои к женщинам с уважением часто встречается как в его поэзии, так и в прозе. В произведении "Хайратул-аброр" говорится:

"Высокий моральный облик женщины — это ее истинная красота. Не физическая привлекательность, а ее духовная чистота и высокие качества приносят ей подлинное величие."

В этом примере мы видим, что Навои ценил женщин не только за их внешнюю красоту, но и за их моральное совершенство, поведение, веру и способность справляться с трудностями. Уважение Навои к женщинам направлено не только на их внешний вид, но и на их внутренний мир, моральные качества.

В «Хамсе», жемчужине классической литературы, Навои изображает все эти идеальные женщины как те, которые занимают свое место в жизни, в обществе и в семье. Поэт воспринимает их как цветы жизни, как сокровища и благоухание сада. Он указывает, что без этих женщин человеческая жизнь теряет смысл и становится тусклой и бесцветной. Взгляды Навои на женщин основаны на принципах просвещения, равенства и уважения, и эти ценности регулярно отражаются в его произведениях. Если рассматривать примеры, то он не только призывает женщин к получению знаний, но и побуждает ценить их внутренний мир, моральное превосходство. Он признавал их права и

потенциал, оценивая их наравне с мужчинами и с уважением относился к ним.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Алишер Навоий. «Хайрат ул-аброр». Ташкент: «Г. Гулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уи», 2006. — С. 389.
2. Ёлдошев К. «Адабиёт ўқитишнинг алмий-назари-й асо-слари». Ташкент. Ўқитувчи, 1996. — С. 52.

ARXIV MANBALARIDA ALISHER NAVOIY IJODIGA OID HUJJATLAR TARIXI

***Shohsanam Isoyevna ISKANDAROVA,
Navoiy davlat universiteti***

Alisher Navoiy ijodiga oid arxiv hujjatlarini o'rganish bugungi kunda ham juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu dolzarblik bir necha omillar bilan izohlanadi: Navoiy ijodining umumbashariy ahamiyati – Navoiy nafaqat o'zbek, balki butun turkiy xalqlarning adabiy merosida alohida o'rin tutadi. Uning asarlari insoniyat ma'naviy merosining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu bois, arxiv hujjatlarini o'rganish orqali uning ijodi va davri haqida yanada chuqurroq bilimga ega bo'lish mumkin.

Tarixiy haqiqatni tiklash – Navoiy hayoti va ijodi bilan bog'liq ba'zi ma'lumotlar vaqt o'tishi bilan buzilgan yoki noto'g'ri talqin qilingan bo'lishi mumkin. Arxiv hujjatlarini tahlil qilish orqali shoir faoliyatiga oid aniq tarixiy faktlarni aniqlash va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkoniyati mavjud. Yangi manbalarni ilmiy muomalaga kiritish – Bugungi kunda turli kutubxona va arxivlarda hali yetarlicha o'rganilmagan hujjatlar saqlanmoqda. Ushbu hujjatlarni tadqiq etish orqali Navoiy ijodi bilan bog'liq yangi ma'lumotlar ochilishi mumkin.

Navoiy merosining zamonaviy talqini – Navoiy asarlari bugungi kunda ham ijtimoiy, axloqiy va ma'rifiy jihatdan dolzarb bo'lib qolmoqda. Uning asarlaridagi g'oyalar zamonaviy ta'lim, madaniyat va falsafa nuqtayi nazaridan qayta tahlil qilinishi lozim.

Navoiy asarlari qo'lyozmalari va ularning nashri – Navoiy asarlarining qo'lyozma nusxalari dunyoning turli kutubxonalarida saqlanmoqda. Ularning to'liq katalogini yaratish, faksimile nashrlarini chop etish va ilmiy izohlar bilan ta'minlash bugungi kun ilmiy jamoatchiligini oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Umuman olganda, Alisher Navoiy ijodiga oid arxiv hujjatlarini tadqiq etish nafaqat adabiyotshunoslik, balki tarix, madaniyatshunoslik va falsafa fanlari uchun ham katta ahamiyatga ega bo'lib, uning ma'naviy merosini chuqurroq anglash va kelajak avlodlarga to'g'ri yetkazish imkonini beradi.

Uning asarlari yosh avlod tarbiyasi, ma'naviy yetuklik va ezgulik g'oyalari bilan sug'orilgan ma'naviyat o'chog'i hisoblanadi [1,112]. Navoiy ijodini

o'rganishda arxiv hujjatlari, tarixiy qo'lyozmalar va zamondoshlarining guvohliklari alohida ahamiyatga ega.

Alisher Navoiy ijodi haqida ko'plab tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Ularning fikrlari arxiv hujjatlari va qo'lyozma manbalariga asoslangan bo'lib, shoirning adabiy, tarixiy, falsafiy hamda ijtimoiy qarashlarini chuqur tahlil qilishga xizmat qiladi.

Taniqli adabiyotshunos A. Karimov Navoiy asarlarining tarixiy ahamiyatini ta'kidlab, shoirning o'z davridagi ijtimoiy-siyosiy holatni haqqoniy aks ettirganligini yozadi: "Navoiy o'z asarlarida o'z davri tarixiy jarayonlarini mahorat bilan yoritgan va o'zining siyosiy qarashlarini bevosita ifoda etgan" [1,78].

Shuningdek, tarixchi va sharqshunos Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarida ham Navoiy hayoti va faoliyati haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, unda shoirning yoshligidan boshlab ilm-ma'rifatga bo'lgan qiziqishi va adabiyotga qo'shgan hissasi yoritilgan [2,56]. Xondamir o'z asarida Navoiyning otashin iste'dod egasi ekanligi va uning yoshligidan ilm-ma'rifatga bo'lgan intilishi haqida yozadi.

Bundan tashqari, Navoiy o'z davrining mashhur tarixiy manbalariga ham murojaat qilgan. Masalan, u o'zining "Tarixi muluki Ajam" asarida fors hukmdorlarining tarixini batafsil bayon qilgan. Ushbu asarda u fors shohlari sulolalarini to'rt tabaqaga bo'lib tasniflagan: Peshdodiylar, Kiyoniylar, Ashkoniylar va Sosoniylar [7,89]. Sharq mutafakkirlari orasida Navoiy tasavvuf ta'sirida ijod qilgan shoir sifatida ham baholanadi. Bu haqda adabiyotshunos H. Rahimov shunday yozadi: "Navoiyning ijodida tasavvufiy tushunchalar chuqur ildiz otgan bo'lib, uning she'riyati ma'rifiy va axloqiy g'oyalar bilan boyitilgan" [3,167].

Arxiv manbalariga qaraganda, Navoiy o'zining "Lison ut-Tayr" asarini Yassaviy va Rumi an'analariga tayangan holda yozgan. Bu esa tasavvuf ta'sirining shoir ijodida muhim o'rin egallaganligini tasdiqlaydi [4,198]. Navoiy ijodini tadqiq qilgan olimlardan biri V. Bartold shoirning turkiy tildagi ijodiy faoliyatini yuksak baholab, quyidagicha yozgan: "Navoiy turkiy adabiyot tarixida ulkan burilish yasagan shoir bo'lib, u o'z asarlari orqali turkiy tilning adabiy til sifatida rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan" [5,256].

Bu fikrni arxiv hujjatlarida saqlanib qolgan Navoiy qo'lyozmalari ham tasdiqlaydi. Xususan, shoirning "Majolis un-nafois" asari turkiy adabiyot namoyandalari haqida qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bo'lib, uning qo'lyozmalari hozirda Britaniya muzeyida saqlanmoqda [6,312].

Navoiy tarixiy asarlar yaratishda ishonchli hujjatlarga asoslangan. Uning "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" va "Holoti Pahlavon Muhammad" kabi risolalari tarixiy shaxslar hayotini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu risolalarda Navoiy o'z davrining nufuzli shaxslarining hayoti va faoliyati haqida qimmatli ma'lumotlar keltirgan [8,67].

Navoiy ijodi faqat tarixiy voqealar tasviri bilan cheklanmaydi. Uning axloqiy-ma'rifiy asarlari ham ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Masalan, "Mahbub ul-qulub" asarida jamiyatda odob-axloq qoidalariga rioya qilish, ilm va hunarga bo'lgan

muhabbat keng targ'ib qilingan[9,78]. Shu bilan birga, shoir asarlarida insonparvarlik, adolat va mehr-muhabbat g'oyalari yetakchi o'rin tutadi.

Navoiy ijodi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, uning asarlari ko'plab qo'lyozma nusxalarda saqlanib kelgan. Xususan, uning "Xamsa" asarining qo'lyozma nusxalari Istanbul, Parij, London va Tehron kutubxonalarida mavjud bo'lib, bu nusxalar Navoiy ijodiy merosini tadqiq etishda muhim manba hisoblanadi [10,245].

Shuningdek, Navoiy asarlari o'z davrida juda katta obro'ga ega bo'lgan va ular arab, fors, turkiy tillarda ko'chirilgan. Uning "Majolis un-nafois" asari turkiy adabiyotning muhim namunalari qatoriga kiradi va unda o'sha davr ijodkorlari haqida muhim tarixiy ma'lumotlar keltirilgan [6,154].

Alisher Navoiy ijodini o'rganishda arxiv manbalari va tarixiy hujjatlar katta ahamiyatga ega. Shoirning hayoti va ijodi haqida Xondamir, Babur, Abdurazzoq Samarqandiy kabi tarixchilarning asarlarida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Arxiv hujjatlarida saqlanib kelayotgan Navoiy asarlari va ular bilan bog'liq yozma manbalar shoir merosini yanada chuqurroq o'rganish imkoniyatini beradi.

ADABIYOTLAR:

- 1.Karimov A. Alisher Navoiy va tarixiy jarayonlar. Toshkent: Fan, 2002
- 2.Xondamir. Makorim ul-axloq. Toshkent: Sharq, 1998
- 3.Rahimov H. Alisher Navoiy va tasavvuf. Buxoro: Ilm, 2015.
- 4.Navoiy A. Lison ut-Tayr. Qo'lyozma nusxasi, Tehron kutubxonasi
- 5.Bartold V. Turkiy adabiyot va Navoiy. Moskva: Sharq, 1935.
- 6.Navoiy A. Tarixi muluki Ajam. Toshkent: O'zbekiston, 2012
- 7.Navoiy A. Holoti Sayyid Hasan Ardasher. Samarqand: Ilm, 2010
- 8.Navoiy A. Mahbub ul-qulub. Toshkent: Fan, 2001
- 9.Rahimov H. Alisher Navoiy tarixiy asarlari. Buxoro: Ilm, 2015

BESHINCHI SHO‘BA: ALISHER NAVOIY ASARLARINI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV

ERKIN VOHIDOV IJODI YUKSALISHIDA MUMTOZ ADABIYOTNING AHAMIYATI

Muxlisa Abdig‘ani qizi HAFIZOVA

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Ingliz tili

2-fakulteti, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi

60-yillarning ikkinchi yarmida E.Vohidov ijodida ro‘y bergan o‘zgarish iste’dodli shoir muxlislarini hayratlantirib yubordi. Shu vaqtga qadar barmoq vaznida she‘r va dostonlar yozib kelayotgan shoir, kutilmaganda aruz vazniga murojaat etib, shu vaznda katta mahorat bilan yozilgan g‘azal, muxammas va qasidalardan iborat “Yoshlik devoni” to‘plamini e‘lon qildi.

Vaholanki, E.Vohidov nazarida, Alisher Navoiy davridan tortib Sobir Abdulla davrigacha bo‘lgan adabiyotga halol xizmat qilib kelgan aruz XX asrning 60-yillarida ham, keyin ham xizmat qilishi va bu vaznda har tomonlama barkamol asarlarni yaratish mumkin edi. Bobur, Mashrab, Furqat kabi shoirlarning, ayniqsa, Navoiy va Fuzuliyning lirik merosini katta ixlos bilan o‘rgangan shoir shu katta haqiqatning to‘g‘riligini isbotlash uchun, avval Navoiy va Fuzuliy g‘azallarini o‘rganishga, keyin esa ular ruhidan madad olib, “oqsoqol” aruz vaznida g‘azal, muxammas va qasidalar yozishga zavq bilan kirishdi.

Hazrat Alisher Navoiy milliy madaniyatimiz timsoli bo‘lishi barobarida beqiyos madaniy-ma‘rifiy boyligimiz hamdir. Bobokalonimiz she‘ri kirgan qalbga jaholat va yovuzlik yaqinlasha olmaydi. Navoiy ijodi insonni yuksakka ko‘taruvchi buyuk qudratga ega.

E.Vohidov hazrat Navoiyni butun hayoti davomida ustoz deb bildi, uning ijodiga maftun bo‘ldi, hatto “Navoiy ijodi meni she‘riyatga olib kirgan. Ko‘plar kabi mening ham buyuk ustozim, piri komilimdir. Men hamisha bu yuksak ijod sehri oldida hayratga tushaman va unga intilib yashayman”, [1. 263.] – deb yozdi.

E.Vohidov navoiyona misralari bilan “mudragan aruzni uyg‘otib yubordi” uyg‘otganda ham faqatgina E.Vohidovga xos sof o‘zbek g‘azalini yaratdi.

Roziman tushguncha dilga

Nogahon hijron yuki,

Nogahon, mayli, tanamdan

Ayru bo‘lsin jon yuki.

Hajrida o‘tgan nafasni

Yil bilan o‘lchar ko‘ngil,

Ayriliqda she‘r bitibman,

Unda bir devon yuki. [2.79.]

Demak, shoirning quroli so‘zdir. Uni qanday va qay o‘rinda ishlatish ijodkorning mahoratiga bog‘liq. Shoir ham hazrat Navoiy singari o‘zbek tili

imkoniyatlari kengligini ijodi orqali ko'rsatishga intildi. Aruzga murojaat etib, o'zining yangi imkoniyatlarini ham ochishga muvaffaq bo'ldi. Qalbida jo'sh urgan ayrim isyonkor fikrlarni g'azalning latif libosiga o'rab berishga erishdi. Ayni mustaqillik yillari yozilgan "Kerak bo'lsa" asari shunday g'azallaridan.

*Men bor, senga bir haqgo'y – devona kerak bo'lsa,
Yo'qman, tili qand nodo'st parvona kerak bo'lsa....*

*Bog'imni makon etgan, ey siz gala boyqushlar
Ko'ksingiz qo'ning, sizga vayrona kerak bo'lsa. [2.417.]*

Shoir doim haqso'zni hayiqmay ayta oldi. U ifodalari orqali o'z yurtini jonfido qilib bo'lsa-da asrab qolishga intiladi. Ikkiyuzlamachi parvonalaridan emasligi, har doim haq yo'lda ekanini ta'kidlaydi. Yurtining Ozodligiga rahna solayotgan "boyqushlar" ya'ni dushmanlar oldida, yurt tinchligi uchun jonini qurbon qilishga tayyor. Shoirning "Dur bo'lib tomgaymi so'z..." g'azalida so'zning ta'sir kuchi, uning jamiyatdagi ahamiyati ifoda etiladi:

*Qalb bu ohangar o'chog'i, unda so'z so'zonadir,
Qayda keskir bo'ldi shamshir, o'tga solinmay turib.*

*Ahli so'z, g'aflat elin siz, uyg'oting bongso'z ila,
Kemangizga so'nggi yo'lning bongi cholinmay turib. [2.419.]*

ya'ni qalb so'zning o'chog'i, ko'ngildan chiqqan adolatli so'zgina shamshirdek keskir bo'lishi mumkin. Yurakning tafti so'zni kamolga yetkazadi, natijada uning ta'siri yanada kuchayadi. Shoir go'zal tashbih bilan g'aflatdagi olomonni uyg'otish lozimligini ta'kidlaydi. Bunday ifodalar mazmunan hazrat Navoiyning xalqona g'azallarini yodga soladi.

*Ey Navoiy, nazming el ko'nglin parishon ayladi,
Qilding el ko'ngli uchun go'yoki devoningni jam [3.31.]*

ya'ni Navoiy ijodi orqali xalqning ko'ngliga kirib boradi, ma'naviy ozuqa beradi. Dard-u tashvishlarini ifoda etib, taskin bag'ishlaydi. Bu kabi misralar E.Vohidovning Navoiydan ta'sirlanib, mazmunan unga yaqin g'azallar yozganini anglatadi.

E.Vohidov nafaqat shoir, balki olim o'laroq aruz ilmini chuqur egallagan edi. Uning O'zbekiston televideniyesida olib borgan turkum ko'rsatuvlardan biri aruz va aruznavis shoirlar ijodiga bag'ishlangan edi. U qariyb besh yil davomida Navoiy, Fuzuliy singari mumtoz Sharq shoirlarining g'azallarini tahlil qilib, shu g'azallarni bezab turgan narsa ulardagi "yolg'on haqiqat"ga kiygizilgan she'riy san'atning shohi ipaklar bilan tikilgan libosi ekanligini tushuntirishga urindi. U Navoiyning xalq o'rtasida, ayniqsa, mashhur bo'lgan "Qaro ko'zum" so'zlari bilan boshlangan g'azalini shunday tahlil qilgan. U masalan, g'azalning:

*Qaro ko'zim kelu mardumlig' emdi fan qilg'il,
Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il.*

satrlarini keltirib, tahlil etadi va shunday yozadi:

"Bu so'zlarda qanchalar vafodorlik, fidoyilik bor, barkamol muhabbat bor, she'riy ifoda esa naqadar teran, jozibali, serjilo. "Mardum" so'zining ikki ma'nosi

bor. Mardum – odam, mardum – ko‘z gavhari. “Qaro ko‘zum”, deya murojaat etadi shoir sevgilisi yorga, “kelu mardumlig‘”, ya‘ni odamlilik, odamgarchilik fanini ko‘rsat, ko‘zum qarosida mardum kabi, ya‘ni gavhar kabi vatan qilg‘il. Birgina baytda necha ma‘no tovlanishlari – ham mardumning ikki ma‘nosi, ham “qaro ko‘zum”ga muqobil “ko‘zim qarosi” ifodasi – naqadar teranlik, mukammallik bor. Oshiq yorni faqat ko‘rib turishni emas, ko‘z qorachig‘iga jo qilmoqni istaydi va qayon boqmasin, oygami, gulgami, shabnamgami – bariga yor jamoli orqali boqishni orzu qiladi, barida uning timsolini ko‘rishni tilaydi...”. [4.88-89]

Navoiy g‘azalining faqat bir baytini XV asrdagi navoiyshunos va shoirlardek chuqur tahlil qilgan E.Vohidov ulug‘ shoirni san‘atkorlik sirlarini mukammal o‘rgangani, ulardan qattiq ta’sirlangani, ulardagi badiiy mazmunni chuqur tushungan, badiiy latofat ko‘rinishlarida bahramand bo‘lganiga shubha qilmasa ham bo‘ladi. Shoirning “Yo‘q emush orzuda ayb” g‘azalidagi ishqning serjilo ifodasi:

*Jodu ko‘zlar bandi yolg‘iz – sen emas, tutqun yurak,
Avval – oxir ko‘hna meros, ishq degan tuyg‘uda ayb.*

hamda “Sevgi otashi”

*Ishq-u hajr olamga meros, bo‘yla merosdur azal
Bizga Farhoddan fidolik, bizga Majnundan junun.* [2.396.]

g‘azallaridagi talmeh san‘atidan foydalanib, ishq insoniyatning qoniga singib ketgan ilohiy kuch, Farhoddan vafoni, Majnundan jununlikni olgan meros tuyg‘u deya, Navoiy “Xamsa”siga ishora qilinishi, ishqning go‘zal ta’riflaridan ham hazrat Navoiy ijodi adabiy maktab bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Erkin Vohidov ijodini o‘rganib kelayotgan ayrim olimlar bu fikrlarimizni tasdiqlaydi. Jumladan, Veli Savash Yelok shunday fikrlarni ilgari suradi: “Mahoratli adib so‘z, jumla va misrada yangi his va hayajonga mos ravishda yangiliklar qilib turgan. Erkin Vohidov mumtoz she‘riyatidagi ko‘rinish va mazmunlarni yo‘q qilish tarafdori emas. Aksincha, shoir o‘tmish bilan munosabatning qaytadan tiklanishiga ishonch bildirib, klassik davr asarlaridagi xususiyatlarini ham klassik she‘riyatning, ham xalq tilining ranglari bilan jilolagan. Har bir so‘zni eng nozik va latif jihatlar bilan qo‘llashga mohir bo‘lgan Erkin Vohidov hayotning barcha chigalliklari, jamiyatdagi bo‘ronlar, kulfat va mashaqqatlar oldida o‘ziga xos munosabat bildirgan”. Shoirning maqsadi aruzning ko‘rinishi va mazmunlarini yo‘q qilish emas edi. U aruzni yanada jozibali, serjilo qilishga intildi. Unutilib ketayotgan mumtoz adabiyotning gultojini tiklash, uni bog‘ga aylantirishga harakat qildi. U aruzda ijod etgan yetuk adabiyot vakillari asarlarini qadr-qimmatini ko‘rsatishga intildi. Mumtoz adabiyotning tasavvuf olamiga kirish sirlarini mukammal o‘rgandi. Go‘zal, serjilo, maftunkor g‘azallar bitdi. Shunday g‘azallaridan biri “Parishonlik” nomli g‘azalidir:

*Doimo dedim, bo‘lma oshino, parishonlik,
Bo‘ldi oshino dilga doimo parishonlik.
Dilrabo xayolida, ne ajab, parishonmen,
Oshikor etar doim dilrabo parishonlik.* [2.80.]

Ushbu gʻazalning ifoda uslubi sodda, oʻqilishi ravon. Shu bilan birga uning butun insoniyatga xos odatlardan, qusurlardan biri boʻlgan loqaydlik haqida fikr yuritilib:

*Men oʻzimcha dilbarning yodi birla magʻrurmen,
Deydilar, qilur paydo kibri-havo parishonlik.* [2.80.]

Ortiqcha xotirjamlik magʻrurlik keltirib chiqaradi. Insonning oʻziga nisbatan parishon boʻlishi uni kibr botqogʻiga itaradi. Shoirning “Zamon”, “Dutorim tori ikkidur” kabi gʻazallarida ham shu singari umuminsoniy tuygʻular tarannum qilingan.

Navoiy ijodiga boʻlgan qiziqish, uning daholigi Erkin Vohidovni umri davomida hayratga solib keldi. Navoiyni suygan, unga shaydoligi va sadoqatini uning ijodiy va insoniy fazilatlarini asarlarida jo qilishga harakat qilgan, navoiyona qalam tutishga intilgan.

ADABIYOTLAR:

1. Воҳидов Э. Сайланма.Эрк саодати, 6-жилд: мақолалар, суҳбатлар, шарҳлар, хотиралар. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б. 263.
2. Воҳидов Э. Танланган асарлар – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 79.
3. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Тошкент: Oʻzbekiston, 2015. – Б. 31.
4. Воҳидов Э. Шоир у шеър у шуур: Адабий эсселар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – Б. 88-89.

TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA ALISHER NAVOIY ASARLARINING AHAMIYATI

*Latifa Zarifovna KORAYEVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti
Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi v.b. dotsent, PhD*

Yuksak maʼrifat egasi Alisher Navoiy oʻzining bir qancha asarlarini taʼlim-tarbiyaga bagʻishlagan. Insonlarni insonparvarlikka, ilm-maʼrifatli boʻlishga chaqirgan. Shuningdek, uning oʻzi ham shu yoʻlda tinimsiz zahmatlar chekib, yoshlarning taʼlim olishi uchun qator chora-tadbirlar ishlab chiqqan. Uning asarlarida ufuq turgan maʼno shu qadar serjiloki, ular bugungi kunga qadar oʻz qimmatini yoʻqotgan emas. U qoʻliga qalam olar ekan, insoniylik sharafi hamda masʼuliyati haqida soʻz yuritdi. Navoiyning fikricha, barqaror davlat va namunali jamiyatni qurishda mukammal axloq, ilm egasi boʻlgan yoshlarning oʻrni beqiyos. Shuning uchun u oʻz zamonasining ilmga, hunarga intiluvchan yoshlarini nihoyatda ardoqlar edi. Navoiy tasviridagi Shirin ham har jihatdan goʻzal inson. Uning maʼnaviy dunyosi va uni oʻrab turgan muhit Farhodga mos, goʻzal va yuksak darajada. Shoir bu ikki badiiy timsol misolida ham oʻz davri uchun, ham oʻzidan keyingi barcha davrlar uchun ibrat boʻla oladigan komil insonlar tasvirini yaratdi. Allomaning fikricha, bu insonlarni ilm kamolot darajasiga yetkazgan. Farhodning yoshligi haqida soʻzlar ekan, shoir uning ilmga boʻlgan ishtiyoqini olqishlab: Oʻqub oʻtmas, uqib oʻtmak shiori, Qolib yodida safha-safha bori, deydi.

U “Hayrat ul-abror”da “ilm” soʻzidagi harflarni quyosh, oy, kunduz, deya sharhlaydi. Shoirning nazarida ilmning bor-yoʻgʻi yorugʻlikdan iborat. Ilm jaholat tunini yoritadi. Insoniylikning shartlaridan biri ilm boʻlsa, biri ishqqa sadoqat deyiladi: Yorki bor, anda vafo bordir, Umr degin, yori vafodordir. Shoir bu tushunchani juda keng ifodalaydi. Uning nazdida ishq insonlarga, kasb-korga, ota-onaga, doʻstga nisbatan boʻlishi mumkin. “Hayrat ul-abror” asarining bir necha boblari odob-axloq va taʼlim-tarbiya masalasiga bagʻishlangan. Navoiy bu dostonning oltinchi maqolotida odob va kamtarlikni ulugʻlab, taʼlim-tarbiyaga doir qimmatli fikr-mulohazalarini bayon qilish bilan birga, takabbur va odobsiz kishilarni qattiq qoralaydi. Shoir dostonning bu maqolotida bola tarbiyasi, uni oʻstirish, oʻqitish va balogʻatga yetkazish hamda bu borada ota-onalarning vazifalari haqida batafsil fikr yuritadi. Shoir yoshlarni ota-onaning xizmatini bajarishga, ularni hurmat qilishga, ularga nisbatan hamisha mehr-muhabbatli boʻlishga chaqiradi, ota-onani oy va quyosh deb taʼriflaydi: Boshni fido ayla ato qoshigʻa, Jismni qil sadqa ano boshigʻa... Tun-kunungga aylagali nurposh, Birisin oy angla, birisin quyosh... Dostonning oʻn birinchi maqolotida Navoiy ilm-fanga, ilm ahliga yuksak baho beradi. Kishilarni ilm olishga, olimlarni izzathurmat qilishga chaqiradi. Shu bilan birga, shoir oʻsha davrda mehnatkash va musofir talabalarning ilm olish yoʻlida chekkan mashaqqatlaridan, ilm-fan egalarining muhtojlikda yashaganlaridan afsus-nadomatlar chekadi. Navoiy ilmdan amalda foydalanish zarurligini taʼkidlaydi: Ilm, Navoiy, senga maqsud bil, Endiki ilm oʻldi amal aylagil. Bizga maʼlumki, demokratiya, soʻz erkinligini koʻpincha Gʻarb mamlakatlarining mevasi, deb taqdim etadilar. Haqqoniy, xolis axborotning saltanatni boshqarishdagi ahamiyati haqida “Sen shohsen – agar ogohsen, agar ogohsen shohsen sen”, deb bundan besh yuz yil oldin xitob qilgan Alisher Navoiy chin maʼnoda demokrat edi. Shoirning fikricha, insonning qadr-qimmatini uning mol-mulki bilan emas, balki maʼnaviy qiyofasi, axloqiy sifatlari bilan oʻlchanadi. Navoiy falsafasida siyosiy nazariya (ideal davlat qurish) va axloqiy nazariya (komil inson taʼlimoti) uzviy bogʻliqlikda ifodalanadi. Ijtimoiy-siyosiy masalada shoir gumanistik taʼlimotni yaratdi: shohni bogʻbonga, mamlakatni bogʻga qiyosladi, unga koʻra, bogʻbon oqil, mehnatsevar boʻlsa, bogʻi gullab yashnaydi, podshoh maʼrifatli, bilimdon, adolatparvar boʻlsa, xalqini sevsa, mamlakati obod boʻladi! Darhaqiqat, Navoiy asarlaridagi halollik va pokdomonlik mohiyati, milliy oʻzlik tuygʻusi va falsafiy tushunchalar yangi asrda ham mudom insoniyatni ogohlikka chorlamoqda: Demonkim koʻngli pok-u ham koʻzi pok, Tili pok-u, soʻzi pok-u, oʻzi pok. Dedi: Har ishki qilmish odamizod, Tafakkur birla bilmish odamizod. Allomaning inson haqidagi diniy-ilohiy qarashlari islomiy tamoyillar taʼsirida shakllangan. U insoniyatni komillik saodati sari chorlar ekan, uning maʼnaviyati, tafakkuri, odobi va axloqiy goʻzalligiga alohida eʼtibor beradi. Hazrat Navoiy iymonli boʻlishni insoniylikning eng birinchi va eng asosiy belgisi deb biladi: Kimki jahon ahlida inson erur, Balki nishoni anga iymon erur.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, Hazrat Alisher Navoiy bugungi kun hayotini ham marvarid durdonalari bilan boyitmoqda. Uning asarlari har bir adabiyotga oshno qalb uchun adabiyot bulogʻining sarchasmasi boʻlib qolaveradi.

ADABIYOTLAR:

1. Sirojiddinov S., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. Darslik, Toshkent, Tamaddun. 2018
2. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. – Samarqand: 2005
3. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. – T.: Yangi asr avlodi, 2005

YANGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR – TA'LIM SAMARADORLIGI ASOSI

*Muhtabar Nabiyevna SANOYEVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Annotatsiya. Maqolada ona tili darsliklarida keltirilgan Navoiy, Avloniy kabi ijodkorlar asarlariga oid matnlarni o'rganishda qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari haqida so'z boradi. Shuningdek, ishdan zamonaviy dunyoning texnologik yangiliklarini mavzuni o'zlashtirish jarayonida qo'llash mahorati ta'lim samaradorligi oshirishda ijobiy natija ko'rsatishi haqidagi qimmatli tavsiyalar ham o'rin olgan.

Kalit so'zlar: o'qitishning texnik vositalari, psixologik yondashuv, "SMS-xabarnoma", "Fikrlar jangi", videodars.

Bugungi kun umumiy o'rta ta'limda o'quvchi, o'qituvchi, me'yoriy hujjatlar, o'qitishning texnik vositalari, usul va uslublar muhim o'rin egallaydi. Bu jihatlarning har biri dars jarayonida alohida ahamiyatga ega.

Me'yoriy hujjatlar vazirlik tomonidan tasdiqlanib, maktablarda o'qitish tizimining bir xilda olib borilishini ta'minlaydi. O'quvchi puxta bilimga ega bo'lishi uchun qolgan barcha jihatlarning samarali qo'llanilishi o'qituvchi zimmasiga tushadi.

O'quvchi – majmu [1,42-43]ning bir qismi bo'lib, bugungi kun ta'lim oluvchisi pedagogdan bilim, ma'rifat, tarbiya bilan bir qatorda psixologik yondashuvni talab qiladi. Aytilganidek, oddiy o'qituvchi gapiradi, yaxshi o'qituvchi ko'rsatadi, juda yaxshi o'qituvchi motivatsiya qiladi. Psixologik yondashuv:

- ota- ona va bola yashagan muhitni taqqoslash;
- fanga oid bilimlarni egallashda mustaqillik, murakkablik va kuchni birlashtirish;
- o'quvchini muvaffaqiyatli bo'lishiga ko'maklashish;
- motivatsiya beruvchi buyuklar fikrini kun hikmati sifatida qo'llash;
- zafar quchgan tendoshlari haqidagi yangiliklardan xabardor qilish;
- iste'dodi bilan dunyoni lol qoldirayotgan imkoniyati cheklangan insonlar hayotiga oid videolavha namoyish qilish asosida amalga oshiriladi.

Bu jarayonda o'quvchilarning hayotiy qarashlari jonlanadi, ular o'z munosabatini erkin ifodalashadi, ochiq bayon etishadi. Muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi, **"Fikrlar jangi"** ga olib keladi. Agar o'qituvchi mulohazalarni nazariy bilimlarga bog'lab olsa, o'tilgan mavzu ham shu o'rinda takrorlanadi. Psixologik yondashuv mavzisi odatda ommaviy axborot vositalari yoki internet materiallari asosida shakllantirilishi tufayli biz bu jarayonda axborot texnologiyalarining salmoqli o'rnini qayd etishimiz lozim.

Zamonaviy dunyoning ijtimoiy tarmoqlari yangi mavzuni o'zlashtirish samaradorligida ham ijobiy kuchini namoyon etmoqda. Masalan, Alisher Navoiy qalamiga mansub "Lison ut-tayr"ning "Talab vodiysi" [2,42] qismidan keltirilgan matnni o'rganish biroz murakkab jarayonni yuzaga keltiradi:

*Har dam anga yuz **malomat** yuzlanur,*

*Har nafas ming sa`b **holat** yuzlanur...*

*Ranj-u **ko'shish** sanchibon jismingga **nesh**,*

*Dardi noyob aylabon joningni **resh**...*

O'quvchiga matn mohiyatini tushunarli tarzda yetkazish o'qituvchidan mashg'ulot uchun qiziqarli metodlarni tanlashni taqozo etadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'quvchi yoshiga mos tarzda va kerakli o'rinda qo'llash ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Matn ustida ishlash undagi lug'at so'zlarni o'rganishdan boshlanadi. Shu o'rinda **"SMS-xabarnoma"** usulidan foydalanish yaxshi natija beradi. Darsda o'rganilishi lozim bo'lgan so'zlar sinf telegram guruhiga xabarnoma shaklida joylashtiriladi. Bilamizki, kitobni o'qishni xohlamagan bola ham, telegram tarmog'idagi yangilikni kuzatadi:



malomat - malol kelish, og'rinish

afgor – xor bo'lish, ezg'in holatga tushish

sa'b – qiyin, og'ir

mi'od – muddat, ijro vaqti

ko'shish – sa'y-harakat

nesh – nish, tig'

resh – yara, jarohat

solik – komillik yo'lidagi kishi

takbiri fano – o'tkinchi dunyo uchun haqni ulug'lash

Kutilgan natija shundaki, o'quvchilarning barchasi yangi so'zlarni o'qiydi, imlosini o'rganadi, keyingi darsda erkin qo'llaydi, xatosiz yozadi. Bu usul ota-onalar bilan hamkorlikda olib borilsa, yanada ko'proq samara beradi.

Badiiy adabiyot insonning ruhiy olamini o'zida namoyon qilar ekan, o'rganilgan har bir asarning mazmun - mohiyatini anglash, o'quvchiga yetkazib berish, bilim oluvchining ta'sirchan mulohazalarga undashni faqat tinglab tushunish bilan amalga oshirib bo'lmaydi. Videodarslardan foydalanish bu borada eng qulay va samarali yo'ldir. Dars jaronida bu usulni qo'llash mashg'ulot sifatini oshirishi pedagogik texnologiyalarga oid qo'llanmalarda ko'p ta'kidlangan. Etiborli jihati esa, videodarslarni o'qituvchi guruhning kundalik platformasiga joylashtira oladi. O'quvchilar o'zlariga qulay vaqtda, hattoki, bir necha marta

ularni kuzatishi, yaxshilab o'rganib, kerakli o'rinlarini konspektlashtirishlari ham mumkin. Muhokama matnlari o'rta tashlangan fikrni asoslash, ishonchli dalillar bilan so'zlash, o'z fikrida sobit qolishga o'rgatadi, lekin o'quvchilar barcha mavzudagi matnlarda ham birdek bahslasha olmaydilar. Masalan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun ona tili darsligida Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridan parcha keltirilgan. O'rganilayotgan material asosida tasavvurni hosil qilish uchun asar haqida tayyorlangan videolavha yoki videodarsni oldindan sinf telegram guruhi yoki kundalik com. platformasiga yuklash lozim. Badiiy adabiyot insonning ruhiy olamini o'zida namoyon qilar ekan, o'rganilgan har bir asarning mazmun-mohiyatini anglash, o'quvchiga yetkazib berish, bilim oluvchining ta'sirchan mulohazalarga undashni faqat o'qib tushunish bilan amalga oshirib bo'lmaydi. Videolavhalardan foydalanish bu borada eng qulay va samarali yo'ldir. Bu usul mashg'ulot sifatini oshirishga xizmat qiladi, murakkab mavzuni oson tushunishga yo'l ochadi. Natijada o'quvchi matn mazmunini kengaytirib ifodalashga muvaffaq bo'ladi. Yana bir jihati, ajdodlarimiz bizga meros qoldirgan beqiyos boylik juda katta imkoniyatlarni o'z xazinasida asrab kelayotganini, ularni to'liq ishga solish nafaqat millat tarbiyasiga, balki jahon pedagogika ilmi rivojiga ham o'z sezilarli ulushini qo'shishga sabab bo'layotganini anglab olishlariga zamin hozirlaydi. Dars mashg'ulotlarini ana shu tarzda tashkil qilish o'quvchilarning nafaqat matn mazmunini anglashini, balki o'rganilgan yangi materiallar asosida uni kengaytirib og'zaki hikoya qilish yoki ijodiy matn yaratishlariga imkon yaratadi.

O'quvchilar dars mashg'uloti davomida "Afv – yaxshi xulqning afzali" matni bilan tanishadilar. Mashg'ulot avvalida videolavha haqidagi fikr-mulohazalar so'raladi, so'ng matn ma'lumotlari bilan uyg'unlashtirib, matnni kengaytirib yozish topshiriq qilib beriladi.

Abdulla Avloniy merosining shoh asari "Turkiy guliston yoxud axloq" bo'lib, unda inson uchun muhim bolgan jamiyki axloq-odob me'yorlari, ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Asarda insonlarni "yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm" - axloq haqida fikr yuritiladi. Axloq bu xulqlar majmuyidir. Xulq esa ezgulik yoxud yomonlikning muayyan bir insonda namoyon bo'lish shakli. Binobarin, har bir xulq ezgulik va olijanoblikning yoki razillik va badbinlikning timsoli. Shu jihatdan ular yaxshi va yomonga bo'linadi. Lekin bular har bir insonda o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, shakllanmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma'lum bir sharoit, tarbiya kerak.

Xulosa qilib aytganda, insonlar orasida kimning xulqi go'zal bo'lsa, martaba jihatidan eng afzali o'shadir. Baland martabaga faqat go'zal xulq bilan yetiladi. Ular orasida ziynatlanib turuvchi kechirimlilik xislati esa hamisha biz insonlarning qadrimizni yanada oshishiga xizmat qiladi.

Aytish joizki, zamonaviy texnologiyalar faqat turmush-tarzimizga emas, ta'lim jarayoniga ham to'laqonli kirib keldi. Deyarli har bir o'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda ulardan erkin foydalanadi, darsning qaysidir bir bo'limida ularni doimiy qo'llash o'quvchilarning sifatli ta'lim olishi kafolatidir.

ADABIYOTLAR:

- 1.Bo'ri Ziyomammedov, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnologiya-zamonaviy o'zbek modeli. Metodik qo'llanma. – Toshkent:Lider Press, 2009.
- 2.Qodirov M. va b. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun ona tili darsligi. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent:Yoshlar, 2018.
- 4.Alisher Navoiy. Lison-ut tayr. –Toshkent: G'afur G'ulom, 1991.

ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL-QULUB” ASARIDA TALABALARNING AXLOQIY QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISH HAQIDAGI FIKRLARI

*Nafosat Abdumumin qizi RO'ZIYEVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası
o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Mahbub ul-qulub” asaridagi axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayoni, insonning o'zini anglash, ilm va hikmatga intilish, adolat va halollikni qadrlash, mehr-oqibat va sabrni o'rganish, o'zini to'g'ri yo'lga solish kabi bir qator fazilatlarni ta'lim tarbiya jarayonida qo'llash masalasi bayon etilgan.

Kalit so'z: Axloq, odob, qadriyat, halollik, sabr, mehr- oqibat, mas'uliyat, axloqiy kamolot.

So'z mulking sultoni buyuk mutafakkir, adabiyotshunos olim Alishir Navoiy ijodini o'rganish asarlarini tarbiyaviy tahlil qilish har bir davrning muhim talablaridan biri bo'lgan. Ayniqsa, Navoiy asarlarida axloqiy g'oyalar, odob, xulq-atvor masalasi yoritib o'tilgan. Bugungi kunda ham ta'lim tarbiya jarayonida talabalarga bilim berishda, Navoiy asarlariga yuzlanamiz.

Alisher Navoiy asarlarida axloqiy qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Uning she'riyati va nasriy asarlarida insonning ichki dunyosi, axloqiy mas'uliyat, adolat, halollik, sabr, mehr-oqibat va insoniylik kabi qadriyatlar chuqur tasvirlanadi. Navoiy o'z asarlarida insonning ma'naviy yuksalishi, axloqiy kamoloti, va ijtimoiy mas'uliyatini ko'rsatish orqali zamon va makondan qat'i nazar, uni yuksak ma'naviyatga undaydi.

Uning “Xamsa” to'plamidagi asarlarida, masalan, “Mahbub ul-qulub” yoki “Farhod va Shirin”da, sevgi, do'stlik, sadoqat, mardlik, adolat kabi axloqiy tushunchalar asosiy mavzular sifatida yoritilgan. Bu asarlarda insoniy munosabatlar, ijtimoiy ehtiyojlar va shaxsiy kamolotning axloqiy me'yorlari o'rtasidagi bog'lanish taqdim etiladi.

Shuningdek, Navoiy o'zining falsafiy, pedagogik qarashlarini va dunyoqarashini axloqiy qadriyatlar bilan bog'lab, insonni nafaqat yaxshi hayotga,

balki jamiyatda o‘z o‘rnini topishga chaqiradi. Navoiy axloqiy qadriyatlarni faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy hayotga tatbiq etishga ham urg‘u beradi.

Alisher Navoiy ning “Mahbub ul-qulub” asarida axloqiy qadriyatlar mohiyati chuqur va keng qamrovli tarzda yoritilgan. Bu asar, asosan, insonning ichki dunyosini, uning ma’naviy yuksalishini va axloqiy kamolotini o‘rganadi. “Mahbub ul-qulub”da bir nechta muhim axloqiy qadriyatlar keltirilgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

Adolat – asarda adolatning ahamiyati, uning inson hayotidagi o‘rni katta. Navoiy adolatni nafaqat ijtimoiy tizimda, balki individual hayotda ham o‘rnatish zarurligini ta’kidlaydi. Adolatli bo‘lish, nafaqat boshqalarga, balki o‘ziga nisbatan ham adolatli bo‘lishni anglatadi.

Halollik va rostgo‘ylik – Navoiy halollikni eng oliy axloqiy fazilat sifatida qadrlaydi. U odamlarning o‘zaro munosabatlarida rostgo‘ylikni, so‘zida turishni va yolg‘on, aldovdan saqlanishni targ‘ib etadi.

Mehr-oqibat – Mehr va rahm-shafqat, insonlarning bir-biriga bo‘lgan muhabbati va mehr-muhabbatini yuksaltirish, Navoiy uchun axloqiy fazilatlarining asosiy ustuvoridir. Asarda insonlar o‘rtasidagi mehr-oqibat, insonlar dardini tushunish, bir-birini qo‘llab-quvvatlash va mehrga intilish alohida ta’kidlangan.

Sabrlilik – asarda sabrni katta axloqiy fazilat sifatida ko‘ramiz. Hayotda duch kelgan qiyinchiliklar, musibatlarga qarshi turishda sabr qilish, o‘zini tuta bilish va har xil holatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qilish zarurligini ta’kidlaydi.

Ilm va hikmat – “Mahbub ul-qulub”da ilm va hikmatning ulug‘ligi haqida so‘z yuritiladi. Navoiy ilmni axloqiy hayotning asosiy manbai deb biladi. Ilmni o‘rganish, faqat dunyoviy bilimlar bilan cheklanmay, insonning ma’naviy kamolotiga xizmat qilishi kerak.

O‘z-o‘zini anglash – Navoiy asarida, inson o‘zini anglash, o‘zining ichki dunyosini va ruhiy holatini tushunish ham katta ahamiyatga ega. Bu orqali u o‘zining xatolarini tuzatishi, axloqiy jihatdan yuksalishi mumkin.[4]

Shu bilan birga, “Mahbub ul-qulub”da Navoiy axloqiy qadriyatlarni o‘rganish, o‘zgarish va rivojlanishning ruhiy va ijtimoiy zaruriyatini ulug‘ulaydi. U insonni nafaqat axloqiy jihatdan to‘g‘ri yo‘lda yurishga, balki jamiyatda o‘z o‘rnini topishga ham chaqiradi. Asar nafaqat axloqiy qadriyatlarni muhokama qiladi, balki ularni amaliy hayotga tatbiq etishga yo‘naltiradi.

“Mahbub ul-qulub asarida” ham yoshlarni tarbiyalash ishiga, insonlarni adolatli rostgo‘y bo‘lishi kabi g‘oyalari bayon etilgan. Asarda insonlarni mehnatsevarlikka, kasb-hunar o‘rganib ezgulik yo‘lida ishlashga chaqiradi.

Asarning bir qancha boblari odob-axloq ta’lim-tarbiya masalalariga bag‘ishlangan. Asarda axloqiy qadriyatimizdan biri bo‘lgan sabr-toqat, qanoat haqida ibratli fikrlarni yuritadi. Navoiy odob-axloq haqida fikr yuritib, yomon xulq-atvor hamda yaramas odatlarni qoralaydi, oliyjanob insoniy fazilatlarini yuksak qadrlaydi, bolalarni imli, go‘zal xulqli qilib tarbiyalashga chaqiradi. Xususan, odob haqida shunday yozadi: “Odob- kichik yoshlilarni kattalar duosiga sazovor etadi; yoshlar u duo barakasidan umrbod bahramand bo‘ladilar. Odob – ulug‘lar ko‘nglida yoshlarga mehr uyg‘otadi va u odobli yoshga bo‘lgan muhabbat

ko'ngilda abadiy qoladi. Yoshlarni ko'zga ulug' qilib ko'rsatadigan fe'l- atvori odobidir, odoblilarning yurish – turishida xalq ulug'vorlik ko'radi.[1]

Yoshlarning odobi uning ko'rki bezagidir. Kishilar odobi, xulqi bilan el orasida obro' e'tobor qozonadi, kamsitilish, mazah qilinishlardan saqlanadi. Odob va tavoze – mehr-muhabbatning zeb-ziynatidir, odobsizlik – do'stlikka putur yetkazadi. Navoiy xulqi go'zal, ilmi insonlarda barcha axloqiy qadriyatlar mujassam bo'lishini ta'kidlaydi. Talaba- yoshlarimiz odobli go'zal xulqli bo'lish bilan birga hilm (muloyim tabiatlilik) egasi bo'lishi, ya'ni axloqli odamning qimmatbaho libosi va u kiyim turlarining eng chidamli matosidir. "Hilm-inson vujudining xushmanzara mevalik bog'idir va odamiylik olamining javohirga boy tog'idir. Yumshoq ko'ngillilik- hodisalar to'la dengizdagi kishilik kemasining langari desa bo'ladi va insoniyat qadrini o'lchaydigan tarozining toshiga tenglashtirsa ham bo'ladi.[2] Demak, yoshlarimizga ochiqko'ngillik, qalbni pok saqlashni, vujuduni yomon illatlardan ham saqlamoq kerakligini o'rgatib borish joizdir.

Asarda mehr-oqibat va sadoqat, O'zini to'g'ri yo'lga solish, ma'naviy yuksalish va kamolot singari axloqiy qadriyatlarni shakllantirish ham bayon etilgan.

Navoiy o'z asarida, insonni o'zining xatolarini anglab, ularni tuzatishga undaydi. Bu jarayon o'z-o'zini tarbiyalash, axloqiy xatolarni tuzatish va haqiqiy axloqiy kamolotga erishish uchun muhim bosqichdir.

Navoiy axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonini insonning ma'naviy yuksalishiga olib boradigan uzoq va murakkab bir jarayon sifatida tasvirlaydi. Har bir inson, o'zining axloqiy qadriyatlarini shakllantirgan sari, u o'zini yanada ma'naviy boyitib boradi va kamolotga erishadi. Bu ma'naviy yuksalish, faqat o'zida emas, balki jamiyatda ham ijobiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.[3]

Shu tarzda, "Mahbub ul-qulub"da axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayoni, insonning o'zini anglash, ilm va hikmatga intilish, adolat va halollikni qadrlash, mehr-oqibat va sabrni o'rganish, o'zini to'g'ri yo'lga solish kabi bir qator fazilatlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayon insonni nafaqat axloqiy jihatdan to'g'ri yo'lga yo'naltiradi, balki uning ma'naviy yuksalishiga va ijtimoiy hayotdagi to'g'ri o'rni topishiga xizmat qiladi.

Mahbub ul-qulub asarida ham yoshlarni tarbiyalash ishiga, insonlarni adolatli rostgo'y bo'lishi kabi g'oyalari bayon etilgan. Asarda insonlarni mehnatsevarlikka, kasb-hunar o'rganib ezgulik yo'lida ishlashga chaqiradi.

Xulosa qilib aytganda, "Mahbub ul-qulub"da axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayoni, insonning o'zini anglash, ilm va hikmatga intilish, adolat va halollikni qadrlash, mehr-oqibat va sabrni o'rganish, o'zini to'g'ri yo'lga solish kabi bir qator fazilatlarni o'z ichiga oladi. Navoiy o'z ijodida individual tarbiyaning ijtimoiy asoslari hamda ularning inson ruhiy olamidagi obyektiv va subyektiv xususiyatlarini to'g'ridan-to'g'ri tahlil qilishni emas, balki shaxsning ijtimoiy faoliyati, individual xislati orqali ko'zga tashlanadigan belgilarni badiiy umumlashtiradi. Zero, bu kabi xarakterning tarkib topishi muayyan psixologik qonuniyatlar ta'sirida yuzaga keladi. Ana shu nuqtai nazardan qaralganda, Navoiy

merosi nafaqat badiiy jihatdan, balki psixologik, kognitologik jihatdan ham tadqiq etilmog‘i lozim.

Alisher Navoiyning hayoti va merosi yoshlarni tarbiyalashda, hamda ularni umuminsoniy fazilatlar asosida ulg‘aytirishdada bizga har tomonlama namunadir.

ADABIYOTLAR:

- 1.Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Toshkent:Yoshlar matbuoti, 2022.
- 2.A.Muhammadiyev “Mahbub ul-qulub” da insoniy qobiliyat tarannumi. “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjumani materiallari. Toshkent: 2019-yil.
- 3.Sirojiddinov S., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. Toshkent:Akademnashr, 2020.
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4 tomlik. 1-jild. –Toshkent: Fan, 1983.

ALISHER NAVOIY IJODINING BOLALAR FOLKLORI BILAN BOG‘LIQLIGI VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

Dilfuza Shamsidinovna ZAYNUTDINOVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish kafedrası
o‘qituvchisi, NavDU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodining bolalar folklori bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Uning asarlarida uchraydigan hikmatli so‘zlar, masallar va ertaklarga xos motivlar bolalar nutqi va tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, maqolada Navoiy asarlarining bolalar tarbiyasiga ta’siri, ilmga muhabbat, ezgulik va adolat tamoyillari asosida shakllangan tarbiyaviy jihatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: folklor, bolalar folklori, ritmik, tarbiyaviy aspekt, maqol, tekerma.

Alisher Navoiy o‘zining boy adabiy merosi orqali nafaqat kattalar, balki bolalar uchun ham ibrat bo‘luvchi, ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan asarlar yaratgan. U bolalar adabiyotining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, an’anaviy bolalar folklori (ertaklar, topishmoqlar, tekerlamalar) bilan bevosita shug‘ullanmagan. Shunga qaramay, uning ijodi bolalar folklori bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u xalq ijodidan ilhom olgan va bu an’analarni rivojlantirgan.

Alisher Navoiy xalq og‘zaki ijodidan, ayniqsa, maqol va topishmoqlardan ijodida keng foydalangan. Uning asarlarida uchraydigan xalqona iboralar va ta’lim-tarbiyaviy mazmundagi hikoyatlar bolalar folklori bilan bog‘liq jihatlarni namoyon qiladi.

Misol uchun, “Mahbub ul-qulub” asarida Navoiy xalq donishmandligini yorituvchi hikmatli soʻz va maqollarni ishlatgan. Ular bolalar nutqi va tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.[5]

Masallarning bolalar tarbiyasidagi oʻrni. Navoiy oʻzining ayrim asarlarida masallar janridan foydalangan. Masallar koʻpincha bolalar folklorida keng qoʻllaniladi va bolalar dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol oʻynaydi. Masalan, “Hayrat ul-abror” dostonida uchraydigan axloqiy-maʼrifiy hikoyatlar ertak va masallar bilan bogʻliqdir.

Misol tariqasida, asarlarida uchraydigan “Sher va ilon”, “Boʻri va qoʻy” kabi hikoyalar bolalar folkloridagi hayvonlar ishtirok etadigan ertaklarga oʻxshashdir. Bu masallardan olingan xulosalar bolalar tarbiyasida katta ahamiyatga ega va bolalar bunday masallarni keng qiziqish bilan mutola qiladilar.[6]

Bolalar folklori unsurlari va Navoiy asarlari. Topishmoqlar va maqollar bolalar folklorida keng tarqalgan topishmoqlar va shuningdek, maqollar Navoiy ijodida ham uchraydi. Misol uchun:

“Kimki haqiqatni izlar, doim yorugʻlikka yetar.”

“Ilm xazinasini til ostidadir.”

Bu kabi hikmatli soʻzlar bolalar uchun nafaqat axloqiy tarbiya, balki nutq boyligini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega.[4]

Ritmik va qofiyali iboralar

Bolalar folklorida tez aytish (tekerlamalar) va ritmik sheʼrlar muhim oʻrin tutadi. Navoiy gʻazallarida ham ohangdorlik, sodda va tushunarli ifodalar bolalar uchun tushunarli boʻlib, ularning badiiy didini shakllantirishga yordam beradi. Misol:

“Koʻngul soʻrsa sabo yodini, ey gul, necha bor,
Kim seni yod etkan ul yorni, firoq ichra meni?”

Bu kabi satrlar ohangdorligi tufayli bolalar tomonidan yodlashga oson va tez oʻzlashtiriladi.

Navoiy ijodining bolalar tarbiyasidagi oʻrni

Alisher Navoiy asarlari axloqiy va tarbiyaviy jihatdan bolalar uchun ham katta ahamiyatga ega. Uning hikmatli soʻzlari, masallari va maqollari yosh avlodni ezgulikka, adolatga, ilmga boʻlgan intilishga undaydi.[2]

Navoiy asarlaridan bolalar tarbiyasi uchun muhim jihatlar:

* Ezgulik va yovuzlik oʻrtasidagi kurash (ertaklarga xos motivlar).

* Ilmga boʻlgan muhabbat (tarbiyaviy aspekt).

* Halollik va adolat tamoyillari.

* Xalq donishmandligini aks ettiruvchi maqollar va hikmatlar.

Alisher Navoiy ijodi xalq ogʻzaki ijodi, jumladan, bolalar folklori bilan bevosita bogʻliq boʻlmasa-da, u xalq adabiyotidan ilhom olgan va uning taʼsirini oʻz asarlarida aks ettirgan. Navoiy ijodida uchraydigan maqollar, topishmoqlar, hikmatli soʻzlar va masallar yosh avlod uchun nafaqat badiiy zavq bagʻishlovchi manba, balki ularga ibrat boʻluvchi tarbiyaviy vosita sifatida xizmat qiladi.

Navoiy oʻz asarlarida bolalarning maʼnaviy-axloqiy shakllanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadigan koʻplab gʻoyalarni ilgari surgan. U ezgulik va yovuzlik

o'rtasidagi kurashni tasvirlash orqali bolalarda adolat va haqiqatga intilish tuyg'usini shakllantiradi. Shuningdek, ilmga bo'lgan muhabbat, halollik, sadoqat va sabr-toqat kabi qadriyatlar ham Navoiy asarlarida keng yoritilgan.

Uning she'riyati va nasriy asarlarida uchraydigan ritmik va qofiyali iboralar bolalar uchun yod olishni osonlashtiradi va ularning badiiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Navoiy hikmatli so'zlari va masallari orqali bolalarga axloqiy tarbiya berish, ularga hayotiy saboqlar o'rgatish imkonini bergan.

Umuman olganda, Alisher Navoiy ijodi bolalar tarbiyasi va ma'naviy rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Uning asarlari xalq donishmandligini o'zida mujassam etgan bo'lib, yosh avlodni ezgulikka, bilim olishga va axloqiy yuksalishga undaydi. Shu bois, Navoiy merosi nafaqat kattalar, balki bolalar uchun ham muhim bo'lib, ularning badiiy didini shakllantirish va ularni ma'rifat sari yo'naltirishda ulkan o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR:

1. Axmedov B. Alisher Navoiy va Sharq adabiyoti – Toshkent: Fan, 2001.
2. Abdullayev N. Navoiy asarlarida axloqiy tarbiya – Toshkent: O'zbekiston, 2015.
3. Jo'rayev N. O'zbek bolalar folklori – Toshkent: Fan, 2008.
4. Mirzaev T. Xalq og'zaki ijodi va Navoiy – Toshkent: Fan, 1999.
5. Navoiy A. Mahbub ul-Qulub – Toshkent: Fan, 1991.
6. Alisher Navoiy Hayrat ul-abror – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
7. Rasulov A. Alisher Navoiy asarlarida xalq og'zaki ijodi an'analari – Toshkent: Fan, 2005.
8. Qosimov, B. Alisher Navoiy ijodining tahliliy yondashuvi – Toshkent: Universitet, 2010.

NAVOIY ASARLARINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

*Aziza Alisherovna ESHPO'LATOVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada buyuk shoirimiz Navoiy asarlarining pedagogik ahamiyati va komil inson tarbiyasidagi beqiyos o'rni yoritib berilgan. Asarlarida insonni irqi, millati, jinsi va yoshidan qat'i nazar, hurmat qilish, uning baxt-saodatini ta'minlash haqida ham fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, kamolot, insoniy fazilat, komil inson, muruvvat, saxiylik.

Insoniyat kamolotiga chek-chegara yo'q. Benuqson kamolot sari intilmoq taraqqiyot bo'sidir. Mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yoshlar insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, to'g'rilik, muhabbat, sadoqat, kattaga hurmat, kichikka izzat, ota-onani e'zozlamoq, bilimga intilmoq, ozodalik, shukronalik kabi fazilatlarni o'zlarida mujassam etsalar yoki o'z

hayotlari davomida ana shu yuksak insoniy fazilatlariga qarab intilsalar, albatta, ma'naviy kamolotga erishadilar.

Insonparvarlik – insonni irqi, millati, jinsi va yoshidan qat'i nazar, hurmat qilish, uning baxt-saodatini ta'minlashga qo'ldan kelgancha harakat qilish, o'zgalar farog'atidan xursand bo'lishdir.

Farzandlari ma'rifatli, ma'naviyatli, pedagogic tushunchaga ega, o'zligini tanitgan xalqning komil farzandlari, ona Vatan, zamin qadrini har narsadan yuksakka qo'yadi. Shuning uchun ham xalqimiz farzand tarbiyasida boshidan, ya'ni juda yoshligidan e'tibor qiladi.

Ruboiy Sharq va Garb adabiyotida keng tarqalgan janrlardan biri bo'lib, o'zbek mumtoz shoirlari ijodining salmoqli qismini tashkil etadi. Shu sababli adabiy ta'limda ruboiy ilgaridan davomli tarzda o'qitib kelingan. Hozirgi vaqtda umumiy o'rta ta'lim maktablari darsliklarida Alisher Navoiy, Bobur, Umar Hayyom, Munis, Ogahiy kabi shoirlarni ruboiylari joy olgan.

O'quvchilar ilk bor ruboiy bilan tanishar ekan, janrning o'ziga xos belgilari to'g'risida boshlang'ich tushunchalarga ega bo'ladilar. Bunda she'rlarni o'rganishga kirishishdan oldin ularga "ruboiy" atamasi arabcha so'z bo'lib, "to'rtlik" ma'nosini anglatishi, lekin har qanday to'rtlik ruboiy bo'lolmasligi, buning uchun u aruz vaznidagi axram va axrab tarmoqlarida yozilishini tushuntiriladi.

Komil insonni tarbiyalash va pedagogik tushuncha bugungi kunning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. Mazkur maqsadni amalga oshirishda adabiyot darslarining ahamiyati beqiyos. Alisher Navoiyning maktabda o'rganiladigan, umuman hamma asarlari zahirida komil inson timsoli, unga xos jamiki sifatlar aks etib turadi. Shu bois, umumta'lim maktablarining deyarli barcha sinflarida o'quvchilar ruhiyati, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, Navoiy asarlaridan parchalar o'rin olgan. Bu asarlarda odob-axloq, tavoze, qanoat, kamtarinlik, poklik, halollik, saxovat, himmat, mehr-muruvvat kabi insoniy fazilatlar tarannumi mujassam.

Navoiy asarlarida ota-onaning har bir yoxud nasihati farzand uchun qonun ekanligi, farzand ota-ona oldida burchdorligi xususida juda ko'p ta'kidlaydi. Navoiy ota-onadan keyin qarindosh-urug', aka-uka va opa-singillarga "silai rahm" – yaxshi munosabatda bo'lish borasida ham to'xtalib o'tgan. Umuman, inson o'z yaqinlariga rahmdil bo'lishi lozim. O'z yaqinlariga rahmdil bo'lmagan odam boshqalarga ham rahm-shafqatli bo'lolmaydi – deb xulosalaydi shoir.

Ulug'larga xizmat, kichiklarga shafqat. Alisher Navoiy Sharq kishilari uchun asosiy axloq mezoniga aylangan mazkur qoidani takrorlar ekan, ahamiyatini yaxshilab tushuntirgan: bironi tahqirlash, behurmat qilish yomon, lekin nomunosib holda hurmat bildirish, ortiqcha tavoze ko'rsatish ham kerak emas. O'rtacha muomala odobi, mahalla-ko'yda suhbat, o'tirish odobi ham Navoiy yodidan chiqmagan. Hammaga yaxshilik tilab, yaxshi xulq bilan yashash fayzli hayotga zamin hozirlaydi, deydi shoir.

Axloqiylik, Navoiy fikricha, odam uchun hayot-mamot masalasidir. Shu ma'noda shoir komillikni ulug'laydi. Go'zal insoniy fazilatlarni o'zida mujassam etgan etgan kishi, komil deydi. Bu martabaga yetgan inson poklik, yaxshilik va ma'rifatdan ortiq baxt yo'q ekaniga amin boladi:

Ey Navoiy, olam ahlida tama'siz yo'q kishi,
Har kishida bu sifat yo'qtur – anga bo'lg'ay sharaf.
Sen agar tarki tama' qilsang, ulug' ishdur bukim,
Olam ahli barcha bo'lg'ay bir taraf, sen – bir taraf.
Navoiy bir ruboiysida:

Izzat tama' kim aylasa tark etmayin tama',
Ul xorliqqa mujib erur: "Azza man qana".
Tuxmi tama'ki xorliq o'lmish uning bari,
Sen bo'yla xor tuxmin ekib, qilma gul tama'.

Ya'ni, tamadan kechmay, izzat tama qilma, xorlik urug'ini ekib, gul tama qilma, deydi Hazrat. Bunda chuqur ma'no bor, ma'rifat bor. Nima eksang, shuni o'rasan degan hikmat bor.

Sharq shoirlarida, jumladan, Alisher Navoiyda ham "Ishq agar komildurur, oshiq qilur ma'shuqni", - degan fikr bor. Bunda gap ruhoniylar sevgi haqida. Bu martabaga erishgan inson uchun oshiq bilan o'rtada hech qanday xususiy maqsad qolmaydi. Bunday ishq ruhiy kamolot va ko'ngil pokligining garovidir. Majnun Laylaga ishq – ana shunday ishq. Majnun ishqining komilligi tufayli oshiqqa xos bir qator sifat va fazilatlar Laylida namoyon bo'ladi.

Navoiy himmat sharhi uchun tabiatdan ham shunday juda oddiy, ammo ajoyib va g'aroyib misollar topib, badiiy talqin etadiki, uning mahoratiga qoyil qolmay iloj yo'q:

Tuxum yerga kirib chechak bo'ldi,
Qurt jondin kechib ipak bo'ldi.
Lola tuxmicha g'ayrating yo'qmi,
Ipak qurticha himmating yo'qmi?

Tuxum, ya'ni lola urug'i - yorug' dunyoni tark etib, yer bag'riga kirdi, g'ayrat-shijoat ko'rsatib tomir otdi, tuproqni yorib chiqib o'sdi, lola guli bo'lib ochilib, olamga go'zallik bag'ishladi. Qurt o'z jonidan kechib, o'z vujudini qurbon qilib, pilla o'radi. Shu yo'l bilan insoniyat olamini kiyinturgulik ipak hadya etdi. Arzimas bir urug' va jonzot g'ayrat va himmat bilan bunyodkorlik ko'rsatdi. Ey odamzot, sen koinotning gultojisan, sengagina ravo ko'rilgan tafakkur va amal koinotdagi boshqa bir jonzot-u jonsiz unsurda yo'q. Nahotki, oddiygina lola urug'ichalik g'ayrating, ipak qurtichalik himmating bo'lmasa, deya nido chekmoqda Navoiy. Bunday ta'sirchan nido har qanday dangasa, insonlik g'ayrati, g'ururi, himmati mudragan o'smirni ma'naviy-ruhiy uyg'oqlikka da'vat etadi.

Navoiy merosi inson ko'nglida zavq uyg'otish, tuyg'ulariga, hissiyotlariga ta'sir qilib, poklash bilan birga, kishini ona Vatanga muhabbat, uning o'tmishiga hurmat, ruhida tarbiyalaydi, komillik sari yetaklaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. T.: G'. Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
2. D. Qur'onov Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati. T., 2010. 390-391-betlar.
3. Q. Yo'ldoshev O. Madayev, A. Abdurazzoq. Adabiyot o'qitish metodikasi. T., 1994.
4. Alisher Navoiy. Hikmatlar. T.: O'zbekiston, 2011.

TURKIY-O'ZBEK TILINING BALOG'ATI VA FASOHATIGA BAG'ISHLANGAN ASAR SHARHI

Nusrat Narzullayevich, SHUKUROV
Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari 1499-yilda yozilgan bo'lib, turkiy-o'zbek va fors-tojik tillarini qiyosiy o'rganish orqali turkiy tilning fasohati va balog'atini ilmiy asosda yoritishga bag'islangan. Muallif turkiy tilning arab va fors tillari bilan teng darajada yuksak ekanligini misollar yordamida isbotlaydi. Asarda til tarixi, o'zbek adabiyoti rivoji, she'riy janr va badiiy san'atlar, shuningdek, fors-tojik adabiyoti vakillari va Navoiyning ijodi haqida qimmatli mulohazalar keltirilgan. Navoiy o'z davrida turkiy she'riyatning yuksalishiga hissa qo'shgan shoirlar – Sakkokiy, Lutfiy, Atoiy va boshqalar ijodini alohida e'tirof etadi. Asarda qit'a, ruboiy, tuyuq kabi janrlarda yozilgan namunalar va saj' san'ati orqali o'sha davr nasrining o'ziga xosligi namoyon etiladi. Ushbu ilmiy asar turkiy tilshunoslikning nodir yodgorligi bo'lib, uning adabiy va lingvistik jihatdan yuksak ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *Turkiy-o'zbek tili, Fors-tojik tili, Fasohat, Balog'at, Ilmiy mulohazalar, Tuyuq, Badiiy san'atlar, Tajnis, Iyhomi, Saj' san'ati, Ruboiy, Xamsa*

"Muhokamat ul-lug'atayn". "Ikki til muhokamasi" deb nomlangan bu asar 905 hijriy yilning jumodiyul avval oyi- 1499 melodiy yilning dekabr oyi oxirlarida chorshanba kuni yozib tugatilgan: Bu nomaki, yozdi qalamim tortib til, Tarixin aning jumodiyul-avval bil. Kunnung raqamini chorshanba qilg'il, To'qqiz yuz yildin o'tub erdi besh yil. "Muhokamat ul-lug'atayn" da turkiy-o'zbek va fors-tojik tillarini qiyosiy o'rganish vositasida turkiy-o'zbek tilining Sharqda mashhur bo'lgan arab va forstojik tillari darajasidagi mavqeidan so'z yuritiladi hamda ulardan, xususan forstojik tilidan farq qiluvchi xususiyatlari turli xildagi ko'pgina misollar, jumladan "yuz lafz" (yuzta so'z)ni keltirib, talqin qilish bilan isbotlanadi. Bu ma'no Alisher Navoiyning quyidagicha yozganlarida ham o'z ifodasini topgan. "Turkiy va sort lug'ati kayfiyati va haqiqati sharhida bu risolani jam' qilib bitidim va anga "Muhokamat ul-lug'atayn" ot qo'ydim, to turk eli tili fasohatu diqqati va balog'atu vus'ati... zohir qildim. Va xayoling'a mundoq kelurkim, turk ulusi

fasihlariga ulug' haq sobit qildimki, o'z alfoz va iboratlari haqiqati va o'z til va lug'atlari kayfiyatidin voqif bo'ldilar". Shuni eslatish joizki, Alisher Navoiy turkiy tilning fazilatlari haqida so'z yuritganda o'sha davrda mashhur bo'lgan arab, fors-tojik va hind tillarini kamsitmaydi, aksincha ularning har biriga xos bo'lgan xususiyatlarni ham ehtirom bilan bayon etadi. Bundan kuzatilgan maqsad turkiy tilning fasohati va balog'ati haqida ilmiy asoslangan mulohazalarni bayon etish bilan bir qatorda "...turk nozimlari (shoiri) o'z alfozlari bilan she'rg'a mashg'ulluq qilg'aylar va ko'ngul g'unchasi dog'idinki, pechlar chirmanibdur, bahor nasimidek anfos bila guldek ochilg'aylar". Demak, Alisher Navoiy turkiy tilning fasohati va lug'aviy boyligini dalillar bilan isbotlash vositasida turkiy tildagi adabiyot-she'riyatning yanada ravnaq topishi lozimligini ham nazarda tutgan. "Muhokamat ul-lug'atayn"da faqat qiyosiy tilshunoslik masalalaridan so'z yuritilgan emas, balki unda til tarixi, o'zbek adabiyoti tarixi, she'riy janr va badiiy san'atlar, fors-tojik adabiyoti namoyandalari asarlari va o'zining ijodiga doir qimmatbaho mulohazalar ham mavjud. Alisher Navoiyning qayd qilishicha, turkiy til va turkiy tildagi adabiyot tarixi o'zaro chambarchas bog'lidir. Shuning uchun asarda Hulokuxon, Amir Temur, Shohrux mirzo hamda Sulton Husayn Boyqaro zamonlarida turkiy tilning rivojlangani tufayli turkiy she'riyatning mavlono Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoyi, Muqimiy, Amiriy, Yaqiniy, Gadoyi, mavlono Lutfiy, Husayniy va o'zi kabi zabardast siymolari maydonga kelganligini alohida qoniqish bilan uqtirib o'tadi. Shuning bilan birga, bu jarayonning Sulton Husayn Boyqaro - Husayniy tomonidan qo'llab-quvatlanishi tufayli yanada rivojlangani ta'kidlanadi. "Muhokamat ul-lug'atayn"da she'riy janr (tuyuq), badiiy san'atlar (iyhom, tajnis, tarse') haqida turkiy she'riyatdagi o'ziga xos xususiyatlari jihatidan ma'lumot beriladi. Fikrning isboti uchun misolga murojaat qilaylik: "She'rd a barcha tab' ahli qoshida ravshan va majmu'i fusaho ollida mubarhandurki, tajnis va iyyom bag'oyat kulliydir. Va bu farxunda iborot va xujasta alfoz va ishorotda forsiydin ko'prak tajnisomez lafz va iyyomangez nukta borki, nazmga mujibi zebu ziynat va boisi takallufu san'atdur. Masalan: ot lafziki, bir ma'nisi ismdur, yana bir ma'nisi markabdur va yana bir ma'nisi amrdurkim, toshni yo o'qni ot, deb buyurg'aylar. Bu tajnisda mundoq deyilibdurkim, Bayt: Chun pari-yu hurdur oting, begim, Surat ichra dev erur oting, begim. Har xadangekim, ulus andin qochar, Notavon jonim sari oting, begim". "Muhokamat ul-lug'atayn"ning adabiyotshunoslik sohasidagi ahamiyati yuqorida qayd qilingan fazilatlar bilan cheklanmaydi. Asarda Alisher Navoiyning turkiy va forsiy tillarda yaratgan asarlari, ularning yozilish sabab va tarixlari, ijodiy hamkorliklari haqida ma'lumotlar uchraydiki, ular ulkan shoirning ijodiy tarjimai holini yaratishda qimmatbaho material bo'lib xizmat qiladi. Bu jihatdan "Xazoyin ul-maoni", "Tuhfat ul-afkor", "Xamsa" va boshqalar haqida yozganlari ardoqlidir. Bundan tashqari, "Muhokamat ul-lug'atayn"ning adabiy ahamiyati yana shu bilan ham belgilanadiki, unda o'sha davr nasri uchun xos uslub - saj' san'ati (nasrda ohangdorlik va qofiya, radif unsurlari) mahorat bilan ishlatilgan hamda turli xil she'riy nav'lardan misol keltirish bilan ziynatlangan. Misollar, Saj' san'ati: "Takallum ahli xirmanining xo'shachini va so'z durri samini maxzanining amini va

nazm gulistonining andalebi nag' masaroyi, ya'ni Alisher al-mutaxallis bin Navoyi ... mundoq arz qilurkim...". Asarda ruboiy (7 ta, shu jumladan, 1 ta forsha), qit'a (2 ta), tuyuq (2 ta) janridagi she'rlar hamda ko'plab fard baytlar mavjud bo'lib, ularning aksariyati mustaqil asar xususiyatiga ham egadirlar. Ruboiy: Ey so'z bila qilg'on ofarinish og'oz, Insonni aroda aylag'on mahrami roz. Chun "kun fa yakun" safhasiga bo'ldi tiroz, Qilg'on oni nutqi-la boridin mumtoz. Shunday qilib, Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" ilmiy asari turkiy tilshunoslikning nodir yodgorligi bo'lib, unda turkiy tilning o'ziga xos xususiyatlari, uning buyuk ahamiyatga molik badiiy yodgorliklarni yaratishga qodirligi masalasi ilmiy asosda yoritilgan. Shuning bilan birga asarning mavzu doirasi keng bo'lib, unda umuman adabiyotshunoslikning turli xildagi muhim muammolari tilga olingan va o'sha davrdagi nasrning o'ziga xos xususiyatlari o'z ifodasini topgan.

ADABIYOTLAR:

1. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиёти тарихи (Ўқув қўлланма). II қисм. – Сам.: СамДУ нашри, 2002.
2. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. (O'quv qo'llanma) –T.: Yangi asr, 2006.
3. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1993.
4. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 16-tom. - T.: Fan, 2000. ("Muhokamat ul-lug'atayn", "Mezon ul-avzon").
5. Alisher Navoiy ijodi va nasr problemalari // O'zbek nasri tarixidan. – T.: Fan, 1982. 36-59-b.
6. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari (Majmua, Tuzuvchi: N.Rahmonov). 1-2 jild. – T.: Fan, 2005; 2006

ALISHER NAVOIY IJODIDA “BOLA” KONSEPTI

Aziza Akmalovna DAVLATOVA,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti
Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy mumtoz merosida bola konsepti va bolaning ulg'ayishida asosiy omillar bo'lgan tarbiya, ilm, jamiyat bilan ijtimoiy munosabatlar, bolaning tashqi muhitdan o'rnak olishi va bolaning axloqiy ko'nikmalari asarlar hamda asarlarda keltirilgan obrazlar orqali tahlil etilgan. Navoiy bola tarbiyasi hamda uning nechog'lik muhim ahamiyatga ega ekanligi haqidagi qarashlari “Xamsa” dostonlari birlashmasining “Farhod va Shirin” dostonida, “Mahbub ul-qulub” dostoni misolida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: bola konsepti, bola va tarbiya masalalari, bola va axloq, ustoz va shogirt masalalari, bolaning ilm olishi.

Bola konsepti – bu shaxsning barkamollikka erishish, mustaqil rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalanish, madaniyatli, ijobiy insoniy fazilatlariga ega, bilimdon

va ilmi, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lib shakllanishi kabilarni o'zida mujassamlashtiruvchi sifatida tarflashimiz mumkin.

Alisher Navoiy asarlarida bola, uning tarbiyasi va ma'naviy rivojlanishi haqidagi tasavvurlarni chuqurroq tahlil qilar ekanmiz, Navoiy bolalikni faqat o'sib ulg'ayish, biologik jihatdan o'sish bosqichi sifatida ko'rmaydi. Buyuk bobokalonimiz bola orqali jamiyatning ma'naviy barkamolligi, insoniyatning kelajagi va uning axloqiy shakllanishi haqida asarlarida o'z qahramonlari orqali, ularning timsolida, asar sahnalarida o'z fikrlarini keltiradi. Adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov aytganidek, "Navoiy oddiy ertakchi shoir emas, uning har bir ifoda obrazi, lavha va tamsillarida muayyan umumfalsafiy, kayhoniy-ilohiy ma'no bor"³³. Navoiy asarlarida bola obrazi bir nechta muhim jihatlar orqali tasvirlanadi:

Bola va tarbiya. Navoiy asarlarida bola va uning tarbiyasi masalalari o'ta muhim mavzu hisoblanadi. U bola tarbiyasini, ilm o'rganishni, bolaning yaxshi odoblarni o'zlashtirishni hamda axloqiy fazilatlarni rivojlantirishni ta'kidlaydi. Bu nuqtai nazardan, bola faqat o'rganish va bilim olish jarayonida bo'lgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Navoiy, "Xamsa" asarida, bola tarbiyasi bilan bog'liq ko'plab masalalarni ko'taradi. Misol uchun, "Farhod va Shirin"³⁴ dostonida, Farhodni yoshligidan boshlab, ota-ona, muallimlar va jamiyat tomonidan tarbiyalanish, ilm olish va fazilatlarni rivojlantirish jarayoni ko'rsatiladi. Bu jarayon bolaning shaxsiy rivojlanishining asosiy bosqichi hisoblanadi. Farhodning ilmga bo'lgan muhabbati va yuksak axloqi, uning o'sish yo'lida eng muhim omillar sifatida ajralib turadi. "Qobilg'a tarbiyat qilmamoq zulmdur va noqobilg'a tarbiyat – hayf. Ani adami tarbiyat bila zoye' qilma va munga tarbiyatingni zoye' qilma (Ya'ni: Qobiliyatli odamni tarbiya qilmaslik zulmkorlik va noqobil odamga tarbiya xayfdir. Unisiga tarbiyani ayab nobud qilma, bunisiga tarbiyangni zoye qilma).

Qit'a:

Qobilg'a tarbiyat erur ul nav'kim, guhar

Tushsa najosat ichra yug'ay kimsa ani pok.

Gar it uzumig'a kishi may birla bersa suv,

Bu tarbiyat bila qila olg'aymu ani tok³⁵ [1;530].

Albatta, bu so'zlar zamirida ta'lim beruvchi ustoz va murabbiylarni ogohlikka chaqirish, foydali yo'l-yo'riqlar berish maqsadi yotibdi, bizning nazdimizda.

Bolaning ilm olishi. Alisher Navoiy ilmning bolalar uchun nihoyatda zarur ekanini ta'kidlaydi. Uning asarlarida, bola o'zining bilim olish va ma'naviy yuksalish yo'lidagi izlanishlarida ilg'or bo'lishi kerakligini takror va takror keltirib o'tadi. U ilmni olishni bolalar uchun mas'uliyat kelajak sari poydevor deb biladi. Bolaning ilm olishi ahamiyatini "Mahbubul-qulub"³⁶ asarida yanada aniqroq ifodalanadi, chunki bu asarda ilm olish va axloqiy fazilatlarni rivojlantirish haqida

³³ Najmiddin Komilov. Xizr chashmasi., Toshkent "Ma'naviyat", 2005-y, 320-bet.

³⁴ Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989-y., 590-bet.

³⁵ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik, 9-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 530 b.

³⁶ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik, 9-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 768 b.

to'liq fikrlar mavjud. "Mahbubu-ul-qulub" asarida Navoiy: "Yigitlik umr gulshanining bahoridir va hayot oqshomining tongidir. Asabu tomirlarga quvvat ham, qo'l-oyoq va a'zosi badanga quvvat ham andin", deb yoshlarni jismonan baquvvat bo'lishga chaqiradi. Uning "Yoshlikda yig' ilmning mahzanin, qarilik chog'i xarj qilg'il ani" da'vati bevosita yoshlarga qaratilgandir.³⁷

Bola va axloq. Navoiy asarlarida bolada axloqning shakllanishi, uning ijtimoiy hayotda qanday muhim rol o'ynashi haqida ham yozadi. Bolaning yaxshi axloqqa ega bo'lishi, uning jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun zarur bo'lgan eng asosiy sifatlaridan biridir. Bolaning o'z axloqini shakllantirish jarayoni — bu jamiyatni yaxshilashning, uning idealini, mustaqil shaxsini yaratishning asosiy yo'lidir.

"Xamsa" va boshqa asarlarida, masalan, "Lison ut-tayr"³⁸ (Qushlar tilidan) va "Navruzii odam" kabi asarlarda bola axloqni, imonni va ijtimoiy mas'uliyatni olishga alohida e'tibor qaratilgan. Ular bola va yoshlarni qanday qilib axloqiy jihatdan yuksaltirish zarurligini ko'rsatadi. "Lison ut-tayr" asarida Navoiy qushlar obrazi orqali insonning muhim fazilatlarini ko'rsatib o'tgan.

Bolaning shaxslaro o'rnak olishi. Navoiy bola uchun o'rnak sifatida, ulug' insonlarni o'z asarlarida namoyon qiladi. Farhod, Shirin yoki boshqa personajlar — ular bola uchun maqsad va ideal sifatida xizmat qiladi. Navoiy asarlarida bola yaxshi fazilatlar va ma'naviy yuksalishga erishish uchun o'zini ulug' insonlarga o'xshatish, ulardan o'rnak olish kerakligini ta'kidlaydi. Bu, o'z navbatida, yosh avlodning o'zini to'g'ri shakllantirishda yordam beradi.

Bola va ijtimoiy jamiyat. Navoiy asarlarida bola nafaqat o'zining shaxsiy rivojlanishi, balki jamiyatning rivojlanishida ham muhim o'rin tutadi. Bola tarbiyasining to'g'ri yo'lga qo'yilishi, jamiyatning kelajagi uchun nihoyatida katta ahamiyatga ega bo'ladi. Navoiy uchun bola jamiyatning kelajagi, uning ilm-fan, axloq va madaniyatini davom ettiruvchi vakili sifatida qaraladi. Bu har bir bolaga nisbatan ma'naviy va axloqiy mas'uliyatni anglashga olib keladi.

Bola va muallim munosabatlari. Ustoz va shogirt o'rtasidagi munosabat ham Navoiy asarlarida alohida o'ringa ega. Navoiy muallimni bola uchun ilm va tarbiyaning eng muhim manbai sifatida tasvirlaydi. Muallimlar bolalar uchun nafaqat ilmi beruvchi, balki ularga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi, axloqiy tarbiya beruvchi kishilar sifatida ajralib turadi. Ustozni Navoiy yo'lni yoriyuvchi sham chiroqqa qiyoslab, sham chiroq yona-yona o'zini ado etgani ustozning shogirtlariga bilim berishi va bu jarayon qanchalik murakkab va mas'uliyatli kasb ekanligini ko'rsatib beradi.

Alisher Navoiy asarlarida bola konsepti, uning tarbiyasi, ilm olish va axloqiy yuksalishining muhimligi orqali jamiyat va insoniyatni yuksaltirishga qaratilgan bir qator g'oyalarni ifodalaydi. Bola nafaqat jamiyatning kelajagi sifatida, balki uning kamolotiga erishishida asosiy poydevor sifatida ko'rsatiladi. Navoiy asarlarida bola axloqiy va ma'naviy shakllanishni o'z ichiga olgan shaxs sifatida

³⁷ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik, 9-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 768 b.

³⁸ Авазназаров О.Р. "Лисону-т-тайр"да бадийи туш ва сафар уйғунлиги. Респ.илм.-амал.анж. 20-май 2021. – Самарқанд. 153–157-б.

tasvirlanadi. Bu nafaqat bolalar, balki butun jamiyat uchun oʻrnak boʻlishi kerak boʻlgan bir gʻoyadir.

ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Toʻla asarlar toʻplami. 10 jildlik, 9-jild. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 768 b.
2. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1989-y., 590-bet.
3. Авазназаров О.Р. “Лисону-т-тайр”да бадий туш ва сафар уйғунлиги. Респ. илм.-амал. анж. 20-май 2021. – Самарқанд. 153–157-б.
4. Najmiddin Komilov. Xizr chashmasi., Toshkent “Maʼnaviyat”, 2005-y, 320-bet.

NAVOIY IJODINING BADIY IJOD TARAQQIYOTIDA TUTGAN OʻRNI

Muborak Raxmatovna SATTOROVA,
Navoiy davlat universiteti
“Oʻzbek tili va adabiyoti” kaferasi katta oʻqituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodining XXasr ilmiy va badiiy taraqqiyotida tutgan oʻrni va ahamiyati haqida fikr va mulohazalar yuritiladi

Kalit soʻzlar: Poetik obraz, badiiy ijod, qasida, bayt,botiniy ,zohiriy, zamonaviy, obraz, qimmatli, sheʼriyat.

Alisher Navoiy sheʼriyatidagi zohiriy maʼno yangiliklari bilan birga botiniy sifatlarni ham oʻrgangandagina ularni idrok etishga erishish mumkin. Shu sababdan Navoiy ijodidagi badiiyot va poetik obrazlar silsilasini qay darajada ekanligini zamonaviy usullarda oʻrganishni oʻz oldimizga maqsad qilib oldik.

Navoiy sheʼriyatidagi anʼanaviy obrazlarning tasviri va talqinidagi oʻziga xosligi badiiy tasvir vositalaridan foydalanishi, ular orqali lirik qahramonning ichki olami, maʼnaviy va ruhiy dunyosini ochib berishdagi mahorati adabiyotdagi kashfiyotlari bilan tadqiq etilganligi bilan ahamiyatga ega.

Navoiy ijodi XX asr ilmiy va badiiy ijod taraqqiyotiga ulkan taʼsir etdi. Navoiyning hayoti va ijodiga oid doktorlik, nomzodlik dissertatsiyalari yoqlandi, yirik Navoiyshunos olimlar yetishib chiqdi. V.Zohidov, A.Xaytmetov, A.Abdugʻofurov, H.Sulaymon, A.Rustamov, S.Erkinov,I.Haqqul kabi oʻnlab olimlar Navoiy hayoti va ijodi boʻyicha doktorlik dissertatsiyalari yoqladilar. N.Karimov, M.SHayxzoda, S.Gʻanieva, Yo.Ishaqov kabi koʻplab olimlar Navoiy ijodi boʻyicha fan nomzodlari boʻldilar.

XX asr oʻzbek adabiyotining rivojiga nazar tashlaydigan boʻlsak, uning taraqqiyotidagi muhim omillardan biri oʻzbek mumtoz adabiyotining ilgʻor anʼanalari ekanligi namoyon boʻladi. Oʻzbek mumtoz adabiyoti esa Navoiy siymosida eng yuksak choʻqqisiga koʻtarilgan. Demak, Navoiyning hayoti va ijodiga daxldor masalalar XX asr oʻzbek adabiyoti taraqqiyoti bilan bogʻliqdir.

Darhaqiqat XX asr o'zbek adabiyotida Navoiy timsoli, Navoiy asarlari syujeti, g'oyasi asosida yaratilgan asarlar, Navoiy asarlariga mansub bayt va parchalarning XX asr o'zbek adabiyotiga mansub asarlardagi ko'rinishlari diqqatga sazovordir.

XX asr o'zbek adabiyoti vakillari ichida Navoiy haqida qalam tebratmagan ijodkorlari juda kam uchraydi. Bu buyuk shoirga bo'lgan ehtirom mahsulidir. Ulug' o'zbek shoiri haqida nazmda Oybek, G'.G'ulom, H.Olimjon, M.Shayxzoda, Mirtemir, E.Vohidov, A.Oripov va boshqalar doston, ballada va she'rlar yaratdilar. Ular ichida Oybekning "Navoiy va Guli" dostoni diqqatga sazovordir. E.Vohidovning "O'zbekim" nomli qasidasidan quyidagi baytlar shoirga bo'lgan yuksak ehtirom namunasidir.

Mir Alisher na'masiga aks-sado berdi jahon,
She'riyat mulkida bo'lding shohu sulton, o'zbekim.
Menga Pushkin bir jahonu menga Bayron bir jahon
Lek Navoiydek bobom bor ko'ksim osmon, o'zbekim.

A.Oripovning «O'zbekiston Vatanim manim» she'rida Navoiyga alohida bandlar ajratilgan.

Ko'p jahongir ko'rgan bu dunyo
Barchasiga guvoh yer osti
Lekin, do'stlar, she'r ahli aro
Jahongiri kam bo'lar rosti.
Besh asrkim nazmiy saroyini
Titratadi zanjirband bir sher
Temur tig'i yetmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher
Dunyo bo'ldi chamanim manim
O'zbekiston Vatanim manim. {2.146-bet}

A.Oripovning "Alisher" nomli she'rida Navoiy ijodining buyukligi otashin satrlarda ifodalangan.

Jahonki muqaddas neki ko'ribdi
Bariga onasan, ey qodir hayot
Besh asr naridan boqib turibdi
Nurki bu yuzlarga nuroniy bir zot.
Shu buyuk o'g'lingni ardoqlab dildan
Xalqim, ta'zim etsang arzigay tamom
Uning nomi bilan birga bitilgan
Dunyo daftariga o'zbek degan nom. {2. 178-bet}

Nasrda Navoiy timsoli M.Osimning "Zulmat ichra nur", "Badarg'a", "Astrabod", "Darveshning fitnasi" hikoyalarida, Oybekning "Navoiy" romanida muvaffaqiyatli yaratilgan.Dramaturgiyada esa Uyg'un va I.Sultonning "Alisher Navoiy", V.Sa'dullaning "Xuroson yulduzi" nomli dramalari yaratildi. Leningradlik olimlar: A.P.Korsun, A.N.Boldirev, M.M.Dyanonlar ham "Alisher Navoiy" nomli drama yaratganlar. Bu drama 1959 yili "Guliston" jurnalining 3,4,5-sonlarida e'lon qilingan.

Navoiy dostonlari yoki dostonlari tarkibidagi hikoyalar asosida o'zbek adabiyotida turli janrlarda badiiy asarlar yaratildi. Xurshid Davron Navoiy dostonlari ta'sirida "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" dramalarini yaratgan.

H.Olimjon "Zaynab va Omon" dostonini yaratishda "Farhod va Shirin" dostonidan unumli foydalangan. Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida sevgi tarixini boshlar ekan:

Yozib jon mushobidin ikki oyat,
Debon Farhodu Shirindan hikoyat.-

deb yozgan edi. H.Olimjon ham "Zaynab va Omon" dostonini sevishganlar nomini zikr etish bilan boshlaydi:

Suylab beray Zaynab va Omon,
Sevgisidan bir yangi doston.

Navoiy doston boshlanishida Farhod yurti-Chin haqida so'z yuritsa, H.Olimjon "Zaynab o'sgan el" haqida yozadi. Navoiy dostonida xarakterlar to'qnashgan, ularning kim ekani yorqin aks etgan o'rinlar Xisrav va Farhod dialogi vositasida berilgan.

Dedi: "Qaydin, sen, ey Majnuni gumroh",
Dedi: "Majnun Vatandin qayda ogoh?". {1. 219-bet}

H.Olimjon ham Zaynab xarakteridagi qat'iyat, sevgiga sadoqat singari xususiyatlarni Anor xola va Zaynab dialogi orqali aks ettirgan:

- Bo'lmaydimi Sobir tez gapir,
- Opa, bo'lmas, jonim, gapim bor.
- Yo meni de, yoki Omonni,
- Netay, tikdim yo'lida jonni...

Bu kabi misollarni ko'plab keltirish va tahlil qilish mumkin.

Shu alohida eslash lozim-ki, Uyg'un va I.Sultonning "Alisher Navoiy" dramasida Navoiy siymosini A.Xidoyatov, O.Xo'jaev, Yo.Axmedovlar yaratganlar. Sahnada Navoiy siymosini uzoq yillar O.Xo'jaev muvaffaqiyatli yaratib berdi. «Alisher Navoiy» nomli kinofilmda Navoiy siymosi R.Hamraev tomonidan yaratilgan.

Har bir millat uzoq va yaqin o'tmishidagi hamda hozirdi davrdagi g'oyat qimmatli, o'chmas iz qoldiradigan, mangu yashaydigan umuminsoniy ma'naviy boyliklariga ega. Bu meros zamonlar o'tishi bilan o'z qadrini yo'qotmaydi, balki sifat jihatdan yangi ahamiyat kasb etadi. Demak, O'rta Osiyo tarixining yorqin, kishi tasavvurini lol qoldiradigan sahifalarini o'rganish, uni barchaning ma'naviy mulkiga aylantirish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biridir. Navoiy ijodi esa manashu ma'naviy mulkning asosiy negizini tashkil etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy, Mukammal asarlar to'plami 20 tomlik 6-7-8 jildlar, «Fan», «o'qituvchi», 1967.
2. A.Oripov, Mukammal asarlar to'plami Toshkent – 1998. FAN.
3. A.Rustamova, Navoiyning badiiy mahorati. Toshkent – 1999. FAN.
4. B.Тўхлиев . Адабиёт ўқитиш методикаси. Т.: Янги аср авлоди, 2006. 152 б.;

TAHSINGA LOYIQ IBRATOMUZ IJOD

Tuxtayeva Bibigul Akramovna

Navoiy davlat universiteti

“Oʻzbek tili va adabiyoti” kaferasi katta oʻqituvchisi

Annotatsiya: inson kamoloti uchun zarur xislatlar, falsafiy fikrlar, purmaʼno hikmatlar Navoiy ijodining asosiy mavzusi ekanligi qayd etilgan.

Kalit soʻzlar: tafakkur, inson omili, taʼlim-tarbiya, kamolot, maʼnaviyat, bebaho meros.

Hazrat Navoiy oʻzining oʻlmas asarlari bilan bir qatorda bosib oʻtgan umr yoʻli orqali ham alohida tahsinga sazovor ibratomiz meros qoldirdi. Shir asarlarida insonlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi doʻstlik, birodarlik, mehr-vafo, sadoqat singari tuygʻu kechinmalar ardoqlanadi.

Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodni voyaga yetkazish haqida qaygʻurmagan xalqning, millatning kelajagi yoʻq. bunday xalq va millat tanazzulga mahkum. Mamlakatimiz taʼlim tizimida maʼnaviy merosimiz boʻlgan otabobolarimiz, butun jahonga maʼlum buyuk mutafakkirlarimizning ilmiy merosi, nasihat-u oʻgitlari, ilm egallashdagi intilishlarini, millatimizning milliy qadriyatlarini oʻrganish, uni yosh avlodga singdirish imkoniyati kengayib bormoqda. Shu bois yosh avlodga taʼlim-tarbiya berishda Sharqning buyuk allomalari tomonidan yaratilgan maʼnaviyatga yoʻgʻrilgan madaniy merosi muhim tarbiya vositasi sanaladi.

Komil inson – bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi mutloq ruhga tutash, fayzu karomatdan serob, surati saranjom, qalbi ezgu tuygʻularga limmo-lim pokiza zot, Navoiy tili bilan aytganda:

Foniyvasheki, ham soʻzidur pok, ham oʻzi.

Hush davlat ul kishigaki, tushgay aning koʻzi. 00000

Navoiy falsafasi – insonparvarlik falsafasidir. Chunki tabiatda insondan ortiq moʻjiza yoʻq. ulugʻ shoir bilimli insonlarni eʼzozlash lozimligi haqida:

Birovki qilsa olimlarga taʼzim,

Qilur goʻyoki paygʻambarlarga taʼzim,-

deya olimlar mehnatiga, aql-zakovatiga yuqori baho beradi.

Buyuk daho Alisher Navoiy asarlarida ilmi boʻlish uchun, avvalo, oʻz ona tilini puxta va chuqur bilish lozimligi, shu bilan birga koʻp tillarni bilish ham muhim ekanligi, ilmi kishilar faqat hunar va ilm da emas, balki axloq-odobda ham oʻrnak boʻlishlari eʼtiborga molik.

Demonkim koʻngli poku, ham koʻzi pok,

Tili poku, soʻzi poku, oʻzi pok.

Demak, komillikning eng yuqori belgisi poklik, bunda nafaqat jism pokligi, balki koʻngil, koʻz, til pokligi nazarda tutilgan.

Navoiy talqinidagi komil inson faqat oʻzining dardu hasrati bilan yashaydigan inson emas, balki oʻz manfaatlaridan xalq manfaatlarini ustun qoʻyuvchi, xalq dardi bilan yashovchi kishidir deydi:

Birovkim zor yig‘lar, yig‘lab ul zor,
Topib ko‘ngli el ozoridan ozor.
Bo‘lub el anduhidin ko‘ngli g‘amnok,
Yaqo choking ko‘rib, ko‘ksin qilib chok.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ham ko‘rsatib o‘tadi. Mutaakkirning fikricha, ilmni inson kamoloti uchun eng zarur fazilatlaridan biri deb biladi. Navoiy ilmni insonni, xalqni jaholatdan qutqaruvchi omil sifatida ta’riflaydi. Chunki ilm egallashdan maqsad ham vatanining ravnaqi, xalqining baxt-saodati uchun xizmat qilishdan iboratdir deya ta’kidlaydi. Alisher Navoiy orzu qilgan komil inson ham faqat ilmli bo‘lish bilan qanoatlanib qolmaydi. “Odob Navoiy tasnifida barcha insoniy xislatlarning boshlanishi hisoblanadi. Komil insonga xos xislatlar ana shunga bog‘liq ravishda ta’rif beradi. zero, haqiqiy insonga xos xislatlar: qanoat, sabr, tavoze, himmat, muruvvat, hilm xuddi shu odobli kishida tarkib topadi”³⁹.

Kelajak avlodni sog‘lom, ma’nan yetuk, pok, bilimli, har tomonlama mukammal bo‘lib shakllansagina ma’lum maqsadlarga erishish aniq. Bu borada Navoiy:

Qilmoq erur biri muallim talab
Qilg‘ali ta’lim anga ilmu adab,-deydi.

Alisher Navoiy o‘zining axloqiy-ta’limiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini, boy hayotiy tajribalarini umumlashtirish, ularga yakun yasash asosida yaratgan “Mahbub-ul qulub” asarida axloq-odob, fan va madaniyatning rivijlanishi, xalqning osoyishtaligi va saodati masalalariga doir o‘z aqidalarini, mulohazalarini bayon qiladi, xalq maqollari negizida o‘z hayotiy tajribalarining umumlashmasi sifatida juda ko‘p maqol va hikmatli so‘zlar yaratadi⁴⁰. Masalan: “Agar shunqordek boshingda zardo‘zlik tumog‘adin toj emasdir, shukr qilkim, ko‘zing yorug‘ dunyoni ko‘rarga muhtoj emasdur”, qanoat haqida: “Qone’ tilanmas farzona, qanoat tuganmas xazina” ya’ni, “Qanoatli oqildir, qanoat esa tuganmas xazina, odamgarchilik haqida: “Elga qo‘shilg‘on oroyish topti, eldan uzulg‘on osoyish topmas”, do‘st-dushmanlik haqida: “Xasm necha faqir bo‘lsa, ko‘ngil qo‘zgatar va xas necha ushoq bo‘lsa, ko‘z bulg‘atur”, ya’ni “Dushman har qancha kuchsiz bo‘lsa ham ko‘nglini notinch qiladi, xas qanchalik kichik bo‘lsa ham ko‘zni azob beradi”, yaxshilik va yomonlik haqida: “Yomondir yaxshilig‘ ko‘z tutmoq fosid xayoldur, itdin kiyikka va mushukdin kabutarga shafqat maholdur”, “Suvning mazasi muz bila, oshning mazasi tuz bila, odam yaxshilig‘i so‘z bila”, “Yaxshidin yomonlar ham yomonlig‘ ko‘z tutmas, yaxshi yomonlarga ham yaxshilig‘in unutmas”, “Yaxshiliqdin yomonlig‘ni yaxshiroq bilmasang, yaxshilarga qo‘shil, yaxshilig‘ tegrasig‘a evrila olmasang, yaxshilar tegrasig‘a evril”, so‘zlash madaniyati haqida: “So‘zni ko‘nglungda pishqormaguncha tilga keltirma, harnakim ko‘nglungda bo‘lsa tilg‘a surma”, “Befoyda so‘zni ko‘p aytma va foydalig‘ so‘zni eshiturdim qaytma”, ahillik haqida: “... pista qobig‘i kema bo‘lolmas”, vafo

³⁹ Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. –T.: “Istiqlol”, 2003, 197-b.

⁴⁰ Muxtorov A., Sanaqulov U. O‘zbek adabiy tili tarixi. – T.: 1995, 133-b.

haqida:”Vafosizda hay obo‘lmas, hayosida vafo yo‘q”, rost so‘zlash haqida:”Chin so‘zni yolg‘onga cho‘lg‘ama, chin ayta olur tilni yolg‘ong‘a bulg‘ama” kabi.

“Mahbub-ul qulub” asarida keltirilgan hikmatlar oradan necha asrlar o‘tgan bo‘lishiga qaramay, bugungi kunda ham o‘z ma‘nosini, qiymatini yo‘qotgani yo‘q. quyidagi misollarga e‘tibor qaratsak: “Yomon bila yaxshi orasida ko‘p farqdir, ikki kemandi uchin tutg‘on g‘arqdur”, “O‘zingni zebo libos xayolidan o‘tkar, libos zeboligini tilasang bir yalangni bitkar”, “To‘qlig‘ hirsini ko‘nguldin yo‘q qil, o‘zing och bo‘lib, bir ochni to‘q qil”, “Odam bila shayton muxolifatin unutm, ota dushmanini o‘zingga do‘st tutma” kabi hikmatlar necha asrlardan buyon o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Alisher Navoiydan qolgan buyuk badiiy meros bir necha asrlar davomida O‘rta Osiyo va Yaqin Sharq xalqlarining adabiyoti va fikriy taraqqiyotiga mislsiz ta‘sir ko‘rsatib keldi. O‘zbek adabiy tili va adabiyoti so‘nggi besh asr ichida Navoiy merosi asosida taraqqiy etdi, uning ilg‘or an‘analarini davom ettirdi. Hazrat Alisher Navoiyning nazmiy va nasriy asarlari so‘z boyligi bilan ham, uslubi bilan ham ulkan bir xazina hisoblanib, ularning lisoniy-uslubiy xususiyatlarini o‘rganish hamon dolzarb vazifalaridan bo‘lib kelmoqda.

Navoiy asarlari odamiylik ilmining eng sara namunalaridir. Bugungi kunda Navoiyning adabiy merosini yosh avlod ongu-shuuriga singdirishda buyuk so‘z san‘atkorini ijodini o‘rganish, talqin va tahlil qilish Navoiyni yanada anglashga yordam beradi.

Asrlar osha yangi ma‘no qirralarining kashf etilishi bilan Sharq mumtoz adabiyoti, jumladan ulug‘ so‘z san‘atkori Alisher Navoiy ijodi manguylikka daxldorlik qilmoqda. U yaratgan bebaho asarlar davrlar o‘tishi bilan yangicha talqinlarga asos bo‘la olishi bu ijodiy merosga qayta-qayta murojaat qilishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. –T.: “Istiqlol”, 2003, 197-b.
2. Muxtorov A., Sanaqulov U. O‘zbek adabiy tili tarixi. – T,: 1995, 133-b.
3. Hazrat Navoiyga ehtirom. –Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. 6-b.

MA’NAVIYATGA YO‘G‘RILGAN IJOD

Maxfuza Olimovna YULIYEVA
Navoiy innovatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Navoiy ijodida ma‘naviyat tematikasi, inson qadri va qadriyarni shoir ijodidan misollarda ifoda etilgan.

Kalit so‘zlar: tarix, ma‘naviyat, qadriyat, inson, odob, saboq.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning rang-barang ijodi barcha davrlar uchun ham ma‘naviyat o‘chog‘i, so‘z qudrati va uning bag‘oyat go‘zal ifodasi esa ma‘naviyatning tuganmas bulog‘i deb bilishimiz bejizga emas. Buyuk Navoiy

merosini o'rganish har bir insonni ilhomlantirib, tafakkurini yuksaltiradi, shuuriga yorqinlik kiritadi. Shuning uchun bu ma'naviyat bulog'iga doim tashnalik seziladi.

Navoiy va uning asarlariga bo'lgan havas, o'qish-o'rganishga bo'lgan intilish uzoq tarixga ega. Bu tarix ulug' shoir va mutafakkirning hayotligidanoq boshlangan va shu kunlargacha davom etib kelmoqda.

Mamlakatimiz rahbari Sh. M.Mirziyoyev 2025-yilni Navoiy yili deb e'lon qildilar. Bu ham Navoiyga bo'lgan ehtirom, hurmatdan dalolatdir. Navoiy asarlarida e'tirof etilgan ma'naviyat, qadriyat, inson omili... hozirgi kunda ham o'z mohiyatini yo'qotmagan. Navoiyning beqiyos ijodi umumbashariyat ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi.

Mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganish, tadqiq etish to'xtagani yo'q. chunki Navoiy ijodini buyuk ummonga o'xshatish mumkin. Bu ummonning javohirlari hali beri tugamaydi.

Navoiyning ulug'ligi – inson taqdiridagi eng kichik voqea ham katta ibrat, hikmat sabog'i deya qaraganligidir. Shoirning “Xazoyinul maoniy” (“Ma'nolar xazinasini”) asarida chiroyli hikmat mavjud:

Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a...⁴¹

Bu misralarda insonda ota-onadan doim qarzdorlik va minnatdorlik hissi tark etmasligi kerak. Bu ham komillikning ilk ko'rinishi hisoblanadi. Yoki:

Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado aning haqqin yuz ganj ila⁴².

Bu o'rinda esa ustoz-muallimning inson shakllanishidagi muhim rolini ifoda etadi. Muallimning inson tafakkurining rivojida, dunyoni bilishida jonkuyarlik qilishiga e'tiborsiz bo'lmaslikka chaqiradi. Ota –ona darajasida ko'rish, o'gitiga amal qilishga undaydi.

Shoirilar sultoni Alisher Navoiy asarlarida ma'naviyatning insoniy negizini tashkil qiladigan tushunchalar keng talqin va tahlil qilinadi. Mehr-oqibat, mehr-muruvvat, mehr-muhabbat, halollik, poklik, adolat, insof, vatanparvarlik singari ezgu fazilatlardan yuksak ma'naviyat paydo bo'lishiga urg'u beriladi. Shu o'rinda shoirning :

Mo'min ermastur ulki imondin,
Ro'zg'orida yuz safo ko'rgay.
Toki qardoshiga ravo ko'rmas-
Har nakim o'ziga ravo ko'rgay⁴³

Alisher Navoiyning ulug' nomi, ijodiy merosining boyligi, badiiyati zamon, makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so'z yuritamiz. Shu o'rinda Inson tafakkurining buyuk qudratga ega ekanligi xususida Alisher Navoiyning ushbu satrlarini keltirish mumkin:

Dedi: har ishki qilmish odamizod,
Tafakkur birla bilmish odamizod.

⁴¹ Alisher Navoiy. Hikmatlar.. –T: Sharq, 2006, 28-b.

⁴² Hazrat Navoiyga ehtirom. –Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. 6-b.

⁴³ Alisher Navoiy. Ibratli hikoyatlar va xislatli hikmatlar. – Toshkent: “Sano-stadart” nashriyoti, 2016. 5-b.

Ha, koinot ichra jumboq juda ko`p, lekin ularning eng jumbog`i – insondir. Alisher Navoiy “Hatrat ul-abror”da “Odamiylar odamiysi” qit’alarida “insoni komil” jumlasini tilga oladi. Shoir talqinida, bu nomga sazovor bo`lishning sharti bitta. U ham bo`lsa, xalqqa naf keltirish, odamlarga yaxshilik qilish. Shoir nazdida komil insonlik talabi juda baland, hammaga ham nasib etavermaydigan mashaqqatli cho`qqi. Ammo, har bir insonni ana shu ulug`vor maqsadga chorlash, yaxshilik sari targ`ib etish Alisher Navoiy asarlarining bosh g`oyasi hisoblanadi:

Yaxshilik gar qilmasa, dorilomonlik qilmasa,

Kim yomonlik qilmasa, qilg`onda border yaxshilik.

Alisher Navoiy komil inson g`oyasini oldinga surar ekan, buni har bir inson o`z-o`zini tergashdan, o`z ustida ishlashdan, o`zligini anglashdan boshlashi lozim degan tamoyilga amal qiladi. Uning lirik qahramoni o`ziga shunday talabchanlik bilan qaratdi. Inson uchun fikr yuritish, mulohaza qilish hayotiy ish. Shu boisdan ham tafakkur insonni butun tirik mavjudod orasida mukarram qildi:

O`z vujudingga tafakkur aylagin,

Har ne istarsen, o`zingdin istagil.

Ulug shoir dilida ardoqlagan ezgu aqidalar, adolat va ijtimoiy farovonlik, insoniy baxt haqidagi orzular, san’atkor tafakkurining qudrati, bilimi, ruhiy-ma’naviy olami, shalola kabi toshqin tuyg`ulari asarlarida talqin etiladi. Unda qadim Sharqning ko`p asrlik badiiy-estetik tajribalari, adabiy an’analari, hikmat va zakovati aks etgan.

Odami ersang demagil odami,

Oniki yo`q xalq g`amidin g`ami.

O`zbek xalqi jamiyat taraqqiyoti va kishilarning o`zaro aloqa qilishida nutq madaniyatining o`rni, notiqlik san’ati, kishilar oldida chiroyli so`zlay bilish muammolariga alohida e’tibor qaratilgan. Alisher Navoiy so`zlashishga oddiy hol deb qaramaydi, chunki so`z va uning mazmunini keng ma’noda tushunish shoir uchun muhim ahamiyatga ega nutqiy jarayondir. Shu bois Alisher Navoiy nutqqa diqqat va e’tibor qaratgan:

Senga berdi haq oncha lutfi mijoz,

Ki, erma usbu so`zlar demak ehtiyoj.

Navoiy uchun asl so`z -ko`ngil o`tidan sachragan so`z. qalb va aql yolqinini aks ettirmagan so`zni shoir ishq va ma’rifat fayzidan mahrum deb biladi. Har bir so`zning ma’no nozikliklari, o`zi anglatayotgan tushunchaning tom ma’nosini ifodalashi bilan ajralib turadi. So`z gavhariga behad sharaf qaratgan. Navoiy ana shu gavharlarni zargarona taroshlab, ularni o`z o`rniga qo`yib ishlata bilgan kishilarga tasanno aytadi va kezi kelganda o`zi ham shunday deydi:

Navoiy so`z ayturda farzona bo`l,

Chu, bu ish boshingga tushdi, mardona bo`l.

Alisher Navoiy so`z tushunchasiga ta’rif berishda guhar (“gavhar+ rez”) so`zidan mohirona foydalangan:

Ma’dani inson guhari so`zdurur,

Gulshani odam samari so`zdurur.

Navoiy soʻzi bilan dillarga gavhar sochuvchi insonlarni guharposh deya ataydi va shuning barobarida yogʻdu beruvchi, nur sochuvchi, chuqur maʼnoli soʻz aytuvchi degan taʼrifi ham beradi.

Darhaqiqat, buyuk soʻz sanʼatkori Alisher Navoiy besh asrki jahon ahlini oʻz asarlari bilan lol qoldirib kelmoqda.

Besh asrkim nazmiy saroyini
Titratadi zanjirband bir sher
Temur tigʻi yetmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher. (A. Oripov)

Alisher Navoiy oʻzining betakror, olamshumul ahamiyatga molik ijod namunalari bilan jahonning yirik sanʼatkorlari qatoridan oʻrin olgan. Ulugʻ allomaning yaratgan buyuk sanʼat asarlari va bunyodkorlik faoliyatida Vatan obodligi, ravnaqi, hamda unda yashovchi xalq manfaatlarini qattiq himoya qilib, uning tafakkurini yuksaltirishdek noyob uygʻunlikka erishuv gavdalanadi.

Navoiy eʼzozlagan umuminsoniy qadriyatlar dunyodagi barcha xalqlarning manfaat va intilishlariga mos kelishi bilan juda qimmatlidir. Aynan ilm-fanni rivojlantirish, qashshoqlikka barham berish, vatan obodligiga erishish, inson qadrini yuksaltirish, yer yuzida tinchlikni saqlash bugun umumbashariy qadriyat boʻlib, uligʻ mutafakkir Alisher Navoiyning bu boradagi xizmatlari cheksiz gʻurur va iftixor ramzi sifatida ulugʻlanib, milliy tiklanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Navoiy asarlarida qoʻllagan har bir soʻz ulugʻ shoirning oʻta nozik tuygʻuning juda taʼsirchan ifodasiga xizmat qilgan. Navoiy oʻz ijodiyoti bilan nafaqat oʻzbek, balki butun Sharq adabiyoti xazinasini oʻzining nodir asarlari bilan boyitdi. Uning gʻazal, ruboiy, qitʼa, fard, muhammas va boshqa janrlardagi asarlari oʻz mavzusi, badiiyati bilan har qanday sheʼrsevarni maftun qiladi.

Ajdodlarning merosi bilan faxrlanish, ularga munosib voris boʻlish oʻzlikni anglashning zarur sharti boʻlib, bu borada Alisher Navoiyning ulkan maʼnaviy merosi, bunyodkorlik gʻoyalari biz avlodlar uchun bitmas- tunganmas xazina boʻlib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. Hikmatlar.. –T: Sharq, 2006, 28-b.
2. Hazrat Navoiyga ehtirom. –Toshkent: Gʻ. Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. 6-b.
3. Salohiy D.I. Tasavvuf va badiiy ijod. –T: “Navroʻz” nashriyoti, 2018, 190-b.
4. Alisher Navoiy. Ibratli hikoyatlar va xislatli hikmatlar. – Toshkent: “Sano-stadart” nashriyoti, 2016. 5-b.
5. Hayitmetov A. Navoiyning ijodiy metodi masalalari. –T: FAN, 1963

NAVOIY NAZMIDA SO‘Z SEHRI

Muhabbat Rustamovna TOSHOVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti
Axborot resurs markazi mutaxassisi

“O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan e’tiborga molik ishlar, xususan, ilm-fan, ta’lim-tarbiya, madaniyat, san’at va adabiyot sohalarini izchil rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida ilm va ijod ahlini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, kitobxonlik madaniyatini oshirish kabi vazifalar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishidir”.

Sh.Mirziyoyev

Muhtaram Prezidentimiz o‘tgan yili viloyatimizga tashrifi chog‘ida hazrat Alisher Navoiyning bebaho merosini aholi orasida faol targ‘ib qilishga oid muhim vazifalarni belgilab berdilar. Ayniqsa, 2025-yilni viloyatimizda “Alisher Navoiy yili” deb e’lon qilish haqidagi tashabbus buyuk ajdodimizning nomini ulug‘lash yo‘lidagi yana bir ezgu qadam bo‘ldi.

Yoshlarimizga hazrat Navoiy ijodini chuqur o‘rgatishni tizimli yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun Alisher Navoiy asarlarining bugungi yoshlar tushunadigan ixcham namunalarini yaratib, turli mobil ilova va elektron dasturlar ishlab chiqish kerak, - deb ta’kidladi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev.

Alisher Navoiy asarlari inson tafakkur dunyosiga necha asrlardan buyon saqlanib, har bir avlod ongi shuurini yashnatib kelayotgan durdona fikrlardan iboratdir. Inson so‘z sehri orqali bir-birini tushunadi. Millatni millat qilishda ham so‘z qudrati beqiyosdir.

Alisher Navoiy she’rni, shoirlikni hamma narsadan baland tutdi. Vazirlik martabasida turib ham she’r yozishni to‘xtatmadi. Atrofida uning bu ishiga rag‘bat va hurmat bilan qaradilar. Shoh Husayn Bayqaroning o‘zi unga rahnamolik qildi. Ulug‘ shoirning ilk she’riy devonini muxlislari tuzgan bo‘lsalar, birinchi devoni -"Badoe ul-bidoya" ("Badiiylik ibtidosi")ni 1472-1476 yillarda shohning amri va istagiga ko‘ra o‘zi kitob qilgan.

Alisher Navoiy 1481-1482-yillarda "Vaqfiya" asarini yozadi. Vaqf so‘zi biror xayrli ishning sarfu xarajatini ta’min qilmoq uchun ajratilgan yer yoki mulkka aytiladi. Alisher Navoiyning eng katta orzusi doston yozish bo‘lgan, birinchi navbatda, XII asrning buyuk shoiri Nizomiy Ganjaviy (1141-1209) dan keyin shoirlik qudratining mezoniga aylanib qolgan "Xamsa" yaratish edi. Navoiyning "Panj ganj" nomi bilan tarixga kirgan "Xamsa"si 5 masnaviydan tashkil topgan edi: "Maxzan ul - asror" ("Sirlar xazinasini"), "Xusrav va Shirin", "Layli va Majnun", "Hayf paykar"("Etti go‘zal"), "Iskandarnoma". Navoiy besh dostonni ikki yilda tamomlaydi. 1483-yilda o‘z "Xamsa"sini yoza boshlab, 1485-yilning boshida tugatadi. Shoir ishlagan kunlar hisobga olinsa, 54 ming misralik ulkan obida 6 oyda bitkaziladi. Turkiy tilda birinchi marotaba "Xamsa" yaratiladi.

Navoiyning epik asarlari deyilganda birinchi navbatta ko‘z oldimizga “Xamsa” keladi. Xamsa-beshlik demakdir. Binobarin, u besh mustaqil dostonidan tashkil topgan va har bir doston ma’lum bir mavzu voqeani keng va atroflicha masnaviy yo‘li bilan yoritib berilgan.

“Saddi Iskandariy” G‘arb-u Sharqdagi eng mashhur siymolardan Jahongir Iskandarga bag‘ishlangan bo‘lib, “Xamsa”ning yakunlovchi dostonidir. Iskandar tarixiy shaxs bo‘lib, Aleksandr Makedonskiy (356-323)ning sharqcha nomidir. Navoiy Iskandar haqidagi kitoblarda uning odamxo‘r yajuj-ma’jujlardan saqlanish uchun ulkan bir devor qurdirgani aytiladi. Bu devorni tarixan qay darajada aniq va to‘g‘riligi haqida bir narsa deyish qiyin. Lekin uning katta rasmiy ma’nosi bor. U ezgulik va yorug‘lik o‘rtasidagi devor. Bu devorni barcha xalqlar birgalashib quradilar. Navoiy shu tariqa Iskandarning Jahongirligiga emas, balki insonparvarligiga diqqatni qaratadi.

“Saddi Iskandariy” Navoiy “Xamsa”sidagi eng yirik dostonidir. U 89-bob, 7215 baytdan tashkil topgan. Asar voqealari Iskandarning tug‘ilishidan boshlanadi. Iskandarning nasl-nasabi borasida antik zamonlardan buyon olimlar turlicha fikrlar bildiradi. Ba’zilar uni Eron shohi Doro II ning o‘g‘li deb ko‘rsatadilar, ba’zilar esa Misr fir‘afvinlarga olib borib bog‘laydi.

So‘zning sof mayini ichishga niyat qilgan odam uchun so‘zning ta’rif-tavsifini qilish ham farz, ham qarzdir. So‘zning tavsifini qilishdan murod esa, uning to‘la ma’noda qanday mavqe va kamolga egaligini ta’riflash demakdurkim, buni vasf aylab adosiga yetkazish mumkin emasdur” - deb bayon etadi. Alisher Navoiy o‘zining “Saddi Iskandariy” asarida, - “Men so‘zni” “jonning gavhari” dedim. Endi jonim bilan bu da’voyimning isbotini qilib berayin: Agar kishi jasadida jon bo‘lmasa, uning o‘zi ham yo‘q bo‘lganidek, jon uchun ham o‘lik tananing hojati yo‘qdir. Axir inson zoti tildan qolgan onda jonidan umid uziladi va ko‘p o‘tmay o‘ladi ham. Men hali so‘zni “obi hayot” dedim. Endi quloq solsangiz bu davoyimni ham isbotlab beraman. Hayot suvi (obi hayot) o‘likni turgizadigan bo‘lsa, odam bolasi bo‘lmish Iso payg‘ambar ham o‘z nafasi (so‘zi) bilan shunday fazilatga ega bo‘lgan-ku. Qaysi odamning so‘zi birovning ruhini ko‘tarib, unga jon bag‘ishlar ekan, bunday zotga obi hayot ham o‘z jonini fido qiladi. Agar so‘z o‘likni tiriltirar ekan lekin shu so‘z tirikni halokatga ham olib boradi” – deydi.

Asarning VII bobida shunday bitiklar keltiriladi:

“So‘z durlaridan tuzilgan nazmda va kalima gavharlaridan tartib topgan she’riyatda shohona so‘z san’atkorlari bo‘lmish Nizomiy bilan Xusrav Dehlaviylarning qoyil-maqom izdoshlari, ya’ni ulug‘ hazrat mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy haqlaridakim, Alloh u ulug‘ martabali, muhtaram zoti bobarakotning umrlarini uzun va abadiy qilg‘ay!”

Shoir o‘z qalamini bayroqqa dasta qilganicha so‘z mamlakatini qo‘lga kiritdi. U nayza o‘rniga qalam tutdi, so‘z iqlimini boshdan-oyoq o‘z mulkiga aylantirdi. Uning qalami jahdu-jadallik bilan so‘z o‘rniga o‘t sohib borar ma’nodor nuqtalarining barchasi esa otashnafas edi. O‘sha o‘tgan nazm-she’r shamini tutib, ma’nolar zulmatini yoritish mumkin edi. Uning ongidan ma’nolar

suvi oqib kelar, u suvlar tiriklik chashmasidan qaynab chiqar edi. Mazkur chashma obi hayot berish bilan soʻz sanʼatining oʻlgan tanasini tiriltirar edi.

U “jom” va “may” deb taʼriflayotganim jondek hayotbaxsh nazm boʻlib, eru koʻk elini mast-mustagʻraq aylamishdir. U nazm – sheʼriyat emas, balki jahonga ofat soladigan goʻzal, yoʻq jahonga emas, jonga ofat soladigan darajada goʻzal edi.

Navoiy “Muhokamat ul-lugʻatayn” asarida turkiy tilning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotdagi oʻrni, uning grammatik mukammalligi, soʻzlarga boyligi, forsiy til qoidolari va hodisalariga qiyoslangan holda chuqur va aniq misollar orqali tahlil etilgan.

Boshni fido ayla ato qoshigʻa,
Jismini qil sadqa ano boshigʻa.
Tun - kununga aylagani nurposh,
Birisin oy ayla, birisin quyosh.

Asarning XIV bobida: Qushlarning bir erda toʻplanishi va oʻrin talashib bir-birlari bilan nizo qilishlari hamda bir shohga muhtoj boʻlishlari shunday yozilgan:

Bir kuni jam boʻldi boʻston qushlari,
Dengiz-u dasht bilan oʻrmon qushlari.

Parrandalar bari hozir-u nozir,
Barchasi bir joyda boʻldilar hozir. ...

Barchasi qushlar qiy-chuv koʻtarib, Hudhud atrofuda gʻavgʻo boshladilar: - Ey bafasi jonbaxsh-u nutqi dilkash! Ularning har ikkisi ham jonu-u koʻngil malhami. Sen Sulaymon bazmiga musharraf boʻlgansan va u seni elchi qilib yuborgan. Uning yaqin xizmatkori boʻlib, qanchadan – qancha oʻlkalarni kezib chiqqansan. Uning amri bilan qanchadan-qancha vodiylardan uchib oʻtib, oliy manzillarga etishtirgansan. Muhammad Mustafo (s.a.v.) ga hamkorlik qilgan Jabroil yangligʻ sen ham Sulaymon qayerga borsa, oʻsha yerda hozir boʻlding. Yaxshi-yomon paytlarda uning hamdami boʻlib, aysh-u ishrat chogʻlarda hamrozklik qilgansan – deb yozadi muallif.

Bugungi kunda Alisher Navoiy asarlari matnini yoki mumtoz adabiyotimiz namunalarini turli talqinlarda oʻrganish borasida jiddiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu maʼnoda “Lison-ut-tayr” asarida nasriy va nazmiy tabdillari navoiyshunoslikning yana bir qirralaridan biridir.

Bir qalandar juda nashavand edi,
Kayf-u safo bilan shod-xursand edi.

Nainki darveshday bir banda edi,
Iymonidan judo sharmanda edi.

Hushidan ayrilib uchardi goʻyo,
Hatto samoni ham quchardi goʻyo. ...

Karaxtlikdan dong qotgan bir qalandar bo‘lar edi. U erta-yu kech bang iste‘mol qilardi. Ko‘rinishidan bu olamdan etak silkigan darvishlarga o‘xshar, ammo butun sir-asrori yonidagi bang idishi – jug‘adoniga yashiringan edi. Bangdan mast bo‘lgan damlarda o‘zini qo‘yarga joy topa olmay, har doim aysh qilmoq haqida turli xayollar surardi. Kunlardan bir kuni u bir vayronaga kirib, bangdan, odatdagidan ko‘proq tortdi. Buzuq devorga suyanganicha sirlar olamida sayr qila boshladi. O‘zini xayolan go‘zal Gulshan ichra shod holda ko‘rdi. Atrofida aysh-u Ishrat ashyolari muhayyo edi, go‘ya yotgan maskani qasr bo‘lib, bu qasr binosi mashhur masavvir Moniy suratxonasidek bezatilgan emish.

Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari ham sodda va xalqchil tilda bayon qilingan nasriy bayonlari bo‘lib, ulug‘ mutafakkirning insoniyat qalbiga cheksiz mehru muhabbat yo‘g‘rilgan “Qalblar mahbubi”ni anglashiga ko‘mak beradi.

“Mahbub ul-qulub”ning birinchi qismi kishilarning ahvoli, fe‘l-atvori va gap-so‘zlarining ahamiyati haqida bo‘lib, qirq fasldan iboratdir.

“Mahbub ul-qulub”ning ikkinchi qismi asosan axloqiy masalalarga bag‘ishlanadi. O‘n bobdan iborat bu qismlarda yaxshi fazilatlar va yomon xislatlar tahlil qilib beriladi.

Alisher Navoiyning “Lison ut tayr” asari ilk bor yangicha nasriy, ham she‘riy tabdil qilingan. Bu asarda insonning kamolotga erishish yo‘llari yuksak mahurat bilan bayon etilgan, majoziy qahramonlarning sarguzashtlari orqali tasavvufiy g‘oyalar ifodalangan.

Alisher Navoiy ijodkor sifatida o‘z zamonasining “Jafoyu do‘nlik”larga to‘la ekanligini ko‘ra oldi, hamisha keng mehnatkashlar tomonida bo‘lib, xalq boshiga tushgan jabru sitamlar chekdi. U o‘zining g‘azallarining birida g‘oyatda yonib yozgan edi:

Yuz jafo qilsa manga, bir qatla faryod aylamon,
Elga qilsa bir jafo, yuz qatla faryod aylaram.

Ana shu xalqqa zulm o‘tkazuvchi shohu vazir, mansabdoru nufuzli shaxslarni Navoiy bu asarida shunday ta‘rifladiki, natijada tiniqlashtirilgan ayrim o‘sha davr hukmdorlarining o‘ta salbiy obrazi davr illatlari fonida gavdalanadi.

Alisher Navoiy so‘z san‘atkorlarini shundayin shoirlik da‘vosi yoki dong taratish uchun emas, balki “bag‘oyat arjumand, benihoyat sharif va dilpisand” she‘riyatini yaratish yo‘idagi ijod bilan shug‘ullanishga undaydi.

Alisher Navoiyning har bir misra she‘rlari barchamizning qalbimizga hamroh bo‘lsin!

ADABIYOTLAR:

1. Alisher, Navoiy Xamsa: Saddi Iskandariy. Nasriy tabdil/Alisher Navoiy; I.Maxsumov nusxasi asosida to‘plab, nashrga tayyorlovchi M.Abdulxayr.– Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.–452 b.

2. Alisher, Navoiy Mahbub ul-qulub/Alisher Navoiy; qisqartirib nasriy tabdil qiluvchi I.Maxsumov; ma'sul muharrir S.G'aniyeva. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2022.–320 b.
- 3.Alisher, Navoiy Lison ut tayr: nasriy tabdil/Alisher Navoiy. So'zboshi, tabdil va izohlar muallifi Manzar Abdulxayr va Abduhamid Pardayev. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023.–512 b.
- 4.https://uz.wikipedia.org/wiki/Alisher_Navoiy
- 5.<https://president.uz/oz/lists/view/4042>
- 6.<https://www.standart.uz/news/view?id=1627>

MUNDARIJA:

So‘zboshi	4
Jurabek Yorqulovich Mavlonov	5
Muhiddin Bahriddinovich Kalonov	7
BIRINCHI SHO‘BA: ALISHER NAVOIY SHAXSIYATI VA BADIYYATI	
1. M.Muhiddinov ALISHER NAVOIY IJODIDA INSON TALQINI	14
2. N.Jabborov ALISHER NAVOIY IJODIDA TURKIY RUHIYAT IFODASI	22
3. A.Erkinov NAVOIY IJODINING UMUMBASHARIY AHAMIYATI	26
4. U.Qobilov ALISHER NAVOIY IJODI – MUMTOZ ADABIYOT KAMOLOTIDIR	29
5. H.Eshonqulov ALISHER NAVOIY HAMD G‘AZALLARINING MUHIM SPETSIFIK XUSUSIYATLARI	34
6. N.Murodova ALISHER NAVOIY ASARLARIDA KOMIL INSON TASVIRI	38
7. К.Кадиров АЛИШЕР НАВОИ - ГЕНИЙ УЗБЕКСКОЙ И МИРОВОЙ ПОЭЗИИ, МЫСЛИТЕЛЬ И ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ДЕЯТЕЛЬ	41
8. V.Cho‘lijeva JALOLIDDIN RUMIY VA ALISHER NAVOIY G‘OYALARIDAGI MUSHTARAKLIK	47
9. Sh.Hojiyeva ALISHER NAVOIY AN‘ANALARI CHO‘LPON TALQINIDA	50
10. Z.Mamadaliyeva ALISHER NAVOIY “XAMSA”SIDAGI OBRAZLAR TALQINI (QUYOSH OBRAZI MISOLIDA)	55
11. Z.Quvonov MUSTAQILLIK DAVRI NAVOIYSHUNOSLIGI: TADQIQ, TALQIN VA SHARH	58
12. N.Sharipova “HAYRATU-L-ABROR” STRUKTURASIDA SUJETDAN TASHQARI KOMPOZITSION JIHATLARNING O‘RNI	63
13. N.Tosheva ALISHER NAVOIY IJODIDA FOLKLORIZM	66
14. N.Kobulova “HAYRATU-L-ABROR” ASARINING KOMIL INSON TARBIYASIDAGI ROLI	69
15. F.Rajabov	71

	ALISHER NAVOIY IJODINING NUROTA SHOIRLARI IJODIDA TUTGAN O'RNI	
16.	R.Payzullayeva ZAMONAVIY O'ZBEK ADABIYOTIDA NAVOIY AN'ANALARI: ADABIY TA'SIR VA O'ZIGA XOSLIK	74
17.	Sh.Ahmadova ALISHER NAVOIY VA HOFIZ XORAZMIY G'AZALLARIDA "VAHDAT UL-VUJUD" NAZARIYASINING AKS ETISHI	78
18.	M.Qahharova FORMATION OF NATIONAL IDENTITY INTEGRATION IN ADOLESCENTS THROUGH THE PERSONALITY OF ALISHER NAVOI	82
19.	A.Aslanov, M.Ikromova "SITTAI ZARURIYA" NING G'OYAVIY – BADIY ASOSLARI VA O'ZIGA XOSLIGI	85
20.	B.Ibragimov NAVOIYNING AXLOQIY BARKAMOLLIK VA MA'NAVIY KAMOLOT HAQIDAGI PEDAGOGIK QARASHLARI	89
21.	M.Рахматова АЛИШЕР НАВОИ – ВЕЛИКОЕ ДОСТОЯНИЕ УЗБЕКСКОГО НАРОДА	92
22.	D.Rahmonova NAVOIY LIRIKASIDA KOMIL INSON TUSHUNCHASI	95
23.	F.Achilov ALISHER NAVOIY VA MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI	97
24.	N.Sharipova ALISHER NAVOIY VA MUNAVVARQORI ABDURASHIDXONOVNING TA'LIM-TARBIYAGA OID QARASHLARI	99
IKKINCHI SHO'BA: NAVOIY IJODI VA TILSHUNOSLIK MASALALARI		
25.	R.Yusubova ISHTIQOQ SAN'ATIDA OSHIQ HOLATI INKISHOFI	101
26.	N.Yarashova DUNYO HUSNIN SO'ZDA YARATDI	103
27.	N.G'ulomova ALISHER NAVOIY MUALLIFLIK KORPUSINING SEMANTIK TEGLARI BAZASINI YARATISH TAMOYILLARI	105
28.	Х.Ахмедова АЛИШЕР НАВОИЙНИНГ ТИЛ ХОСИЯТЛАРИ ВА ОФАТЛАРИ ҲАҚИДАГИ МУЛОҲАЗАЛАРИ	109
29.	M.Ubaydullayeva	116

	ALISHER NAVOIY ASARLARIDA NUTQ MADANIYATIGA OID TERMINLARNING TAHLILI	
30.	Z.Alimova NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDA BELGINI IFODALOVCHI FORSIY LEKSEMALAR HAQIDA	122
31.	N.Sadinova ALISHER NAVOIY MEROSIDA IJTIMOY-SIYOSIY VA AXLOQIY TA’LIM BIRLIGI	126
32.	S.Sotvoldieva BADIY MATN LINGVOPOETIKASI	128
33.	D.Yo’ldosheva O’ZBEK DRAMALARIDA AFFIKSAL, LEKSIK VA LEKSIK-AFFIKSAL PLEONAZMNING QO’LLANILISHI	134
34.	B.Axtamova ALISHER NAVOIY VA SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDAGI AYRIM FRAZEMALARNING SOTSIOPRAGMATIK TAVSIFI	138
35.	M.Sa’dullayeva ALISHER NAVOIY IJODIDA UCHRAYDIGAN O’G’UZ SHEVASIGA OID BA’ZI KO’P MA’NOLI SO’ZLARNING TAHLILI	141
36.	M.Qulmamatova A. NAVOIY ASARLARIDA “BOYLIK VA KAMBAG’ALLIK” KONSEPTLARINI IFODALOVCHI AFORIZMLAR	144
37.	F.Sharipova ALISHER NAVOIYNING “LISON UT-TAYR” ASARIDA MAKROSINTAGMATIK MUNOSABAT TAHLILI	146
38.	D.Zaynutdinova ALISHER NAVOIY ASARLARIDA BOLALAR FOLKLORIGA OID OBRAZLAR VA RAMZLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI	149
39.	E. Qilicheva ALISHER NAVOIY IJODIDA FIZIKA SOHASIGA XOS TERMINLAR QO’LLANILISHI	150
UCHINCHI SHO’BA: NAVOIY IJODI SHARQ VA G’ARB SHARQSHUNOSLIGI NIGOHIDA		
40.	A.Рахманова СМЫСЛОВОЕ МНОГООБРАЗИЕ ГАЗЕЛИ АЛИШЕРА НАВОИ	153
41.	Ф.Мардонова ВОСПИТАНИЕ НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ ЛИЧНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АЛИШЕРА НАВОИ	156
42.	З.Рузиева РОЛЬ ТВОРЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ АЛИШЕРА НАВОИ В СТАНОВЛЕНИИ ЛИЧНОСТИ	160

43.	N.Eshonkulova ALISHER NAVOI IN EUROPEAN ORIENTALISM: FROM MANUSCRIPTS TO MODERN TRANSLATIONS	162
44.	D.Abdusalomov ALISHER NAVOIY IN THE EYES OF EASTERN AND WESTERN SCHOLARS: A CROSS-CULTURAL INTELLECTUAL LEGACY	166
45.	У.Саъдуллаева АЛИШЕР НАВОИ – ВЕЛИКИЙ И ВЫДАЮЩИЙСЯ ПРЕДСТАВИТЕЛЬ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ	168
46.	M.Normuhammedova PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOIY	170
47.	Z.Mallayeva ANALYSIS OF PRECEDENT UNITS IN THE POEMS AND WORKS OF ALISHER NAVOIY	173
48.	Р.Шодиева ЗНАЧЕНИЕ ТВОРЧЕСТВА А.НАВОИ В РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ	179
49.	F.Aliqulova THE ROLE OF IMPROVING STUDENTS READING COMPREHENSION THROUGH ALISHER NAVOI AND CHARLES DICKENS' LITERARY WORKS	182
50.	M.Aliqulova THE SIGNIFICANCE OF ALISHER NAVOI'S CREATIVITY AND PERSONALITY	184
51.	O.Amanbayeva ANALYZING ALISHER NAVOIY'S WORKS IN A MODERN CONTEXT THROUGH DESIGN THINKING	187
52.	А. Гафурова ВЕЛИКИЙ ПОЭТ И ФИЛОСОФ ВОСТОКА АЛИШЕР НАВОИ	190
TO'RTINCHI SHO'BA: NAVOIY IJODINI TADQIQ QILISH MUAMMOLARI: FALSAFA, TARIX, MADANIYAT VA SAN'AT		
53.	J.Savriyev MILLAT ULUG'LAGAN DAHONING OVOZASI	193
54.	M.Ochilova ALISHER NAVOIY TASAVVUFIY QARASHLARIDA OLAM VA ODAM MASALALARINING ONTOLOGIK TAHLILI. ("SAB'AI SAYYOR" ASARI MISOLIDA)	196
55.	F.Nizomov "XAMSA" DOSTONLARIDA BA'ZI TASAVVUFIY RAQAMLARNING MOHIYATI8	197
56.	N.Jurayeva ALISHER NAVOIYNING TA'LIM RIVOJIDA TUTGAN O'RNI	200

57.	A.Ruzimurodov ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TARIXNING YORITILISHI: YANGICHA YONDASHUVLAR (OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDAGI CHIQISHLAR MISOLIDA)	202
58.	И.Шодиева ЖЕНЩИНЫ В ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОИ: ИДЕИ РАБЕНСТВА И ПРОСВЕЩЕННОСТИ	205
59.	Sh.Iskandarova ARXIV MANBALARIDA ALISHER NAVOIY IJODIGA OID HUJJATLAR TARIXI	207
BESHINCHI SHO‘BA: ALISHER NAVOIY ASARLARINI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV		
60.	M. Hafizova ERKIN VOHIDOV IJODI YUKSALISHIDA MUMTOZ ADABIYOTNING AHAMIYATI	210
61.	L.Korayeva TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA ALISHER NAVOIY ASARLARINING AHAMIYATI	213
62.	M.Sanoyeva YANGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR – TA’LIM SAMARADORLIGI ASOSI	215
63.	N.Ro‘ziyeva ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL-QULUB” ASARIDA TALABALARNING AXLOQIY QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISH HAQIDAGI FIKRLARI	218
64.	D.Zaynutdinova ALISHER NAVOIY IJODINING BOLALAR FOLKLORI BILAN BOG‘LIQLIGI VA TARBIYAVIY AHAMIYATI	221
65.	A.Eshpo‘latova NAVOIY ASARLARINING PEDAGOGIK AHAMIYATI	223
66.	N. Shukurov TURKIY-O‘ZBEK TILINING BALOG‘ATI VA FASOHATIGA BAG‘ISHLANGAN ASAR SHARHI	226
67.	A.Davlatova ALISHER NAVOIY IJODIDA “BOLA” KONSEPTI	228
68.	M. Sattorova NAVOIY IJODINING BADIY IJOD TARAQQIYOTIDA TUTGAN O‘RNI	231
69.	B. Tuxtayeva TAHSINGA LOYIQ IBRATOMUZ IJOD	234
70.	M. Yuliyeva MA’NAVIYATGA YO‘G‘RILGAN IJOD	236

71.	M. Toshova NAVOIY NAZMIDA SO‘Z SEHRI	240
------------	--	------------